O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor,
_________ R.Mullajonov.
«___» __________ 2023-yil.

# "ADABIYOTSHUNOSLIK ASOSLARI"

# FANI BO'YICHA O'QUV-USLUBIY MAJMUA

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **100 000 - Gumanitar soha** |
| **Ta'lim sohasi:** | **120 000 - Gumanitar fanlar** |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | **5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish** |

**ANDIJON - 2023**

Fanning  o‘quv uslubiy majmuasi O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 20___ yil  ____-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “____________________________________” namunaviy fan dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi: Sh.Aliyeva - Filologiya bo'yicha falsafa doktori (PHD) “O`zbek  tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti.

Taqrizchi: M.Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor

ADU Filologiya fakulteti dekani: dotsent  B. Rahmonov
2023- yil, “_______     ”

“O’zbek adabiyoti”
kafedrasi mudiri: Professor  M.Tojiboyeva

**M U N D A R I J A**


| | |
|---|---|
| 1. O‘quv materiallari. | |
| 2. Ma'ruzalar. | |
| 3. Amaliy mashg‘ulotlar. | |
| 4. Seminar mashg‘ulotlar. | |
| 5. Mustaqil ta'lim mashg‘ulotlari. | |
| 6. Kurs ishlari mavzulari | |
| 7. Glossariy | |
| 8. Ilovalar: | |
| - fan dasturi; | |
| - tarqatma materiallar | |
| - testlar | |
| - baholash mezonlari | |
| - majmuaning elektron varianti | |


**Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2000.
2. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. И. Каримов. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка аэътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (“Халқ сўзи”, газетаси, 2017йил, 8февраль)
4. Ш. Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017
5. Ш. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.– Т.: Ўзбекистон, 2017.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора тадбирлари” тўғрисида қарори (“Халқ сўзи”, газетаси, 2017 йил, 12 апрель).
9. Abdulla Sher. Estetika. – T.: O‘zbekiston, 2014.
10. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi. 2004.
11. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – T.: Mumtoz so‘z, 2013.
12. Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: Zarqalam, 2006.
13. Jo‘raqulovU. Nazariy poetika masalalari. – T.: G‘.G‘ulom, 2015.
14. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. – T.: Akademnashr. 2014.
15. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘.G‘ulom, 2016.
16. Normatov U. Ijod sehri. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
17. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
18. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
19. Sharq mumtoz poetikasi (H.Boltaboev talqinida). – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
20. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T.: Fan, 2008.
21. “O‘zbek adabiy tanqidi”. Antologiya. – T.: Turon-Iqbol, 2011.
22. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.
23. Adabiyotshunoslik nazariyasi. O‘UM, O‘zMU, 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.

**Elektron manbalar:**

1. http://www.literature.uz
2. http://www.ziyonet.uz
3. http://www.natlib.uz
4. http://www.ziyouz.com
5. http://www.turonlib.uz

## MODULNI O‘QITIShDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

**“SWOT-tahlil” metodi.**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.




**“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

**“Keys-stadi” metodi**

**“Keys-stadi”** - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “study” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqyea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“FSMU” metodi**

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:




- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma'ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Venn Diagrammasi metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, Rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

## MA'RUZA MATERIALLARI

***1-ilova (1.1)***

«Adabiyot nazariyasi» o‘quv predmeti bo‘yicha tuzilmaviy-mantiqiy sxema

***2-ilova (1.1)***

**«Adabiyot nazariyasi » kursi bo‘yicha baholash mezonlari:**

| | |
|---|---|
| **40 ball – joriy baho *** | **86-100 ball – «a'lo»** |
| **30 ball – oraliq baho** | **71-85 ball – «yaxshi»** |
| **30 ball – yakuniy baho** | **55-70 ball – «qoniqarli»** |

*** har bir ma'ruza mashg‘uloti bo‘yicha 0,5 ballgacha oladi. Har bir seminar va amaliy mashg‘ulot bo‘yicha 0,5 dan 1 ballgacha oladi. Reyting bo‘yicha natijalar bahosi: 1,0 ball - «a'lo»; 0,8 ball – «yaxshi»; 0,6 ball – «qoniqarli»; 0,4 ball – «qoniqarsiz».**

*3-ilova (1.1)*

**Aqliy hujum qoidalari:**

- Har qanday o‘zaro baholash va tanqid qilish!
- Taklif etilayotgan g‘oyalarni, ular ajoyib va ehtimoldan uzoq bo‘lsa ham, baholashga shoshilma – hamma narsa bo‘lishi mumkin.
- Tanqid qilmaslik – hamma aytilganlar teng bahoga ega.
- Gapirayotgan kishining so‘zini bo‘lma!
- Tanbeh berma!
- Maqsad miqdor hisoblanadi!
- Qancha ko‘p g‘oya aytilsa, shuncha yaxshi: yangi va qimmatli g‘oyalar paydo bo‘lish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.
- G‘oyalar takrorlanadigan bo‘lsa, hafa bo‘lma va achchiqlanma.
- Tasavvurlarning «avj olishi»ga ruxsat ber

Senda vujudga keladigan g‘oyalar qabul qilingan sxemalarga mos kelmaydigan bo‘lib ko‘rinsa ham, ularni e'tibordan chetda qoldirma

## Ma'ruza 1. Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida

**Reja:**

1. Adabiyot nazariyasi kursining maqsad va vazifalalari.
2. Adabiyotshunoslinig tarkibiy qismlari

3. “Adabiyot nazariyasi”ning maqsadi va vazifalari.
4. “Adabiyot nazariyasi” strukturasi va bo‘limlari haqida.
5. Kursning manbalari.

**Kalit so‘zlar:** filologiya, adabiyotshunoslikning predmeti, adabiyot, adabiyot nazariyasi, san’at turlari, so‘z san’ati, adabiy turlar

An’anaga ko’ra filologiya fakultetlariining yakunlovchi bosqichida adabiyot nazariyasi kursi o’rganiladi. Talabalar birinchi kursda "Adabiyotshunoslikka kirish" kursini o’rganib, unda adabiyotshunoslik fanining ilk asoslari bilan tanishadilar. Bir qarashda "Adabiyot nazariyasi" kursi "Adabiyotshunoslikka kirish" kursining takroridek ko’rinishi mumkin. Biroq har ikki kurs ko’zlagan maqsad turlicha. Ilgari aytganimizdek, birinchi kursda talabalarning nazariy bilimlarini sistema holiga keltirish va shu asosda adabiyot tarixidan ma’ruzalar tinglashga tayyorlash maqsad qilingan edi. Yakunlovchi bosqich talabalari adabiyot tarixi bilan tanishgan, ko’plab badiiy, ilmiy va adabiy-tanqidiy asarlarni o’rgangan. Endilikda adabiyot tarixi kursidan olingan bilimlarni sistemalashtirish, talabalar o’rgangan badiiy asarlarga tayangan holda nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va sistemalashtirish maqsadi ko’zlanadi. Adabiyot nazariyasi kursida endi biz katta material asosida nazariy fikrlash imkoniga ega bo’lamizki, bu narsa bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan nazariy muammolarni keng ko’lamda va atroflicha chuqur o’rganish imkonini beradi.

To’rt yil davomida adabiyot tarixini o’rganish, badiiy asarlarni o’qish va mashg’ulotlarda tahlil qilish asnosida siz adabiyotshunoslikning ham boshqa fanlar singari jiddiy fan ekanligini, uning oldida turgan muammolarni, ularni hal qilish yo’llarini yetarli darajada tasavvur qilish imkoniga ega bo’ldingiz. Endilikda badiiy adabiyot, badiiy asar kabi tushunchalarning ancha murakkab hodisa ekanligini, konkret badiiy asarni tahlil qilish, uning badiiy qimmatini belgilash fanning boshqa sohalardagi izlanishlardan oson ko’chmasligini anglab yetdingiz. Siz endi filolog-mutaxassis sifatida faoliyat boshlaysiz, mustaqil ravishda asarlarni tahlil qilish, ularning badiiy-estetik qimmatini belgilash, adabiy jarayon muammolarini o’rganish va tushuntirish zarurati oldingizda ko’ndalang bo’ladi. Adabiyot nazariyasi sizni badiiy adabiyotning mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, badiiy asarning tashkillanishi, badiiy ijod tabiati kabi muhim masalalarni o’rganish uchun zarur tushunchalar tizimi bilan qurollantiradi.

Har qanday fan o’zining o’rganish ob’ekti va o’sha ob’ektni o’rganish usullari(metod)ga ega bo’lsagina fan hisoblanishi mumkin bo’ladi. Mavjud filologik fanlarning asosiylari, ma’lumki, ikkita: adabiyotshunoslik va tilshunoslik. Garchi bu ikki fan "filolgiya" (philo - sevaman, logos - so’z) degan umumiy nom bilan atalsa-da, mohiyatan ular boshqa-boshqa fanlardir. Ularning mustaqilligi o’rganish ob’ektining turlichaligi bilan belgilanadi.

Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotni, uning mohiyati, kelib chiqishi va ijtimoiy aloqalarini har taraflama o’rganuvchi fandir. So’z vositasida badiiy fikrlashning spetsifikasi (o’ziga xos xususiyatlari) haqidagi, badiiy ijodning

genezisi(negizi, zamini), strukturasi(tuzilishi), tarixiy-adabiy jarayonning lokal (ma'lum joy va davrga oid) va umumiy qoidalari ham adabiyotshunoslikning o'rganish ob'ekti sanaladi. Qisqa qilib aytsak, adabiyotshunoslikning o'rganish ob'ekti so'z san'atidirki, bunda yozma adabiyotgina emas, xalq og'zaki ijodi ham nazarda tutiladi.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi bo'lgan adabiyot nazariyasi oldidagi vazifalarni quyidagilarda deb qarash mumkin:

1. Adabiyot nazariyasi birinchi navbatda badiiy adabiyotning predmetini belgilashi zarur. Buning uchun: adabiyotning boshqa ijtimoiy ong sohalaridan farqi nimada? Uning san'at turi sifatidagi xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi? Badiiy adabiyotning g'oyaviy mohiyatiyu uning bilish imkoniyatlari qanday? Badiiy adabiyotning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, bajarayotgan ijtimoiy funktsiyalarining boshqa san'at turlari bilan umumiy va xususiy jihatlari qanday? - kabi qator-qator masalalarni hal qilish zarur. Bu masalalar bilan adabiyot nazariyasini birinchi bo'limi - badiiy adabiyot spetsifikasi - shug'ullanadi.

2. Tarixiy taraqqiyot jarayonida har bir millat adabiyotida shakl va mazmun o'zgarishlari kuzatiladi. Bu o'zgarishlarning mohiyatiga yetish uchun ham qator ilmiy tushunchalar zarur. Deylik, adabiyotda uchta tur - epos, lirika va dramani ajratamiz. Ularning bir-biridan farqi nimada? Turli-tuman janrlarning yuzaga kelishiyu yo'qolishining sababi nimada? Bu janrlar bir-biridan nimalarga asosan farqlanadi? U yoki bu davr adabiyotida hayotni badiiy qayta yaratishning u yoki bu tamoyili vujudga kelgani, ularning o'ziga xosligi nimada? Turli adabiy yo'nalishlar, oqimlar yuzaga kelgani fakt. Ularning hayotni badiiy aks ettirish printsiplari bilan aloqasi qanday? - kabi ko'plab masalalar ham adabiyot nazariyasining o'rganish sohasiga aloqador. Bu masalalarni hal etish, buning uchun zarur ilmiy tushunchalarni ishlab chiqish adabiyot nazariyasining ikkinchi bo'limi - badiiy adabiyot tarixiy taraqqiyotining o'ziga xosligi haqida ta'limot - zimmasiga tushadi.

3. Badiiy asarni u yaratilgan davr ijtimoiy va adabiy hodisalari kontekstida o'rganish, uning g'oyaviy-badiiy mohiyati va qimmatini aniqlash uchun alohida badiiy asar shakl va mazmunining turli jihatlari hamda uzvlari haqidagi murakkab ilmiy tushunchalar tizimi kerak. Bularni adabiyot nazariyasining uchinchi bo'limi - badiiy asarning ichki tuzilishi haqidagi ta'limot(poetika) - ishlab chiqadi.

Adabiyot nazariyasi fanining manbalari sifatida uch turdagi adabiyotlarni ko'rsatish mumkin:

I. Adabiyot nazariyasiga oid darslik va qo'llanmalar:

I.1. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi.- T.,1980

I.2. Adabiyot nazariyasi.- 2 tomlik.- T.,1978, 1979

I.3. Teoriya literaturo'.- v 3-x tomax, T.1.- M.,1962

I.4. Uellek R., Uorren O. Teoriya literaturo'.- M.:Progress, 1978

I.5. Xalizev V.Ye. Teoriya literaturo'.- M.,2000

I.6. Mineralov Yu. Teoriya xudojestvennoy slovesnosti.- M.,1999

II. Adabiyot nazariyasining konkret masalalariga, adabiy jarayon, konkret ijodkor merosi yoki asar tahliliga bag'ishlangan maqola, risola, dissertatsiya, monografiyalar:

II.1. Adabiy turlar va janrlar (Tarixi va nazariyasiga oid): 3 jildlik.1-jild.- T.:Fan,1991.

II.2. Baxtin M.M. Voproso' literaturo' i estetiki.- M.:Xudojestvennaya literatura,1975.

II.3. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat.- T.:Fan,1982.

II.4. Mirvaliev S. O'zbek romani.- T.: Fan,1977

II.5. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati.- T.:Adabiyot va san'at,1988.- 232 b.

II.6. Rahimov A. O'zbek romani poetikasi (syujet va konflikt): Filol.fanlari d-ri...dis.- T.,1993

III. Adabiyotshunoslikka oid lug'atlar.

III.1. D. Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug'ati.- T.: O'qituvchi, 2013

III.2. Hotamov N.,Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.- T.:Fan,1979

III.3. Kvyatkovskiy A.K. Poeticheskiy slovar.- M.,1964

III.4. Literaturny ensiklopedicheskiy slovar.- M.,1987

Albatta, yuqoridagi adabiyotlar bir misol tariqasidagina ko'rsatildi. Holbuki, adabiyot nazariyasiga oid adabiyotlar adadi juda kattadir. Shuning uchun filolog-mutaxassisdan o'zini qiziqtirgan mavzu bo'yicha adabiyotlar izlab topish, kutubxonalarda samarali ishlash malakasiga ega bo'lishlik talab etiladi.

"Adabiyot" arabcha so'z bo'lib, u "odob" (ko'plik shakli "adab") so'zidan olingan. Odob-axloq esa insonni mukarram etuvchi, uni barcha mavjudotlardan ulug'vor qiluvchi hodisadir. Odob-axloq insonni barcha mavjudotlardan ustun qiluvchi hodisagina bo'lib qolmasdan, u kishilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, dunyoning osoyishtaligi, tinchligini ta'minlovchi, odamlarning aql-tafakkurini ravshan etuvchi tayanch omil hamdir. Shu boisdan asosi "odob", "adab" bo'lgan adabiyotga azal-azaldan jamiyat ma'naviyatining poydevori sifatida qaralgan.

Adabiyotning tabiati, vazifalari xususida barcha davrlarda juda ko'plab asarlar yozilgan. Jumladan, sho'ro siyosati hukm surgan davrda ham rus, o'zbek va boshqa xalqlar olimlari tomonidan adabiyot haqida qator tadqiqotlar yaratilgan. Ularda adabiyotning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivoji, janrlari tabiati, adabiyotdagi an'anaviylik va yangilanish jarayonlari xususida mulohazalar ilgari surilgan. Biroq sho'ro davrida bosilgan aksariyat kitob va maqolalarda adabiyotning sinfiyligini ta'kidlashga, uning shu xususiyatini bo'rttiribroq ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan maqsad, adabiyotni hukmron mafkura g'oyalarini targ'ib etuvchi tayanch vositalardan biriga aylantirish bo'lgan. Aslida ham adabiyot sho'ro hukmronligi davrida mustabid hokimiyat siyosatini targ'ib-tashviq etuvchi eng asosiy g'oyaviy qurol vazifasini o'tagan. Shu boisdan, bu davrda adabiyotga, adabiyot to'g'risidagi ilmga alohida diqqat qaratilgan. E'tirof qilish lozimki, XX asrda o'zbek adabiyotshunosligi ham miqdor jihatidan misli ko'rilmagan o'zgarishga erishdi. Ehtimol, o'tgan hyech bir davrda sho'ro hukmronligi yillaridagichalik ko'p miqdorda adabiyotshunoslikka doir

tadqiqot yozilmagan bo‘lsa kerak. Albatta, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasi turlicha. Biroq Fitratning “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida”, I.Sultonning “Adabiyot nazariyasi”, O‘zbekiston Respublikasi FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan yaratilgan ikki jildlik “Adabiyot nazariyasi”, uch jildlik “Adabiy turlar va janrlar” singari tadqiqotlar adabiyot to‘g‘risida muayyan tasavvur uyg‘otishi bilan salmoq kasb etadi. Ularda adabiyot to‘g‘risida dunyo ilm-fanida erishilgan xulosa, natijalar muayyan darajada mujassamlashtirilgan.

Amerika yangi tanqidchiligi 1930 yildan 1950 yillargacha gullab yashnadi. Oxirgi yillarda fan doktorlari tomonidan chuqur o‘rganildi. Yangi tanqidchilik davri umumiy olganda “Eliot” asarini o‘z ichiga qamrab olgandi. Hamda Levis va Vilyam Empson, bundan tashqari bir necha Amerikalik taniqli adabiyotshunoslar va adabiyot tanqidchilari, ularning orasida Jon Krov, Ronsom, V. K. Vimsot, Klins Buks, Amn Tet, Monro Bedsliy va Blekmur. Bu kabi taniqli adabiyotshunos va tanqidchilar tanqidning gullab-yashnashiga o‘z hissalarini qo‘shganlar[1].

XX asrda adabiyotshunoslik tarixi, bu fanning xususiyat va vazifalari to‘g‘risida ham qator kitoblar, darslik, qo‘llanmalar yozilgan. Universitet, pedagogika institutlari filolog talabalariga asosiy mutaxassislik fanlaridan biri sifatida o‘qitib kelingan adabiyotshunoslik va uning tarkibiy qismlari sanalgan adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi, matnshunoslikka doir ko‘plab kitoblar, maqolalar e'lon qilingan. Ularning barchasi muayyan ilmiy-nazariy qimmatga ega bo‘lib, so‘z san'atining inson hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqidagi tushuncha, tasavvurlarni teranlashtirishga xizmat qiladi.

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008
3. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.


**Qo‘shimcha:**


1. Abdulla Sher. Estetika. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – T.: Mumtoz so‘z, 2013.
4. Is’hoqov Yo. So‘z san'ati so‘zligi. – T.: Zarqalam, 2006.
5. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T.: G‘.G‘ulom, 2015.
6. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. – T.: Akademnashr, 2014.


[1] See Lionel Gossman, 'Literature and Education', New Literary History, vol. XIII, no. 2, winter 1992, pp. 341-71. See also D. J. Palmer, The Rise of English Studies (London, 1995). – P. 81.

7. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘.G‘ulom, 2016.
8. Normatov U. Ijod sehri. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
9. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
10. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
11. Sharq mumtoz poetikasi (H.Boltaboev talqinida). – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
12. See Lionel Gossman, 'Literature and Education', New Literary History, vol. XIII, no. 2, winter 1992, pp. 341-71. See also D. J. Palmer, The Rise of English Studies (London, 1995). – R. 81.
13. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T.: Fan, 2008.
14. “O‘zbek adabiy tanqidi”. Antologiya. – T.: Turon-Iqbol, 2011.
15. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.

## Mustaqil ta'lim uchun savollar

## Glossariylar

**“Adabiyot”** - arabcha so‘z bo‘lib, u “odob” (ko‘plik shakli “adab”) so‘zidan olingan.

**“Adabiyotshunoslik**” - so‘zi ham ikki qismdan iborat bo‘lib, u “adabiyot bilan shug‘ullanish”, “adabiyotni o‘rganish” ma'nosini anglatadi. Bundan ayon bo‘ladiki, adabiyotshunoslik adabiyot haqidagi fandir.

**“Adabiyot tarixi” -** adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o‘rganadi.

**“Adabiyot nazariyasi” -** adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bog‘liqlikni, so‘z san'atining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, badiiy asar tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yo‘nalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni o‘rganadi.

**“Adabiy tanqid” -** joriy adabiy jarayonni tahlil qiladi. Yaratilayotgan asarlarning g‘oyaviy-estetik qimmatiga baho beradi. Adabiy jarayonda paydo bo‘layotgan o‘zgarish, yo‘nalish, uslublarni aniqlaydi. Asarlarning kishilar did, tafakkuriga ta'siri haqida fikr bildiradi.

## Keyslar banki

**Keys 1.** Badiiy adabiyot va hayotiy voqyelik talqinida xato bo‘lgan bir ma'lumot va xato bo‘lgan bir tasvir beriladi. Noto‘g‘ri tasvirni o‘nglash talab qilinadi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

• Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni klassifikatsiya qilish (individual va kichik guruhda).

• Klassifikatsiya qilgan ta'sir momentlaridan kelib chiqqan holatda noto‘g‘ri keltirilgan unsurlarni topish (individual holda).

## Nazorat savollari

1. Adabiyotshunoslikning maqsad va vazifalari.
2. Adabiyotshunoslik nimani o‘rganadi?
3. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari.
4. Adabiyot tarixi nima?
5. Adabiyot nazariyasi nima?
6. Adabiy tanqid nima?
7. Matnshunoslik, manbashunoslik nima?
8. Adabiy jarayon nima?
9. Adabiyotning ob'ekti nima?

## TEST SAVOLLARI

| Savollar | To‘g‘ri javob | Noto‘g‘ri | noto‘g‘ri | noto‘g‘ri |
|---|---|---|---|---|
| Qaysi javobda g‘azal unsuri ko‘rsatilmagan? | *remarka | maqta' | matla' | mabda' |
| Juft misralari qofiyalanib, toq misralari ochiq qoladigan she'r shakli qanday nomlanadi? | *qit'a | G‘azal | masnaviy | Fard |
| Ham she'riy shakl, ham janrni bildiruvchi atama qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? | *masnaviy | Matla' | maqta' | Roman |
| O‘rta asr mumtoz adabiyotimizda eng ko‘p qo‘llangan she'riy shakl qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? | *masnaviy | musamman | murabba' | Fard |
| El qochsa birovdin el | *ruboiy | qit'a | murabba' | g‘azal |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| yamoni bil oni,<br>Ahvolida idbor nishoni bil oni.<br>Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,<br>Olam elining yamon-yamoni bil oni<br>Ushbu she'r janri qaysi javobda to‘g‘ri berilgan? | | | | |
| Afsona va rivoyatlardan qaysi janrdagi asarlarda foydalanib bo‘lmaydi. | *Fard, chiston | Roman, masnaviy | Doston, qissa | She'riy roman, ertak |

## Ma'ruza 2. Adabiyotshunoslik tarkibiy qismlari. San'at – estetik hodisa

**Reja:**

1. Adabiyotshunoslik – san’atning bir turi. San'at turlari.
2. San'at turlarinnig o‘zaro munosabati. Adabiyotning tarkibiy qismlari.
3. So‘z san'atining o‘ziga xosligini qissa janri misolida tushuntirish.
4. Badiiy so‘zning ta'sir quvvatiga doir birliklar tahlili.

**Kalit so‘zlar: estetik tafakkur, adabiyotshunos, munaqqid, san’atkor shaxsi.**

Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotni, uning mohiyati, kelib chiqishi va ijtimoiy aloqalarini har taraflama o’rganuvchi fandir. So’z vositasida badiiy fikrlashning spetsifikasi (o’ziga xos xususiyatlari) haqidagi, badiiy ijodning genezisi(negizi, zamini), strukturasi(tuzilishi), tarixiy-adabiy jarayonning lokal (ma’lum joy va davrga oid) va umumiy qoidalari ham adabiyotshunoslikning o’rganish ob’ekti sanaladi. Qisqa qilib aytsak, adabiyotshunoslikning o’rganish ob’ekti so’z san’atidirki, bunda yozma adabiyotgina emas, xalq og’zaki ijodi ham nazarda tutiladi. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari quyidagilar: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid – bular asosiy qismlaridir. Shuningdek, matnshunoslik, manbashunoslik va bibliografiya kabi yordamchi sohalari ham mavjud. San'atning barcha turlari – rassomlik, hykal taroshlik, raqs, teatr va badiiy adabiyot insonga zavq bag‘ishlaydi. Har qanday san'at o‘z mohiyatiga ko‘ra ramzlar, obrazlar vositasida muayyan bir g‘oyani ifodalaydi. Ammo obraz yaratishda har soha ijodkorlari turli unsurlardan foydalanadi.

Professor U.Normatov «O‘tilgan yo‘lning ba'zi saboqlari» maqolasida shunday muhim fikrlarni yozadi: «... bugungi kunda yangi badiiy jarayonlarni

eskicha qarashlar orqali anglash, eskirgan mezonlar bilan baholash aslo mumkin emas. So‘z san'ati – o‘z nomi bilan san'at, nafosat olami! Nafosat olami esa dag‘allikni, qo‘pollikni ko‘tarmaydi. Shoir aytmoqchi, hozir zamonning, charxning avzoi o‘zgacha, endilikda do‘q-po‘pisalar, dag‘ag‘alar bilan ilmiy-ijodiy izlanishlarning yo‘lini to‘sib bo‘lmaydi».

Chin munaqqid yoki adabiyotshunos uchun fundamental ilm va doimiy izlanish lozim; iste'dod, estetik did, billur qalb, pokiza ko‘ngil, saralash qobiliyat muhim. Badiiy asarni o‘qish uchun vaqt, baho berish uchun keng qamrovli dunyoqarash, nazariy bilim, hayotiy tajriba zarur. Aks holda, filologiya sohasida, garchand doktorlik dissertatsiyasini himoya qilingan bo‘lsa ham, samonxona hududi unga «amerika», ko‘tarilgan tepaligi Pomir cho‘qqisi bo‘lib tuyuladi. Xolislik, odillik, did-farosat – adabiyotshunos-munaqqidning yarim ilmi. Adabiyotning yukini ko‘taradigan yosh iste'dodlarni, ularning adabiy-estetik didini tarbiyalash muhim.

Faylasuf Enrix Fromm ta'biri bilan gohida esdan chiqib qolayotgan “ramzlar tili”da yozish juda muhimdir. Bosh tamoyil inson haqidagi haqiqatni yozishdir. (Ammo “xatoni topish har doim haqiqatni topishdan ko‘ra osonroq bo‘ladi”, deydi I.V.Gyote).

Yozuvchi - san'atkor shaxs. U so‘zlarning ma'no jilvalanishlarini yaxshiroq farqlaydi; rangdor, jarangdor so‘zlarni boshqalarga nisbatan aniqroq ko‘radi, his etadi. Yozuvchi doimo dilidagi bor gapni o‘quvchiga etkazish uchun o‘sha rangin so‘zlarni qo‘llaydilar. Rus formal adabiyotshunosligi maktabi namoyandasi B.Eyxenbaum badiiy so‘z qadri xususida gapira turib shunday deydi: “Rasmiy ish qog‘ozlari, ilmiy nasr uchungina yaratilgan o‘lik so‘zlar mavjud-ularda na jon bor, na qon. Shu bilan birga azaldan kelayotgan so‘zlar borki, ularning o‘zlari kelganda hyech narsa bermasa ham, boshqa so‘zlar bilan birlashgan paytda ta'sirchanlik shu'lasining teranlashuvi va erkinlashuviga imkon beradi”. “Ko‘ngil ozodadur...” qissasida yozuvchining azaldan ta'sirchanlik shu'lasiga ega so‘zlarni boshqa so‘zlar bilan yonma-yon qo‘llab, ozoda ko‘ngil torini chalishga urinishini ko‘ramiz. Qissaning boshlanishidayoq nafis chizgilar bilan bezalgan qahramonning ruhiy holatini tasavvur qilamiz: u “qoniga tashna qilgan” ishiga shu darajada berilib ketganki, ba'zan qushlar bilan tillashadi, ba'zida o‘zi bilan o‘zi talashadi, yoki quyidagi manzaraning guvohi bo‘ladi: “... gulxan tegrasida hammom go‘lahxonasini makon tutgan mavlono Gulxaniy o‘zi singari ozodavash xayol sohiblari - Maxzuf, Majzub, Muntazir taxallusli uch rind shoir bilan suhbat qurib o‘ltirgan bo‘lardi” Shu xayoliy holat tasviri uchun qo‘llangan unsurlarga e'tibor beraylik. “Tegrasida” so‘zining o‘zbek tilida bir necha - “tevaragida”, “atrofida”, “yonida” kabi ko‘rinishlari mavjud. Lekin ular og‘zaki nutqimizda, ro‘znomayu oynomalarda, rasmiy ish qog‘ozlarida ko‘p qo‘llanadi. “Tegrasida” so‘zi kabi badiiy buyoqqa ham ega emas. Qolaversa, yozuvchi topib qo‘llagan so‘zni ommaviy tarzda ishlatishning imkoni yo‘q. Yoki “ozodavash xayol sohiblari” - bir tomondan balanparvoz birikmaga o‘xshab ko‘rinadi. Aslida esa “toza xayol egalari” birikmasidan ko‘ra ancha badiiyroq, jozibali va ohangdorroqdir. Asarda G‘ulomning Gulxaniyga “Eh, Mavlono Gulxaniy”, “Ey, Muhammad Sharif”, “Ayo Mavlono Gulxaniy”, “Mavlono Gulxaniy” tarzida murojaat qilishlari

umummatndagi takrorlanuvchi unsurga misol bo‘ladi. Lekin murojaat shakllarining vazifasi shu bilangina cheklanib qolmaydi. Voqyealar rivojini ham ta'minlaydi. Muayyan bir obraz darajasiga ko‘tarilgan Gulxaniy jim o‘tirmaydi; o‘z sarguzashtlarini qayta eslashi uchun G‘ulomga turtki beradi, matallar aytib asar mazmunini boyitadi. Lekin shuni aytib qo‘yish kerakki, g‘oyibona murojaat bilan bog‘liq ohang, o‘z xayollari bilan tanho qolgan kimsaning tinchligi yo‘qolgandan keyin, hikoya qilish usuli o‘zgarishi barobarida boshqacha tus soladi. Asar sahnasiga Shodiyor kirib kelgach, voqyealar qayta eslash orqali emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri rivojlanib boradi. Endi G‘ulom Gulxaniyni “sudrab” yurishga o‘z dardini aytib murojaat qilishdan ko‘ra Gulxaniyning ahvolini bayon etishga majbur bo‘ladi. Garchi bu holat voqyealar silsilasiga bog‘liq bo‘lsa ham, asarning umumiy ruhiga zaha etkazgan.

Endi alohida bir so‘z birikmasining muayyan jumla tarkibida takror kelishi hodisasiga qaytsak. Bu xususiyatni yozuvchining “Adash Karvon” qissasida ham kuzatishimiz mumkin. Nasibbekday o‘g‘lidan ajralgan otaning holatini muallif quyidagicha beradi: “Otasi **o‘lganda** uning ko‘zi **kuydi**, onasi **o‘lganda** jigari **kuydi**, qarindosh-urug‘lari **o‘lganda** tamog‘i **kuydi**, tanishlar **o‘lganda**, notanishlar **o‘lganda** dimog‘i **kuydi**, ammo Nasibbek **o‘lganda**, Nasibbegi **o‘lganda** yuragi **kuydi**, **kuyib-kuyib** kul bo‘ldi...” Adash Karvon otasining ham, onasining ham, tanishu notanishlarining ham azasiga chidagan, qalbida nimadir yo‘qolgan; har bir yo‘qotishni **“o‘lganda”** va **“kuydi”** so‘zlarining takrori ana shu taxlit kuchaytirib boradi.

### Asosiy adabiyotlar:


1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2000.
2. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.


### Qo‘shimcha adabiyotlar:


3. Abdulla Sher. Estetika. – T.: O‘zbekiston, 2014.
4. Is’hoqov Yo. So‘z san'ati so‘zligi. – T.: Zarqalam, 2006.
5. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T.: G‘.G‘ulom, 2015.
6. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘.G‘ulom, 2016.
7. Normatov U. Ijod sehri. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
8. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
9. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.


### Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Badiiy so‘z san'atiga doir ilmiy adabiyotlarni o‘qish.
2. San'atdagi estetik kategoriyalar masalasi bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lish;

3. So‘z san'ati bilan tasviriy san'at uyg‘unligini o‘ranib chiqish;
4. Poetik tasvir unsurlarini lingvistik metod asosida talqin etish.

Glossariylar

**Adabiyot nazariyasi** – adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. U badiiy adabiyotning mohiyati, rivojlanish omillari, jamiyat hayotidagi o’rni va vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi, badiiy til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi masalalarni umumiy tarzda o’rganadi, umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. A.n.badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod xususiyatlari, badiiy asarni o’rganadi. A.n. badiiy asarlarni tahlil qilish,baholash, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi. U adabiyotshunoslikning yadrosini tashkil etadi.

**Adabiyot tarixi –** adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. A.t.ning predmeti o’tmish adabiyotidir. A.t.o’tmishdagi adabiy hodisalarni, yaratilgan asarlarning g’oyaviy xususiyatlarini belgilagan, badiiy tafakkur rivoji, poetik usul va vositalarning o’zgarishiga asos bo’lgan omillarni ochib beradi.

**Adabiy an’ana –** o’tmish adabiyoti to’plagan ijodiy tajribalar qaymog’i,davrlar o’tishi bilan dolzarbligini yo’qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o’tib kelayoygan qismi.

**Adabiy tanqid** — (arabcha — naqd) adabiyotshunoslikning mustaqil bir sohasi bo‘lib, u adabiy jarayonni, shu jarayonda yaratilayotgan asarlarning badiiy-estetik qimmatini, adabiyot maydonidagi o‘rnini, muvaffaqiyat va cheklanishlarini, adabiy jarayonning yo‘nalishini aniqlab, baxolab boradi. Adabiy tanqidchilik o‘z vazifasiga ko‘ra juda mas’uliyatli faoliyat bo‘lib, tanqidchidan adabiyot nazariyasi, adabiy jarayonning buguni, tarixi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy xayotni chuqur bilishni talab qiladi. Garchi o‘zbek adabiy tanqidchiligiga doir ilk tushunchalar tarixi yozma adabiyotning paydo bo‘lishi davriga mansub bo‘lsa xam, professional adabiy tanqidning fan sifatida shakllanishi XX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

**Adabiy manbashunoslik –** adabiyot tarixi, adabiy tanqid va adabiyot nazariyasi kabi maxsus fanlarningturli davrlardagi tarixiy taraqqiyotiga oid manbalar majmui, ularning ilmiy umumlashmasidir. A.m. asosiy adabiyotshunoslikning tarixiy taraqqiyotini,bosib o’tgan yo’lini, adabiyotshunoslik manbalarini, ularning o’ziga xos tarixini o’rganadi.

**Matnshunoslik –** filologiya fanining tarmog’i, adabiyotshunoslikning yordamchi sohasi. M. sohasidagiilmiy izlanishlarning natijasi adabiyot tarixi va nazariyasi uchun manbaviy (matniy) asos bo’lib xizmat qiladi, shu sababli unga adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri sifatida qaraladi.

**Bibliografiya**(yun.biblion – kitob, grapho – yozmoq) – 1) kitoblar, vaqtli nashrlarda e’lon qilingan asarlar roýxatini tuzish, ularni tematik yokiboshqa jihatlarga ko’ra tasniflash, qisqacha annotatsiyalar yozish kabi vazifalarni o’z oldiga qoýuvchi ilmiy-amaliy soha; 2) adabiyotshunoslikning yordamchi sohasi. Adabiyotshunoslik B.si adabiyotshunoslik boýicha tadqiqot ishlari olib boorish uchun zarur ma’lumotlarni – badiiy asarlar, adabiyotshunoslikka oid kitoblar, maqolalar, ilmiy tadqiqotlar roýxatlarini tuzish, muayyan tematik yo’nalishdagi

yoki xronologik asosdagi bibliografik ko'rsatkichlar tayyorlash bilan shug'ullanadi.

**Badiiy mazmun ─** muayyan adabiy asarda aks etgan serqirra real borliq, murakkab insoniy xatti-harakat yoki his-tuyg'ulardan iborat.

**Badiiy shakl ─** muayyan badiiy asar mohiyatining badiiy tasvir vositalari orqali estetik mazmunga ega tarzda ifodalanish yo'sini.

**O'quv tahlili ─** adabiy asar matnining hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik jozibasini kafsh etish orqali o'quvchilarda barkamol shaxsga xos ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat.

**Adabiy-estetik ob'ekt ─** o'quvchi yoki tahlilchining xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, o'qigan kishilarga o'z holicha estetik ta'sir ko'rsata oladigan va sub'ektning faoliyati yo'naltirilgan badiiy voqyelik.

**Sub'ekt ─** biror badiiy asarning xususiyatlarini tadqiq qilish natijasida kashf etgan badiiy ma'nolar bilan boshqa kishilarni ham xabardor qilishga tutingan shaxs.

**Interpretatsiya ─** qadim antik davrlardan buyon badiiy matnni o'rganish va izohlashga tatbiqan qo'llanib kelingan tushuncha bo'lib, lotincha interpretatio so'zidan olinib, "vositachilik" ma'nosini anglatadi. Atama sifatida esa a) "biror narsani talqin qilish, tushuntirish;" b) biror asar yoki san'atkorni ijodiy jihatdan izohlash ma'nolarini bildiradi[2].

## Keyslar banki

**Keys 1.** Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanini barchangiz o'qigansiz. Zebining hayoti anchayin murakkabliklarga boy. Diqqat savol: Agar siz Zebining o'rnida bo'lganingizda hayotingizni o'zgartirish, yaxshi yashash uchun nima qilgan bo'lar edingiz?

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

• Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

• Qo'rquv bilan bog'liq bo'lgan xodisalarni aniqlash. (individual holda).

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Adabiyot va san'atning uyg'unligini tushuntirib bering.
2. Interpretatsiya atamasini izohlang.
3. Ijodkorlik mashaqqati haqida nimalarni bilasiz?
4. Adabiyotshunoslik so'z san'ati haqidagi fan.

## Ma'ruza 3. Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan (2 soat)

**Reja:**

1. Adabiy-nazariy tafakkur tarixiga bir nazar.
2. Sharqda adabiyot nazariyasi.

[2] **Словарь иностранных слов. –Москва: «Альта-Принт», 2008. С. 151.**

3. G‘arb adabiyotshunosligidagi nazariy qarashlar.
4. Sharq va g‘arb adabiy-nazariy qarashlari sintezi masalasi.

**Kalit so‘zlar: poetika, poetik tafakkur, antik davr, taqlid.**

Adabiyot haqida keng ko‘lamda ilmiy fikr bildirish Aristotelning “Poetika” asaridan boshlangan degan qarash mavjud. Haqiqatan ham ushbu asar adabiyot fani haqidagi eng qadimgi ilmiy tadqiqotdir. Eramizdan avvalgi 366-322 yillarda yaratilgan ushbu asarda adabiy asar qismlari bir-biriga mutanosib bo‘lishi zarurligi, san'atkor taqlidga berilmay, o‘ziga xos yangi asar yaratishi shartligi, adabiyot xuddi rassomlik, musiqa singari nafosat yaratuvchi san'at turi ekanligi asoslab berilgan.

Adabiyotshunoslikning o‘ziga xos xususiyati adabiyot davr hayotini, inson dunyosini tushunishning eng ishonchli vositasi ekanligini, so‘z san'ati xalq dunyoqarashi, ruhiyatini aks ettiruvchi oyna bo‘lib qolishini ilmiy sharhlashidadir. Adabiyotning kishilik jamiyati ravnaqida muhim ahamiyati kasb etishini ko‘rsatishda barcha davrlarning mutafakkirlari faol harakat qilganlar. Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Bualo, Lessing, Gyote, Gegel singari yuzlab donishmandlarning adabiyot va uning ahamiyati haqidagi mulohazalari adabiyotshunoslikning fan sifatida ravnaq topishiga ta'sir ko‘rsatgan.

Qadim Sharqda she'rshunoslik badiiy asar (doston, g‘azal, ruboiy, tuyuq va hokazo) darajasida qadrlangan. Aytish mumkinki, Sharq adabiyotshunosligi asosan she'rshunoslikdan iborat bo‘lgan. She'rni tushunish, tahlil qilish, sharhlash kishilarning intellektuallik darajasini belgilaydigan o‘ziga xos mezon hisoblangan. Shuning uchun o‘z zamonining barcha peshqadam ijodkorlari she'rshunoslikka doir maxsus bir asar yaratishga harakat qilishgan. Jahon tibbiyot fani tarixida yuksak o‘rin tutgan Abu Ali ibn Sinodek mutafakkirning “Mu'tasamu-sh-shuaro” (“Shoirlar panohgohi”) asarini yozgani ham aynan shundan dalolat beradi. Yoki Alisher Navoiy, Bobur singari siymolarning “Xamsa”, “Xazoyinu-l- maoniy”, “Boburnoma”yu yuzlab go‘zal g‘azal, tuyuqlar yaratish bilan kifoyalanmasdan, “Mezonu-l-avzon” (“Vaznlar o‘lchovi”), “Majolisu-n-nafois” (“Go‘zallar majlisi”), “Muxtasar”dek asar bitgani, ularning aruz she'r tizimini g‘oyat nuktadonlik bilan tadqiq qilgani Sharqda azaldan she'rshunoslikning g‘oyat e'tiborli bo‘lganini tasdiqlaydi. Forobiy Aristotelning “Poetika”sini sharhlab, eramizdan avval yashagan bu donishmand o‘zining she'r satrlari haqidagi mulohazalarini to‘la bayon qilishga ulgurmagan, der ekan, u she'r san'ati haqida shunday deydi: “Bu san'at biror maqsadni amalga oshirayotgan paytda yo‘ldan chiqib ketmaslikka yordam beruvchi va inson xayolini qog‘ozda namoyon etuvchi san'atdir. She'rning olti xili bor. Shundan uchtasi yaxshi va uchtasi yomon xildir. Yaxshilaridan biri shuki, inson uning yordamida aqliy quvvatini mukammallashtiradi, san'atga olib boruvchi fikri oydinlashadi, yaxshi ishlarga, fazilatli bo‘lishga ilhomlanadi, xasislik, yomon va qabih ishlardan saqlanadi. Ikkinchi yaxshi xili kishining ruhiy sezgilarini yuksaltiradi, haddan tashqari ehtiyotkorlikdan holi qiladi, izzat-nafsni saqlaydi, g‘azablanishdan, yomon ishlardan ehtiyot bo‘lishga yordam beradi. Uchinchisi, ana shu yuqorida qayd etilgan yaxshi xislatlarni namoyon etishga yordam beradi” (Forobiy. – Toshkent: Fan, 1975. – B.112-113).

Forobiy “aqliy quvvatni mukammallashtiruvchi”, “fikrni oydinlashtiruvchi” ta'sirchan omillardan biri deb e'tirof etgan adabiyot va uni o‘rganadigan fan, tabiiyki, xalq tarixi va jamiyat hayotida alohida o‘rin tutadi. Shu boisdan adabiyotshunoslik xususida ma'lum bir tushunchaga ega bo‘lish hayot hodisalari va inson dunyosi to‘g‘risidagi tasavvurlarni oydinlashtirish demakdir.

Har bir fanning ob'ekti bo‘lgani singari adabiyotshunoslikning ham o‘z o‘rganish manbasi bor bo‘lib, bu – badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot inson tafakkurining eng noyob ne'matlaridan biridir. Ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblangan badiiy adabiyotning og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Ularning har ikkalasi uchun ham bosh ob'ekt inson va uning o‘ziga xos dunyosidir. Albatta, tabiat hodisalari, hayvon, jonivorlar hayotiga bag‘ishlangan asarlar ham bo‘ladi. Biroq ularda ham aslida kishilar nazarda tutiladi, odamlarga saboq bo‘ladigan, manfaat keltiradigan fikr, xulosalar ilgari suriladi. Tun, kun, quyosh, oy, yulduzlar, yil fasllari, o‘simliklar haqida mulohaza yuritilganda ham avvalo kishilar hayoti, turish-turmushi e'tiborga olinadi. Tabiat hodisalari, hayvonlar, o‘simliklar haqidagi asarlar ayni choqda kishilarning (demak, ijodkorning ham) badiiy tafakkur darajasini, falsafiy mulohaza yuritish miqyoslarini, xayol, tasavvur olamining qamrov doirasini ham bildiradi.

Badiiy adabiyotda kishilar dunyosi, ularning o‘zaro munosabatlarini aks ettirishdan avval borliq hodisalarini ko‘rsatish boshlangan. Biroq ular xuddi kishilar singari jonlantirilgan. Quyosh, oy, shamol, o‘simlik, hayvonlar xuddi odamlar singari gapirtirilgan.

Yozuvchining qahramoni ko‘rinishi haqidagi bu so‘zlari kishi ko‘z oldida ko‘rkam, jozibali, istarasi issiq yosh go‘zal qiz qiyofasini namoyon qiladi. Uning tasavvur, xayolida jozib, oydin bir manzarani jonlantiradi. Chunki adib bitgan so‘zlar o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta'sir qiladi.

Badiiylik hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, unda tasavvur uyg‘otadigan qilib tasvirlashdir. Badiiylik barcha san'at turlariga xos hodisadir. Badiiyliksiz san'at yo‘qdir. San'atning mavjudligi, mohiyati uning badiiyligidadir. Shuning uchun badiiylikni san'atning tashqi ko‘rinishi, shakli sifatida qarash asossizdir. Badiiylik shakl va mazmun mutanosibligi tufayli ta'sirchanlik kasb etadi. Adabiyotning badiiyligini ta'minlaydigan eng birinchi omil uning tilidir. Chunki adabiyot so‘z san'atidir. Tasviriy san'at asarlariga ranglarning yorqinligi, ularning o‘z o‘rnida qo‘llanishi joziba baxsh etsa, adabiy asarni so‘z nafosatli qiladi. Adabiy asarda hayotning kundalik oddiy hodisalari so‘z tufayli yorqin, hayajonlantiradigan bo‘lib ko‘rinadi.

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002.
2. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.


**Qo‘shimcha adabiyotlar:**


1. Abdulla Sher. Estetika. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – T.: Mumtoz so‘z, 2013.

3. Is’hoqov Yo. So‘z san'ati so‘zligi. – T.: Zarqalam, 2006.
4. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T.: G‘.G‘ulom, 2015.
5. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘.G‘ulom, 2016.
6. Normatov U. Ijod sehri. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
7. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
8. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
9. Sharq mumtoz poetikasi (H.Boltaboev talqinida). – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008
10. “O‘zbek adabiy tanqidi”. Antologiya. – T.: Turon-Iqbol, 2011. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T.: Fan, 2008.

## Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari nima?
2. Adabiyot nazariyasi nimani o‘rganadi?
3. San'at turlarining farqlanishi tamoyillari qanday?
4. Adabiyot va estetik kotegoriyalar o‘rtasidagi uzviylik nimada?
5. Badiiy adabiyot va hayot
6. Badiiy asarning umrboqiylik asoslari masalasi
7. Badiiy obraz haqida tushuncha.

## Glossariylar

**Filologiya** - grekcha so‘z bo‘lib, philo - *sevaman*, logos - *so‘z, bilim* demakdir.

**Figural ma'no** - Voqyelik bilan bevosita bog‘lanmaydigan, narsa, belgi, haraktning nomiga aylanmagan ma'no. Figural ma'no voqyelik bilan nomlovchi ma'no orqali bog‘lanadi.

**Antifraza** - Ironiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, biror shaxs yoki predmetga xos bo‘lgan u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgili intonatsiya bilan inkor qilishga aytiladi.

**Amfiboliya** - Ikki xil talqin etish, ikki ma'noda tushunish mumkin bo‘ladigan gap. Bu //ahmoq odam emas. Bu ahmoq // odam emas.

**Apastrofa** - Jonsiz predmetlarga jonli narsadek murojaat qilish va shunday munosabatda bo‘lish.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Adabiyot nazariyasi nima?
2. Adabiy tanqid nima?
3. Matnshunoslik, manbashunoslik nima?
4. Adabiy jarayon nima?
5. Adabiyotning ob'ekti nima?
6. Badiiylik nima?

7. Badiiy obraz nima?

**Test savollari**

| Savollar | To‘g‘ri javob | Noto‘g‘ri javob | Noto‘g‘ri javob | Noto‘g‘ri javob |
|---|---|---|---|---|
| G‘azalning birinchi bayti – matla'ning boshqa bir nomi qaysi qatorda berilgan? | *mabda' | sadr | qit'a | muashshar |
| Qit'ani boshqa she'riy shakllardan ajratib turadigan asosiy belgi nima? | *ikki baytdan iboratliligi | barcha misralarning o‘zaro qofiyalanishi | a-a, b-b tarzida qofiyalanishi | a-b-a-b tarzida qofiyalanishi |
| Arabcha- «otning orqasiga mingashib, ergashib boruvchi» ma'nosini bildiruvchi she'riy unsur qanday nomlanadi? | *radif | Qofiya | o‘xshatish | majoz |
| Tajnisni qofiya qilib keltirish quyidagi janrlardan qaysi birida asosiy o‘rin tutadi? | *tuyuqda | qit'ada | fardda | ruboiyda |
| She'rda ifodalanayotgan etakchi fikrni ta'kidlash, o‘quvchi e'tiborini asosiy g‘oyaga jalb etib, shoirning g‘oyaviy niyatini o‘quvchi qalbiga to‘laroq etkazish maqsadiga xizmat qiladigan va aynan takrorlanadigan yoki so‘zlar birikmasi ...deyiladi. | *radif | Takror | qofiya | tajnis |
| Devon tuzish an'anasiga binoan qaysi janr alifbo tartibida devonga birinchi kiritiladi. | *g‘azal | Ruboiy | tuyuq | muxammas |
| | | | | |

## Ma'ruza 4. Adabiyotning spetsifikasi

**Reja:**

1. Adabiyotning spetsifikasi haqida.
2. Badiiy adabiyotning ijtimoiy vazifasi.
3. Badiiy ijod va ruhiyat olami.
4. Adabiyot mazmunining o‘zigi xosligi.
5. Adabiyot shaklining o‘ziga xosligi.

**Kalit so‘zlar:** adabiyot spetsifikasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya, adabiyotshunoslik metodologiyasi.

Adabiyotshunoslikning o‘rganadigan manbasi adabiy-badiiy asarlar va ular yaratilgan sharoit, muhitdir. Bundan ayonlashadiki, adabiyotshunoslik juda ko‘p fan, sohalar, xususan, tarix bilan uzviy bog‘liq holda ish tutadi. Ayni choqda barcha fanlar turli tarmoq, bo‘limlarga ajralgani singari adabiyotshunoslik ham muayyan tarkibiy qismlarga bo‘linadi. Bular: “adabiyot tarixi”, “adabiy tanqid”, “adabiyot nazariyasi”, “matnshunoslik”, “manbashunoslik”, “bibliografiya”, “adabiyotshunoslik metodologichyasi”dir. Ularning har biri adabiyot hodisalarini ma'lum bir yo‘nalish, nuqtai nazaridan o‘rganadi. Barchasining bosh ob'ekti esa adabiy-badiiy asarlar sanaladi.

Adabiyotshunoslikni bunday tarkibiy qismlarga ajratish keyinchalik paydo bo‘lgan hodisa. Xususan, o‘zbek adabiyoti tarixida “adabiyotshunoslik” va “adabiy tanqid” bir-biridan ajratilmasdan kelingan. Aruz, qofiya, badiiy san'atlarga doir risolalarda ilgari surilgan nazariy qarashlar adabiyot tarixiga tayanilgan holda ifoda qilingan. Bu adabiyotshunoslik tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, ular orasiga Xitoy devori qo‘yib bo‘lmasligini bildiradi.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan “Adabiyot tarixi” adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o‘rganadi. Adabiyot tarixi har bir adabiy hodisani mavjud ijtimoiy-siyosiy voqyelik bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Qiyoslash orqali davrlar adabiyoti orasidagi o‘sish-o‘zgarishlarni aniqlaydi. Adabiyotshunoslikning ikkinchi tarkibiy qismi hisoblangan “adabiyot nazariyasi” adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bog‘liqlikni, so‘z san'atining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, badiiy asar tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yo‘nalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni o‘rganadi.

Adabiyotshunoslikning uchinchi tarkibiy qismi hisoblangan “adabiy tanqid” joriy adabiy jarayonni tahlil qiladi. Yaratilayotgan asarlarning g‘oyaviy-estetik qimmatiga baho beradi. Adabiy jarayonda paydo bo‘layotgan o‘zgarish, yo‘nalish, uslublarni aniqlaydi. Asarlarning kishilar did, tafakkuriga ta'siri haqida fikr bildiradi. Joriy adabiyot hodisalari xususida mulohaza bildiruvchi adabiyotchi mutaxassis-munaqqid kitobxon va yozuvchi, shoir o‘rtasida o‘ziga xos vositachi,

hakam vazifasini bajaradi. Munaqqidning keng tafakkur bilan mulohaza yurita bilishi adabiyot ravnaqi va o‘quvchilar ommasi did-saviyasining yuksalishiga samarali ta'sir ko‘rsatadi. Munaqqidlar faoliyati jamiyatda ijtimoiy fikrning faollashishiga samarali ta'sir ko‘rsatgan asosiy omillardan biri bo‘lganini tasdiqlovchi dalillar tarixda talaygina. Masalan, V.Belinskiy, N.Chernishevskiy, N.Dobrolyubov, D.Pisarev, G.Plexanov singari mutafakkirlarning adabiy-tanqidiy maqolalari Rossiyada ijtimoiy-siyosiy fikr o‘sishi va rus adabiyotida jiddiy o‘zgarish bo‘lishiga samarali ta'sir ko‘rsatgan omillardan biri bo‘lgani e'tirof etilgan.

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
2. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.


**Qo‘shimcha adabiyotlar:**


1. Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
2. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. Тошкент, “Навоий университети”, 2018
3. Болтабоев Ҳ., Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. – Т.: Мумтоз сўз, 2013.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006.
5. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т.: Ғ.Ғулом, 2015.
6. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Т.: 2014.
7. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Т.: Ғ.Ғулом, 2016.
8. Норматов У. Ижод сеҳри. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
9. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006.
10. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004.
11. Шарқ мумтоз поэтикаси (Ҳ.Болтабоев талқинида). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
12. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Т.: Фан, 2008


**Mustaqil ta'lim savollari:**

1. Adabiyotshunoslikning yordamchi tarkibiy qismlari tavsifi
2. Jahon va o‘zbek adabiy-nazariy tafakkuri tarixi haqida nima bilasiz?
3. Adabiyot-so‘z san'ati sifatida.
4. Badiiy obraz va xarakter o‘rtasidagi farq masalasi
5. Badiiy obraz va estetik kotegoriyalar.

**Glossariy**

**Allegoriya (majoz) -** yunoncha allos — boshqa, o‘zga va agoreuo — gapiraman, demakdir. U ertak va masallarda, ayniqsa, keng qo‘llanadi. Masalan, tulki qiyofasida ayyor kishilar nazarda tutiladi. Chumoli mehnatkash, zahmatkash odamlar timsoli sanaladi. Allegoriya fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng o‘ng‘ay shakli hisoblanadi.

**Allegorik obrazlar -** majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo‘ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe'l-atvoridagi kamchilik, illatlar ko‘rsatiladi.

**Anafora -** yunoncha anaphor so‘z bo‘lib, “yuqoriga ko‘tarilish” degan ma'noni bildiradi. Bunda bir xil so‘z yoki so‘z birikmasi she'r misralari boshida aynan bir xil tarzda takrorlanib keladi.

**Antiteza -** fikr ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llanadigan ifoda usullaridandir. U qarama-qarshi fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

**Badiiylik -** hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, unda tasavvur uyg‘otadigan qilib tasvirlash. Badiiylik barcha san'at turlariga xos hodisa.

**Badiiy to‘qima -** obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqyealarni o‘ylab topishdir.

**Badiiy asar tili -** adabiy til me'yorlariga tayanadigan, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan til. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan **tasviriylik, emotsionallik, obrazlilik, aforizm** kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Adabiyotning spetsifikasi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Tilning badiiy, ijtimoiy va falsafiy mohiyati nimalarda aks etadi?
3. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi.
4. Badiiy adabiyotda milliy g‘oya va milliylik.
5. Badiiy asar pafosi nima?
6. Pafos va estetik ideal
7. Estetik ideal va ijodkor o‘rtasidagi manosabat.

### Test savollari

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| O‘zbek mumtoz adabiyotida eng kichik janr atamasi qaysi javobda ko‘rsatilgan? | bag‘ishlov | tarkibband | to‘rtlik | fard |
| Ruboiy janri o‘zbek mumtoz adabiyotida quyidagi vaziyatlardan qaysi birida yozilgan | ramali musammani maqsur | *hajaz bahrining axram va axrab shajarasida | hajazi musaddasi mahzuf | rajazi musammani solim |
| O‘zbek mumtoz adabiyotida voqyeaband | Musaddas | muvashshah | *masnaviy | g‘azal |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| she'riy asarlar bitiladigan janrni belgilang | | | | |
| Tuyuq janri quyida ko‘rsatilgan aruz vaznlaridan qaysi birida yozilgan? | *foilotun, foilotun, foilun | mafoiylun, mafoiylun, foilun | mustaf'ilun, mustaf'ilun, faulun | faulun, faulun, faulun, faul |
| Ruboyi xosa qanday qofiyalanadi? | a-a-a-b | *a-a-b-a | a-a-b-b | a-b-a-b |
| Mumtoz she'riyatda she'riy asarning oxirgi bayti qanday nomlanadi? | qofiya | radif | *maqta' | matla' |
| «Dubaytiy» atamasi qaysi lirik janr atamasi bilan bir qatorda qo‘llanadi? | *«Ruboiy » atamasi bilan bir qatorda | «G‘azal» atamasi bilan bir qatorda | «Fard» atamasi bilan bir qatorda | «Qit'a» atamasi bilan bir qatorda |
| Arabcha «qism», «bo‘lak», «parcha» ma'nolarini anglatadigan lirik janr qanday nomlanadi? | ruboiy | to‘rtlik | *qit'a | G‘azal |

## Ma'ruza 5. Adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik. Badiiy asar tarkibi

**Reja:**

1. Badiiy adabiyotda umuminsoniylik masalasi.
2. Badiiy ijod va milliy kolorit.
3. Individuallikning o‘ziga xos qirralari.
4. Badiiy ijod –sinkretik hodisa.
5. Badiiy asar tarkibi haqida.

**Kalit so‘zlar: milliy kolorit, milliylik, umuminsoniylik, sinkretik hodisa, mavzu, g’oya, shakl, mazmun, syujet, kompozitsiya.**

Badiiy adabiyotdagi umuminsoniylik, milliylik va individuallik masalalari Abdulla Qodiriy va uning romanlari misolida yorqin namoyon bo‘ladi.Yozuvchining estetik idealini uning asarlaridan, aynan asarlari mohiyatiga singdirilgan go‘zal g‘oyani yaxlit matndan, badiiy nutqdan ajratib talqin qilish germenevtik mezonning buzilishidir. «O‘tkan kunlar» romanining tili go‘zal. Yozuvchining badiiy tafakkuri bunga nisbatan kengroqligini, matnda tafakkur maydonidagi barcha narsalarni to‘la ifodalay bilmasligini inobatga olsak, demak, avvalo yozuvchining estetik ideali go‘zaldir.

Masalaning shu tarzda qo‘yilishi Abdulla Qodiriyning kimligini, uning estetik olamini va «O‘tkan kunlar» romani umrboqiyligining sabablarini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Chinakam san'at namunasining talqiniga siyosat

aralashsa, asar zamona mayliga moslansa, ilmiy xolislik yo‘qoladi, badiiy mohiyat ochilmaydi, germenevtik muvozanat buziladi. Garchi «O‘tkan kunlar»dek san'at asarlari ma'lum bir makon va zamonda yaratilsa ham, badiiy-estetik quvvatining inersiyasi bilan zamon va makon chegaralaridan o‘tib, abadiylik sari yuz tutadi.

Yozuvchi mavjud voqyelikni, ijtimoiy hayotdagi hodisalarni badiiy talqin etar ekan, o‘z g‘oyaviy maqsadini anglatish, asar markazida turgan asosiy qahramonlari surat va siyratini namoyish etish uchun turli adabiy usullarni ishga soladi. Ba'zida bosh qahramonni so‘zlatib, o‘zini ko‘rsatadi, ba'zan esa uni butun vujudidan kirlik yog‘ilib turgan kimsalarga yoki ochiqko‘ngil, soddadil insonlarga yo‘liqtiradi. To‘qnashuvlar, mubohasalar, munozaralar, samimiy dilgir suhbatlar va yoki lirik kechinmalar orqali voqyealar rivoji echimga qarab siljiyveradi, qahramonlar dunyosi oydinlashaveradi. Shu ma'noda Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon»da Anvarning ma'naviy kamolotini ko‘rsatishda Solih maxdum, Abdurahmon domla, Safar bo‘zchi kabi turli toifadagi obrazlardan unumli foydalandi. Abdulla Qodiriy Xudoyorxon obrazidan olabo‘ji yasashni emas, balki hukmdor inson siymosini, hayot ziddiyatlari ichra o‘z holicha ko‘rsatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Abdulla Qodiriy realizmidagi buyuk haqiqat shuki, dunyo, o‘zaro insoniy munosabatlar ham, insonning o‘zi ham yakrang emas; murakkab va ziddiyatlidir. Kalvak maxzum va Toshpo‘lat tajanglar badiiy talqinida adibning estetik prinsip darajasiga ko‘tarilgan mazkur aqidasini e'tibordan qochirmaslik lozim. Bu hajviy qahramonlar sajiyasida qusur, nuqson ko‘p. Ammo muallif ulardagi faqat shu xususiyatlarnigina tasvirlab qo‘ya qolmagan. Agar asarni faqat shu qirra uchun yozganida ularning hozirga qadar yashab qolishi amrimahol bo‘lar edi.

Abdulla Qodiriy ijodiyotidagi satira va yumorning mohiyatini ilmiy talqin qilishda aynan germenevtik doira qonuniyatlariga asoslanib, butun va qismning o‘zaro munosabatidan kelib chiqqan holda muayyan xulosalarni ilgari surish lozim. Adibning hangoma-hajviyalaridagi mutakallim bilan muallif orasiga tenglik alomati qo‘yish to‘g‘ri emas. Mayda hajviya-hangomalari talqinida shartli imzoga, shuningdek, tarixiy shart-sharoitga e'tibor berish kerak. Yozuvchidagi talabchanlik, obraz tabiatiga, umuman, so‘zga, tasvirga, detalga e'tibor berishlik ijodining badiiy-estetik mohiyatiga so‘zsiz ta'sir qiladi. Abdulla Qodiriy mamlakatida istiqomat qilguvchi odamlarning uzoq vaqt esda saqlanib, xotiraga muhrlanib qolishining sababi ham shundadir. Yozuvchi asl tabiatining pokizaligi, niyatining beg‘arazligi, g‘oya-ideyaning go‘zalligi yashovchan obrazlarni yuzaga chiqaradi.

O‘zbek adabiyoti tarixidagi nodir durdona, cho‘ng estetik hodisa bo‘lmish «O‘tkan kunlar» romanini goh tarixiy-ijtimoiy hodisalarga bog‘lab bir qirg‘oqqa, goh ishq-muhabbat chizig‘iga urg‘u berib, ikkinchi qirg‘oqqa olib ketib qolishliklar ilmiy talqinda o‘zini oqlamaydigan voqyelikdir. Talqindagi muhim xususiyat badiiy talqin mohiyatiga munosib, muvofiq xolis ilmiy gapni aytishdir. Bu ilmiy fikr ifodasida muayyan tizimga, ma'lum bir metod va metodologiyaga, mantiq izmiga tayanish talqinning naqadar ilmiy va ishonarli bo‘lganini ko‘rsatadi.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2000.

2. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Ulug’ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, “Navoiy universiteti”, 2018
3. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – T.: 2013.
4. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T.: G‘.G‘ulom, 2015.
5. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur.– T.: Akademnashr. 2014.
6. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘.G‘ulom, 2016.
7. Normatov U. Ijod sehri. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
8. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
9. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.

**Glossariylar**

**Avtobiografik asar** (yun. autos - o‘zim, bios - hayot, grapho - yozaman) - muallifning o‘z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr.

**Avtointerpretatsiya** (yun. autos - o‘zim, lot. interpretation -tushuntirmoq) - muallifning o‘quvchiga o‘z asarini tushuntirish, unga o‘zi nazarda tutgan ma'noni anglatishga qaratilgan harakati. A. turli shakllarda (so‘z boshi, sarlavha, epigraf, bag‘ishlov, so‘ngso‘z, satr osti izohlari va sh.k.) amalga oshishi mumkin

**Avtopsixologik lirika** - lirikaning sub'ektiv tashkil-lanishiga ko‘ra ko‘rinishi, *ijroviy lirikaga* (q.) zidlagan holda farqlanuvchi lirik kechinma bevosita shoir tilidan ifoda etil-gan she'r.

**Adabiy yo‘nalish** (ruschadan kalka: "literaturnoe napravlenie", "literaturnoe techenie") - adabiy jarayon bilan bog‘liq kategoriya. A.y. tushunchasi *hayotni badiiy aks ettirish prinsip-lari, metod* va *uslub* tushunchalari bilan bevosita bog‘liq, u badiiy tafakkur tarzi, metod va uslub kesishgan nuqtada yuzaga keladi.

**Adabiy maktab** (ruschadan kalka: "literaturnaya shkola") -adabiy yo‘nalish ichidagi hodisa, muayyan g‘oyaviy-estetik qarashlar, ijodiy prinsiplarni dasturiy tarzda qabul qilgan ijodkorlar guruhi.

**Adabiy oqim** (ruschadan kalka: "literaturnoe techenie") -adabiy jarayon bilan bog‘liq kategoriya, muayyan davr adabiyotidagi adabiy yo‘nalishning bir ko‘rinishi, o‘ziga xos bir varianti.

**Adabiy ta'sir** (ruschadan kalka: "literaturnoe vliyanie") -adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo‘lgan, badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa.

**Keyslar banki**

**Keys 1.** Badiiy adabiyotda umuminsoniylik va milliylikka xos holatlarga misollar keltiriladi. Har bir holat alohida tahlil qilinadi.Bitta she'riy matndan umuminsoniylik, millliylik va individuallik holatlari ajratib ko‘rsating.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoga xos belgilar aniqlab olinadi (individual va kichik guruhda).

- qo‘yilgan muammoga oid har bir holat belgilari ketma-ketlikda sanaladi (individual holda).

**Nazorat savollari:**

1. Adabiyotdagi umuminsoniylikka xos xususiyatlarni sanash;
2. Milliylikka oid misollarni dunyo adabiyoti namunalaridan topish;
3. Umuminsoniylik va milliylikning o‘zaro uyg‘unligi xususida fikr yuritish;
4. Badiiy adabiyotda individuallikka xos belgilar bo‘yicha misollar to‘plash.
5. Badiiy asar tarkibi deganda nimalarni tushunasiz?
6. Badiiy asar tarkibiga kiruvchi vositalarni sanang.

## Ma'ruza 6. Adabiyotda shakl va mazmun, mavzu va g’oya

**Reja:**

1. Badiiy ijodda shakl va mazmun uyg‘unligi.
2. Badiiy asarning shakl unsurlari.
3. Badiiy asar mazmuni.
4. Adabiyot tarixida formalizm va vulgar sotsologizm.
5. Badiiy asarning mavzusi haqida.
6. Badiiy asarning g’oyasi.

**Kalit so‘zlar: shakl va mazmun, formalizm va vulgar sotsologizm, mavzu, g’oya.**

Har qanday badiiy asar shakl va mazmun, mavzu va g‘oya, syujet va kompozitsiya singari unsurlardan tarkib topgan bo‘ladi. Har bir yaxlit, mustaqil narsa-hodisa esa o‘z shakl va mazmuniga ega bo‘ladi. Shakl va mazmun narsa-hodisa mavjudligining namoyon bo‘lish tarzidir. Ular bir-biri bilan mustahkam bog‘liqdir. Shaklsiz mazmun va mazmunsiz shakl bo‘lmaydi. Shakl mazmunning o‘zini ko‘rsatishidir. Shuning uchun ularni bir-biridan ajratish, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas. Badiiy asarda ham shakl va mazmun munosabatiga shunday qarash lozim.

Badiiy asarning shakl va mazmuni uning mavzu va g‘oyasiga muayyan darajada bog‘liq bo‘ladi. Mavzu va g‘oya ham badiiy asar qiyofasini, ta'sirchanligini belgilashda uning shakl va mazmuni singari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shakl va mazmun komponetlari orasida mavzu va g`oya mazmunga kiradi va muhim o`rin tutadi. Mavzu va g`oya ajralmas ajralmas dialektik birlikda

bo`ladi: mavzu g`oyaviy jihatdan aniqlangan, g`oya esa mavzu rivoji natijasida ochilgan bo`ladi[3].

Mavzu, ya'ni tema yunoncha so‘z bo‘lib, “narsa-buyum” degan ma'noni bildiradi. Biroq badiiy asar mavzusi unda qalamga olingan voqyea yoki narsa-buyumlar emas. Badiiy asar mavzusi ijodkor tanlagan hayotiy voqyealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasidir. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir.

Ijodkor mavzuni muayyan maqsad bilan tanlaydi. Har qanday mavzuga bag‘ishlangan asar muayyan haqiqatlarni ochib beradi, boshqalarning diqqatini qandaydir noma'lum yoki e'tibordan chetda qolib kelayotgan narsalarga qaratadi. Albatta, barcha asarlarda ham ijodkorning maqsad-muddaosi ochiq-oshkora ko‘rinib turmaydi. Bunday bo‘lishi shart ham emas. Ijodkorning biror bir hodisani qay darajada ko‘rsatishi, hodisaning qaysi jihatlariga ko‘proq e'tibor qilishining o‘ziyoq uning maqsad-niyatini bildirib turadi. Ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma'lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa g‘oyadir.

Demak, g‘oya ijodkorning qalamga olinayotgan voqyelikka munosabatidir. Mavzu esa aks ettirilayotgan voqyea-hodisalarning umumlashmasi, yig‘indisi, ya'ni badiiy asar uchun tayanch bo‘lgan asosiy fikr va maqsad ob'ektidir.

Mavzu va g‘oya bir-biriga bog‘liq hodisa hisoblanadi. Chunki har qanday mavzuning o‘ziga muvofiq g‘oyalari bo‘ladi. Biroq mavzu bitta, undan anglashiladigan g‘oyalar esa turlicha bo‘lishi mumkin. G‘oya ijodkorning dunyoqarashiga, nuqtai nazariga bog‘liq. Har qanday san'at asarida ma'lum bir g‘oya ifodalangan bo‘ladi.

Umuman, har bir barkamol badiiy asar konflikt, shakl va mazmun, mavzu va g‘oya singari o‘z unusurlarini qay tarzda namoyon etishidan qat'iy nazar, u hayotning muayyan bir ko‘rinishini ta'sirchan akslantirgan, ijodkor yaratgan go‘zallikdir.

## Asosiy adabiyotlar:


1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.


### Qo‘shimcha adabiyotlar:


1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. – Toshkent: Fan, 1978, 1979.
2. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, “Navoiy universiteti”, 2018
4. Quronov D., va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug’ati. – T.: Fan, 2013.


[3] See Lionel Gossman, 'Literature and Education', New Literary History, vol. XIII, no. 2, winter 1992, pp. 341-71. See also D. J. Palmer, The Rise of English Studies (London, 1995). – P. 44.

5. See Lionel Gossman, 'Literature and Education', New Literary History, vol. XIII, no. 2, winter 1992, pp. 341-71. See also D. J. Palmer, The Rise of English Studies (London, 1995).

## Glossariylar

**Realizm** (lot. realis - mavjud, haqiqiy) - adabiyotshunoslikda R. termini tor va keng ma'nolarda qo‘llanadi. Keng ma'noda R. terminining ma'nosi badiiy asar (unda tasvirlangan badiiy voqyelik) bilan real voqyelik munosabatidan kelib chiqadi.

**Romantizm** (fr. romantique, ingl. romantic) - evropa adabiyo-tida **XVIII** asr oxiri - **XIX** aerning birinchi yarmida etakchilik qilgan adabiy yo‘nalish.

**Sentimentalizm** (fr. sentiment -his) - XVIII aerning ikkin-chi yarmida evropa milliy adabiyotlarida vujudga kelgan oqim, nomlanishi ingpiz adibi L.Sternning "Sentimental sayohat"(1768) asari bilan bog‘lanadi.

**Simvolizm** (yun. simbolon, fr. simbolisme - belgi, nishon) -yevropada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida kuzatilgan madaniy-ma'naviy inqiroz sharoitida, pozitivistik yondashuv (q. *naturalizm)* va tobora urchib borayotgan omma adabiyoti *(belletristika)* namunalari obro‘sizlantirgan realistik tasvir prinsiplariga qarshi o‘laroq, vujudga kelgan adabiy oqim.

**Strukturalizm** (lot. structure - qurilish, joylashish) - XX asrdagi ikkita jahon urushi oralig‘ida shakllangan va 60-yillarga kelib keng (ayniqsa, Fransiyada) ommalashgan yo‘nalish, ijtimoiy va gumanitar ilm sohalaridagi tadqiqot metodi.

**Syurrealizm** (fr. surrealisme - oliy realizm, realizmdan yuqori) - adabiyot va san'atdagi XX asrning 20-yillarida maydonga kelgan avangardistik yo‘nalish.

**Tanqidiy realizm** - XIX aerning o‘rtalarida maydonga kel-gan adabiy yo‘nalish, ijodiy metod (q. *realizm).*

## Keyslar banki

**Keys 1.** Tanlab olingan matndagi shakl va mazmunga xos belgilarni aniqlash bo‘yicha topshiriq beriladi. Badiiy shaklni kuchaytirgan holatlar “ijod” qilinadi. Ikkinchi holatda mazmun kuchaytiriladi. Adabiy matndagi biryoqlamaliklar izohlanishi lozim bo‘ladi.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

• Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni tizimli sanab chiqiladi (individual va kichik guruhda).

• Shakl va mazmunga kategorial ma'no beriling (individual holda).

## Nazorat savollari

1. Shaklbozlikning yuzaga kelish sabablarini aniqlash;
2. Dunyo adabiyotshunosligidagi formalizm hodisasini tushunish va tushuntirish;
3. Vulgar sotsiologizm hodisasi bo‘yicha qo‘shimcha adabiyotlar o‘qish;
4. Shakl va mazmun uyg‘unligiga hayotiy misollar topish;

5. Shakl va mazmun uyg‘unligi – so‘z san'atining yuksak maqomi ekanini anglash bo‘yicha mustaqil fikr yuritish.
6. Mavzu nima? O’ziga xos xususiyatlarini ayting.
7. G’oya nima? O’ziga xos xususiyatlarini ayting.
8. Mavzu va g’oya birligini misollar bilan tushuntiring.

## Ma'ruza 7. Badiiy tafakkur va obraz poetikasi

**Reja:**

1. Badiiy tafakkurga xos xususiyatlar.
2. Badiiy obraz tabiati.
3. Obraz tasnifi.
4. Badiiy obraz yaratish usullari.

**Kalit so‘zlar: obraz, realistik obrazlar, romantik obrazlar, majoziy obrazlar.**

Adabiyotda inson obrazini yaratish tarixini kuzatadigan bo‘lsak, mavjud darslik va qo‘llanmalarda ta'kidlanganidek, quyidagi turdagi badiiy obrazlar yaratilganiga guvoh bo‘lamiz:

1. Realistik obrazlar.
2. Romantik obrazlar.
3. Xayoliy-fantastik obrazlar.
4. Majoziy(simvolik) obrazlar.

Xarakter xususiyatlari, xatti-harakatlari hayotdagi kishilarga mos keladigan obrazlar realistik obrazlar deb yuritiladi. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Sinchalak” asarlaridagi qahramonlar realistik obrazlar sanaladi. Muqimiyning “Tanobchilar” satirasidagi Sultonali, Hakimjon obrazlari ham realistik obrazlar hisoblanadi. Chunki real hayotning o‘zida Qobil bobo, amin, ellikboshi, Sotiboldi, Qalandarov, Saida va “Tanobchilar” qahramonlari singari kishilar mavjud. Ularning fe'l-atvori, xatti-harakati ayni shu asarlarda ko‘rsatilganiga muvofiq keladi.

Romantik obrazlar ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siymosidir. Ularda ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to‘g‘risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo‘ladi.

Xayoliy-fantastik obrazlar romantik obrazlarga o‘xshab ketadi. Bu obrazlarda ham ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo‘ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo‘jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko‘rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy-fantastik obrazlar deyish mumkin. Masalan, “Alpomish” dostonida xalqning ideal qahramoni ko‘rsatilgan. Doston bosh qahramoni Alpomish hamisha dushmanlaridan g‘olib keladi. U har qanday mashaqqatlarni engib o‘tadi. Alpomish – o‘tda yonmas, suvda cho‘kmas qahramon. Uni dushmanlari makru hiyla bilan zindonga solganlarida ham o‘ldirolmaydilar.

Xayoliy-fantastik obrazlar folklordagina emas, yozma adabiyotda ham mavjud. Xususan, hozir fantastik asarlarga qiziqish juda kuchli. Fantastik asarlardagi obrazlar kishilarning tasavvurini boyitadi.

Majoziy obrazlar muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so‘fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi.

Majoziy obrazlar adabiyotda keng qo‘llanilib kelinadi. Ular hodisalarning ta'sirchanligini oshirish uchun qo‘llaniladi.

Allegorik, ya'ni kinoyaviy obrazlar ham majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo‘ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe'l-atvoridagi kamchilik, illatlar ko‘rsatiladi. Hamzaning “Toshbaqa va chayon”, A.Krilovning “Bo‘ri va qo‘zichoq” masallarida odamlarning fe'l-atvorlari gavdalantirilgan. Shunday ekan, ularni romantik, realistik, xayoliy-fantastik, majoziy qahramonlar deb atash ham mumkin. Obraz va qahramon istilohlari ayni o‘rinda bir-biriga teng keladi. Umuman, obraz-qahramonda ko‘pchilik kishilarga xos xarakter-xususiyatlar mujassamlashgan bo‘ladi.

Obraz-qahramon haqidagi mulohazalar o‘z-o‘zidan xarakter tushunchasi bilan bog‘lanadi.

## Asosiy adabiyotlar:


1.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2000.

2.Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.


## Qo‘shimcha adabiyotlar:


1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. – Toshkent: Fan, 1978, 1979.

2 Ulug’ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, “Navoiy universiteti”, 2018

4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2013.

5. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.


## Mustaqil ta'lim savollari:

1. Obraz, xarakter, tip: asoslari, umumiylik va o‘ziga xosliklar.
2. Epizodik obrazlar vazifasi
3. Badiiy obraz va xarakter  o‘rtasidagi farq nimada?
4. Badiiy obraz va estetik kotegoriyalar.
5. Obraz va obrazlilik tushunchalari qanday farqlanadi.
6. Badiiy obraz va estetik kategoriyalar.
7. Obraz istilohini qanday tushundingiz?

10.Obrazli tafakkur va tushunchalar asosidagi tafakkurni bir-biriga qiyoslagan holda amalga oshiring. Badiiy obrazning konkretligi deganda nimani tushunasiz?

11.Badiiy adabiyot individuallashtirish orqali umumlashtirishga intilishini o‘z misolingizda tushuntiring.

12. Badiiy obrazning ko‘p ma'noliligi nimalarga bog‘liq deb bilasiz?

13. Badiiy adabiyotda inson obrazini markaziy o‘rin tutishi nimaga bog‘liq?

14. Badiiy obraz turlarining har biriga misollar keltiring.

## Glossariylar

**Obraz** - so‘zning o‘zagi “raz” (chiziq) bo‘lib, undan “razit”(chizmoq, yo‘nmoq, o‘ymoq), undan “obrazit”(chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq) paydo bo‘lgan. Ana shu “obrazit” so‘zidan “obraz” atamasi vujudga kelgan. Bu so‘z “umuman olingan tasvir” ma'nosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashgan xususiyatni o‘zida gavdalantirgan hodisadir.

**Majoziy obrazlar -** muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so‘fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi.

**Portret -** fransuzcha portrait so‘z bo‘lib, “tasvir” degan ma'noni bildiradi. Badiiy asarda portret qahramon obrazini yaratishga asos bo‘ladigan omillar orasida eng muhimidir. Chunki yozuvchi voqyealarda ishtirok etayotgan, o‘ylayotgan, qanaqadir maqsadlari bo‘lgan qahramon qiyofa, ko‘rinishini albatta gavdalantiradi. Qahramon portreti uning suratini ko‘rsatish uchungina emas, balki ruhiy dunyosidagi holat, o‘zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita bo‘ladi.

**Peyzaj -** fransuzcha paysage so‘z bo‘lib, “mamlakat”, “joy” degan ma'noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqyea-hodisalar kechgan joylar ko‘rinishi tasviridir. U qahramonlar holat, kayfiyatini gavdalantirishning muayyan vositasi hisoblanadi.

**Personaj -** badiiy asardagi barcha qahramonlar, jumladan, badiiy xarakter darajasiga ko‘tarilmagan qahramonlar ham personaj hisoblanadi.

**Realistik obrazlar -** xarakter-xususiyatlari, xatti-harakatlari hayotdagi kishilarga mos keladigan obrazlar.

**Romantik obrazlar -** ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siymosidir. Ularda ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to‘g‘risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo‘ladi.

**Xayoliy-fantastik obrazlar -** romantik obrazlarga o‘xshab ketadi. Bu obrazlarda ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo‘ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo‘jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko‘rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy-fantastik obrazlar deyish mumkin.

**Xarakter -** o‘z xatti-harakatlari, maqsad, intilishlari, o‘y-kechinmalari, dunyoqarashi, fe'l-atvori bilan alohida ajralib turadigan to‘laqonli obrazdir. Shuning uchun har qanday obraz badiiy xarakter bo‘la olmaydi. Asardagi etakchi qahramon har jihatdan faol bo‘lsa, o‘zining barcha jihatlari bilan yorqin ko‘rinib tursagina u badiiy xarakter bo‘la oladi.

## Nazorat savollari:

1. Badiiy obraz nima?
2. Adabiy qahramon muammosi.
3. Badiiy to‘qima nima?
4. Badiiy asar qismlari.

5. Badiiy obraz tabiati.
6. Obraz tasnifi.
7. Badiiy obraz yaratish usullari.
8. Obraz genezisi.
9. Obraz, timsol va ramzm masalasi.
10. Inbividual badiiy tafakkur.
11. Ijitimoiy voqyelikka obrazli munosabat
12. Badiiy adabiyot obraz va obrazlilik.
13. Dunyo adabiyotshunosligidagi etakchi obrazlar.
14. O‘zbekona personajalarga yangicha nazariy qarashlari.
15. Yordamchi obrazlar masalasi.
16. Badiiy obraz va xarakter o‘rtasidagi farq nimada?

**Test savollari**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Birisi .. kim, ikki baytka muqarrardur va say' qilurkim, tajnis aytilg‘ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdir». Navoiyning «Mezonul avzon » asaridan olingan ushbu ta'rif qaysi janr haqida aytilgan? | ruboiy | muammo | *tuyuq | murabba' |
| Lirik qahramon kechinmalari qanday asarlarda beriladi? | Loflarda | Maqollarda | *She'riyatda | Topishmoqlarda |
| Sharq mumtoz she'riyatining qaysi shakli evropa adabiyotida ham shunday shakllar paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi? | tazkira | ruboiy | *g‘azal | qasida |
| Bir necha syujet tarmoqlariga ega bo‘ladigan epik va liro-epik asarlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? | qasida, ruboiy, mustazod | qissa, felton, murabba' | *masnaviy, roman, doston | hikoya, esse, qit'a |
| vchilar haqida ma'lumotlar beruvchi | Tuyuq | Memuar asar | Detektiv asar | *Tazkira |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| asarlar qanday nomlanadi? | | | | |
| Bo‘rini dog‘i galadin nur qil,<br>Suv beribon bog‘ni ma'mur qil..<br>Ushbu misralarda gap nima haqida boradi? | *insoniylik haqida | ma'rifatparvarlik haqida | ochko‘zlikni qoralash haqida | xalqparvarlik haqida |

## Ma'ruza 8. Badiiy asar xronotopi

**Reja:**

1. Xronotop nazariyasi.
2. Adabiy makon tushunchasi.
3. Badiiy asarda zamon va makon uyg‘unligi.
4. O‘zbek adabiyotida xronotop masalasi.

**Kalit so‘zlar: xronotop, zamon va makon, zamon va makon chegaralari**

Adabiy zamon va makon tushunchalari badiiy asarning poetik talqini uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunoslikda “xronotop” atamasi bilan yuritiladigan ayni tushunchalarning qamrovi ham, badiiy asar qurilmasiga, mazmun-mohiyatiga oid turli nazariy unsurlar bilan bog‘lanish nuqtalari ham juda keng.

Taassufki, bizda mazkur poetik unsurni batafsil tushunib olish uchun ilmiy adabiyotlar etarli emas. Holbuki, badiiy asar ichkarisida voqyealar yuz beradigan, qahramonlar o‘zaro to‘qnashadigan, uchrashib ajarashadigan adabiy makon va zamon chinakam san'atkor ijodida poetik qator, immanent tizim holatiga kelgan bo‘ladi. Bu ijodkorning iste'dodi, san'atkorligi, fahm-farosati, uslubi, voqyelikni “yurgizish” manerasiga ham daxldor masala, albatta.

Tarixiy-biografik romanlarda zamon va makon chegaralari tanlangan tarixiy shaxs – qahramon hayoti salnomasiga ko‘p jihatdan muvofiq keladi. Bu tabiiy hol. Ammo adabiyot olamidagi tarixiy asarlar turli asoslar ustiga quriladi.

Abdulla Qodiriy havaslanib roman yozishga kirishar ekan, moziyga nazar tashlaydi. Moziy esa zamon va makon jihatdan cheksiz hamda abstraktdir. Adib “moziy”ga aniqlik kiritaroq “yaqin o‘tgan kunlar”, “xon zamonlari” birikmalarini ilova qiladi. Zero, birinchi o‘zbek romani “O‘tkan kunlar”ning nomlanishida zamon-vaqt ifodasi mavjud.

Aslida inson aqli bilan chegaralangan zamon – vaqt eralar, asrlar, yillar, fasllar, oylar, haftalar, kunlar, soatlar... kabi butunlikni, astronomik qatorni tashkil etadi. Ijod ahli tasvirlayotgan voqyea-hodisalarining ishonchlilik quvvatini oshirish uchun shu astronomik vaqtdan turli yo‘sinda o‘z dunyoqarashi, mahorati, fahm-farosatiga qarab foydalanadi. Boshqacharoq aytganda, badiiy asarda zamon – vaqt fizikaviy mazmundan adabiy-falsafiy mohiyatiga ko‘chadi.

Abdulla Qodiriy vaqtdagi “O‘tkan kunlar” mavhumotini romanning birinchi satrlardayoq parchalaydi. Voqyealar sahnaga chiqayotgan zamon alomatini aniq bitib qo‘yadi: “1264-nchi hijriya, dalv oyining 17-nchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...” (Abdulla Qodiriy. Ro‘manlar. “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1994 yil, 3-bet. Keyingi ko‘chirmalarda sahifa raqami ko‘rsatiladi). Romanning boshlanishi shunday, ayni chog‘da, adibning asar ichidagi vaqtni ifodalash prinsiplari ham ushbu jumlada mujassam topgan.

Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida voqelik kechadigan joy holatini juda mayda unsirlari, kichkina detallarigacha o‘rganib, erinmasdan tasvirlagani ko‘rinadi (Qutidor hovlisining tasvirini bir eslang). Qolaversa, adib manbalarni puxta o‘rganishi, biror joy to‘g‘risida asar yozmoqchi bo‘lsa, o‘sha joyni bir necha marta borib ko‘rishi, mayda detallarga, masalan o‘sha joyda biror daraxt bo‘lsa, ularning eski-yangiligi, agar ularda qandaydir qushlar bo‘lsa, ularning o‘tirish holatlarigacha e'tibor berishini e'tirof etadi. «Umuman mayda detallar o‘quvchida yozuvchiga ishonch uyg‘otadi», deya ta'kidlaydi. Shu ma'noda Abdulla Qodiriy Qo‘qon o‘rdasini bir necha borib ko‘rganiga shubha yo‘q.

Adib romanlarida o‘rdadan boshqa bir qator mayda xronotoplar bor. Biz bu o‘rinda o‘rdani qisqacha, bir sidra kuzatdik, xolos. Albatta, o‘rda adabiy xronotop, ammo o‘zgarmas va abadiy emas.

Xullas, badiiy asardagi adabiy makon va zamon aniqligi tasvirning ishonchli, obrazning yorqin bo‘lishiga, shu binlan birga ba'zan asar syujetidagi tugun, voqyealar rivoji va echimiga jiddiy ta'sir qiladi.

## Asosiy adabiyotlar:


1.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
2.Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.


## Qo‘shimcha adabiyotlar:


1. Норматов У. Нафосат гурунглари. – Т.: Муҳаррир, 2010.
2. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006.
3. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004.
4. Шарқ мумтоз поэтикаси: манба ва талқинлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
5. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004.
6. Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
7. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. Тошкент, “Навоий университети”, 2018
8. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Т.: Фан, 2008.
9. “Ўзбек адабий танқиди”. Антология. – Т.: Турон-Иқбол, 2011.
10. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.


## Mustaqil ta'lim savollari

1. Xronotop so‘zining lug‘aviy ma'nosini izohlang.

2. Badiiy adabiyotda xronotop masalasining o‘rganilish darajasi haqida fikrlaringizni bildiring.

3. Adabiy makon tushunchasi.

4. Xaos va kosmos atamalarini izohlang.

5. Badiiy asardagi zamon tasviri.

6. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi zamon va makon tasvirini tushuntiring.

## Glossariy

**Xronotop – (**yunoncha zamon va vaqt, makon, joy) badiiy asardagi janr, kompozitsiya, syujet, matn strukturasi, obrazlarni uyg‘un aks ettiruvchi universal poetik hodisa. Shuningdek, zamon va makonning kenglik, balandlik, chuqurlikdan tashqari to‘rtinchi, ya'ni umumlashtiruvchi o‘lchovdir.

**Ijodiy niyat** – badiiy ijod jarayonidagi ilk bosqich. Ijodiy niyat san'atkorning voqyelik bilan munosabati, voqyelikni O‘ZIChA (o‘zining estetik ideali, dunyoqarashi, sajiyasi, madaniy-ma'rifiy darajasi, hayotiy va ijodiy tajribasi, tug‘ma iste'dodi quvvati asosida) qabul qilishi va idrok etishi.

**Inversiya** – (lotincha ag‘darish, o‘rin almashatirish) she'riy nutqda eng ko‘p qo‘llanuvchi, deyarli barcha she'rlarda uchraydigan sintaktik usuldir. Inversiya ma'no urg‘usi tushayotgan so‘zni ta'kidlab ko‘rsatish, uni misradagi urg‘uli pozitsiya – ko‘proq misra oxiriga surish imkonini beradi.

**Inssenirovka** – (lotincha sahna) aslida sahnaga mo‘ljallab yozilmagan asarlarni sahnalashtirish uchun qayta ishlash.

**Muallif nutqi** – adabiy asardagi bevosita muallif tilidan berilgan bayon, tavsif, izoh o‘rinlari.

**Muallif obrazi** – badiiy asar matnida anglashilib turuvchi muallif shaxsi. muallif shaxsi asar badiiy voqyeligiga singib ketadi, chunki badiiy voqyelik ijodkor tomonidan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta yaratilgan voqyelikdir.

## Keyslar banki

**Keys 1.** Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida voqyealar aynan qaysi zamon va makonda sodir bo‘ladi?

**Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:**

• Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

## TEST SAVOLLARI

**1. Asar qahramonlarining tashqi qiyofasi, ko‘rinishi, yurish turishi, xatti-harakati, kiyinishi, libosi tasviri nima deb yuritiladi?**

a) Konflikt

b) Kompozitsiya

v) Voqyealar tuguni
g) Fabula

**2. Muallifning o‘quvchiga o‘z maqsadining muddaosini ma'lum qilib, vasari to‘g‘risida tushuntirish, izoh berishi nima deyiladi?**
a) Tugun
b) Xotima
v) Muqaddima
g) Ekspozitsiya

**3. Qahramonlarning asar syujeti voqyealari tamom bo‘lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qism nima deyiladi?**
a) Xotima
b) Ekspozitsiya
v) Syujet
g) Voqyealar tuguni

4. **«Portret» qaysi tilga oid so‘z va qanday ma'noni bildiradi?**
a) Italyancha tiliga «Qoida»
b) Fransuz tiliga «Tasvir»
v) Yunon tiliga «Sharh»
g) Ingliz tiliga «Tabiat»

**5. Badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqyealik xodisalarning kechgan joylar ko‘rinishi tasviri nima deyiladi?**
a) Portret
b) Peyzaj
v) Kompozitsiya
g) Konflikt

**6. Fransuzcha so‘z bo‘lib, «mamlakat», «joy» degan ma'noni bildiradigan so‘z qaysi javobda ko‘rsatilgan?**
a) Peyzaj
b) Portret
v) Ekspozitsiya
g) Kulminatsiya

7. **Bir xil mavzuga bag‘shlangan, bir xil qahramonlar taqdiri naql asarlar nimaga asoslangan bo‘ladi?**
a) Bir xil syujetga
b) Sayyor syujetga
v) Turli syujetga
g) Turli mavzularga

8. **Yunoncha so‘z bo‘lib, «ikki kishi o‘rtasida so‘zlashuv» degan ma'noni bildiradigan so‘z qaysi javobda ko‘rsatiladi?**

a) Monolog
b) Portret
v) Ekspozitsiya
g) Syujet

**9. Sharq mumtoz adabiyotida qanday so‘zlar «Mutashobih» so‘zlar deb yuritilgan?**

a) Omonim so‘zlar
b) Sinonim so‘zlar
v) Antonim so‘zlar
g) Neologizmlar

**10. Narsaning xodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan ko‘chim nima deyiladi?**

a) Istiora
b) Tashbeh
v) Metofora
g) Omonim

## Ma'ruza 9. Badiiy nutq va uslub

**Reja:**

1. Badiiy asar tilining o‘ziga xosligi.
2. Badiiy nutq va uslub masalasi.
3. Badiiy nutq tarkibi: nasr va nazm.
4. Badiiy nutq ta’sirchanligini oshiruvchi omillar.
5. Muallif va qahramon nutqi.

**Kalit so‘zlar: badiiy nutq, adabiy nutq, poetik nutq, nutq turlari, uslub komponentlari.**

Badiiy xarakter muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o‘zida uyg‘un mujassam etgan inson obrazi. Badiiy xarakter o‘zida ob'ektiv va sub'ektiv jihatlarni birlashtiradi. Inson hayotining ijtimoiy-psixologik realligi badiiy xarakterning ob'ektiv tomoni bo‘lsa, uning ijodkor tomonidan hissiy idrok etilishi va g‘oyaviy-hissiy baholanishi sub'ektiv tomonidir. Badiiy xarakterning sub'ektiv jihati, bir tomondan, uning ijodkor tomonidan yaratilgan yangi mavjudlik, badiiyat hodisasi bo‘lishini; ikkinchi tomondan, uning konseptual funksiyasi badiiy xarakter orqali amalga oshadi, ya'ni jamiyatning joriy holati xarakterlar vositasida badiiy tadqiq etiladi va yaxlit konsepsiya ishlab chiqiladi. Aytish kerakki, badiiy xarakterning bu qadar katta ahamiyat kasb etishi ko‘proq adabiyot taraqqiyotining so‘nggi davrlarida kuzatiladi. Xususan, antik adabiyotda badiiy konsepsiyani ifodalashda xarakter emas, tasvirlangan voqyeaning o‘zi hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Negaki, antik ijodkorlar uchun xarkterning muayyan turg‘un tiplari (zolim, mushfiq va boshq.) mavjud bo‘lib, ular asar syujetida shu tipga mos harakatlantirilgan. Uyg‘onish davriga kelib esa, qahramon bu turg‘un xususiyatlarni o‘zgartirish, turli niqoblarda harakat qilish imkoniga ega bo‘lgan, ya'ni antik adabiyotga nisbatan bunda xarakter individual chizgilar ham kasb etgan. Xullas, jamiyatda shaxs maqomining o‘zgarib borishi barobarida badiiy xarakterda individuallik salmog‘i ortib, inson xarakteri unga tabiatan ato etilgan turg‘un xususiyatlar jamigina emas, ayni chog‘da, davr va muhitning mahsuli ekani ham anglanib borgan va shu tariqa realizm bosqichiga yaqinlashgan sari adabiyotda badiiy xarakterning roli va ahamiyati ham ortgan. Realizm adabiyotida badiiy xarakter hayotni ko‘lamli va teran badiiy idrok etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Zero, badiiy xarakterlarning shakllanishi va rivojlanishi, hayotiy amallari, o‘zaro kurashlari, ruhiyati va shu kabilarni tasvirlash orqali voqyealikni tatroflicha chuqur badiiy idrok etish, unga g‘oyaviy-hissiy baho berish – badiiy konsepsiyani shakllantirish va ifodalash mumkin bo‘ladi.

Badiiy asar tili bilan adabiy til o‘rtasida muayyan tafovut mavjud. Ular aynan bir hodisa emas. Avvalo, badiiy asar tili adabiy tilga nisbatan keng hodisadir. Chunki unda adabiy tilning o‘zi ham, sheva, kasb-hunar, jargonga oid so‘zlar ham, tasviriy ifodalar, turli iboralar ham mujassamlashgan bo‘ladi. Adabiy til esa me'yoriy grammatika qoidalariga asoslangan, umumiy talaffuz qoidalariga ega bo‘lgan va shu asosda xalq jonli tilidagi har xilliklarni bir xillashtirib olgan til sanaladi. Shu boisdan o‘quv-ta'lim ishlari, rasmiy ish qog‘ozlari, ilm-fan, publitsistika, matbuot adabiy tilda olib boriladi. Adabiy til ham millat madaniyatining o‘ziga xos bir ko‘rinishidir.

Badiiy asar tili muallif tili, personajlar tili, dialog, monolog, arxaik so‘zlar, shevaga, kasb-hunarga oid so‘zlar, jargonlar, neologizmlar, antonim, sinonim, omonim, badiiy tasvir vositalari (*metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, jonlantirish, sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a, poetik sintaksis (intonatsiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, antiteza, ritorik munosabat, ritorik so‘roq*) kabilardan tarkib topgan bo‘ladi. Bu unsurlar badiiy asar tilining jozibali, ta'sirchan bo‘lishini ta'minlaydi. Muallif personajlarning tashqi qiyofasi, ichki kechinmalarini tasvirlash bilan ularni so‘zlatadi. So‘zlatganda ulardan har birining nutqiga alohida e'tibor beradi. Chunki personajlarning har biri o‘ziga xos tarzda gavdalanishi, ularning gap-so‘zlari ana shu xususiyatini yorqin namoyon etishi lozim. Qahramonning diqqatni jalb etadigan birinchi belgisi uning nutqidir.

Asar qahramonlari nutqi dialog va monolog shaklida ifoda etiladi.

Dialog, monolog asarni ta'sirchan qiladigan vositalar sirasiga kiradi. Dialog yunoncha dialogos so‘z bo‘lib, “ikki kishi o‘rtasidagi so‘zlashuv” degan ma'noni anglatadi. Monolog ham yunoncha (monos – bir va logos – so‘z, nutq) so‘z bo‘lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o‘z-o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.

Monologlar namoyon bo‘lish tarziga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: tashqi monolog va ichki monolog. Tashqi monolog qahramonning o‘z nutqini ovoz chiqarib bayon etishi bo‘lsa, ichki monolog uning ichki o‘y-kechinmalaridir. Tashqi monolog

shakli ko‘proq drama, komediya, tragediyada qo‘llansa, ichki monolog barcha janrlardagi asarlarda keng ishlatiladi.

Badiiy asarlarda antonim, sinonimlardan tashqari, ko‘chimlardan ham foydalaniladi. Ko‘chim so‘z yoki so‘z birikmasining o‘z ma'nosidan boshqa ma'noda qo‘llanishidir. Ko‘chim trop deb ham yuritiladi. Ko‘chimlar ham nutq ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ko‘chimlar bir necha turlarga bo‘linadi: metafora (istiora), metonimiya, sinekdoxa, allegoriya (majoz) kabilar.

Metafora yunoncha metaphora so‘z bo‘lib, “ko‘chirish” degan ma'noni anglatadi. Metafora o‘xshashli ko‘chimdir. U narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan bo‘ladi. Biroq metafora aynan o‘xshatish emas. Metafora bilan o‘xshatish bir-biridan birmuncha farq qiladi. Masalan, o‘xshatishda albatta ikki yoki uch o‘xshatiluvchi narsa bo‘ladi. Ular soni istalgancha ko‘payib, kengayib borishi ham mumkin. Masalan, Cho‘lponning “Xalq” she'rida bir necha o‘xshatish ketma-ket qo‘llangan.

## Asosiy adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.

### Qo‘shimcha adabiyotlar:

3. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. – Тошкент: Фан, 1978, 1979.
4. Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
5. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. Тошкент, “Навоий университети”, 2018
6. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Т.: Фан, 1973.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013.

### Mustaqil ta'lim savollari:

1. Badiiy asar tili: avtor va personaj tili.
2. Badiiy asar tili, xalq tili va adabiy til o‘rtasidagi mushtarakliklar.
3. Badiiy tasvir vositalari: sodda va murakkab majozlar.
4. Badiiy asar tilining o‘ziga xosligi.
5. Badiiy nutq va uslub masalasi.

### Glossariylar

**Varvarizm** - Ona tiliga o‘zlashmagan, o‘zga til hodisasi sifatida qo‘llangan so‘z yoki ibora: madam, missis, mersi...

**Vulgarizm** - Adabiy tilga kirmaydigan dag‘al so‘z va iboralar.

**Geminatsiya** - Qo‘sh undoshlik. Ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi: uchchida, teppasida...

**Giperbola** - Narsa-hodisa, jarayonlarning belgi-xususiyatini, holatini o‘ta bo‘rttirib tasvirlash.

**Gradatsiya** - Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishidan iborat uslubiy jarayon.

**Demunitiv shakl** - Kichraytirish shakli (deminutiv shakl, deminitus): qizcha, tugunchak, kelinchak.

**Jargon** - fransuzcha jargon so‘z bo‘lib, “buzilgan til” degan ma'noni bildiradi. Binobarin, jargon sun'iy, yasama tildir. U muayyan guruh kishilari doirasidagina qo‘llanadi. Jargon so‘zlar ham barcha kishilarning nutqida ishlatiladigan so‘z, iboralardan tarkib topgan bo‘ladi.

**Intonatsiya** - lotincha intonare so‘z bo‘lib, “qattiq talaffuz etish” degan ma'noni bildiradi. U so‘zlovchining, asar muallifining hodisaga munosabatini anglatuvchi ifoda vositasi sanaladi. Badiiy asarda intonatsiyani turli tinish belgilari, misralarning joylashish tarzi bildirib turadi.

**Inversiya** - lotincha inversi so‘z bo‘lib, “o‘rin almashtirish” degan ma'noni bildiradi. Bunda gap bo‘laklari grammatika me'yorlari tartibidan farqliroq tarzda qo‘llanadi. Inversiya ta'kidlanmoqchi bo‘lgan fikrga mantiqiy urg‘u berish, uni kuchaytirish, ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llanadi.

**Intellektual leksika** - Ma'lum bir tushunchanigina ifodalab, qo‘shimcha emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lmagan so‘zlar.

**Ironiya** - So‘z va iboralarning kesatiq yoki piching bilan o‘z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi.

**Kalambur** - So‘z o‘yini. Ko‘p ma'noliligiga, fonetik tuzilishi bir xilligiga yoki yaqinligiga asoslanadigan usul.

**Kontaminatsiya** - Biror munosabat, tasavvurga ko‘ra o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki so‘z yoki iborani birlashtirish yo‘li bilan yangi so‘z yoki iboraning hosil bo‘lishi. Masalan, erga tegmoq // turmushga chiqmoq q erga chiqmoq.

**Lirik chekinish** - ijodkorning syujet voqyealarini to‘xtatib, ular tufayli o‘zida paydo bo‘lgan ichki kechinmalarni bayon etishi.

**Maqol** - Chuqur ma'noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega bo‘lgan folklor janri.

**Majoz** - Mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni aniq obraz orqali ifodalash. Ayyorlik belgisiga egalik-tulki.

**Evfemizm** - Narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi, ikkiqat-og‘iroyoqli, homilador.

**Evfoniya** - Nutqning tovushlar takrori orqali yuzaga chiqariladigan xushohangligi.

**Ekzotizm** - O‘zlashgan so‘zlar, nutqqa alohida bir o‘ziga xoslik berish uchun qo‘llaniladigan so‘zlar.

**Ekspressiya** - Nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi va ma'nodor bo‘lishi.

**Emotsiya** - Insoniy his-tuyg‘u, kechinma va hissiyotlarning til birliklarida ifodalanishi.

**Emfaza** - Nutqning ko‘tarinki ruhda bo‘lishi, emotsionallikning kuchli bo‘lishi: Amr et, Tojixon, amr et... Emfaza takror yordamida yuzaga chiqyapti.

**Enantiosemiya** - Bir so‘zning semantik tuzilishida zid ma'nolarning yuzaga kelishi. Chiqmoq-ichkaridan tashqariga harakatlanish, transportda ichkariga harakatlanish. Bosh-yo‘lning boshlanishi va yakuni.

**Epifora** - Anaforaning teskarisi. Parallel tuzilgan nutq parchalari oxirida ayni bir elementning takrorlanishidan iborat uslubiy vosita.

## Keyslar banki

**Keys 1.** Bir guruh olimlar yozilgan badiiy asarni oʻqib uni yozgan inson ayol yoki erkak ekanligini aniqlasa boʻladi deb hisoblaydilar. Agar asarda ayollar obrazi, xarakteri, ichki kechinmalari mohirona tasvirlangan boʻlsa, demak, bu asarni ayol yozuvchi yozgan, aksincha boʻlsa yozuvchi erkak boʻladi. Savol: sizningcha, badiiy asarni oʻqib yoning muallifi kim ekanligini aniqlab boʻladimi?.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

• Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

## Nazorat savollari:

1. Muallif nuqti, qahramon nutqi.
2. Badiiy asar tiliga xos xususiyatlarning germenevtik talqini.
3. Dunyo adabiyotshunosligida lingvistik metod.
4. Poetik nutq qirralari.
5. Qahramonlar nutqi masalasi.

## TEST SAVOLLARI

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Xatting aro uzoring sabza ichida lola,<br>Ul chashmi pur xumoring loladagi gʻazola<br>Barcha parilar, ey jon, girdingda zoru hayron<br>Goʻyo erur namoyon oy tegrasida xola.<br><br>Boburning mazkur gʻazali qofiyalanishiga koʻra-..... | oddiy gʻazal | gʻazali husni matla' | gʻazali zulqofiyatayn | *gʻazali musajja' |
| Tigʻi ishqing yorasidur butmagan<br>Dardini har kimga aytib butmagan<br>Hajr sahrosidur ohim oʻtidin,<br>Anda gul yohud giyoh butmagan.<br><br>iga mansub mazkur tuyuqda «butmagan» | tugamagan, tuzalmagan, unib-oʻsmagan | *tuzalmagan, tugamagan, unib-oʻsmagan | tuzalmagan, aytmagan, oʻsmagan | yaralgan, aytolmagan, unmagan |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| so‘zining ma'nolarini izohlang? | | | | |
| Masnaviy qofiya shakli qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? | a-b, v-g, g-b | a-a-a-b | *a-a, b-b, v-v | a-a-b-a |
| Faqat juft misralarigina qofiyalanadigan she'rlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? | qit'a, ruboiy, muxammas | *mustahzod, tarjiband, g‘azal | qit'a, qasida, masnaviy | ruboiy, tuyuq, fard |
| Ey yor, sango ushbu jahon bog‘i aro gul,<br>Bir oshiqi hayron, diydoriga shaydo.. (Ogahiy)<br>Ushbu she'r shaklining nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? | ruboiy | qit'a | *mustazod | Masnaviy |
| Boburning «Beqaydmenu xarobi siym ermasmen, Ham mol yig‘ishtirur laim ermasmen..» misralari bilan boshlanuvchi she'rining janrini aniqlang. | *ruboiy | qit'a | g‘azal | Mustazod |
| Quyida keltirilgan ta'rif qaysi she'riy shaklniki?<br>«Va yana ba xalq arosida bir surur bor ekandurkim, hajazi musammani ahrabi makfuf maqsuf vaznida anga bayt bog‘lab bitib, aning misrasidan so‘ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘omotig‘a keltur201rlar ermish va aniq derlar ermish». | muxammas | *mustazod | murbba' | masnaviy |
| Navoiy «Mezonul - avzon» asarida | masnaviy | muvashshah | *mustazod | tahmis |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| «qo‘shiq» deb ham atagan janr nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? | | | | |
| kun ko‘chada bir mahliqoni hayron bo‘la qoldim, ko‘nglum o‘yi topti ziyoni, Raxshon bo‘la qoldim - baytlari bilan boshlanuvchi she'riy asar qaysi janrga mansub? | muxammas | musaddas | musabba' | *mustazod |

## 10 – ma’ruza: Adabiy tur va janrlar nazariyasi:epos va uning janrlari

**Reja:**

1. Adabiy tur va janrlar tarixiga doir.
2. Janrlar genezisi.
3. Adabiy turlar spetsifikasi.
4. Epik tafakkur tabiati:

a) tasvirning ob’yektivligi;
b) voqeabandligi;
c) ko’lamdorligi.

5. Epik tur janrlari: roman, epopeya, povest (qissa), hikoya (novella), ocherk, latifa, ertak, feleton,..

**Kalit so‘zlar: janr, tur, jins, genezis,epos, lirika, satira, yumor, drama, teatr.**

Adabiy tur va janrlar tarixiy kategoriya hisoblanadi. Chunki adabiy turlar va janrlarning paydo bo’lishi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot hamda adabiy jarayon bilan uzviy bog’liqdir. Shu sababdan adabiy turlar va janrlar problemasini chuqur o’rganish adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Inson tafakkurining bu kashfiyoti mustahkam zaminga asoslangani uchun ham Aristotel (er.avvalgi 384-322 yillar) “Poetika” asarida so‘z san'ati asarlarini uch tur – epos, lirika, dramaga bo‘lib sharhlaydi.

“Janr” fransuzcha genre so‘z bo‘lib, “tur”, “jins” degan ma'noni anglatadi. Bu termin dastlab san'at va adabiyot atamasi sifatida XVI asrda Fransiyada qo‘llana boshlagan. Adabiy janr asarlarning kompozitsion qurilishi, tasvirlash yo‘llari, vositalari, bayon usullari, hodisalarni qamrash ko‘lamiga ko‘ra ko‘rinishidir. Janr o‘zgaruvchan, boyib boradigan hodisadir. Ayni paytda u ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy taraqqiyot jarayonida iste'moldan qolib ketishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xoslikdir.

“Epos” deganda hozir nasriy asarlar tushuniladi. Roman, qissa, hikoya, masal, ertak kabi janrlar epik turga mansub asarlar deyiladi. Epos yunoncha epos so‘z bo‘lib, “so‘z”, “nutq”, “hikoya” degan ma'noni anglatadi. Bu atama keng va tor ma'noda

qo‘llanadi. Epos keng ma'noda voqeaband asardir. Bundan ayonki, she'riy yo‘lda yozilgan asar ham epos bo‘lishi mumkin. Voqealarni hikoya qilish ustuvor bo‘lgan eposda hodisalarni bayon etish shakli va usullari davr o‘tishi bilan o‘zgarib, boyib borgan. Qadimgi epik asarlarda voqealar o‘tgan zamon shaklida ifodalangan bo‘lsa, hozirgi roman, qissa, hikoyalarda hozirgi yoki o‘tgan zamonda boshlanib, ayni paytda ham davom etayotganday yoki yana boshqacha tarzda naql qilinadi. Epik asarlar voqealarni aks ettirish jihatidangina emas, balki inson ruhiy olamini chuqur tahlil qilishi bilan ham yangi imkoniyatlarni namoyon etmoqda.

Akademik Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” darsligida epik turning uch muhim xususiyatini – *tasvirning ob’yektivligini, voqebandligi* va *ko’lamdorligi*ni alohida ajratib ko’rsatadi.

**11 – ma’ruza: Lirik tur va uning janrlari**

Reja:

1. Adabiy tur janrlar tarixiga doir.
2. Adabiy turlar spetsifikasi.
3. Lirika va inson ruhiyati, his-tuyg’ulari.
4. O’zbek she’riyatida lirikaning turlari: publisistik lirika, intim lirika, simvolik-ramziy lirika, hajviy lirika.
5. Lirik tur janrlari: g’azal, fard, ruboiy, tuyuq, murabba’, qo’shiq, marsiya, lapar, qasida, muxammas, musaddas, musabba’, musamman, mutassa’, muashshar, sonet, tarji’band, tarkibband, soqiynoma,..
6. Liro-epik asarlar: doston (poema), ballada, masal…

**Kalit so‘zlar:** janr, tur, jins, genezis,epos, lirika, satira, yumor, drama, teatr.

Inson tafakkurining bu kashfiyoti mustahkam zaminga asoslangani uchun ham Aristotel (er.avv. 384-322 yillar) “Poetika” asarida so‘z san'ati asarlarini uch tur – epos, lirika, dramaga bo‘lib sharhlaydi.

“Janr” fransuzcha genre so‘z bo‘lib, “tur”, “jins” degan ma'noni anglatadi. Bu termin dastlab san'at va adabiyot atamasi sifatida XVI asrda Fransiyada qo‘llana boshlagan. Adabiy janr asarlarning kompozitsion qurilishi, tasvirlash yo‘llari, vositalari, bayon usullari, hodisalarni qamrash ko‘lamiga ko‘ra ko‘rinishidir. Janr o‘zgaruvchan, boyib boradigan hodisadir. Ayni paytda u ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy taraqqiyot jarayonida iste'moldan qolib ketishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xoslikdir.

Lirik turdagi asarlar ham xuddi nasriy va dramatik asarlar singari mavzu yo‘nalishi, ifoda uslubiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi: intim lirika, publitsistik lirika, hajviy lirika.

Tadqiqotlarda “liro-epik” termini qo‘llaniladi. Doston, poema, ballada liro-epik turga mansub janrlar deyiladi. Chunki bu janrlardagi asarlarda hayot hodisalari g‘azal, tuyuq, ruboiy kabilardan keng ko‘rsatilgan, ularda ma'lum bir voqyea bayon etilgan bo‘ladi. Doston, poema, ballada ma'lum voqyelikni xuddi roman, qissa, hikoyaga xos bayon qilish tarzi bilan epik asarga o‘xshasa, muallif

kechinma, his-tuyg‘ulari izhorining keng o‘rin egallashi bilan xuddi lirik asarday taassurot qoldiradi. Doston, poema, balladaning bu xususiyati ham adabiy turlar yaxlit bir hodisa ekanligi, ular o‘rtasiga Xitoy devori tiklab qarash nojoiz ekanligidan dalolat beradi.

“Doston” va “poema” terminlari o‘zbek adabiyotshunosligida ko‘pincha bir-birining muqobili sifatida qo‘llanadi. Bu unchalik to‘g‘ri emas. Chunki dostonlar masnaviyda yozilgan, ularda nasriy parchalar ham mavjud bo‘ladi. Poema yunoncha poieni, poiema so‘z bo‘lib, “ijod qilmoq, ijod” degan ma'noni bildiradi (O‘zga tillardan kirib kelgan so‘zlarning o‘zbekchada qanday ma'no anglatishini darrov bilging keladi. Lekin doimo ishlatib keladigan o‘z tilingga oid “doston” singari so‘zlarning qanday paydo bo‘lgani, etimologiyasi, alohida so‘z sifatida qanday ma'no anglatishi haqida ko‘p ham o‘ylab ko‘rmaysan kishi. Bu ham so‘zning sir-sinoatlaridan biri bo‘lsa kerak...).

## 12- ma’ruza: Dramatik tur va uning janrlari

Reja:

1. Adabiy tur janrlar tarixiga doir.
2. Adabiy turlar spetsifikasi.
3. Dramatik tur va uning o’ziga xos xususiyatlari.
4. Dramatik tur janrlari: drama, komediya, tragediya.
5. Dramatik asarlar va teatr san’ati haqida.
6. Hozirgi adabiy jarayon va dramaturgiya.

**Kalit so‘zlar:**janr, tur, jins, genezis,epos,lirika,satira, yumor,drama, teatr.

Inson tafakkurining bu kashfiyoti mustahkam zaminga asoslangani uchun ham Aristotel (er.avv. 384-322 yillar) “Poetika” asarida so‘z san'ati asarlarini uch tur – epos, lirika, dramaga bo‘lib sharhlaydi.

“Janr” fransuzcha genre so‘z bo‘lib, “tur”, “jins” degan ma'noni anglatadi. Bu termin dastlab san'at va adabiyot atamasi sifatida XVI asrda Fransiyada qo‘llana boshlagan. Adabiy janr asarlarning kompozitsion qurilishi, tasvirlash yo‘llari, vositalari, bayon usullari, hodisalarni qamrash ko‘lamiga ko‘ra ko‘rinishidir. Janr o‘zgaruvchan, boyib boradigan hodisadir. Ayni paytda u ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy taraqqiyot jarayonida iste'moldan qolib ketishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xoslikdir.

Drama turiga mansub barcha asarlar ham qahramonlar harakati va ruhiy holatini ko‘rsatishga asoslangan bo‘ladi. Drama so‘zi yunoncha drama so‘z bo‘lib, u “harakat” degan ma'noni bildiradi. Drama turiga mansub asarlarda qahramonlar kayfiyati, qarashlaridagi o‘zgarishlar ularning dialog, monologida aks etadi. Bu dialog va monologlar muayyan hodisani keng gavdalantirishi bilan epik turga mansub asarlarga, voqyealarni faqat qahramonlar nutqi orqali ma'lum qilish bilan esa lirik asarlarga o‘xshaydi. Hayotni badiiy aks ettirishning ikki turiga xos sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgani bois drama turiga mansub asarlar so‘z san'atining yuksak cho‘qqisi deb ta'riflanadi.

Drama turiga mansub asarlar ham tanlangan mavzusi va uni yoritishiga qarab janrlarga bo‘linadi. Bular: **drama, komediya, tragediya** janrlaridir. Ular muayyan umumiyliklarga va ma'lum bir o‘ziga xosliklarga ega. Masalan, fojelikni

ko‘rsatish asosiy o‘rin tutgan tragediyada komediyaga xos kulgili holatlar bo‘lishi yoki drama janridagi asarlarda ham qahramonlar o‘lishi, olishuvlar, qotilliklar namoyon qilinishi mumkin.

## 13 – ma’ruza: Satira va yumor – mustaqil ijod turi

Reja:

1. Satira va yumor – mustaqil ijod turi.
2. Satira va uning o’ziga xos jihatlari.
3. Yumor va uning o’ziga xos jihatlari.
4. Nasriy asarlarda hajv.
5. Lirik asarlarda hajv ko’rinishlari.
6. Dramatik asarlarda satira va yumor.
7. Adabiy janrlarga xos tafovutlar.

**Kalit so‘zlar: janr, tur, jins, genezis,epos, lirika, satira, yumor, drama, teatr.**

Inson tafakkurining bu kashfiyoti mustahkam zaminga asoslangani uchun ham Aristotel (er.avv. 384-322 yillar) “Poetika” asarida so‘z san'ati asarlarini uch tur – epos, lirika, dramaga bo‘lib sharhlaydi.

“Janr” fransuzcha genre so‘z bo‘lib, “tur”, “jins” degan ma'noni anglatadi. Bu termin dastlab san'at va adabiyot atamasi sifatida XVI asrda Fransiyada qo‘llana boshlagan. Adabiy janr asarlarning kompozitsion qurilishi, tasvirlash yo‘llari, vositalari, bayon usullari, hodisalarni qamrash ko‘lamiga ko‘ra ko‘rinishidir. Janr o‘zgaruvchan, boyib boradigan hodisadir. Ayni paytda u ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy taraqqiyot jarayonida iste'moldan qolib ketishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xoslikdir.

“Epos” deganda hozir nasriy asarlar tushuniladi. Roman, qissa, hikoya, masal, ertak kabi janrlar epik turga mansub asarlar deyiladi. Epos yunoncha epos so‘z bo‘lib, “so‘z”, “nutq”, “hikoya” degan ma'noni anglatadi. Bu atama keng va tor ma'noda qo‘llanadi. Epos keng ma'noda voqyeaband asardir. Bundan ayonki, she'riy yo‘lda yozilgan asar ham epos bo‘lishi mumkin. Voqyealarni hikoya qilish ustuvor bo‘lgan eposda hodisalarni bayon etish shakli va usullari davr o‘tishi bilan o‘zgarib, boyib borgan. Qadimgi epik asarlarda voqyealar o‘tgan zamon shaklida ifodalangan bo‘lsa, hozirgi roman, qissa, hikoyalarda hozirgi yoki o‘tgan zamonda boshlanib, ayni paytda ham davom etayotganday yoki yana boshqacha tarzda naql qilinadi. Epik asarlar voqyealarni aks ettirish jihatidangina emas, balki inson ruhiy olamini chuqur tahlil qilishi bilan ham yangi imkoniyatlarni namoyon etmoqda.

Lirik turdagi asarlar ham xuddi nasriy va dramatik asarlar singari mavzu yo‘nalishi, ifoda uslubiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi: intim lirika, publitsistik lirika, hajviy lirika.

Tadqiqotlarda “liro-epik” termini qo‘llaniladi. Doston, poema, ballada liro-epik turga mansub janrlar deyiladi. Chunki bu janrlardagi asarlarda hayot hodisalari g‘azal, tuyuq, ruboiy kabilardan keng ko‘rsatilgan, ularda ma'lum bir voqyea bayon etilgan bo‘ladi. Doston, poema, ballada ma'lum voqyelikni xuddi roman, qissa, hikoyaga xos bayon qilish tarzi bilan epik asarga o‘xshasa, muallif kechinma, his-tuyg‘ulari izhorining keng o‘rin egallashi bilan xuddi lirik asarday

taassurot qoldiradi. Doston, poema, balladaning bu xususiyati ham adabiy turlar yaxlit bir hodisa ekanligi, ular oʻrtasiga Xitoy devori tiklab qarash nojoiz ekanligidan dalolat beradi.

“Doston” va “poema” terminlari oʻzbek adabiyotshunosligida koʻpincha bir-birining muqobili sifatida qoʻllanadi. Bu unchalik toʻgʻri emas. Chunki dostonlar masnaviyda yozilgan, ularda nasriy parchalar ham mavjud boʻladi. Poema yunoncha poieni, poiema soʻz boʻlib, “ijod qilmoq, ijod” degan ma'noni bildiradi (Oʻzga tillardan kirib kelgan soʻzlarning oʻzbekchada qanday ma'no anglatishini darrov bilging keladi. Lekin doimo ishlatib keladigan oʻz tilingga oid “doston” singari soʻzlarning qanday paydo boʻlgani, etimologiyasi, alohida soʻz sifatida qanday ma'no anglatishi haqida koʻp ham oʻylab koʻrmaysan kishi. Bu ham soʻzning sir-sinoatlaridan biri boʻlsa kerak...).

Drama turiga mansub barcha asarlar ham qahramonlar harakati va ruhiy holatini koʻrsatishga asoslangan boʻladi. Drama soʻzi yunoncha drama soʻz boʻlib, u “harakat” degan ma'noni bildiradi. Drama turiga mansub asarlarda qahramonlar kayfiyati, qarashlaridagi oʻzgarishlar ularning dialog, monologida aks etadi. Bu dialog va monologlar muayyan hodisani keng gavdalantirishi bilan epik turga mansub asarlarga, voqyealarni faqat qahramonlar nutqi orqali  ma'lum qilish bilan esa lirik asarlarga oʻxshaydi. Hayotni badiiy aks ettirishning  ikki turiga xos sifatlarni oʻzida mujassamlashtirgani bois drama turiga mansub asarlar soʻz san'atining yuksak choʻqqisi deb ta'riflanadi.

Drama turiga mansub asarlar ham tanlangan mavzusi va uni yoritishiga qarab janrlarga boʻlinadi. Bular: **drama, komediya, tragediya** janrlaridir. Ular muayyan umumiyliklarga va ma'lum bir oʻziga xosliklarga ega. Masalan, fojelikni koʻrsatish asosiy oʻrin tutgan tragediyada komediyaga xos kulgili holatlar boʻlishi yoki drama janridagi asarlarda ham qahramonlar oʻlishi, olishuvlar, qotilliklar namoyon qilinishi mumkin.

## Asosiy adabiyotlar:


1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.


### Qoʻshimcha adabiyotlar:


1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. – Тошкент: Фан, 1978, 1979.
2. Улуғов А. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Университет, 2018.
3. Қуронов Д. Адабиётшунослик назарияси асослари. – Т.: Фан, 2018.
4. See Pierre Macherey, A Theory of Literary Production. London, 1998.


### Mustaqil ta'lim savollari

1. Adabiy tur tushunchasi va uning tasnifi.
2. Adabiy tur va janrlarning paydo boʻlish masalasi.
3. Adabiy janrga xos belgilar. Epik tafakkur spetsifikasi.
4. Lirika va insonning ruhiyati, his-tuygʻulari.
5. Siyosiy, intim, tabiat lirikasi xususida.
6. Lirizm va dramatizm.

7. Satira va yumor mustaqil ijod turi sifatida.
8. Dramatik asarlar va teatr san'ati.
9. Adabiy tur va janrlardagi o‘ziga xoslik hamda uyg‘unlik
10. Tragikomediya.

## Glossariylar.

**Janr –** (fransuzcha jins, tur, xil) adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tili, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarni tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha.

**Lirika –** (yunoncha lira musiqa asbobi, qadimda she'rlar uning jo‘rligida o‘qilgan) badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. Unda voqyelik lirik sub'ekt his-tuyg‘ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq ob'ekti emas, sub'ekti birlamchi. U voqyelikni tasvirlamaydi, uning uchun voqyelik lirik sub'ekt ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir.

**Lirik chekinish –** muallif nutqining ko‘rinishlaridan biri, epik yoki liro-epik asarlarda uchraydigan kompoziyion unsur. Unda syujet voqyealarini hikoya qilish to‘xtatib qo‘yiladi va muallif ularga munosabatni oshkora tarzda ifodalashga o‘tadi, ya'ni asosiy voqyeadan chekinadi.

**Lirik qahramon –** lirikadagi sub'ekt ko‘rinishlaridan biri, muallifning qalb kechinmalarini, o‘y-tuyg‘ularini ifodalash shakli. U shoirning real “men”i emas, balki uning asosida yaratilgan “men” ekanligini anglatadi.

**Epik tur –** badiiy adabiyotning uch asosiy turidan biri. Eposning spetsifik xususiyati – voqyeabandlik, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqyea-hodisalar tasvirlanadi, so‘z vositasida o‘quvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand jonlana oladigan to‘laqonli badiiy voqyelik yaratiladi.

**Epopeya –** hajman yirik, asosiga umumxalq ahamiyatiga molik problematika qo‘yilgan epik asar.

**Drama –** badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. dramaning tasvir predmeti – harakat, u Arastu ta'rificha, “barcha tasvirlanayotgan shaxslarni harakat qilayotgan, faoliyatdagi kishilar sifatida taqdim etadi”. Unda ijodkor shaxsi ham ob'ektga singdirib yuboriladi.

**Dramatizm –** badiiylik modusi. Dramatiklik modus sifatida idilliya, elegiya bilan bir guruhni tashkil etadi. Dramatik men o‘zligini boshqa bir men bilan o‘zaro munosabatdagina anglaydi va namoyon etadi. Uning uchun dunyo olam tartiboti emas, balki o‘zganing hayoti sifatida idrok etiladi. Dramatik shaxs o‘zga bilan munosabatda o‘zligini namoyon etish imkoniyatlarining chegaralanganligidan qiynaladi.

## Keyslar banki

**Keys 1.** Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida bosh qahramonning padarkush bo‘lishiga nima sabab bo‘ldi?

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

• Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

## Nazorat savollari

1. Adabiy tur va janrlar tarixiga doir.
2. Janrlar genezisi.
3. Adabiy turlar spetsifikasi.
4. Adabiy janrlarga xos tafovutlar.
5. Folklordagi janrlar masalasi.
6. “Paremiya” nima?
7. Tur va janr yangilanishi.
8. Janrlarning yangilanish omillari

Test savollari

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Didaktik asarning belgilang? | «Devoni lug‘otit turk» | «Gul va Navro‘z» | «Muhabbatnoma» | *«Hibatul-haqoyiq» |
| Voqyealar, xarakterlar, kolliziya (to‘qnashuvlar) kulgi, hajv, yumor asosida tasvirlansa, bunday asarlar qanday nomlanadi? | Drama | Tragediya | *Komediya | Pesa |
| Quyidagi badiiy vositalardan qaysi biri asardagi dramatizmni kuchaytiradi, voqyealar rivojiga turtki va keskinlik beradi? | yechim | Badiiy portret | *Badiiy konflikt | Peyzaj |
| Qaysi asarlarning bosh qahramonlari makr-hiyla bilan dushman tuzog‘iga ilinib, zanjirband va zindonband qilinadi? | «Layli-Majnun», «Shum bola» | *Farhod va Shirin», «Alpomish» | «Sab'ai sayyor», «Padarkush» | |
| «Modern» so‘zining ma'nosi | *«yangi, zamonaviy» | «esdaliklar» | «yalinish» | «hikoya» |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan? | | | | |
| Yunoncha «Echki qo‘shig‘i» ma'nosini bildiradigan dramatik janr qanday nomlanadi? | Komediya | Oda | *Tragediya | Ballada |
| Pedagogik asarlar bitgan adiblarni ko‘rsating | Navoiy, Muqimiy, Furqat | Atoiy, Lutfiy, Avaz O‘tar | *Munis, Hamza, Abdulla Avloniy | Ibrat, Cho‘lpon, Zavqiy |
| ning lug‘aviy ma'nosi nima? | cho‘qqi | to‘qnashuv | *tadqiqot | eski |
| O‘zbek mumtoz adabiyotida shoirning o‘z devoniga yozgan kirish so‘zi nima deb ataladi? | Muqaddima | *debocha | na't | ibtido |
| Biror badiiy asardagi obraz uchun asos bo‘lgan shaxs nima deyiladi? | Obraz | Tip | Xarakter | *Prototip |
| Adabiy ertak deganda nimani tushunmoq kerak? | hayvonlar haqidagi ertak | sehrli-fantastik ertakni | halq ertaklari asosida yozilgan ertakni | *ishqiy-sarguzasht ertakni |
| Dramatik asarlarda asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, Hulqi, xatti-harakati, qiliqlari, intonatsiyasi, sahna manzarasi haqida muallif tomonidan beriladigan izohlar nima deb ataladi? | replika | *remarka | ramz | ssenariy |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Qaysi she'riy vazn hijolarning miqdoriga emas, balki ularning sifatiga asoslanadi? | aruz vazni | erkin vazn | *sarbast vazni | barmoq vazni |
| Dilogiya, trilogiya, epopeya ko‘rinishlari qaysi janr shakllari hisoblanadi? | drama | doston | *roman | hikoya |
| Qaysi o‘zbek shoiri adabiy ertak janrida ham samarali ijod qilgan? | G‘. G‘ulom | Hamza | Oybek | *H. Olimjon |
| Birinchi o‘zbek dramasining nomini toping? | «Baxtsiz kuyov | «Ishq qurbonlari» | *«Padarqush» | «Abulfayzxon» |

## Ma'ruza 14. Ijodiy metod va uslub. Ijodkor dunyoqarashi

**Reja:**

1. Ijodiy metod tushunchasi.
2. Metodlar tasnifi.
3. Uslub tabiati.
4. Adabiy oqimlarga doir.
5. Ijodkor dunyoqarashi haqida.

**Kalit so‘zlar:** metod, uslub, adabiy oqim, uslub, dunyoqarash, tafakkur.

San'at va adabiyotda hayot hodisalarini gavdalantirishning umumiy yo‘llari ijodiy metod deb yuritiladi. Ijodiy metodga tadqiqotlarda “yozuvchining hayotiy faktlarni tanlash, umumlashtirish, baholash va badiiy obrazlarda aks ettirishda qo‘llagan asosiy prinsiplari” (Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B.321); “san'atkorning anglanayotgan voqyelikka ijodiy munosabatlarining umumiy ijodiy prinsipi, ya'ni badiiy asarda voqyelikni qayta tiklash prinsipi” (Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B.356); “turmush hodisalarini tanlash, o‘rganish, idrok etish va tasvirlashning asosiy vositasi” (Shukurov N., Hotamov N., Xolmatov Sh., Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B. 208), deb ta'rif beriladi.

San'at va adabiyotdagi ijodiy metodlar aslida inson dunyosini ko‘rsatish, uning ilgari anglanmagan jihatlarini ko‘rsatish borasidagi izlanish yo‘llaridir. Tadqiqotlarda so‘z san'atida inson dunyosini badiiy gavdalantirishning ikki yo‘li: romantizm va realizm yo‘li bor, deyiladi. Bu ham aslida inson tabiati bilan bog‘liq

hodisa sanaladi. Chunki odam ham real hayot qo‘ynida, ham orzu-havaslar dunyosida yashaydi. Inson tabiatida mavjud hayot tarziga qanoat qilishdan ko‘ra, turmushni o‘zgartirish istagi, uni yanada yaxshilash havasi baland turadi. Bu havas, ayniqsa, kishining bolalik, yoshlik kezlarida kuchli bo‘ladi.

Borliqda bir-biriga aynan o‘xshash biron bir hodisa mavjud emas. Jumladan, odamlar ham qiyofa-ko‘rinishi, fe'l-atvori, qiziqishlari, xatti-harakatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Chunki betakrorlik borliqning bosh xususiyati sanaladi. Kishilarning harakat, faoliyati ham ana shu haqiqatni tasdiqlaydi. Odamlar bo‘y-basti, ovozi, qobiliyati, irodasi kabi jihatlariga ko‘ra bir-biridan aniq ajralib turadi. Hatto bir ota-onaning farzandlari bo‘lgan egizaklar ham bir-biriga aynan o‘xshamaydi. Yozuvi aynan bir xil kishilarni topishga urinish ham befoyda. Chunki har bir odamning o‘ziga xos “xat”i bo‘ladi. Ijodkor uslubini ham ma'lum ma'noda ana shunday “xat” deyish mumkin. Yozuvchi, shoirning “xat”i uning asarlari tilida, qahramonlarining so‘zlash tarzida, voqyealarning tanlab olinishi va bayon etilishida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham F.Dostoevskiy romanlari bilan L.Tolstoy yoki A.Chexov asarlari bir-biridan farq qiladi. “Qutlug‘ qon” Oybekning, “O‘g‘ri” va “Bemor” Abdulla Qahhorning qalamiga mansubligi aniq bilinadi. She'riyatdan xabardor o‘quvchilar Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi she'rlarini bemalol “tanishadi”.

Ijodkorlar asarlarining bunday o‘ziga xos bo‘lishi, avvalo, borliqning betakror yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, shoir, yozuvchi, dramaturglarning hayotiy tajribasi, turmushni kuzatishi, bilim darajasi, didi, saviyasi, dunyoqarashiga asoslanadi. Uchinchidan, bu “xat”da shoir, yozuvchining qiziqishi, fe'l-atvori, ichki dunyosi akslanadi. Har bir odam o‘ziga xos olam bo‘lgani singari ijodkorlar ham betakror dunyodir. Ana shu betakror dunyo mavzu tanlashda, hodisalarga yondashishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun “uslub – odamdir” deyiladi.

Ijodiy uslub deganda asarning tilinigina nazarda tutmaslik kerak. Til, avvalo, so‘z san'atining asosiy quroli, yagona tasvir vositasi sanaladi. Ana shu vosita, ayni shu choqda, ijodkor “xat”ini namoyon etadigan muhim unsurlardan biri ham hisoblanadi.

Ijodiy uslubni “bayon tarzi”, “fikrni ifoda etish mahorati” deb qarash ham uni tor tushunish bo‘ladi. Chunki uslub juda keng tushuncha. U muayyan bir yozuvchi ijodida ham turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Har bir asar ma'lum bir uslubni o‘zida ifoda qiladi. Masalan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni “xat”i uning g‘azallari “xat”idan farq qiladi. Turkiy “Xamsa” muallifi g‘azallaridan Bobur bitgan g‘azallar ham uslub turlichaligi bilan ajralib turadi.

Ijodkor uslubi shakllanishiga tashqi omillar ham ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, har bir yozuvchi, shoir boshqa ijodkorlarning asarlaridan nimalarnidir o‘qib o‘rganadi, ularni ijodiy o‘zlashtiradi. Bu o‘rganish uning hayot hodisalarini akslantirishi, inson obrazini gavdalantirishiga o‘z ta'sirini ko‘satadi.

Uslub – ijodkor xayolotining namoyon bo‘lish tarzi ham sanaladi. Yozuvchi, shoir voqyealarni, qahramonlarni, ular yashaydigan manzil manzaralarini qanday tasavvur qilsa, shunday ifodalaydi. Oybek qahramonlari harakatlanadigan joylarni

jamiki ko‘rinishlari bilan keng bayon etadi. Personajlar qiyofa, holatini batafsil suratlantiradi. Abdulla Qahhor esa qahramonlari turgan joyni ham, ularning holati, ahvolini ham ixcham, lo‘nda, eng muhim jihatlariga e'tiborni qaratgan holda tasvirlaydi.

## Asosiy adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.

### Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. – Тошкент: Фан, 1978, 1979.
2. Турдиева К. Асар сюжети ва композицияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., №6. 54-58-бетлар.
3. Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Университет, 2018.
4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013.

### Mustaqil ta'lim savollari:

**1.** Adabiy metod va adabiy oqim tushunchalari o‘rtasidagi mushtaraklik.
**2.** G‘arb va Sharq klassitsizmi va mimesis nazariyasi.
**3.** Realizmning turli xalqlar adabiyotlaridagi talqinlari.
**4.** Bugungi o‘zbek modern adabiyotining tarixiy asoslari va mohiyati.
**5.** Ijodiy metod tushunchasi.
**6.** Metodlar tasnifi.
**7.** Uslub tabiati.
**8.** Adabiy oqimlarga doir.

### Glossariylar

**G‘oya -** ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma'lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa**.**

**Parallelizm -** ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonma-yon qo‘yish orqali mazmunni yorqinlashtirish uslubi sanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri bilan muqoyasa qilinadi yoki zidlashtiriladi. Ushbu yo‘l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta'sirchanligi kuchaytiriladi.

**Parallelizm** - Yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lishi.

**Parafraza** - Tasviriy ifoda. Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash. Zangori olov-gaz, dala malikasi- makkajo‘xori kabi.

**Professionalizm** - Tildagi kasb-hunarga oid bo‘lgan so‘z va iboralar.

**Okkazionalizm** - Mahsuldor bo‘lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o‘zida qo‘llangan so‘z, individual-uslubiy neologizm.

**Perepetiya -** syujet voqyealari rivoji davomida paydo bo‘lgan yangi tugunlar yoki chigalliklar.

## Nazorat savollari

1. Romantizm metodi.
2. Realizm metodi.
3. Klassitsizm yo‘nalishi.
4. Modernistik uslubning asosiy xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?
5. Adabiy metod va adabiy oqim tushunchalari o‘rtasidagi mushtaraklik nimalarda ko‘rinadi?
6. Adabiy oqim tushunchasi, uning metoddan farqi nimada?
7. Realizm oqimi: klassitsizm, naturalizm kabi ko‘rinishlarni qanday tushundingiz?
8. Sotsialistik realizm qanday paydo bo‘ldi?

## Test savollari

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Asarda tasvirlangan voqyealarga ham, unda ishtirok etayotgan obrazlarga ham muallifning munosabati bevosita ifodalanmaydigan badiiy asarlar ... ... | fantastik asarlar deyiladi | hajviy hikoyalar deyiladi | dramatik asarlar deyiladi | *liro-epik asarlar deyiladi |
| G‘. G‘ulomning «Sen etim emassan» she'ridan keltirilgan quyidagi parchada lirikaga xos qanday usul qo‘llangan?<br>Men etim o‘tganman,<br>Oh, u etimlik...<br>Voy bechora jonim, Desam arziydi. | Lirik murojaat | Lirik muloqot | Lirik da'vat | *Lirik chekinish |
| Xalq og‘zaki ijodi va yozma | maqol | qo‘shiq | jangnoma | *ertak |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| adabiyot o‘rtasida turuvchi janrni toping? | | | | |
| Tasvirga muallif mutlaqo aralashmaydigan, obrazlarning xatti-harakatlariga, voqyealarning rivojiga o‘z munosabatini bildirmaydigan badiiy asarlar deyiladi? | dramatik asarlar | publitsistik asarlar | epik asarlar | lirik asarlar |
| Quyidagi asarlardan qaysi biri turkiy tildagi birinchi taskira hisoblanadi? | «Qissai Rabg‘uziy» | «Majmuai shoiron» ahbob» | *«Majolis un-nafois» | «Muzakkiri |
| Sayohat taassurotlari va tafsilotlarini tasvir etuvchi badiiy asarlar nima deb ataladi? | sayohatnoma | tazkira | roman | Hikoya |
| Sharq va umuman jahon adabiyotida memuar janrning nodir namunasi hisoblangan asrani toping? | «Qissai Rabg‘uziy» | «Shayboniynoma» | «Shoh mashrab» | *«Boburnoma |
| larning qaysi biri adabiy ertak | «Husniyabonu» | «Uch og‘ayni botirlar» | «Guliqahqah» | *«Oygul bilan Baxtiyor» |
| Munis qalamingni xat sari sur,<br>Qil tarki darang, ilgari sur<br>Bir-bir bori harfga raqam | Romantik asar | Marsiya | Qasida | *Ilmiy she'r |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| sur, Ta'limni boshqa-boshqa bilg‘ur Munisning ushbu «Savodi ta'lim » asari qanday asarlar sirasiga kiradi? | | | | |
| «Boburnoma» yodnomalarning qaysi turiga mansub? | Tarixiy yodnoma | Badiiy yodnoma | Ilmiy yodnoma | *Barcha javoblar to‘g‘ri |
| «Modern» so‘zining ma'nosi qaysi jivobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? | *«Yangi zamonaviy» | «Esdaliklar» | «Yozilganlar» | «Yalinish» |
| Badiiy asarda uchraydigan tabiat lavhalari tamvirlari qanday nomlanadi? | portret | personaj | *peyzaj | shtrix |
| Adabiyotda aniq bir shaxs ustidan, undagi illatli jihatlar ustidan qo‘zg‘atilgan kulgi nima deb ataladi? | kolliziya | remarka | satirik kulgi | *yumor |

## Ma'ruza 15. Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriyasi (2 soat)

**Reja:**

1. Muallif psixologiyasi.
2. Muallif va jamiyat munosabati.
3. Badiiy asarning ijtimoiy pafosi.
4. Adabiyotning jamiyatga ta'siri masalasi.

**Kalit so‘zlar:**ijod va ijodkor psixologiyasi, psixik jarayon, muallif shaxsi, muallif va jamiyat, ijtimoiy pafos.

Badiiy adabiyot to‘g‘risidagi fikr - badiiy asar tahlili, talqini va tanqidi oddiy gap emas. Bu adabiy hodisa adabiyotshunos va munaqqiddan keng qamrovli

bilimni, did hamda farosatni talab etadi. Chunki har qanday yozuvchi o‘z asar taqdiriga befarq bo‘lolmaydi, kimdandir munosabat kutadi. Albatta, tanqiddan birovning ko‘ngli shod bo‘lmaydi; hyech bir adib yozgan asari tanqid bo‘lishini istamaydi. Shoir ta'biriga ko‘ra, “shirin og‘u” bo‘lmish maqtov ko‘pchilikka xush yoqadi va “shirin o‘ldirar”.

Aslida tanqidchining yuki engil emas. Buni anglash kerak. Bema'ni, tanqiddan tuban “asar”larni dam-badam do‘ppini hidlab o‘qish va so‘ngra “yozg‘uvchi”ni savalash – nihoyatda noxush ish. San'at durdonalari haqidagi har qanday adabiy-tanqidiy maqola o‘sha badiiy asarlar bilan yonma-yon yashaydi. Tanqidchilik martabasi ko‘p hollarda badiiy asarning poetik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Agar odamning tafakkuriga chorlaydigan, qalbga zavq, fikrga quvvat beradigan betakror, go‘zal va umrboqiy asarlar yozilmasa, adabiy tanqid harakatdan to‘xtaydi.

Adabiy hayot har doim o‘zining original tahlil usullariga, xos dunyoqarashi va uslubiga ega munaqqidlar so‘ziga muxtoj. Bosilib chiqqan har qanday kitobga taqriz yozish, ora-orada uyushtiriladigan yubiley anjumanlarida umumqarsakbozlikka jo‘r bo‘lish bilan munaqqid bu yo‘lda o‘z qalbi va qiyofasini namoyon eta olmaydi. Adabiy tanqid egasidan jiddiyat, qat'iyat, did-farosatni talab qiladi. Zero, munaqqidning talqinlari va tanqidlarini o‘qigan kitobxon badiiy asar sirini, jozibasini, mohiyatini, adabiy haqiqatni anglasin. Bu haqiqatlar o‘quvchining hayot yoki adabiyot, badiiy asar yoki inson to‘g‘risidagi qarashlariga ta'sir ko‘rsatsin. Olam va odamni tushunsin, ezgulik va yovuzlikning farqiga borsin, qullik va ozodlikni o‘ylasin, go‘zalik va qabohatdan boxabar bo‘lsin.

Garchand zamonlar o‘tib, tarixiy sharoit va muhit tubdan o‘zgarib borsa ham, qalam ahlining psixogiyasi, ruhiyati, tabiati va uning fikrga ehtiyoji o‘zgarmaydi. Bayon tarzi qanday bo‘lishidan qat'i nazar, bu jarayonda ikki sub'ekt - adib va unga munosabat bildiruvchi shaxs qatnashadi.

Badiiy adabiyot tarixini o‘rganish va bugungi adabiy hayot bilan tanishganda xayolga turli fikrlar keladi. Ayrimlari pishib, etilib yuradi. Ba'zan haqiqat timsolida bir lahza xayolga mehmon bo‘ladi. Agar mezbonlikni o‘rinlata bilsangiz, ular sizga mahram bo‘ladi, aks holda sizni abadiy tark etadi.

Adabiy suhbatlarning birida sodda, ammo muhim bir fikr xayolda chaqmoqdek yalt etdi va tilga ko‘chdi. Shunday yozuvchilar bo‘ladiki, ularning o‘zlari tirik yuradi; anjuman va tadbirlarda juda faol qatnashadi. Biroq asarlari o‘lik tug‘iladi. Uni birov o‘qimaydi, muxlis qalbiga ko‘chmaydi, yurakni larzaga solib titratmaydi. Tarixda shunday adiblar o‘tganki, ular allaqachon jisman bu dunyoda u oxirat maydoniga ko‘chdi. Ammo asarlari hamon tirik, hozirga qadar yashab keladi. Bu asarlar har kuni odamlar bilan muloqotga kirishadi; ishqi, dardi, armoni, shiddati, jozibasi, ko‘rki odamlarning yuragiga o‘rlaydi; yuragini o‘rtaydi. Yaqin tarixda shunday yozuvchilar o‘tganki, jild-jild asarlar yozgan va ular o‘z vaqtida ko‘pming nusxada bosildi ham. Vaqti kelganda targ‘ib-tashviqlar ortidan sobiq Ittifoq miqyosidagi mukofotlarni ham oldi. Biroq ulardan bor-yo‘g‘i nomgina meros qoldi; hatto egalaridan oldin asarlari rahmatli bo‘ldi. Adabiy jarayonda, yon-atrofimizda shunday iste'dodlar borki, ularning o‘zlari ham, asarlari ham tirik. Hozirda jisman va ruhan tetik, sog‘lom; qarashlari teran, yozganlari

ta'sirli, obrazli, zavq-shavqli. Ular o‘zini, o‘zligini, kimligini, “men”ligini, she'riyatdagi darajasini, davralardagi o‘rnini qaysidir ma'noda juda yaxshi anglaydi. Adiblar ruhi jonidan asarlari  umrboqiylik vasiqasini oladi; tiriklik suvi bilan to‘yinadi. Mabodo bu toifa adiblar ajali etib, bu olamdan ko‘z yumsalar ham, asarlari boqiy qoladi; bashariyatga xizmat qiladi. Ko‘rkam va haq so‘zi uchun yozuvchilarga rahmat eshigidan savoblar borib turadi. Qalam ahlining chin saodati aslida shudir.

Har qanday sohada odam o‘z ishidan zavqlanmasa baraka topmaydi. Musiqa chalayotgan hofiz ayni damda o‘zi tebranib o‘tiradi. Avjiga chiqqanida boshining ortiga-bo‘yniga torini qo‘yib musiqa chalib kuylagan xorazmlik bir baxshini ko‘rgan edim. Haydovchi shu darajada erkin – u mashinasini bamisoli o‘ynab boshqaradi. Agar uning o‘rniga biror muallim, tabib yoki dehqon o‘tqizilsa, uning qisinib-qitinib, yosh bolaga o‘xshab, o‘ziga ishonib-ishonmay o‘tirishini ko‘ring. Yana deylik lovullagan issiq tandirga boshi bilan sho‘ng‘iyotgan nonvoy hyech kuzatganmisiz? Yoki damlangan oshning yuzini ochib,  qo‘lidagi kafgir bilan guruchlarni o‘ynatib laganga osh suzayotgan oshpaz shavqini-chi? Sportda zavq beqiyos. Ayniqsa, futbol maydonida gol urgan o‘yinchining quvonchi ta'riflash ortiqcha...

Ammo so‘z zavqi, badiiy matn zavqi - oqil va hisli odam uchun mutlaqo boshqa olam. Har kim yozgan adabiy matni ta'siridan eng avvalo o‘zi zavqlanishi, qahqaha otib kulishi, ho‘ng-ho‘ng yig‘lashi kerak. Aks holda o‘quvchi ayni psixologik holatga tushmaydi aslo. Ko‘pincha o‘z asariga ikkilanib,  qimtinib baho berayotgan yozuvchi – demak uni yurakdan yozmagan bo‘ladi. Xuddi shunga monand adabiyotshunoslik asarlari, adabiy tanqidiy maqolalar ham zavq-shavq bilan yozilishi kerak; ularda zarur mulohazalar, birovlarni o‘ylantiradigan, hayratlantiradigan, ta'sirlantiradigan, ko‘chirmalar olishga munosib juda muhim fikrlar bo‘lishi shart. Chunki betakror fikr har qanday olimning bebaho xazinasidir.

Badiiy asarlar, she'riy to‘plamlarga go‘yoki yozilayotgan - aslida talab-tavsiya bilan uyushtiriladiga egizak taqrizlar - bir xil bichimdagi bunday liboslar har qanday masxarabozning egniga mos kelaveradi. Demoqchimizki, aksar adabiy-tanqidiy maqolalardagi kitoblar nomi yoki ijodkorning ism-shariflari o‘zgartirilsa, bas, qolipdagi barchaga ma'lum umumiy gaplarni har kimning asariga tatbiq etish mumkin. Bu soha kitoblarining saviyasi turlicha: original va an'anaviy, fikrchan va bo‘sh-bayov, falsafiynoma va tabdilnoma. Ayrimlarida qachondir chalingan musiqalarga zamonaviy qo‘shiqlar moslangan bo‘ladi.

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
2. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.


**Qo‘shimcha adabiyotlar**


3. Абдулла Шер. Эстетика. – Т.: Ўзбекистон, 2014.
4. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. – Т.: Янги аср авлоди, 2004.
5. Болтабоев Ҳ., Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. – Т.: Мумтоз сўз, 2013.

6. Исоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006.
7. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т.: Ғ.Ғулом, 2015.
8. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. – Т.: Академнашр, 2014.
9. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Т.: Ғ.Ғулом, 2016.
10. Норматов У. Ижод сеҳри. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
11. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006.
12. Хализев В.. Теория литературы. Учебник. – М.: Высшая школа, 1999.
13. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004.
14. Шарқ мумтоз поэтикаси (Ҳ.Болтабоев талқинида). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
15. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Т.: Фан, 2008.
16. “O‘zbek adabiy tanqidi”. Antologiya. – T.: Turon-Iqbol, 2011.
17. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.
18. Adabiyotshunoslik nazariyasi. O‘UM, O‘zMU, 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.

## Elektron manbalar

**1.** www.ziyo-net.uz

## Mustaqil ta'lim savollari

1. Muallif psixologiyasi.
2. Muallif va jamiyat munosabati.
3. Badiiy asarning ijtimoiy pafosi.
4. Adabiyotning jamiyatga ta'siri masalasi.
5. Poetik tafakkur va muallif.
6. Muallif tayanadigan falsafiy omillar.
7. Badiiy obraz va muallif masalasi.

## Keys stadi

**Keys 1.** Interpretatsiya atamasining mohiyatini tushuntiring.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

• Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

## Nazorat savollari

1. Muallif prototip sifatida.
2. Ijod psixologiyasi va ijodkor labaratoriyasi.
3. Muallif “men”iga xos xususiyatlar.
4. Iste'dod ijodkorlikning bosh alomati.
5. Badiiy asar iste'dodli ijodkor poetik olamining mahsuli sifatida.
6. Ijodkorning ijtimoiy mavqyei.
7. Badiiy asarning jamiyatga ta'siri.

8. Tarixiy-ijtimoiy hayotning badiiy asarda aks etishini o‘rganish.

## Glossariylar

**Muallif –** (arabcha tuzuvchi, tartib beruvchi) adabiy asarni yaratgan odam. Avtor terminiga sinonim sifatida ishlatiladi.

**Muallif nutqi –** adabiy asardagi bevosita muallif tilidan berilgan bayon, tavsif, izoh. Badiiy nutq uslubiy jihatdan farqlanuvchi komponentlarning birikuvidan hosil bo‘ladi.

**Muallif obrazi –** badiiy asar matnida anglashilib turuvchi muallif shaxsi. Muallif shaxsi asar badiiy voqyeligiga singib ketadi, chunki badiiy voqyelik ijodkor tomonidan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta yaratilgan voqyelikdir.

**Avtor chekinishlari –** epik asarlarning matniy usullaridan biri, syujet voqyealari bayonini to‘xtatib, muallifning o‘quvchiga bevosita murojaat qilishi yoki falsafiy, publitsistik, lirik, adabiy-tanqidiy masalalarda mushohadaga berilishi.

**Pafos** – (yunoncha his, ehtiros) ijodkorning o‘zi tasvirlayotgan voqyelikka g‘oyaviy-hissiy munosabati, avtor emotsionalligi. Pafos inson qalbining xususiyati, kuchli ehtirosni nazarda tutadi.

## Test savollari

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Yozuvchi o‘zi ishtirok etgan, guvohi bo‘lgan voqyealar tasvirlangan badiiy asar qanday nomlanadi? | *memuar | roman | masal | komediya |
| Biror badiiy asardagi obraz uchun asos bo‘lgan shaxs nima deyiladi? | obraz | tip | xarakter | *prototip |
| Cho‘lponning «Go‘zal» she'ridan keltirilgan quyidagi misralarda qanday badiiy san'at qo‘llangan?<br>Erta tong shamoli sochlarin yoyib,<br>Yonimdan o‘tganda so‘rab ko‘ramen.<br>Aytadir: bir ko‘rib, yo‘limdin ozib,<br>Tog‘u toshlar ichra istab yuramen! | sifatlash | mubolag‘a | o‘xshatish | *jonlantirish |
| O‘zining umumiy mavzui, etakchi g‘oyasi, asosiy qahramonlari syujet aloqadorligi bilan bir butunlikni tashkil etuvchi uch mustaqil asar qanday | diologiya | tetrologiya | pentologiya | *trilogiya |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| nomlanadi? | | | | |
| Qahramon uzoq vaqt faoliyat ko‘rsatuvchi janrni toping? | g‘azal | *roman | tuyuq | masnaviy |
| Shoirlar hayoti ularning asarlaridan qisqacha namuna va tahlillar berilgan asarlar qanday nomlanadi? | jangnoma | *tazkira | musamman | xotiranoma |
| Mumtoz adabiyotda dostonlarning kirish qismi nima bilan boshlangan? | na't | munojot | *hamd | sababi nazmi kitob |
| Diologiya, trilogiya, epopeya ko‘rinishlari qaysi janr shakllari hisoblanadi? | drama | doston | ocherk | *roman |
| Tarixiy shaxslarning memuar asarlaridan foydalanib yaratilgan romanlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? | «Ulug‘bek xazinasi», «Diyonat» | «O‘tgan kunlar», «Ko‘xna dunyo» | «Sinchalak», «Kecha va kunduz» | *«Yulduzli tunlar», «Navoiy» |

## Ma'ruza 16. Badiiy asarni qabul qilish va talqin etish yo‘llari

**Reja:**

1. Retsepsion estetikaga doir.
2. O‘zlashtirishda yosh psixologiyasi.
3. Badiiy didning shakllanganligi masalasi.
4. Badiiy adabiyot va talqin yo‘llari.

**Kalit so‘zlar: talqin, tahlil, bilish, retsepsion estetika.**

Ma'lum bir fan sohasidagi hodisani bilish jarayonida ilmiy tafakkurning induksiya (lat. Inductio «ayrimalikdan umumiylikka», xulosa chiqarish tiplaridan biri), deduksiya (lat. Deductio- «xulosa chiqarish», bir yoki bir necha asoslarga ko‘ra xulosa chiqariladi), analiz va sintez (grek. Analysis - «ajratish» va synthesis - «birlashtirish», butunni tarkibiy qismga fikran yoki amaliy ajratish hamda qismlarni qayta birlashtirish), analogiya (grek. Analogia - «muvofiqlik», «o‘xshashlik» aynan bir xil bo‘lmagan ob'ektlar o‘rtasidagi ba'zi tomonlar, sifatlar va munosabatlardagi o‘xshashlikni aniqlash), taqqoslash, eksperiment, kuzatish kabi umumiy prinsiplari ishlab chiqilgan. O‘tgan asr falsafasida dialektik materializm bilishning eng umumiy, eng asosiy va ustivor metodi hisoblanar edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o‘tgan asrda barcha ijtimoiy fan sohalari uchun mazkur falsafiy tamoyil ilmiy bilishning asosiy metodi va metodologiyasi vazifasini o‘tadi. Dunyo ilm-fanida mavjud bo‘lgan boshqa ilmiy bilish metodlari, voqyea-hodisaga, borliqqa, insonga, insonning his-tuyg‘ulariga, insoniyat

tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlarga yondashuv usullari deyarlik inkor etilib, tanqid ostiga olindi. Holbuki, ilmiy bilishda, ilmiy haqiqatni yuzaga chiqarishda falsafasi, estetikasi, adabiyotshunosligi fanida mavjud bo‘lgan boshqa yo‘l-yo‘riqlardan ham xabardor bo‘lish, ularni amaliyotga tatbiq etish foydalidir. Aslida haqiqatni bilishning yo‘llari ko‘p. Inson zoti aniq bir haqiqatlarni turli yo‘llardan borib ham aniqlashi, kashf etishi mumkin. Umumiy qoidalarni o‘zgarmas tarzida qabul qilmaslikni, inson tafakkur egasi ekanini ta'kidlagan faylasuf L.Shestov e'tiroficha, “Istina stolko, skolko lyudey na sveta” (“Olamda qancha odam bo‘lsa, haqiqat ham shunchadir”). Olim har bir insonning o‘z haqiqati borligi va shunday bo‘lishiga da'vat etadi.

To‘g‘risi, XX asrda o‘zbek adabiyotshunosligi rus adabiyotshunosligida mavjud metodologik yo‘nalishlarni o‘zi uchun asos qilib oldi. Davr yangilanishi, umummafkuradagi o‘zgarishlar ijodkorlarga, ular yozgan asarlarga ham yangicha usulda yondashishni talab qilmoqda. Nafaqat o‘zbek adabiyotshunosligi, balki eskicha qarashlar inersiyasidan qutulishga intilayotgan bugungi rus adabiyotshunoslari ham metodologik masalalar ustida jiddiy o‘ylash lozimligini ta'kidlashmoqda (Qarang: “Vestnik Moskovskogo universiteta”. Ser.9. Filologiya. 2010. №5, str.135).

O‘zbek mumtoz adabiyot namunalarini, xususan, diniy-tasavvufiy adabiyotni tadqiq qilish uchun o‘sha durdonalarga muvofiq keladigan usullardan lozim bo‘ladi. Istiqlol yillari adabiyotshunosligida mumtoz adiblar ijodiga Qur'on oyatlari, hadisga tayanib, yoki muayyan tasavvufiy tamoyillar asosida yondashuv holatlari kuzatiladi. Xususan, har bir tarqatga oid ramzlar, tushunchalar, bir so‘z bilan aytganda, mumtoz poetikaning nazariy tayanch manbalari mohiyati vositasida talqin etish, tabiiyki, o‘zining yaxshi natijalarini ham bermoqda. Zero, rus adabiyotshunosligida “Elchilar va shoirlar” (“Proroki i poeto‘”, M. 1992) kitobi muallifi I.Garin turli shoir, yozuvchi va faylasuflar ijodiga shunday o‘ziga xos usul bilan yondashadi.

Albatta, an'anaviy va dunyo adabiyotshunosligidagi yangi metodlarni talqin va tahlil jarayonida qo‘llash bu sohani yangi bosqichlarga ko‘tarilishi mumkin.

Rus adabiyotshunosligida badiiy asarga yondashuv usullarini Yu.Borev quyidagi tarzda tasniflaydi:

1.Sotsiologik yondashuv;
2.Gneseologik yondashuv;
3.Tarixiy-madaniy yondashuv;
4.Qiyosiy-tarixiy yondashuv;
5.Biografik yondashuv;
6.Ijodiy-genetik yondashuv;
7.Ontologik yondashuv.

Yu.Borev shu mavzuga oid kitobida bunday yondashuvlarga xos xususiyatlarni batafsil yoritib beradi[4].

Tadqiqotchi yozuvchi va voqyelikni tekshiradimi, badiiy asarning poetik darajasini aniqlaydimi, muallifning badiiy mahoratiga, san'atkorligiga baho

---

[4] Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. М. 1981. стр.47-66.

beradimi? Bu turdagi masalalar metodologik jihatdan tahlilning “nima uchun” degan qismini tashkil etadi. Adabiy-nazariy tahlilda aynan “nima” tadqiq qilinadi? Shakl, mazmun, uslub, g‘oya, til, badiiy konsepsiya, janr, asarning yaratilish tarixi, avtor ruhiyati va badiiy psixologizm, traditsiya va novatorlik – “nima”ni tadqiq etish kerak? Bu ikki masala metodologik jihatdan oydinlashtirilgandan keyin uni “qanday” tadqiq etadi, degan savol tabiiy shu yuqoridagi ikki holat javobidan kelib chiqadi. Zotan, badiiy matndagi 1) ko‘p aspektli - bir yo‘la bir necha jihat tekshirilishi va yoki 2) uning bitta qirrasi o‘rganilishi mumkin. Buni tadqiqotchi o‘zi bilim darajasi, dunyoqarashi, ichki sezim - intuitsiyasi bilan belgilab oladi. Adabiyotshunoslik ilmi muayyan adabiy hodisaga 1) xronologik 2) muammoli 3) janr xususiyatiga ko‘ra yondashishi mumkin. Adabiyotshunoslik ilmining ikki katta tarkibiy qismi - adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasiga e'tibor berilganda ham ular ma'lum bir ichki tartibga ega ekani ko‘rinadi. Masalan, adabiyot tarixi eng avvalo ikki tamoyil asosida - xronologik (qadimgi, o‘rta asrlar, yangi tipdagi davrlashtirish) va makoniy belgi (ma'lum bir mamlakat adabiyoti tarixi, ma'lum bir region adabiyoti tarixi, ma'lum bir etnik jihatdan yaqin bo‘lgan xalqlar adabiyoti tarixi, dunyo adabiyoti tarixi) nuqtai nazaridan metodologik asosda farqlanadi. Bu har ikki farqni qamrab olgan adabiyot tarixi ichkarisida ma'lum bir masalalar yuzasidan, masalan, adabiy oqimlar-yo‘nalishlar tarixini o‘rganish (klassitsizm, romantizm, tanqidiy realizm, realizm, modernizm), alohida olingan janrlar tarixini o‘rganish (epos, roman, tragediya, g‘azal), yirik adiblar ijodini o‘rganish (shekispirshunoslik, navoiyshunolik, qodiriyshunoslik) yuzasidan ham tarmoqlanishi mumkin.

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
2. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005.


**Qo‘shimcha adabiyotlar:**


1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. – Тошкент: Фан, 1978, 1979.

2. Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: Университет, 2018.

4. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Фан, 2018.

5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013.

6. Қўшжонов М. Сайланма. 2 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.


**Mustaqil ta'lim savollari**

**1.** Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi.

**2.** Badiiy did masalasi.

**3.** Retsepsion estetikaning mohiyati xususida.

**4.** Badiiy asarni qabul qilishda milliylik va umumuinsoniylik tamoyillari.

**5.** Badiiy tirik organizm sifatida.
**6.** Badiiy asarni tushunish va tushuntirish yo‘llari xususida.
**7.** Badiiy asarni kompleks tahlil etish usuli.
**8.** Retsepsion estetikaga doir.
**9.** O‘zlashtirishda yosh psixologiyasi.
**10.** Badiiy didning shakllanganligi masalasi.
**11.** Badiiy adabiyot va gendrpsixologiya
**12.** Retsepsiya qiymati.

## Keys stadi

**Keys 1.** Badiiy asarni tushunish va tushuntirishning yo‘llarini sanang.

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

• Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

## Nazorat savollari

1.Kitobxonlik madaniyati haqida.
2. O‘zbek adabiyotshunosligida retsepsiya.
3.Uch hamkor kim?
4. Dunyo adabiyotshunosligida retsepsion estetika.
5. Badiiy asarni qabul qilishda yosh psixologiyasi.
6. Bitta asarning turlicha talqini sabablari.
7. Adabiyot nazariyasi kitoblarida retsepsiya.
8. Adabiy jarayonda ijod va ijodkor muammosi.
9. Badiiy ijod psixologiyasi.
10. Adabiyotda an'ana va navatorlik.
11. Ijodiy metod va adabiy oqim tushunchalari o‘rtasidagi mushtaraklik.
12. Realizmning turli xalqlar adabiyotlaridagi talqinlari.
13. Struktural poetika.

   E) Kasb-hunarga oid va arxaik so'zlar

20) Neologizm so'zining mazmunini ayting.
   A) Tarixiy so'zlar
   B) Arxaizilar
   C) Yangi paydo bo'lgan so'zlar
   D) Iste'moldan chiqib ketgan so'zlar
   E) Jargonlar

21) O'g'rilar, qimorbozlar, chayqovchilar, otarchilar, chapanilar, poraxo'rlar va ba'zi guruhlarga mos va tushunarli bo'lgan so'zlar qanday nomlanadi ?
   A) SHevaga xos so'zlar
   B) Neologizilar
   C) Vulgarizmlar
   D) Dialektizilar
   E) Jargonlar

22) Barmoq sistemasining aruz vaznidan ajratib turadigan asosiy farqlar qaysilar ?
   A) She'rda qofiya, radif, taxallusning ishlatilish-ishlatilmasligi
   B) Bo'g'inlar sonining misralarda kelishi, turoqning mavjudligi
   C) Ritm, ohang, bo'g'in, qofiya, ruknning bo'lishi
   D) Badiiy tasvir vositalarining miqdori, sifati, qofiya tartibidagi izchilligi
   E) Mavzu rang-barangligi, hajmi, mazmuni, ma'lum bahrda bo'lishi

*23) Keldi ochilur chog'i o'zliging namoyon qil,*
*Parchalar kishanlarni har tomon parishon qil.*
Ostiga chizilgan so'zlar maxsus badiiy tasvir vositalarining qaysi turiga mansub ?
   A) Sifatlash
   B) O'xshatish
   C) Sinekdoxa
   D) Vulgarizm
   E) Metafora

24) Perifraz – qanday so'zlardan hosil bo'ladi ?
   *A) Narsa va hodisalarning asil nomi bilan yonma – yon ishlatilishi
   B) Mubolag'a so'zlar
   C) Kichraytirish ma'nosidagi so'zlar
   D) Predmet, odam, voqea-hodisalar nomini noto'g'ri qo'llash
   E) Omonim so'zlardan tashkil topgan so'zlar

*25) Ko'rub dardim taraxxum qilmading hech,*
*To'kub ashkim tabassum qilmading hech.*
Yuqoridagi misolda qanday san'at turi qo'llanilgan ?
   A) Iyhom

B) Lutf
C) Tarse’
D) Ro’jo’’
E) Tazod

26) Epik tur va uning janrlari to’g’ri ko’rsatilgan javobni toping.
A) Roman, hikoya, she’r, ballada
B) Epopeya, roman, povest, hikoya
C) qasida, ruboiy, hikoya, roman
D) Novella, ocherk, epopeya, roman
E) Lirika, ocherk, hikoya, epigrafiya

27) Lirika o’z mavzu g’oyaviy yo’nalishiga ko’ra qanday turlarga bo’linadi ?
A) Publitsistik lirika, simvolik lirika, intim lirika
B) Grajdanlik lirikasi, hayotiy lirika, hajviy lirika
C) Klassik lirika, zamonaviy lirika, peyzaj lirika
D) Ramziy lirika, intim lirika, hajviy lirika
E) Tragik lirika, epik lirika, intim lirika

28) She’rning asosiy komponentlari qaysilar ?
A) Aruz she’r, barmoq she’r, erkin she’r.
B) qofiya, radif, refren, turoq.
C) Poetik sintaksis, intonatsiya, ritm
D) Sodda vazn, qo’shma vazn, aralash vazn
E) Ritm, vazn, qofiya, band

29) Epilog nima ?
A) Hikoya qilinadigan voqea oldidan beriladigan muqaddima
B) Kompozitsion vositalardan biri
C) Asar voqealarini keltirib chiqaruvchi holat
D) qahramonlarning syujet voqealari tamom bo’lgandan so’nggi taqdiri haqid ma’lumot beruvchi qism
E) Mazmun turlaridan biri, she’riy komponentga xos hodisa

30) Rukn nima ?
A) Erkin she’rda uchraydigan qofiya
B) Aruzda uchraydigan hijodan katta, vazndan kichik ritmik birlik
C) Aruz sistemasida o’zaklari jihatidan bir-biriga yaqin vaznlar turkumi
D) SHe’r misralari oxirida takrorlanib keluvchi bir xil so’z yoki so’z birikmasi
E) Muayyan turkumga asoslangan turoqlar

*31) Yaxshi – yomon yashar axir, yashar tog’u tosh*
*Yasharlar-ku goh e’tirof, e’tiroz etmay.*
Ostiga chizilgan so’zlar maxsus leksik resurslarning qaysi turiga mansub?
A) ibora,
B) varvarizm,
C) alliteratsiya,
D) antiteza,
E) antonim

32) San’at asarida qo’yilgan va yoritilgan masalalardan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa nima deb ataladi?
A) SHe’r
B) qo’shiq
C) matn
D) g’oya
E) mavzu

33) Ijodiy metodlar to’g’ri ko’rsatilgan qatorni toping.

A) Klassitsizm, sentimentalizm, romantizm
B) Realizm, modernizm, so'fizm
C) Dunyoviy adabiyot, didaktik adabiyot, tasavvuf
D) Romantizm, realizm, tanqidiy realizm
E) Sentimentalizm, so'fizm, realizm

34) Tugun nima ?
A) Asarda voqeaning zo'rayib, kengayib borishi
B) Asar konflikt va harakatning paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan voqea
C) Kompozitsion vositalardan biri
D) Asardagi voqealar rivojining yuksak cho'qqisi
E) Mavzu turlaridan biri

35) Sochma she'r nima ?
A) qofiyasiz she'r
B) Bo'g'inlar soni misralarda teng bo'lgan she'r
C) Bo'g'inlar miqdori aralash bo'lgan she'r
D) Nasriy nutqda yozilgan she'r
E) Barmoq she'r sistemasining bir turi

36) Adabiy asarda so'zning ko'chma ma'noda qo'llash usuli nima deb nomlanadi?
A) Troplar
B) O'xshatish
C) Metonimiya
D) Sinekdoxa
E) Litota

**III Variant**

1) Adabiyotshunoslikning asosiy sohalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Badiiy adabiyot, adabiy tanqid, falsafa.
B) Adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid.
C) Adabiy tanqid, bibliografiya, tekstologiya.
D) SHe'riyat, proza, drama.
E) Epos, lirika, adabiy tanqid

2) Badiiy adabiyotning asosiy quroli nima ?
A) So'z
B) Badiiy tasvir vositalari
C) Badiiy obraz
D) Tafakkur
E) Inson

3) Adabiyot tarixi nimalarni tadqiq etadi?
A) Adabiy jarayonni
B) Adabiyot va tarix munosabatini
C) So'z san'atining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini
D) Adabiyotshunoslik

4) Adabiyotshunoslik qanday fanlar bilan o'zaro aloqada bo'ladi?
A) Ijtimoiy va gumanitar
B) falsafiy, gumanitar
C) adabiyotga xos fanlar
D) ilmiy, nazariy
E) san'anshunoslik

5) “Boburnoma” kimning qalamiga mansub va qanday asar?
   A) Z.M.Bobur ”ta’sirli” asar
   B) Beruniy ”mukammal” asar
   C) Z.M.Bobur «memuar” asar
   D) Firdavsiy «ajoyib” asar
   E) Z.Bobur «falsafiy» asar

6) “Adabiyotshunoslik nazariyasi”da qanday bilimlar o’rganiladi?
   *A) So’z san’atining mohiyati, tabiati, taraqqiyot qonunlari
   V) Falsafiy va gumanitar bo’limlar
   S) Adabiy til, adabiy oqimlar haqidagi bilimlar
   D) SHe’r, hikoya
   E) Aniq fanlar haqidagi roman yozish yo’llari

7) “Adabiyot” deganda nimani tushunasiz?
   *A) Badiiy, ijtimoiy, siyosiy, texnika, adabiyotlarini;
   V) Ocherk, qissa, she’r, hikoya
   S) SHe’r, ruboiy, muhammas, hikoya
   D) Roman, qissa, epigrafiya, drama
   E) Komediya, tragediya, navella, trilogiya

8) Ob’ektiv olam va ijtimoiy borliqning kishilar ongida in’ikosi bu nima?
   A) Ijtimoiy ong
   B) Ijtimoiy jarayon
   C) Ob’ektiv olam
   D) Ijtimoiy olam
   E) Tafakkur

9) Adabiyotda qanday vositalar yordamida badiiy obraz yaratiladi?
   A) Til, ohang, tasviriy vositalar
   B) Ong, til, qissa, she’r
   C) Til, kompozitsiya, ohang, drama
   *D) Kompozitsiya, ong, tasviriy vositalar
   Ye) Qissa, she’r, ritm, drama

10) San’at va adabiyotning bosh predmeti, tasvir ob’ekti – bu ... ?
   A) Komil inson
   B) Adabiyot
   C) Inson
   D) San’at
   E) Borliq

11) “Majolisun-nafois” kimning qalamiga mansub?
   A) A.Avloniy
   B) Behbudiy
   C) CHo’lpon
   D) A.Navoiy
   E) P.Qodirov

12) Obrazlilik – san’atning ... ?

A) Asosiy jarayoni
B) Amaliy ko'rinishi
C) SHakli va usuli
D) Asosiy xususiyati
E) Badiiy jarayoni

13) Obraz atamasi haqidagi ilk fikrlarni mashhur yunon faylasufi ... kimning estetik qarashlariga uchratish mumkin.
A) Belinskiy
B) Aristotel
C) Gegel
D) Rudakiy
E) Ptolomey

14) Adabiy tanqidchilar berilgan qatorni ko'rsating ?
A) S.Ayniy, Fitrat, Sa'diy, M.SHayxzoda
B) O.SHarafiddinov, U.Normatov, N.Xudoyberganov
C) A.Qayumov, N.Mallaev, O.Hoshim.
D) S.Ahmad, R.Qo'chqor, U.Qo'chqor
E) G'.G'ulom, H.G'ulom, O.Yoqubov, T.Murod

15) G'.G'ulomning "Tirilgan murda" qissasidagi Mamajonning yetakchi xislati qaysi qatorda berilgan ?
A) Yalqovlik
B) Dangasalik
C) Hunarmandchilik
D) Ishbilarmonlik
E) Yaxshi xulqlilik

16) "Adabiyot nadur" nomli maqolasi kimning qalamiga mansub ?
A) CHo'lpon
B) Behbudiy
C) Fitrat
D) Ogahiy
E) G'.G'ulom

17) A.Qahhorning "Sinchalak" qissasidagi qalandarov qanday obraz ?
A) Oddiy obraz
B) Murakkab
C) Benihoya murakkab
D) Realistik obraz
E) Romantik obraz

18) Matnshunoslik so'zi qaysi tildan kirib kelgan ?
A) Arabcha
B) Ruscha
C) Forscha
D) Lotincha
E) Ispancha

19) Tip nima ?
   A) Badiiy obrazning muhim xususiyati
   B) Asarda qatnashuvchi barcha odamlar tasviri
   C) Asarda bir – ikki ko’rinib, o’zida katta vazifa bajarmaydigan obraz
   D) Asar syujetida asosiy o’rinda turuvchi xarakter
   E) Ijtimoiy guruh yoxud sinfning muhim xususiyatlarini ifodalovchi davrning katta umumlashmasi bo’la oladigan xarakter

20) “Ufq” romanining muallifi berilgan qatorni toping ?
   A) G’.G’ulom
   B) Said Ahmad
   C) Oybek
   D) Mirmuhsin
   E) Muhammad Yusuf

21) Iste’dod – bu ?
   A) Murakkab ijod
   B) Tug’ma ijod
   C) Murakkab ijtimoiy – ruhiy hodisa
   D) Lavozim
   E) Psixologik xolat

22) “Yozuvchi biron hodisaga o’quvchida muhabbat va nafrat hissiyoti qo’zg’atishi uchun avvalo o’sha his o’zida bo’lishi kerak” deya ta’kidlagan muallif kim ?
   A) Oybek
   B) Uyg’un
   C) A.Oripov
   D) A.Navoiy
   E) A.qahhor

23) Odatda tip necha turli bo’ladi ?
   A) 2 xil
   B) 3 xil
   C) 4 xil
   D) 5 xil
   E) 6 xil

24) Ijtimoiy va adabiy tiplarning orasidagi farqi qanday ?
   A) 2 xil bo’lgani uchun
   B) hayotiy bo’lgani
   C) Ijtimoiy tip hayotda, adabiy tip asarlarda bo’lgani uchun
   D) 3 xil bo’lgani uchun
   E) 4 xil bo’lganligi uchun

25) Mumtoz adabiyotda o’ziga xos qofiyalanish tarkibiga ega bo’lgan beshlik band usulida yozilgan she’r nima deb ataladi ?
   A) Muxammas
   B) Murabba’
   C) Masnaviy

D) Musamman
E) Musaddas

26) Oybek asarlari berilgan qatorni aniqlang.
A) “Oybek”, “Anor”, “Bemor”.
B) “Murdalar gapirmaydilar”, “Yulduzli tunlar”.
C) “Qutlug’ qon”, “Navoiy”, “Quyosh qoraymas”.
D) “Otello”, “Anor”, “Navoiy”.
E) “Nur qidirib”, “Navoiy”, “Ufq”.

27) Badiiy asar mazmunini ifodalaydigan bo’laklar qaysilar?
A) Obraz, syujet, o’xshatish, asar g’oyasi
B) SHakl, metafora, poetik figuralar, badiiy asar
C) Syujet, kompozitsiya, badiiy til, xarakter
D) Badiiy til elementlari, she’rdagi qofiya, badiiy asar mavzusi va g’oyasi
E) Tipiklik, umumlashmalik, individuallik, peyzaj.

28) “Tazkira tush – shuaro» kimning qalamiga mansub ?
A) Davlatshoh Samarqandiy
B) A.Navoiy
C) Z.M.Bobur
D) A.Avloniy
E) A.Qahhor

29) Adabiy matnshunoslik (tekstologiya)ga qaysi qatorda to’g’ri ta’rif berilgan?
A) Tadqiq etish
B) Bog’lash
C) Lotincha textus - asos, bog’lanish, yunoncha logos - so’z.
D) SHarhlas

30) “Xamsa” so’zining lug’aviy ma’nosi qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan ?
A) Ko’plik
B) Beshlik
C) Bir necha
D) Birga
E) Mavhum

31) Firdavsiyning eng mashhur asari qaysi javobda ko’rsatilgan ?
A) “SHohnoma”
B) “Jangnoma”
C) “Muhabbatnoma”
D) “Boburnoma”
E) «Humoyunnoma »

32) Kumush qishdan zumrad bahordan
Qolishmaydi kuzning ziynati
Baytida qanday tasviriy vosita qo’llanilgan ?
A) O’xshatish
B) Sifatlash
C) Metanimiya
D) Metafora
E) Jonlantirish

33) “Adabiyot nazariyasi” darsligining muallifi berilgan qatorni toping ?
A) Izzat Sulton
B) A.Avloniy
C) T.Boboev
D) N.SHukurov
E) N.Hotamov

34) Adabiyot atamasi qay tildan olingan ?

A) Arabcha, “adab”
B) Frantsuzcha, “obod”
C) Ruscha, “adab”
D) Forscha, «odob»
E) O’zbekcha, «odab»

35) “Adabiyotshunoslik» atamasi - ... ?
A) Badiiy adabiyotning, uning mohiyatini, kelib chiqishini va ijtimoiy aloqalarini o’rganadi
B) SHoirlar hayotini
C) SHe’rni yodlashni
D) G’azal o’qishni
E) Masala yechishni

36) Obrazlilik deganda nimani tushunasiz ?
A) San’atga oid asarlarni
V) SHe’riyatni
S) Epik asarlarni
D) Hayotni o’zlashtirishning o’ziga xos shaklini
*E) Adabiy ijodning mohiyati va umumiy xususiyatlarini

---

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O`zbek tili va adabiyoti kafedrasi

*Filologiya fakulteti o’zbek tili yo’nalishi 1-kurs talabalari uchun*

# ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI

fanidan

N a z a r i y  m a ‘l u m o t l a r

2019-2020 ўқув йили 1-курслар учун

| |
|---|
| Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot to‘g‘risidagi fan. Adabiyotshunoslik tarixi. |
| Badiiy asar. Badiiy asar syujeti va kompozitsiyasi |
| Badiiy asar mavzusi va g’oyasi |
| Obraz – insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri. |
| She’r tuzilishi va she’r tizimlari. Aruz she’r tizimi haqida |
| Badiiy asar tili. |
| Badiiylik – adabiyotning asosiy xususiyati. |
| Adabiy tur va janrlar |
| Ijodiy metod va ijodkor uslubi. |

**_1-MAVZU:_ Kirish. Adabiyotshunoslik fanining obyekti, maqsad va vazifalari hamda tarkibiy qismlari (2 soat).**

***REJA:***

1. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” kursining maqsad va vazifalari haqida ma’lumot.
2. “Adabiyot” atamasining mazmuni va qo’llanilish tarixi.
3. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot haqidagi fan.
4. Adabiyotshunoslikning obyekti haqida ma'lumot.
5. “Adabiyotshunoslikka kirish” kursini o`rganishning maqsadi va natijalari.
6. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering.
7. Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari hakida ma'lumot.
8. Xulosa

**Asosiy tushunchalar:** “san’at”, adabiyot, adabiyotshunoslik, badiiy adabiyot,

poeziya, yozma adabiyot, iqtisodiy adabiyot, texnika adabiyoti, siyosiy adabiyot, adabiy turlar va janrlar, folklor. adabiy portret, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, manbashunoslik, matnshunoslik, bibliografiya, tekstologiya, badiiy asar, tazkira, adabiy jarayon.

"San'at" so'zi arabcha bo'lib, "yaratmoq" ma'nosini ifodalaydi. Istilohda esa kishi kayfiyatiga ta'sir qiladigan, zavqlantiradigan, ruhni hayratlantirish orqali poklaydigan, inson ong-u zakovati, qalbi va hissiyoti hosilasi bo'lgan ijod mahsuliga san'at deb qaraladi. Chinakam san'at asari inson botinida kechadigan ruhiy holatlar, tuyg'ularni tasvirlaydi. Badiiy adabiyot kishilarga qudratli ta'sir ko`rsata oladigan san'at turlaridan biri hisoblanadi. U inson his-tuyg`ularini va ongini tarbiyalashda ulkan rol o`ynaydi.

San'at turi sifatida rassomlikni, musiqani, adabiyotni, teatr va kinoni tushunish mumkin. Adabiyot inson ruhiyatida bo'ladigan o'zgarishlarni, uning tuyg'ularini so'z vositasida tasvirlaydigan san'at turidir. Adabiyotning birdan-bir quroli so'zdir. Badiiy asarning mualliflari bilan birgalikda kitobxon hayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi hamda o`zida ularga bo`lgan munosabatni shakllantiradi. Badiiy adabiyotning ajoyib namunalarini to`g`ri tushunmoq va baholamoq uchun adabiyot haqidagi fan hamda bu sohadagi asosiy nazariy tushunchalar bilan tanish bo`lmog`i zarur. Insonning komillashishiga, uning o`zligini anglashga ta'sir ko`rsatadigan vositalar orasida, ayniqsa, adabiyot alohida ajralib turadi. Chunki adabiyot insonning qalb quvvati va aql-tafakkuri rivojini o`ziga xos tarzda mujassamlashtiradi. Unda qalbning hissiyot tuyg`ulari, aqlning mantiqli mushohada, mulohazalari ajoyib tarzda uyg`unlashgan bo`ladi. Adabiyot asarlarda kishilarning his-tuyg`ulari, fikr-mulohazalari obrazlar orqali akslanadi.

Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adbiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi. Shu ma`noda quyidagi vazifalar muhimdir:

- adabiyotshunoslik metodolgiyasi va metodlari orasidagi bog'lanishni tushuntirish;
- adabiyotshunoslik metodlarining tarixi, asosichilari va asosiy ilmiy tamoyillarini o'rgatish;
- badiiy asarni sotsiologik metod asosida tahlil yuzaga keladigan ijtimoiy-estetik omillarni tahlil qilish;
- vulgar sotsiologizm hodisasini tushuntirish;
- adabiyotshunoslik metodlari bilan ijodiy metodning farqini o'rgatish;
- adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi bilan adabiyotshunoslik metodologiyasi orasidagi mushtarakliklarni talqin qilish;
- germenevtikaning metodologik imkoniyatlarini ochib berish;

- jahon adabiyotshunoslari, rus va o’zbek adabiyotshunoslarining ilmiy metodlarini ani-lashga o’rgatish.
- talabada estetik didni, badiiy so’zni his etish ko’nikmasini hosil qilish;
- adabiy-badiiy va ilmiy-estetik idrokni tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etishdan iborat.

"Adabiyot" arabcha so`z bo`lib, u "odob" (ko`plik shakli "adab") so`zidan olingan. Odob-axloq esa insonni mukarram etuvchi, uni barcha mavjudotlardan ulug`vor qiluvchi hodisadir. Odob-ahloq insonni barcha mavjudotlardan ustun qiluvchi hodisagina bo`lib qolmasdan, u kishilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, dunyoning osoyishtaligi, tinchligini ta'minlovchi, odamlarning aql-tafakkurini ravshan etuvchi tayanch omil hamdir. Shu boisdan asosi "odob", "adab" bo`lgan adabiyotga azal-azaldan jamiyat ma'naviyatining poydevori sifatida qaralgan. Jamiyat ma'naviyatining poydevori sanalgan adabiyot turli xalqlar tilida turlicha ataladi. Chunonchi, "literatura", "slovesnost", "Wortkunst' so`zlari Yevropa xalqlari orasida keng qo`llaniladi. Hozir she`riyat ma'nosida qo`llanadigan "poetika", "poeziya" so`zlari ham avvallari "Adabiyot" ma'nosida ishlatilgan. Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) "Poetika" nomli asar yozib, adabiyot va uning xususiyatlari xususida mulohaza bildirgan. V.Belinskiy (1811-1848) adabiy tur va janrlarni ta'riflab, tahlil qilganida "literatura" so`zi o`rnida "poeziya" so`zini qo`llagan. Biroq "adabiyot" istilohi muqobili sifatida qanday so`z qo`llanmasin, shunisi aniqki, bu so`z barcha zamonlarda hamma xalqlar hayotida alohida o`rin tutgan. Jumladan, turli sohalarga taalluqli barcha manbalar ham deb yuritilgan. Iqtisodiyot, texnika kabi tarmoqlarga oid kitoblar, maqolalar, umuman, yozma manbalar "iqtisodiy "texnika adabiyoti", "siyosiy adabiyot" va hokazo deb yuritilgan. Adabiyotning tabiati, vazifalari hususida barcha davrlarda juda ko`plab asarlar yozilgan, jumladan, Sho`ro siyosati hukm surgan davrda ham rus, o`zbek va boshqa xalqlar olimlari tomonidan adabiyot haqida qator tadqiqotlar yaratishgan. Ularda adabiyotning paydo bo`lishi, shakllanishi, rivoji, janrlari tabiati, adabiyotdagi an'anaviylik va yangilanish jarayonlari xususida mulohazalar ilgari surilgan. Biroq Sho`ro davrida bosilgan aksariyat kitob va maqolalarda adabiyotning sinfiyligini ta'kidlashga, uning shu xususiyatini bo`rttiribroq ko`rsatishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan maqsad, adabiyotni hukmron mafkura g`oyalarini targ`ib eruvchi tayanch vositalardan biriga aylantirish bo`lgan. Aslida ham adabiyot Sho`ro hukmronligi davrida mustabid hokimiyat siyosatini targ`ib-tashviq etuvchi eng asosiy qurol vazifasini o`tagan. Shu boisdan, bu davrda adabiyotga, adabiyot to`g`risidagi ilmga alohida diqqat qaratilgan.

E'tirof qilish lozimki, XX asrda o`zbek adabiyotshunosligi miqdor jihatdan misli ko`rilmagan o`zgarishga erishdi. Ehtimol, o`tgan hech bir davrda sho`ro hukmronligi yillaridagichalik ko`p miqdorda adabiyotshunoslikka doir tadqiqot yozilmagan bo`lsa kerak. Albatta, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasi turlicha. Biroq Fitratning "Adabiyot qoidalari", "Aruz haqida", I.Sultonning "Adabiyot nazariyasi", O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan yaratilgan ikki jildlik "Adabiyot nazariyasi", uch

jildlik "Adabiy turlar va janrlar" singari tadqiqiqotlar adabiyot to`g`risida muayyan tasavvur uyg`otishi bilan salmoqlidir. Ularda adabiyot to`g`risida dunyo ilm-fanida erishilgan xulosa, natijalar muayyan darajada mujassamlashtirilgan.

XX asrda adabiyotshunoslik tarixi, bu fanning xususiyat va vazifalari to`g`risida ham bir qator kitoblar, darslik, qo`llanmalar yozilgan. Universitet, pedagogika institutlari filolog talabalariga asosiy mutaxassislik fanlaridan biri sifatida o`qitib kelingan.

Adabiyotshunoslik va uning tarkibiy qismlari sanalgan adabiyot tarixi har bir fanning ob'yekti bo`lgani singari adabiyotshunoslikning ham o`z o`rganish manbasi bor bo`lib, bu badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot inson tafakkurining eng noyob ne'matlaridan biridir. Ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblangan badiiy adabiyotning og`zaki va yozma shakllari mavjuddir. Ularning xar ikkalasi uchun ham bosh ob'yekt va uning o`ziga xos dunyosidir. Albatta, tabiat hodisalari, hayvon, jonivorlar hayotiga bag`ishlangan asarlar ham bo`ladi. Biroq ularda ham aslida kishilar nazarda tutiladi, odamlarga saboq bo`ladigan, manfaat keltiradigan fikr, xulosalar ilgari suriladi. Tun, kun, quyosh, oy, yulduzlar, yil fasllari, o`simliklar haqida mulohaza yuritilganda ham, avvalo, kishilar hayoti, turish-turmushi e'tiborga olinadi. Tabiat hodisalari, hayvonlar, o`simliklar haqidagi asarlar ayni chog`da kishilarning (demak, ijodkorning ham) badiiy tafakkur darajasini, falsafiy mulohaza yuritish miqyoslarini, xayol, tasavvur olamining qamrov doirasini ham bildiradi. Adabiyot kishilar ruhi va tafakkurini tozartiradi, deyiladi. Adabiyot bunga so`z orqali hodisalarni jonli, ta'sirchan ifodalash vositasida erishadi.

Badiiylik hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, unda tasavvur uyg`otadigan qilib tasvirlashdir. Adabiyotning badiiyligini ta'minlaydigan eng birinchi omil uning tilidir. Chunki adabiyot so`z san'atidir. Adabiy asarda hayotning kundalik oddiy hodisalari so`z tufayli yorqin, hayajonlantiradigan bo`lib ko`rinadi. Adabiyotshunoslikning asosiy ob'yekti sanalgan badiiy adabiyotning ikki shakli: xalq og`zaki ijodi (folklor) va yozma adabiyotning biridan birini past yoki baland qo`yib bo`lmaydi. Chunki har ikkisi ham so`z san'atidir. Xalq og`zaki ijodi namunalarida ham, yozma adabiyot asarlarida ham hodisalar ta'sirchan, badiiy gavdalantiriladi. Ijtimoiy-ma'naviy tarixiy taraqqiyot tufayli yozma adabiyot qanchalik ravnaqqa erishgan bo`lmasin, u folklor asarlari o`rnini egallay olmaydi. Folklor-yozma adabiyotning paydo bo`lishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlagan poydevor sanaladi. XX asr adabiyotida yangi yo`nalishlar yuzaga kelishiga ham qadimiy folklor mif (asotir)lari asos bo`lgan. Umuman, yozma adabiyotni yangi timsol, yangi obrazlar bilan boyitib borishga folklor asarlari samarali ta'sir ko`rsatadi. Xalq donishmandligi, hayotiy tajribasini mujassam etgan maqollar, topqirlik, zukkolikni taqozo etadigan topishmoqlar, kishilarning qahramonligi, jasurligi, el-yurt manfaati uchun fidoiyligini ta'sirchan voqealarda aks ettiruvchi dostonlar xalq og`zaki ijodi sanalsa, «O`tgan kunlar» (A.Qodiriy), «O`g`ri» (A.Qahhor), «Bahor» (A.Oripov) yozma adabiyot namunalaridir.

Adabiyotishunoslikning tarkibiy qismlari II guruhga ya'ni adabiyotshunoslikning asosiy sohalari va yordamchi sohalariga bo`lib o`rganiladi.

Tarixiy rivojlanish jarayonida, adabiyotshunoslikdan maxsus fanlar adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqid ajralib chiqqan. Adabiyot nazariyasi so`z san'atining mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlarini, kishilik jamiyati rivojidagi o`rni va rolini, o`ziga xos xususiyatlarini kashf etadi. Badiiy asarlarni tahlil qilishni belgilab beradi. A.Navoiyning "Majolisun-nafois" asarida uning o`ziga zamondosh bo`lgan yozuvchilarning ijodiga bergan xarakteristkasidan iborat. "Majolisun-nafois"ning bir bobi to`laligicha shoir Husayniy (ya'ni Husayn Boyqaro) ijodiga bag`ishlangan bo`lib, bu bobni hozirgi ma'nodagi "adabiy portret" janriga bemalol kiritish mumkin. Demak, "Majolisun-nafois"da adabiyot tarixi bilan adabiy tanqid bir-biriga qo`shilib ketgan. Ko`rinadiki, o`tmishda adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari o`rtasida chegara bo`lmagan. Haqiqatan ham "adabiyot tarixi", "adabiyot nazariyasi" va "adabiy tanqid" bir-birisiz yashay olmaydi. Ular bir-birini boyitadi, to`ldiradi va rivojlantiradi. Adabiyotshunoslik fanining tarixiy rivojlanish jarayonida undan yuqorida sanab o`tilgan uch mustaqil fan-adabiyot tarixi, adabiy tanqid va adabiyot nazariyasi ajralib chiqqan. Bir-biri bilan mustahkam bog`langan bu fanlarning har biri oldida alohida ilmiy-amaliy vazifalar borki, ularni alohida-alohida yoritish ushbu darslikning asosiy vazifasidir. Har bir xalqning badiiy adabiyoti uzoq ijtimoiy taraqqiyot davomida murakkab rivojlanish yo`lini bosib o`tdi. Adabiyot ijtimoiy ong shakllaridan biri bo`lganligi, sinfiy ruhda ekanligi tufayli unda ilg`or dunyoqarashga asoslangan xalqchil asarlar bilan birga reaksion dunyoqarashga asoslangan asarlar ham vujudga kelgan.

Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning mohiyati, jamiyatdagi roli, vazifalari, ijtimoiy va estetik xususiyatlari badiiy asarning tuzilishi, adabiyot taraqqiyotining tarixiy qonuniyatlari, undagi metodlar va oqimlar, turli va janrlar kabilarni o`rgatish va o`rganish vazifasidir. Tajriba ijod qonuniyatlari asosida dunyodagi barcha xalqlar va mamlakatlarning ijodkorligi uchun bir xil ahamiyatga ega bo`lishiga qaramay, turli ijodiy uslubda, turlicha metodda ish yurituvchi har xil dunyoqarashdagi ijodkorlar bu qonuniyatlarni turlicha tushunadilar va ularga amal qiladilar. Adabiyot nazariyasining ayrim masalalari avval boshdan ishlanib kelgan bo`lsa-da, keyingi asrlarda mukammallik kasb etdi. Asosan adabiyot tarixi so`z san'atining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini tadqiq etadi. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida badiiy adabiyotning roli va ahamiyatini belgilaydi. O`zbek adabiyoti tarixi dastlab tazkiralar tarzida yuzaga kelib, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush shuaro" asari va A.Navoiyning "Majolisun-nafois" kabi shoirlar va adib haqida qisqacha biografik ma'lumotlar, asarlardan ayrim parchalar berishdan iborat bo`lgan. Adabiy tanqid-adabiyot haqidagi fanning adabiy jarayonga darhol aralashadigan sohasidir. Adabiy tanqid har bir davrning o`z vaqtida adabiy hodisalari, yozuvchilari ijodi haqida o`z vaqtida muhokama yurgizadi. Ularni badiiy adabiyotdagi vazifalari va zamonasining ijtimoiy talablari nuqtai nazaridan tahlil etadi, baholaydi. Konkret adabiy hodisalar ustidan adabiyotga oid nazariy xulosalar chiqaradi. So`nggi yillarda o`zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi tarixi va nazariyasini keng rejada yorituvchi salmoqli asarlar maydonga keldi. Hozirgi vaqtda o`zbek adabiy tanqidi adabiyotning barcha sohalari va muammolari bilan shug`ullavuvchi mutaxassislarga ega bo`lib, adabiy jarayoni nazariy-tarixiy aspektda tadqiq

qilishga, yangi asarlarni g`oyaviy-badiiy jihatdan haqqoniy baholashga katta e'tibor bermoqda. Adabiyotshunoslikning yuqorida ko`rsatib o`tilgan tarkibiy qimslaridan tashqari uning yordamchi sohalari manbashunoslik, matnshunoslik, bibliografiya kabi yordamchi qismlari ham bor. Manbashunoslik turli davrlarda yaratilgan va birinchi manba hisoblanadigan asarlar haqida ma'lumotlarni jamlash ularning qisqacha mazmunini yoritish bilan shug`ullanadi. Masalan: Manbashunoslik Navoiyning hayoti va ijodini yoritishga xizmat qiluvchi XV-XVI asrlarda yaratilgan adabiy, tarixiy-memuar asarlarni tekshirib chiqib, adabiyotimiz tarixiga oid muhim ma'lumotlarni tekshirib chiqib, adabiyotimiz tarixiga aniqlik kiritdilar. Bu o`rinda A.Navoiyning hayoti va ijodini yoritishga xizmat qiluvchi ilk manbalarga Xondamirning "Makorimul-axloq", Boburning "Boburnoma", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush-shuaro" va shu kabi asarlarni ko`rsatish mumkin. Bibliografiya esa turli xil asarlarning tematik va xronologik ro`yxatini tuzish bilan shug`ullanadi. Bibliografiya turli sohalar va fanlarga oid bo`lishi mumkin. Adabiyotshunoslik bo`yicha bibliografiyalar muayyan davrda yaratilgan asarlar ro`yxati, muayyan yozuvchi asarlari ro`yxatidan, u yoki bu yozuvchi haqidagi adabiy-tanqidiy maqolalar, ocherklar, monografiyalar va hokazo asarlar ro`yxatidan iborat bo`lishi mumkin. Tektologiyaning vazifasi o`sha asarning mukammal emasligini aniqlashdan iborat. O`tmishda yaratilgan asarlarning asl avtor nusxasini yoki avtor nusxasiga yaqin variantini tiklash ancha murakkab ish. Buning uchun u yoki bu asarning turli davrlarda ko`chirilgan nusxalari sinchkovlik bilan taqqoslanadi, ko`chirish jarayonida hattotlar tomonidan kiritilgan turli o`zgarishtirishlar aniqlanadn, ulardan tozalanadi. "Adabiyotshunoslikka kirish" predmeti adabiyot nazariyasiga oid dastlabki umumiy ma'lumotlarni berib, adabiyot nazariyasining asosini tashkil etadi. "Adabiyotshunoslikka kirish" asosan uch bo`limdan iborat bo`lib, birinchi bo`limda badiiy adabiyotning umumiy xususiyatlari, uning ijtimoiy ong formalaridan biri ekanligi, milliy va internasionallik xususiyatlari to`g`risida bahs yuritadi. Ikkinchi bo`limda, konkret badiiy asarning analizi bilan bog`liq bo`lgan masalalar badiiy asar haqida umumiy tushuncha, badiiy asarning temasi va g`oyasi, mazmun va shakl, syujet va kompozisiya, badiiy asar tili, she'r tuzilishi va vaznlar kabi masalalar qamrab olingan. Uchinchi bo`limda esa, adabiy jarayon haqida tushuncha beriladi. Bunda adabiyot taraqqiyotining tarixiy xarakteri, adabiy turlar va janrlar, badiiy metod, uslub, adabiy yo`nalish haqida fikr yuritiladi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Adabiyot” atamasini qanday izohlaysiz? (misollar bilan)
2. “Adabiyot” so`zi boshqa xalqlar tillarida qanday nomlanib kelgan?
3. Adabiyotniig vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
4. Adabiyotshunoslikning tasvir ob'yekti nima?
5. A.Fitratning "Adabiyot qoidalari" kitobini o`qing.
6. Adabiyotshunoslikka oid qanday kitoblarni bilasiz?
7. Adabiyot tarixi deganda nimani tushunasiz?
8. Xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyotning farqi qanday?

9. Adabiyot - so`z san'ati deganda nimani tushunasiz?
10. Siyosiy adabiyotlar qanday mazmunda bo`ladi?
11. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari haqida matlumot bering.
12. Adabiyot nazariyasi nimani o`rgatadi?
13. Adabiyot tarixi nimani o`rgatadi?
14. Adabiy tanqid haqida ma'lumot bering.
15. Adabiy tanqidchilardan kimlarni bilasiz?
16. "Adabiyotshunoslikkka kirish" necha bo`limdan iborat?
17. "Bibliografiya" nima?
18. Tekstologiyaning adabiyotshunoslikdaga o`rni nimada?
19. Adabiy jarayon haqida tushuncha bering.
20. Adabiy tur nima?

## Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

### Asosiy adabiyotlar:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – T., 2005
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: "O'zbekiston", 2003.
3. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: "Universitet", 2005
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. - T.: "Universitet", 2018

### Qo'shimcha adabiyotlar

5. Normatov U. Nafosat gurunglari. – T.: "Muharrir", 2010.
6. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: «SHarq», 2007.
7. Ulug'ov A. Asl asarlar sehri. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
8. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: "SHarq", 2004.
9. Teoriya literaturi. Pod red. N.D.Tamarchenko.– M.:"Academiya", 2004.
10. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. 4-e izd.– M.: "Visshaya shkola", 2006.
11. http://philologos.narod.ru/tomash/poetika.htm Tomashevskiy B.V. Teoriya literaturi. Poetika: Ucheb.posobie. – M.: Aspekt Press, 1996 (1999)
12. Aristotel. Poetika. -T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sanaъt nashriyoti.1980. 152 b.

**Xorijiy adabiyotlar**

**1.Crystal D. A dictionary of littera's and teoretikics. Bleakwell publishing, 2008.**
**2.Iglton T. T.Lecturas in theoritical littera's of the english lenguage and method –guides for seminars.-Poliprint, Ungvar, 2009.**

**Elektron manbalar**

1. www.ziyo-net.uz
2. www. magazine. rus. ru
3. www. Googie.co.uz

Test va tarqatma materiallar

1. Adabiyotshunoslikning ob'ekti (predmeti) va vazifalari nimalardan iborat ?
*A) Adabiyotshunoslikning ob'ekti tarixiy sharoit bilan uzviy birlikda olingan adabiy mahsulot va uning yaratilish jarayonidir.
S) Adabiy jarayonni tahlilu talqindan o'tkazadigan sohadir.
D) Adabiyotshunoslikning ob'ekti so'z san'atining vujudga kelishini o'rganadi.
E) Adabiyotshunoslik texnika adabiyotini o'rgatadigan sohadir.

2. Adabiyotning quroli …
A) *so'z  B) obraz  C) badiiy asarlar D) tarixiy voqelik

3. Adabiyotshunoslikning qo'shimcha sohalari haqida ma'lumot bering ?
D) O'tmish adabiy manbashunoslik
E) Adabiy matnshunoslik
R) Adabiy manbashunoslik, adabiy matnshunoslik, bibliografiya.
F) Ilmiy tadqiqot, ilmiy – axborot.

4. Ijtimoiy ong nima ?
A) Siyosat, iqtisod, shakl, rassomlik
G) Falsafa, fan, san'at, teatr
H) Fan, ob'ekt, sharoit, san'at
* D) Siyosat, mafkura, huquq, ahloq, fan

5. Adabiyotning tasvir ob'ekti ?
A) qushlar
V) hayvonlar
S) tabiat
*D) inson

6. "Insonshunoslik" nima ?
A) fiziologiya
V) astronomiya
S) san'atshunoslik
*D) badiiy adabiyot

7. Obrazlilik deganda nimani tushunasiz ?
A) san'atga oid asarlarni
V) she'riyatni
I) epik asarlarni
*D) adabiy ijodning mohiyati va umumiy xususiyatlarini

8. Obraz yaratish yo'llari necha turga bo'linadi ?
*A) 2 turga
V) 3 turga

C) 1 turga
D) 4 turga

9. Ijodiy metod taqozosiga ko’ra obrazlar qanday turlarga bo’linadi ?
A) Romantik, fantastik, murakkab, oddiy
V) Mifologik, afsonaviy, ijobiy, afsonaviy
S) Salbiy, simvolik, romantik, ijobiy
D) Romantik, realistik, simvolik, mifologik

## ***2 -MAVZU:*** Adabiyotshunoslikning tarixiy taraqqiyoti. (2 soat).

***REJA:***

1. Adabiyot nazariyasi bo`yicha eng qadimgi asarlarning tarbiyaviy ahamiyati.
2. O`rta Osiyo va arab olimlari tomonidan yaratilgan adabiyotshunoslikka oid asarlar.
3. O`rta Osiyoda adabiyotshunoslikning rivojlanib borishi.
4. XVIII-XIX asrlarda adabiyotshunoslikning dunyo miqyosida jonlanishi.

**Asosiy tushunchalar:** adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik, poeziya, epos, lirika, drama, tragediya, adabiy-nazariy tafakkur, tazkira, qofiya, aruz, poetik san'at. so’z san’ati, adabiyot, davrlashtirish, epos, qahramonlik eposi, Alpomish,

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel tomonidan yaratilgan "Poetika" asari adabiyot nazariyasi bo`yicha dastlabki yirik asar hisoblanadi. Aristotel bu asarida poeziya haqiqiy hayotni aks ettirishi, uning asosiy predmeti inson ekanligi, u ulkan ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi haqidagi fikrni ilgari surgan.

Aristotel birinchi bo`lib sna'atning bir turi hisoblanuvchi poeziyaga xos ba'zi muhim xususiyatlarni sanab ko`rsatgan, uning fandan farqlarini izohlagan, adabiyot turlaridan epos, lirika va dramani birmuncha umumiy tarzda ta'riflab bergan. Dramatik san'atning eng muhim turlaridan bo`lgan tragediya haqida teran fikrlarni aytadi. "Poetika"da ko`plab qimmatli nazariy xulosalar keltirilgan va adabiyot sohasidagi keyingi tadqiqot ishlari uchun yo`l ochib bergan.

Uzoq vaqtlargacha Arestotel "Poetika"si nazariy-adabiy tafakkurning cho`qqisi hisoblanib keldi.

O`rta Osiyoda adabiyotshunoslik o`rta asrlarda arab tilidagi filologiya fani ta'siri ostida maydonga keldi. Buyuk olim Abu Ali ibn Sinoning "mu'tasammul shuaro" ("Shoirlarning panohgohi") asarini (XI asr) adabiyot tarixi va adabiyotshunoslikka oid dastlabki asarlaridan biri deb hisoblash mumkin.

Arab olimi Hamid ibn Ahmad bevosita adabiyot nazariyasiga oid bo`lgan aruz haqidagi ta'limotni yaratdi (VIII asr), IX asrda Abdullo ibn Muslim "Kitobash-she'r va shuaro" asarida, XI-asrda Mahmud Zamaxshariy "Muqaddimatul-arab" ("Arab tilini o`rganishga oid asar") asarida adabiyot nazariyasiga oid bir qancha masalalarga to`xtaladilar. Keyinroq boshqa tazkiralar paydo bo`ladi. Ularda, odatda shoirlarning tarjimai holidan ba'zi ma'lumotlar keltiriladi, ijodiga umumiy baho

beriladi, asarlaridan namunalar ilova qilinadi. Bunday tazkiralar misoli sifatida Muhammad Avfiyning "Lubob-ul-albob", "O`zaklar o`zagi" (XIII asr), Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush-shuaro" (XV asr), Alisher Navoiyning "Majolisun-nafois" ("Nafis majlislar" (XV asr) singari asarlarini ko`rsatish mumkin.

O`rta Osiyo, ayniqsa, she'r tuzilishi-masalalariga doir ko`plab kitoblar yaratiladi. Ular orasida A.Navoiyning "Mezonul-avzon" ("Vaznlar o`lchovi") (XV asr) va Zahiriddin Muhammad Boburning "Muxtasar" (XVI asr) asarlari keng shuhrat qozonadi.

She'r tuzilishi, qofiya, aruz vazni singari nazariy masalalar keng ishlanish bilan bir qatorda Sharqda adabiyotning mohiyati, o`ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari va tarbiyaviy ahamiyati haqidagi fikrlar ham rivojlanib boradi. Jumladan, mashhur "Shohnoma" asarining muallifi Abulqosim Firdavsiy adabiyotning katta ijtimoiy qiymatini alohida ta'kidlab o`tadi.

Turkiy xalqlar adabiyotining ilk namunalaridan hisoblangan va XI asrda Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan "Qutadg`u bilig" ("Saodatga yo`llovchi bilim") kitobida shoirlar ijodining katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi qayd qilinadi, ular ma'no dengizidan injular topib chiqaruvichlar deb ataladi. Alisher Navoiy o`z "Xamsa"siga kirgan dostonlarining deyarli har birida maxsus "So`z ta'rifida" degan bob ochib, adabiyotga juda katta baho beradi. U badiiy asaralida yo`l-yo`lakay adabiyot, shoir va kotibning jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o`rni haqida fikrlar bildirib o`tadi. Navoiy adabiyotda mazmun zaifligiga, fikriy sayozlikka, badiiy nomukammalikka qarshi chiqadi. Uning fikricha, badiiy ijod uchun iste'dod zarur.

Alisher Navoiy o`z ijodi bilan o`zbek adabiy tiliga asos solibgina qolmay, uning qator nazariy masalalarini ham atroflicha ishlab chiqdi. U adabiy til masalasiga "Muhokamat-ul-lug`atayn" ("Ikki til muhokamasi") nomli maxsus asar bag`ishlaydi. Mazkur asarida Navoiy har bir xalq tilida milliy badiiy adabiyot yaratish mumkinligini isbot etadi; badiiylik faqat ma'lum tillarning (masalan, fors va arab tillarining) imtiyozi ekani haqidagi o`z davrida hukmron bo`lgan nuqtai nazarini fosh qiladi va turkiy (qadimgi o`zbek) tilining badiiy imkoniyatlarini chuqur ochib beradi. "Muhokamat-ul-lugatayn" O`rta Osiyoda o`tmishda adabiyotshunoslik sohasida yaratiltan eng yetuk asarlardan biri hisoblanadi.

O`rta Osiyo XVI asrdan keyin turli ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko`ra ko`pchilik fanlar singari adabiyotshunoslik taraqqiyoti ham birmuncha susayib ketdi, adabiyotshunoslikka doir maxsus yirik asaralar kam yaratildi. Bu davrlarda, asosan, Maleho Samarqandiyning "Muzakkir-ul ashob" ("Iste'dod egalarining zikri", XVIII asr), Fazliyning "Majmuai shoiron" (XIX asr) tazkiralari tipidagi asarlar vujudga keladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida adabiyotshunoslik rivojida ham ma'lum darajada jonlanish boshlanadi. Muqimiy va Furqat badiiy asar yaratishda haqqoniylikka, mehnatkash xalqning og`ir ahvolini aks ettirishga, badiiy mukammalikka qaratildi.

XV asrning ikkinchi yarmida yangi sharoitga muvofiq holda Aristotel "Poetika"si ta'limotini davom ettirish va rivojlantirish yo`lida ajoyib urinish sodir bo`ladi.

Fransuz klassitsizmining nazariyotchisi Bualo "Poetik san'at" nomli kitob yaratdi va u katta shuhrat qozondi.

XVIII asrda Rossiyada adabiyotning nazariy masalalarini ishlash bilan M.V. Lomonosov va A. N. Radishchev shug`ullandilar.

Adabiyot nazariyasi sohasida V. G. Belinskiyning "Poeziyaning xil va turlarga bo`linishi", "1847-yilgi rus adabiyotiga bir nazar", N. G. Chernishevskiyning "San'atning voqelikka estetik munosabati" va N. A. Dobrolyubovning "Rus adabiyoti taraqqiyotida xalqchillikning ishtiroki, darajasi haqida" nomli ishlari, ayniqsa katta ahamiyatga egadir.

O’zbek adabiyotini davrlashtirish masalasi. Ayrim mutaxassislar adabiyot tarixi bosqichlarini podsholarning, sulolalarning hukmdorlik davri bilan, boshqalari esa yirik tarixiy voqealar bilan bog`lashadi. Ba`zi olimlarimiz, jumladan prof. N. Mallayev o`zbek adabiyoti tarixini, bir tomondan, jamiyatning umumiy taraqqiyot qonunlari, o`zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, adabiyot tarixi taraqqiyotining o`ziga xos xususiyatlarini: badiiy adabiyotning ijtimoiy mohiyati, vazifasining o`sib borishi, adabiy tur va janrlarning shakllanishi, taraqqiy etishi hamda so`z san`atining boshqa jihatlari takomiliga xos xususiyatlarni ko`zda tutib bosqichlarga ajratish kerakligini ko`rsatib o`tishgan. Professor N.Mallaevning oliy o`quv yurti talabalari uchun chiqargan darsligida o’zbek adabiyoti tarixi quyidagi bosqichlarga bo’lib berilgan:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.
2. X-XI asrlar adabiyoti.
3. XI asrdagi va XIV asr boshlaridagi adabiyot.
4. XIV asr o`rtalaridan XVII asrgacha bo`lgan adabiyot.
5. XVII asrdan XIX asrning o`rtalarigacha bo`lgan adabiyot.
6. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.

Prof. B.To`xliyev adabiyotni quyidagicha davrlashtirishni tavsiya etadi:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar «Avesto», «Alpomish» va b.
2. Ilk o`rta asrlar adabiyoti «Kultegin» bitiklari va b.
3. O`rta asrlar adabiyoti IX-XVI asrlar:
4. Temuriylar davri adabiyoti.
5. A.Navoiy va uning davri adabiyoti.
6. XVII-XIX asrlar adabiyoti.
7. XX asr adabiyoti.

(B.To`xliev. O`zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. T., 2000 y. 13 bet.)

Boshqa manbalarda:

1. Adabiy tasavvur va badiiy tafakkurning shakllanish davri
2. Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi).
3. Mumtoz didaktik badiiy ijod, dostonchilik va qissachilikning vujudga kelish davri (XI-XIII asrlar)

4. Tasavvufiy talqinlar va badiiy tafakkurning yuksalish davri.

5. Adabiy muhitlarning shakllanishi va rivojlanishi davri. XVII –XIX

6. Yangicha ma'rifatparvarlik adabiyoti

7. Milliy uyg'onish davri

8. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri (1917-1929)

Prof. R.Vohidov va H.Eshonqulov quyidagi variantdagi tasnifni ma'qul ko'radilar:

1. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XIX asr o'rtalarigacha)

2. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti (XIX asr II yarmidan XX asr 20-yillarigacha)

3. Yangi o'zbek adabiyoti (1930-yildan hozirgacha)

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar Markaziy Osiyo hududida qadimdan yashagan o`zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlarning adabiy yodgorliklaridir. Keyingi taraqqiyot bosqichlaridagi adabiyot esa bevosita o`zbek xalqi tomonidan yaratilgan adabiyotdir.

O`zbek xalqi ma`naviy madaniyatining katta va ajralmas bir qismi o`zbek adabiyotidir.

O`zbek adabiyoti tarixi o`zbek xalqining qadim zamonlaridan boshlab hozirgi kunga qadar yaratgan badiiy adabiyotini o`z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikda o`zbek adabiyoti tarixi ikki nom asosida tilga olinadi:

1. O`zbek mumtoz adabiyoti. Bunda eng qadimgi davrlardan boshlab, XX asr boshlarigacha bo`lgan davr nazarga olinadi.

2. Hozirgi zamon o`zbek adabiyoti yoki XX-XXI asrlar o`zbek adabiyoti.

Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida. Qadimgi davrlardan eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati, yozuvi va san'ati. Markaziy Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardan yozuvdan foydalanib kelishgan. Avesto yozuvi, oromiy yozuvi hududimizda foydalanilgan eng qadimgi xat turlaridan ekanligi tasdiqlangan. Mutaxassislar o'rxun yozuvi I asrda vujudga kelganligini ta'kidlashadi. Markaziy Osiyoda ilm-fan taraqqiyoti manbalari bizgacha yetib kelmagan bo'lsa ham "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig" asarlaridagi faktlar ajdodlarimiz falakiyot sohasida ham ulkan yutuqlarga erishganligini isbotlaydi. X asrga taalluqli "Kitobi Dadam Qo'rqut" umumturkiy epos sifatida tavsiflanadi. Undagi materiallari o'zidan besh asr muqaddam xalq og'zaki ijodi namunalariga bog'liqligi taxmin qilinadi5. Beruniy "Osor ul-boqiya" asarida Qadimgi Xorazmda nihoyatda aniq tqvim yaratilganligi, ilm-fan o'ta taraqqiy etganligini yozadi. 1932-yilda Termiz yaqinidagi Ayritomdan toshga ishlangan uch cholg'uchi ayol surati topildi. Tuproqqal'a saroyidagi III asrga mansub devor suratlari ham Turonda madaniyat taraqqiyoti darajasini ko'rsatib turibdi. Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038)ning "Yatimat ad-dahr" asari Qohira nusxasi 1801 sahifadan iborat bo'lib, Movarounnahr va Xurosonda arab tilida ijod etgan shoir va adiblar 4-qismga

[5] Talat S. Halman. A millennium of Turkish literature. – Ankara: Ministry of culture and Tourism, 2009. Pp.7-8.

kiritilgan. Ularning umumiy soni 124 ta bo'lib, 48 tasi bevosita Buxoro farzandlari hisoblanadi. Afsuski, yurtimizga kirgan har bir bosqinchi o'z hukmronligini o'rnatish uchun oldingi sivilizatsiya qo'lga kiritgan yutuqlarni tag-tugi bilan yo'q qilgan. Yoki boshqa tillarga qilingan tarjimalar saqlangan. Jumladan, quyida uyg'ur tilida yaratilib, so'ngra xitoy tiliga tarjima qilingan she'r parchasini keltiramiz:

Young girls are weaving cloth,
I can't hear the sound of the loom,
But I hear those girls breathing[6].

(Tarjimasi: Suluv qizlar mato to'qiydi, Men dastgohning ovozini eshita olmayapman. Ammo qizlarning nafasini eshitmoqdaman).

Qadimgi turkiy shoirlar: Aprinchur tegin, Kalim Keysi va hkz.lar ismi bizga qadar yetib kelgan.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodi bilan miloddan avvalgi 2800-yillarda yashagan Bilgamishxon (Gilgamesh) va uning sharafiga sopol lavhalarda bitilgan dostonlar davrining ma'lum jihatdan o'xshashlik tomonlari bor. O'tgan asrning 40 – yillarida ingliz arxeologi Leyard Ossuriya poytaxti Nineviya xarobalarini o'rgana boshladi. Tekshirish natijasida Ossuriya podshosi Ashshurbanipal saroyi qoldiqlaridan mixxat belgilari bilan qoplangan 20 ming sopol kitobga ega bo'lgan kutubxona qo'lga kiritildi.

Midiyalik va bobillik johillar tomonidan yondirilgan kutubxona xazinasida qadimgi ajdodlarimiz yaratgan adabiy yodgorliklar borligini tan olish g'oyat faxrlanarlidir. Bu sopol kitoblar eramizdan oldingi 2000 yillarda so'zlashuvdan qolgan shumer (sumer) tilida bitilgan deb hisoblanadi. Amerikalik shumershunos S.N.Kramerning isbotlashicha, shumeriylar yaratgan adabiy syujetlar va ilmiy kashfiyotlarni boshqa xalqlar, jumladan, bobilliklar o'zlashtirganlar. Shumeriylar Messopatamiyada – Dajla va Frot (turkiylar buni O'kuz deb atashgan) daryosi oralig'ida yashashgan.

Arxeologlar Unug shahri tarixda bo'lgan va qalin devorlar bilan ko'tarilganligini isbotlashgan. "Gilgamish" dotoni matni dastlab Henri C. Raulinson tomonidan o'rganilgan[7].

F. Xommel birinchilardan bo'lib, shumer tilini turkiy tilga nisbat bergan. Bizning zamonamizga kelib qozoq shoiri O'. Sulaymonov bu tilni ural-oltoy tillari oilasiga kiritishga harakat qilgan. Polyak olimi Ya. Braun tibet, M.Serotelli gruzin tillari oilasiga mansub deb hisoblaydi. Shumershunos I. M. Dyakonov esa bu fikrlarni faraz deb tushunadi va ularning taqqoslarini inkor etadi. O'rni kelganda aytish kerakki, bu olim Olmaotadan 50 kilometr uzoqlikda Issiq daryosi bo'yidagi qo'rg'ondan topilgan yozuvni ko'pgina turkiyshunoslar sak turklariga nisbat berganida va o'qib asoslashganida ham tan olishni istamagan edi.

Bizning tilimizdagi egar so'zi shumerlarning eger – bel orqani ifodalaydigan so'ziga yaqin turadi. Kusa – kursidir. Turkiylarning «r» harfini

[6] Talat S. Halman. A millennium of Turkish literature. – Ankara: Ministry of culture and Tourism, 2009. P.22.
[7] The sacred books and early literature of the east. – New York-London: Parke, Aurtin, and Lipscomb Inc. 1917. P.187.

aytolmaydigan (masalan, kursi – kussi, mardon – maddon, to'rt – to't kabi) lahjalari mavjud. Shumerlarda ug' – xalq, ken – kengash ma'nosini beradi. Ug'ken – xalq yig'ilib kengashadigan joy. Demak, ken – kengash, ayni paytda turli joylardan keladigan xalqlarning to'planib, maslahat o'tkazadigan markazi ma'nosini ham anglatadi. Bu, albatta, turkiylarda ken (kent) shahar (Toshkent kabi) mazmuniga ham mosdir.

Shumer va turkiy tillar o'rtasidagi yaqinlikni qiyosan o'rganish ishiga O'.Sulaymanov birinchilardan bo'lib kirishgan, shumer tilidagi oltmishdan ortiq so'zning hozirgi turkiy tillarda qo'llanilishi hamda bu tillardagi so'zlar bilan o'zakdosh ekanligini isbotlagan edi. Olim shumer atamasining ma'nosi haqida ham fikr yuritar ekan, bu so'zni «sub – yer», «sibir», «yer — sub» so'zlari bilan o'zakdosh deb tushunadi hamda yer–suv mazmunini beradi, degan farazga keladi. Chindan ham turkiylarga xos tovush o'zgarish hodisalari («sh» — «s», «m» — «b») shumerni «sub — yer» deb o'qishga imkon beradi.

Badiiy asarni ma'lum bir xalq adabiyotiga nisbat berish uchun faqat tilni asos qilib olish yetarli emas. Bunday muammoli masalalar tug'ilganida badiiy asarda aks etgan diniy e'tiqodlar, qabila yoki xalqlarning urf-odatlari, obrazlarning xarakteri va qahramonligi so'ngi asrlardagi qaysi xalqning turmushida saqlanganligi nuqtai nazaridan ham yondashish kerak. «Bilgamish» dostonini turkiy xalqlar adabiy merosiga nisbat berish uchun unda ko'pgina qadimiylik belgilari saqlanib qolgandir.

Turkiy qabilalarning eng qadimgi qavmi gumer hisoblanadi. Bu qavm o'zlarini Nuh to'fonidan so'ng dunyoda paydo bo'lgan birinchi xalqlardan deb tushunishgan. Qadimshunoslar turkiylarning kimmer qabilasini gumer qavmining nomi sifatida e'tirof etishadi. Antik yunon va ossuriy tarixchilarining kitoblarida kimmerlar haqida boy ma'lumotlar berilgan. Tarixiy asarlarda bu turkiy qabilaning nomi gimmer, kimmer shaklida, shumer esa ba'zan sumer shaklida ham yozilgan. Shumer va kimmer nomlarida mantiqan bog'lanish hamda ohangdorlik bor. Qolaversa, gumerlar ham shumerlardek dunyodagi eng qadimgi qabilalardan biridir.

2. Antik davr yunon va ossuriy tilida yaratilgan tarixiy kitoblarda kimmeriylarning vatani Shimolda – Qrim atroflarida deb ko'rsatilgan.

«Injil»da ko'rsatilgan gumerning o'g'illaridan biri Ashkanoz. Bu qavm tarixda skiflar nomi bilan yuritiladi. Gumerning yana bir o'g'li Tugarma deb atalgan8. Undan Mesopotamiyada yashagan xalqlar tarqalishgan. Demak, kimmer va skiflar Kichik Osiyo mamlakatlariga tez-tez hujum qilishi hamda o'z hukmronligini o'tkazishga urinishining mantiqiy zamini mavjud. Axir, Ossuriya shohi Ashshurbanipal o'z kutubxonasida shumeriylarning sopol kitoblarini bekorga saqlamagan. Skif–kimmerlar hukmdori Prototeyga ossuriylar shohi tinchlik ittifoqini mustahkamlash uchun o'z qizini xotinlikka bergan edi. Shu kundan boshlab Prototey ossuriylarning shohi sifatida ham tan olingan.

Shumer va qadimgi mesopotamiyaliklar turkiylar bilan yaqinligini asoslovchi yana bir necha dalillarni keltirish mumkin. Chuvashlar turkiylarning

---

[8] Herodotning "Tarix" kitobida ham sharqda yashovchi yurkeylar va to'lharma qabilalari haqida so'z ketadi.

qadimgi qavmlaridan biridir. Chuvashiya jumhuriyatida Shumeriya deb ataluvchi shahar mavjud. X asrda yashagan arab tarixchisi ibn Xovqal ma’lumot berishicha, Samarqand atrofida mesopotamiyalik – iroqliklarning qishloqlari bo’lgan. Ular o’zlarini doimiy yashaydigan xalq sifatida ko’rsatishgan. Aytish kerakki, Shumer viloyati hozir janubiy Mesopotamiya – Iroqda. Arab tarixchilari iroqliklarning Jizzax, Toshkent atroflarida ham qishloqlari bo’lishganini yozishadi. Iroqliklarning Urgutdagi qishlog’i Vazkerd, Jizzaxdagisi Vinkerd, Toshkent atrofdagisi Binkent deb atalgan. Arxeolog V.L. Vyatkin mesopotamiyaliklarning Urgutdagi manzili bo’ylab kuzatish ishlari olib borib, ular yashagan joyni Qing’ir kishlogida deb ko’rsatadi. Qing’irni kimmer, gimmer, qimmerning o’zgargan shakli deb hisoblash mumkin. 1920 yilda akademik V.V.Bartold Urgut tog’larining Gulbog’ soyidagi qoyadan Suriya tilidagi yozuvlarni ham ko’rgan. Ajabmaski, arablargacha Markaziy Osiyo shaharlarida yashay boshlagan va o’zini iroqlik deb hisoblagan xalqlar shumerlar avlodidan bo’lishsa.

Shumeriylar tarixi haqidagi izlanishlar Urgut nomining yangicha talqinini ham beradi. Bu esa qadimgi mesopotamiyaliklarning Urgutda yashaganligidan yana bir dalildir. Miloddan avvalgi uch minginchi yillarning o’rtalarida akkad va shumer davlatlari birlashtirilgan. Akkad davlati taxminan 120 yil yashagan. Miloddan avvalgi 2200 yilda Sharq tomondan kelgan tog’lik gutiylar deb nomlangan urushqoq xalqlar akkadlar hukumatini ag’darishgan. Bunday qahramonlikka shumerlarning Lagash shahri aholisi katta yordam bergan. XXII asrga kelib, Ur sulolosidan bo’lgan qavm ulardan hokimiyatni qaytarib oladi va gutiylar bilan lagashliklar mamlakatdan quvib chiqariladi.Bu o’rinda yana bir faraziyani ham eslatib o’tish kerak. Ko’pchilik shumershunoslar shumerlar Mesopotamiyaga tog’lik o’lkalardan, ehtimol Eron va Markaziy Osiyodan kelib qolishgan, degan fikrni ham olg’a surishadi.

3. Shumer shahar-davlatiga asos solgan xonlardan biri Bilgamishdir. Uning hokimi Bilgamish Kish hokimi ustidan g’alaba qozonib, afsonaviy qahramonga aylanadi. Bilgamish akkad tilidagi eposda Gilgamish deb nomlangan. Uni Bilgamish deb nomlash to’g’ridir. Bu turkiy tilga yaqinlashtirish maqsadida emas, albatta, «Bilgamish» so’zining o’zagi turkiycha «bilmoq» ma’nosini ifodalaydi. Dostonning mazmuni ham asar qahramonining nomiga «bilish» so’zi asos bo’lganligini isbotlaydi. Dostonda Gilgamishga berilgan ta’riflar qahramon chindan bilguvchi – Bilgamish ekanligiga shubha tug’dirmaydi.

4. Doston qahramonining asl ismi Bilgadir. Mish esa o’sha davrdagi bobil, xett, ossuriy xalqi o’rtasida taniqli kishilar va afsonaviy qahramonlarga nisbatan keng qo’llanilgan bir belgi. Mish ko’proq turli janglarda g’olib kelgan, umuman, bahodir, pahlavon kishilarning nomidan keyin ishlatilgan

"I myself will die, and will then be like Engidu.
Woe has entered my heart,
Fear of death has seized me, therefore I wander across the roads.
To the ancestor Ut-napishtim, son of Ubara-tutu,
I will take the way and forthwith go.. Tarjimasi: Men ham do’stim Enkidu kabi halok bo’laman. Qayg’u-alam yuragimni ezmoqda. Meni o’lim qo’rquvi

egalladi. Shu sababli aro yo'lda sandiraqlab yuribman. Ajdodim Ut-napishtim, Ubara-tutuning og'li huzuriga hoziroq yo'l olaman )

Rivoyat qilishlaricha, dunyoni to'fon bosganida faqat diyonatli O'tnapishtimdan boshqa odamlar halok bo'ladi. U xudo Enkining maslahati asosida hamma joyi bekitilgan quti yasab, oilasi va xizmatkorlari bilan omon qoladi (bu rivoyat turkiylar otasi Nuhning kemasini ham eslatadi). Dunyoda bir kishi ham sog'-salomat qolmagan to'fondan jon saqlash balo-qazolardan toblanish belgisidir. Bunday odamlarga nisbatan hozirda ham «o'tta yonmas», «olovda pishgan» iboralari qo'llaniladi. O'tna pishdim nomi o'zbek tilidagi «o'tta pishmoq»ning ma'nosiga yaqin anglashiladiki, bu qahramon harakatiga mos tushadi.

## SAVOL VA TOPShIRIQLAR:

1. Adabiyot nazariyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Eng qadamgi adabiy yodgorliklar haqida nimalar bilasiz?
3. O`rta Osiyoda olimlar adabiyotshunoslikka oid qanday asarlar yaratganlar? Adabiyotshunoslikning dunyo miqyosida jonlanishi nechanchi asrlarda rivojlandi?
4. Davrlashtirish va dastlabki adabiy-nazariy yodgorliklardan qaysilarini bilasiz?
5. O'zbek adabiyotining tarixiy ildizlari qachondan boshlanadi?
6. Sharq tamaddunida turkiy xalqlar o'rni haqida fikringiz qanday?
7. Nima uchun turkiy xalqlar haqidagi ma'lumotlar ko'proq xorijdagi manbalardan topiladi deb o'ylaysiz?
8. Aristotelning "Poetika" asarini o`qib, konspektlashtirish.
9. Belinskiyning "Poeziyaning xil va turlarga bo`linishi" asarini o`kish?
10. Alisher Navoiy "Majolisun-nafois" asarini o`qish?
11. Tazkira nima?
12. Poeziya termini qanday ma'noni anglatadi?
13. A.Navoiyning adabiyotshunoslikka oid qanday asari bor?
14. Nazariy-adabiy tafakkur nima?

Test savollari

1. Afsonalar turkiylarning kelib chiqishini Nuh (a.s.)ning qaysi o'g'liga og'lashadi?
A) Hom B) Som C) Turk D) Yofas
2. Qaysi javobda tazkira berilmagan?
A) Muhammad Avfiy "Lubob ul-albob"
B) Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro"
C) Ahmad Yaqiniy "O'q va Yoy"
D) AlisherNavoiy "Majolisun-nafois"
3. Sharq didaktik adabiyotining ta'siri natijasida Yevropada «zersal» deb nomlangan janr qachon yuzaga keldi?
A) X-XII asrlarda B) X-XIII asrlarda C) XI-XIII asrlarda D) XIII-XIV asrlarda
*4. Kishi so'z bila qo'pti, bo'ldi malik,*

*o'kush so'z bashig' yerka qildi kulik.*
(Kishi so 'z tufayli ko 'tarifadi, podshoh bo 'ladi,
Ko'p so'z boshni yerga egadir) Ushbu misralar qaysi asarda uchraydi?
A) "Qutadg'u bilig" B) "Devonu lug'otit turk" C) "Hibbat ul-haqoyiq" D) "Farhod va Shirin"
5. Sayfi Saroyi shoirlarni qanday ta'riflagan edi?
A) "so'z bulbuli" B) "xushsuxan to'ti" C) "ruh chamanining xushxon bulbullari" D) "inson ma'naviyati muhandislari"
6. "Shiroq" afsonasi kim orqali yetib kelgan?
A) Herodot B) Poliyen C) Ktesiy D) Apellodor
7. Qaysi asarda XI asrdagi turkiy xalqlar hayotining ayrim manzaralari qalamga olingan?
Unda muallif goh qahramonlar tilidan, goh o'z tilidan XI asr kishilarining o'y-fikrlari, orzu-intilishlarini tasvirlaydi?
A) "Qutadg'u bilig" B) "Devonu lug'otit turk" C) "Hibbat ul-haqoyiq"
D) "Tong tangrisiga madhiya"
8. Kim so'zni kasal ruh va dillarga shifo degan?
A) Ahmad Yugnakiy B) Mahmud Koshg'ariy
C) Ahmad Yassaviy D) Yusuf Xos Hojib
9. Kim tilni bilim va aql-idrok tarjimoni deb ataydi?
A) Ahmad Yugnakiy B) Mahmud Koshg'ariy C) Ahmad Yassaviy D) Yusuf Xos Hojib
10. Kim shoirlarni «so'z teruvchlar» deb ta'riflaydi?
A) Ahmad Yugnakiy B) Mahmud Koshg'ariy C) Ahmad Yassaviy

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: "O'zbekiston", 2003.
2. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: "Universitet", 2005
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. - T.: "Universitet", 2018


## Qo'shimcha adabiyotlar


4. Normatov U. Nafosat gurunglari. – T.: "Muharrir", 2010.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: «SHarq», 2007.
6. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: "SHarq", 2004.
7. Teoriya literaturi. Pod red. N.D.Tamarchenko.–M.:"Academiya", 2004.
8. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. 4-e izd.– M.: "Visshaya shkola", 2006.
9. http://philologos.narod.ru/tomash/poetika.htm Tomashevskiy B.V. Teoriya literaturi. Poetika: – M.: Aspekt Press, 1996 (1999). – 334 s.
10. Aristotel. Poetika. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti.2004.


## Elektron manbalar


1. www.ziyo-net.uz
2. www. magazine. rus. ru
4. www. Googie.co.uz

**Xorijiy adabiyotlar**

**1.Crystal D. A dictionary of littera's and teoretikics. Bleakwell publishing, 2008.**
**2.Iglton T. T.Lecturas in theoritical littera's of the english lenguage and method –guides for seminars.-Poliprint, Ungvar, 2009.**

## ***3-MAVZU:*** **Badiiy asar. Asar kompozitsiyasi. (2 soat).**

***REJA:***

1. Badiiy asar tuzilishi haqida ma'lumot. Badiiy asar va ilmiy asar.
2. Badiiy asarning ijtimoiy hayotdagi mazmuni va o'ziga xosligi.
3. Badiiy asar – badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vositasi.
4. Adabiy asar kompozitsiyasi haqida umumiy tushuncha.
5. Kompozitsiya tamoyillari (prinsiplari):a)kompozitsiya markazi, b)asar bo'laklarining o'zaro bog'lanish tartibi,c)tasvir vositalari,detallar, epizodlarning muallif niyatiga muvofiqligi, d)obrazlar tizimi,e)tasvirda me'yor .

**Tayanch so'z va iboralar:** badiiy asar, badiiy muloqot, ijodkor shaxs xususiyatlari,ijodiy niyat, badiiy ijod, ilhom, badiiy asarning betakrotiigi, sistem butunlik.

Badiiy asar voqelikning in'ikosidir. Badiiy asar adabiyot va san'atning yashash shakli hisoblanadi. "badiiy asar" degan birikma keng va tor ma'noda qo'llanishini e'tiborga olish zarur. Keng ma'noda badiiy asar deyilganda san'atga (musiqa, haykaltaroshlik, kino, rassomlik, teatr va h.k.) aloqador, insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsuli bo'lmish yangi mavjudlikni tushunamiz. Bu ma'noda musiqa asari ham, haykal yoki rangtasvir ham, film yoki spektakl ham - bari badiiy asar sanaladi, ularga nisbatan «badiiy asar» atamasini qo'llash to'g'ri boladi. Uning tuzilishi har xil va murakkabdir. Har bir badiiy asarda voqelikning muayyan jihatlari tasvir etiladi, ya'ni ijtimoiy hayot badiiy asarda aks etadi. Odatda asarlar ikki xil – badiiy va ilmiy asarlarga bo'linadi. Ilmiy asarlarda u yoki bu fanning o'ziga xos xususiyatlari aniq misollar bilan o'z ifodasini topsa, badiiy asarlarda ijtimoiy hayot obrazlar yordamida yorqin tasvirlanadi, bunday asarlar tasvir ifodaga nihoyatda boyligi bilan kitobxon diqqatini o'ziga tortadi. V. G. Belinskiy aytganidek, "Yevgeniy Onegin" she'riy romanida XIX asrning boshlaridagi rus jamiyatining ko'p qirralitomonlari aks ettirilgan. Shuning uchun tanqidchi uni "rus hayotining qomusi" deb atagan edi. Oybekning "Navoiy" romanida XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yashagan turkey xalqlar hayotidagi burilish davrlari, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida Turkiston xalqlarining XIX asrdagi hayoti, zulmga qarshi kurashi, yurtning o'zaro nizolar tufayli inqirozga yuz tutishi yoritilgan, romanni o'qir ekanmiz, kishilar hayoti haqida ma'lumotga ega bo'lish bilan birga, ular boshiga tushgan kulfatlar bizning ham boshimizga tushgandek hayajonlanamiz…

Tabiiy va ijtimoiy fanlardan farqli o'laroq, adabiy asar fikrimizni, hayot haqidagi tushunchalarimizni boyitish bilan birga, chuqur his-tuyg'ular uyg'otadi, hayajonga soladi, quvontiradi yoki xafa qiladi. Aristotelning "Poetika"sida qayd etilganidek, san'at va adabiyot kishini ruhan "tozalash" qudratiga ega bo'ladi.

Badiiy asar haqida gap ketganda, avvalo, uning badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vositasi ekanligiga to'xtalish joiz. Ma'lumki, muloqot paytidagina til hodisasi nutq hodisasiga aylanadi. Badiiy asar til vositalaridan tarkib topuvchi matn ekan, demak, u ham mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasidir. Zero, adabiy badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya'ni ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir. Yozuvchi ijod onlarida tasavvuridagi o'quvchi bilan muloqotda bo'ladi: unga muayyan badiiy informatsiyani yetkazadi, o'zining o'y-hislari bilan o'rtoqlashadi, u bilan bahslashadi, uni nimalargadir ishontirishga intiladi.Demak, ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi. Badiiyat hodisasi faqat ikki ong tutashgan nuqtadagina mavjud (M.Baxtin) bo'ladi. Ya'ni badiiy asar o'qish (hamda ijod) jarayonidagina badiiyat hodisasiga aylanadi, o'qilmagan paytda u bir jism qog'oz, muqova, rangdan iborat narsa xolos.

Badiiy muloqotning birinchi bosqichi ijod jarayonidir, badiiy asarda ijod jarayoni muhrlanadi. Shu bois ham badiiy asar tabiatini anglash uchun badiiy ijod tabiati haqida muayyan bir tasavvurga ega bo'lishimiz zarur. Avvalo, badiiy ijod hammaning ham qo'lidan kelaveradigan ish emas, buning uchun kishida tug'ma imkoniyat bolishi zarur. Badiiy ijodga layoqatli odam, avvalo, hayotni o'tkir idrok (his) qila olishi bilan farqlanadi. Uning o'tkir nigohi sizu biz ko'rmagan(ehtimol, mutlaqo e'tibor bermagan) narsalarni ko'radi, ko'radigina emas, sizu bizga mutlaqo ta'sir qilmagan narsa uning ko'nglida chinakam to'fon qo'zg'ashi mumkin; sizu bizga ahamiyatsiz ko'ringan narsa unga olamu odam mohiyatidan so'zlashi, chigal muammolami yechishi uchun kalit bo'lishi mumkin. Demak, san'atkorona nigoh ijodkorga badiiy jihatdan ahamiyatga molik narsa-hodisalarni, ularning muhim nuqtalarini ilg'ab olish imkonini beradi. Xotira - badiiy ijodning muhim unsuri. Ayni paytda, san'atkor xotirasi faktlaru taassurotlar to'planadigan ombor emas, balki faoliyatdagi (safarbarlikdagi) xotira, zero, undagi badiiy-estetik ahamiyatga molik faktu taassurotlar san'atkor ongida liar lahza tirilishi, ruhiy parvozga qanot bcrishi mumkin.

Badiiy ijodning yana bir muhim unsuri - tasavvur. San'atkorning ijodiy tasavvuri xotirada mavjud fakt va taassurotlardan keraklilarini (ijodiy niyat bilan bog'liq ravishda) uyg'otib, ularni muayyan tartibga solingan manzara holida «ko'rish» imkonini beradi. Ya'ni ijodiy tasavvur hayot materiali (dispozitsiya)ni badiiy asar (kompozitsiya)ga aylantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Bilasizki, badiiy ijod haqida so'z ketganda ilhom haqida gapiradilar. Ilhomni g'aybdan deyishga moyillik kuchli. Albatta, ilhom onlarini, uning yuzaga kelishini mantiqiy izchillikda tushuntirib berish qiyindir. U shaxsning ijodiy-ruhiy faoliyatidagi muayyan bir bosqichdirki, ushbu onlarda bungacha pishib yetilib kelgan jarayon tezlashadi; ijodkorning umumiy ruhiy quvvati, aqliy va hissiy mushohada tezligi oshadi, ijodiy tasavvur ko'lami kengayadi. Ayni shu damlarda ijodiy jarayon ko'ngilli, oson va mahsuldor kechadi – asar go'yo "quyulib" keladi. Demak, ilhomni

g’aybdan kelgan narsa sifatida emas, balki san’atkor ongi-yu qalbida kechgan ijodiy-ruhiy jarayonning yuksak nuqtasi. Ko’pincha yozuvchi va shoirlarimiz asarni farzandga qiyos etadilar. Darhaqiqat, asarning dunyoga kelishini farzand tug’ilishiga qiyos etsa arzigulik. Badiiy asar ijodkor ongida yetiladi, ijodkor ongida yetilgan asarning yaratilmasligi mumkin emas. Agar yozmaslik mumkin bo’lganida edi, ehtimol, A.Qodiriy, Cho’lpon kabi buyuk adiblarimizning ayrim asarlari butkul yaratilmasdi.

Biz badiiy ijod jarayoni deganda san’atkor ongida ijodiy niyat yetilib, “bo’shanish” zarurati yuzaga kelgan paytdan asarga so’nggi nuqta qo’yilgunga qadar bo’lgan vaqtni ko’zda tutamiz. Ayni shu vaqt oralig’ida san’atkor ongida kechgan ijodiy-ruhiy jarayon badiiy asarda akslanadi. Shu bois ham mazkur jarayonning o’ziga xos xususiyatlariga ayricha e’tibor zarur. Avvalo shuki, ijod onlaridagi ijodiy-ruhiy holat san’atkorning bungacha kechirgan hayoti, ko’rgan-kechirganlari zaminida yuzaga keladi. Badiiy asar - butunlik, bu butunlikdagi biror bir unsurni asar mazmun-mohiyatga putur yetkazmagan holda olib tashlash mumkin emas. Sababi, badiiy asarni tashkil qilayotgan unsurlar bir-biri bilan mustahkam aloqada, ayni shu aloqalar asosida butunlik yuzaga keladi, ya’ni badiiy asar - qismlardan tashkil topayotgan butunlik, sistem butunlikdir.

Badiiy asar - sistem butunlik, sistema deganda esa qismlardan tarkib topgan butunlik tushuniladi. Bu yaxlit emas, lekin qismlar orasidagi aloqa shu qadar muhimki, bu aloqalarning yetarlicha anglanmasligi asarni chala, o’z mohiyatidan o’zgacha tushunishga olib kelishi mumkin. Butunga kiritilayotgan qism butun talabiga mos holda kiritiladi, qismlar orqali butun tushuniladi, qismning mohiyati butun tarkibidagina namoyon bo’ladi. Demak, badiiy asarni o’qiyotgan odam, birinchidan, asardagi har bir qismni boshqa qismlar bilan aloqada, ikkinchidan, asarni butun holicha tasavvur eta bilmoq lozim.

Badiiy asardagi shakl komponentlarini badiiy mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirish kompozitsiyaning zimmasidagi vazifa sanaladi. Kompozitsiya (lat., tartibga solish. tuzib chiqish) asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unsurning o'zi bo'lmaydi, zero, ular bir asar butunligida o'zining funksiyasiga ega bo'ladi, muayyan g'oyaviy-badiiy yuk tashiydi. Avvalo, kompozitsiyaning katta qismini syujet tashkil qilishini ta'kidlash joiz. Shu bilan birga, badiiy asar faqat voqealar tizimidangina iborat emas, unda rivoya, tafsilotlar, peyzaj, portret, inter’yer, lirik chekinish, qistirma epizod kabi syujetdan tashqari qator unsurlar ham mavjud. Yozuvchi asar qurilishini belgilaganda ularning har birini o'z o'rnida, o'z me'yorida ishlatishi, qismlarni butun bilan mustahkam aloqada bo'ladigan, bu aloqalar anglanadigan tarzda joylashtirishi muhim. Avval aytganimizdek, yozuvchi ijodiy niyatidayoq o'qish jarayonini ham nazarda tutadi. Ayni shu narsa, o'qish jarayonining ijod jarayoniga ta'siri, badiiy asar kompozitsiyasini belgilaganda ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Kompozitsion jihatdan yaxshi tashkil etilgan asardan o'quvchi to so'nggi nuqtaga qadar yangi-yangi mazmun qirralarini kashf etib boradi, o'qish davomida turfa hissiy holatlarni qalbdan kechiradi, aqliy yoxud ruhiy toliqish, zerikish hislari unga tamomila yot bo'ladi.

Bulardan ko'rinadiki, badiiy asar kompozitsiyasi asarning barcha komponentlarini uyushtirib, uning shakliy va mazmuniy butunligini ta'minlaydigan, asarning o'qilishi, uqilishi va kitobxonga g'oyaviy-estetik ta'sirini boshqaradigan, xullas, asarni
chinakam san’at hodisasiga aylantiradigan eng muhim unsur ekan.

Muayyan asar badiiyati haqida so'z ketganda uning syujet- kompozitsion xususiyatlariga, ijodkorning badiiy mahorati haqida so'z borganda, uning bu boradagi mahoratiga ayricha e’tibor berilishi bejiz emas. Zero, badiiy asarda hayotni muayyan badiiy shaklga solingan holda aks ettiriladi, unda yangi reallik – badiiy voqelik yaratiladi. Ya'ni san’atkor bir butunlikdan ikkinchi bir butunlikni voqelikning badiiy modelini yaratishi, hayot materialini (dispozitsiya) badiiy asarga (kompozitsiya) aylantirishi zarur bo'ladi. Shu bois ham dispozitsiyani kompozitsiyaga aylantira olish iqtidori ijodkor shaxsning tug'ma imkoniyatlari sirasida sanalib, iste’dod kuchi uning qay darajada ekanligi bilan belgilanadi.

Savol va topshiriqlar:

1.Nima uchun “badiiy asar badiiy adabiyot va san'atning yashash shakli” deyiladi?

2. Badiiy kommunikatsiya deganda nima tushuniladi? "Badiiy main muddati kechiktirilgan muloqot" deyilishining boisi nima'? “Tasavvurdagi suhbatdosh” tushunchasini izohlang.

3. Badiiy ijodga layoqatli odamga xos asosiy xususiyatlarga izoh bering. Badiiy ijod jarayoni deganda nima tushuniladi'? Nima uchun badiiy ijod jarayoni yaxlit, butun hodisa sanaladi?

4. Nima uchun ijod onlaridagi san'atkor haqida “Ideal olamida yashaydi” deb aytamiz? Badiiy asarda aks etgan san’atkor bilan real hayotdagi san’atkor orasidagi munosabatni tushuntirib bering.

5. Badiiy asar sistem butunlik dcgandanima nazarda tutiladi? Badiiy asarni tushunishning asosiy qoidasini misollar yordamida tushuntirib bering.

Adabiyotlar:

1. *Умуров Х.* Бадиий ижод асослари.-Т.: O'zbekiston, 2001.

2. *Норматов У.* “О’тган кунлар” hайрати.-Т., 1996.

3.*Қуронов Д.,Усмонов Н. Идеал в*а бадиий уахлитлик // Tafakkur.- l996,- №4, -В.36-41.

4. *Бахтин М. М.* Эстетика словесного творсhества— М.: Искусство, 1986.

5. *Бореев Ю.Б.* Эстетика -М., 1988.

6. *Кузисhева А.П.* Творсhество: загадки, иллюзии, правда. — М., 1991.

7. Самосознание европейской культурі XX века. — М.. 1991

8. *СНаренts Л.* “Как слово наshе отзоветсууа...”: Судьбі литературніх произведений.-М. 1995.

9. Зарубежнауа эстетика и теориуа литературі XIX—XX вв.-М.. 1987.

10. Литературнӣй энтsиклопедисhеский словарь.- М.. 1987.

## *4-MAVZU:* Badiiy asar syujeti. (2 soat).

### *REJA:*

1. Syujet haqida umumiy ma'lumot.
2. Syujetni shakli xarakterlovchi ikki qarash: a) syujet – xarakter qirralari namoyon bo'ladigan voqealar; b) syujet – hayot ziddiyatlarini umumlashtiruvchi voqealar.
3. Syujet va konflikt. Syujet elementlari haqida ma'lumot.
4. Syujet usullari, hayot materiali va syujet. Fabula va syujet.
5. Syujetda zamon va makon.

**Tayanch so'z va iboralar:** syujet, kompozitsiya, ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, prolog, epilog, yechim, interyer, qoliplash, epigraf, asar sarlavhasi, badiiy asar shakli, badiiy asar mazmuni, konflikt, kompozitsiya, badiiy til, obraz, lirika, g`oya, badiiy asar, ilmiy asar, konflikt.

Hayot materialini badiiy aks ettirishda yozuvchi rang-barang tasvir vositalaridan foydalanadi. Ana shunday vositalardan biri syujetdir. Obrazlarning o'zaro munosabatidan, kurashidan kelib chiquvchi, iroda yo'nalishini, xarakter xususiyatini namoyon qiluvchi voqealar silsilasiga *s y u j e t* deyiladi. Syujet fransuzcha sujet – predmet, mazmun, narsaning tasviri ma'nosini bildiradi. Gorkiy "*Adabiyotning uchinchi elementi syujetdir, odamlarning o'zaro aloqalari, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, u yoki bu xarakterning rivojlanib borishidir*"[9]. Birinchidan, syujet xarakterlar namoyon bo'ladigan voqealar sistemasi bo'lsa, ikkinchidan, hayotdagi muhim ziddiyatlarni umumlashtiruvchi voqealar tizmasidir. WWWAdabiyotshshg bosh mavzusi inson bo`lgani uchun insonning xilma-xil holat, harakat, intilishlari badiiy asarning materiali bo`ladi.

Adabiyotning bosh maqsadi inson, so`z san'atining asosiy mohiyati insonshunoslik ekan, badiiy asarda gavdalantirilgan voqea-hodisalar hayotda ro`y bergan yoki bo`lishi mumkin bo`lgan voqealarning shunchaki bayoni emas, balki ularning muayyan nuqtai nazardan qayta ishlangan shaklidir. Hayotda ular bir joyda to`xtab qolmaydi. Ular qandaydir ko`rinishda davom etaveradi. Badiiy asardagi voqealar unday emas. Ular qandaydir tarzda boshlanadi va nihoyasiga yetadi. Masalan, hikoya, roman, qissada va dostonda qahramonlar hayotining ma'lum bir vaqt oralig`idagi kechmish-kechirmishlari qalamga olingan bo`ladi.

Biroq chegaralangan bu muddatdagi hodisalar badiiy asardagi qahramonlar xususida (albatta, ular asosiy qahramon yoki badiiy xarakter darajasidagi qahramon bo`lsa) yaxlit tasavvur qiladi. Bunday samaraga esa badiiy asarning shakl va mazmun, mavzu va g`oya, syujet va kompozisiya, badiiy til singari vositalari mutanosibligi yordamida erishiladi. Har qanday badiiy asar shakl va mazmun, mavzu va g`oya, syujet va kompozisiya singari unsurlardan tarkib topgan bo`ladi. Biroq har qanday badiiy asar mavjudligining bosh asosi uning tilidir. Til badiiy asarning joni, qoni, urib turgan yuragidir. Ana shu tayanch asos qanchalik baquvvat

[9] М. Горький. Адабиёт ҳақида. Т., 1967, 243-бет.

bo`lsa, badiiy asar shunchalik barkamol bo`ladi. Badiiy asar shakl va mazmunidagi rassomlik ham, undagi mavzu va g`oyaning yorqinligi ham, syujet va kompozisiyaning qiziqarli, o`zaro muvofiqlik darajasi ham, avvalo, ijodkorning so`z qo`llash, uni tanlash, ishlatish mahoratiga bog`liq.

Badiiy asar muvaffaqiyatining bu darajada tilga bog`lab qo`yilishining boisi uning so`z san'ati ekanligidadir. Musavvir, naqqosh, haykaltarosh, kompozitor, bastakor erisholmaydigan haqiqatlarni yozuvchi, shoir, dramaturg so`z orqali gavdalantiradi. Xususan, u inson ko`nglidagi kechinmalarni, ruhiy azoblanishlarni, ikkilanish, qiynalishlarni ta'sirchan qilib ko`rsatib beradi. San'atning biror bir sohada insonning bu holatlarini-uning qalb dunyosini badiiy asarchalik keng, yorqin, jonli aks ettirib bo`lmaydi. Badiiy filmlarda ham qahramonlarning quvonch va tashvishlari ta'sirchan gavdalantiriladi.

Ular tomoshabinlarni quvontirishi, hayajonlantirib yuborishi yoki qayg`uga cho`mdirib, yig`latishi, azobga solishi mumikin. Bu haqiqatni inkor etib bo`lmaydi. Biroq kishilarni quvontirishi, yig`latishi mumkin bo`lgan ana shu filmlar zamirida ham avvalo badiiy asar turadi. Aktyorlar ana shu badiiy asar-ssenariydagi qahramonlar rolini ijro etishadi. Operator esa rol ijro etayotgan ana shu qahramonlar holatini texnika vositalari yordamida suratga oladi. Kinofilm yaratishda aktyor, operator, rejissyordan tashqari, yana ko`plab sahna mutaxassislari ishtirok etishadi. Shuning uchun kino sintetik san'at hisoblanadi.

Voqea-hodisalarning tashqi ko`rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish badiiy asarning shakl va mazmunidir. Bu badiiy asar shakl va mazmunini eng sodda tushuntirishdir. Yana oddiylashtiriladigan bo`lsa, badiiy asarda mazmunning obrazlar, syujet, kompozisiya va boshqa badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanishi shakldir. Roman, hikoya, qissa, doston shakli deyilganda obrazlarning o`zaro munosabatlari, ular bilan bog`liq voqea-hodisalardan kelib chiqadigan syujet, voqealarning joylashish tartibi nazarda tutiladi. Ana shu obrazlar harakat, faoliyati, asar syujeti va kompozisiyaning ma'lum maqsadga yo`naltirilgani esa o`sha asarning mazmuni hisoblanadi.

Mazmunning ta'sirchan, shaklning yorqin bo`lishiga asos bo`luvchi omillar orasida obraz alohida ajralib turadi. Chunki-obrazda, ya'ni asardagi inson qiyofasida ijodkorning maqsadi, niyati mujassamlashgan bo`ladi. Obrazda aniq bir shaxs qiyofasi gavdalantirilishi ham yoki unda davr kishilariga xos xususiyatlar umumlashtirilgan bo`lishi ham mumkin. Obraz o`zining mana shu xususiyatiga ko`ra asar mazmunini namoyon etishning o`ziga xos poydevori sanaladi.

Asarning asosiy qahramonlari uning syujetidagi voqelarni harakatlantirib turadi. Ular mana shu jihatiga ko`ra asarning shaklini belgilab beradi.

Aruz, barmoq she'r tizimlari, adabiy asralarning barchasi ma'lum ma'noda shakl ko`rinishlaridir. G`azal, ruboiy, tuyuq, muxammas, tarjiband singari Sharq mumtoz adabiyotiga xos janrlar bir-birlaridan o`z ko`rinish tarzi, hajmiga ko`ra farq qiladi. Binobarin, ular o`z mazmun ko`lami fikrni qay darajada keng-tor ifoda etishiga ko`ra ham tafovutlanadi. Shuningdek, g`azal bilan g`azalda, tuyuq bilan tuyuq, ruboiy bilan ruboiy orasida farq seziladi. Bu avvalo, ulardagi fikrda namoyon bo`ladi, obrazlarda aniq bilinadi. Mazmun bo`lakmi, demak, shakl ham

o`zgacha, deylik, g`azalning qofiyalanish tarzida, radiflarda, hijolarning miqdorida akslanadi. Tuyuq, ruboilar o`rtasidagi farq ham shu unsurlarda bilinadi.

Hikoya, qissa, roman, drama, komediya, tragediya kabi janrlarga mansub har bir asarning o`ziga xos jihatlari bundan ham aniqroq namoyon bo`lib turadi.

“Mavzu”, ya'ni tema yunoncha so`z bo`lib, "narsa-buyum" degan ma'noni bildiradi. Biroq badiiy asar mavzusi unda qalamga olingan voqea yoki narsa-buyumlar emas. Badiiy asar mavzusi ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasidir. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir. Adabiy asar mavzusi tanlangan biror bir moddiy narsa-buyum emas, balki fikr, qarashdir.

Ya'ni, hayotning muayyan muammosi xususida fikr yuritish badiiy asarning mavzusidir. Albatta, mavzuga ham borlikdagi narsa-hodisalar asos bo`ladi. Badiiy asar uchun eng asosiy narsa-hodisadir. Inson hayoti, uning turli vaziyatlardagi kayfiyati, kechinmalari, maqsad, intilishlari, borliqqa qarashlari, kishilar bilan muomala va munosabatlari badiiy asarning vujudi va jonidir.

Hayot ko`pdan ko`p muammolardan iboratligi, kishilar bir-biri bilan ko`zga ko`rinmas rishtalar orqali bog`langan muammolar girdobida yashashga mahkum bo`lgani uchun badiiy asarda ham bir qator mavzular qalamga olingan bo`ladi. Biroq ijodkorlar o`z asarlarida ulardan ba'zilarinipgaa chuqurroq tahlil qilib, o`quvchilar e'tiborini o`shalarga jalb qiladi.

Turmushning o`zida ham ayrim hodisalar muayyan paytlarda boshqa hodisalarga qaraganda ko`proq diqqatni tortadi. Ularga alohida ahamiyat beraladi.

Badiiy asarlar mavzulari ikki xil bo`ladi, deyish mumkin. Birinchisi-abadiy mavzular, ikkinchisi-davriy mavzular. Insonning ma'naviy-axloqiy turmush tarzi, sevgi-muhabbati, kishilarga, yurtiga munosabati, kishilararo muomala-munosabatlari, odamlarning baxt, baxtsizligi, quvonch, qayg`usi, mehr, qahri, saxiyligi, baxilligi va boshqalar adabiyotning abadiy mavzularidir. Ayni choqda, har bir zamonning o`z muammolari bo`ladiki, ular davriy mavzular doirasiga kiradi. Masalan, 30-yillarda kolxoz qurilishi, yangi yerlarning o`zlashtirilishi O`zbekistonda jiddiy muammo bo`lgan. Bu muammmoni mavzu qilib, ko`plab she'riy, nasriy asarlar yozilgan.

Albatta, adabiyot o`z davrining dolzarb muammolarini yoritib ko`rsatishi kerak. U bu bilan hayotning ijtimoiy taraqqiyotiga muayyan ta'sir ko`rsatadi. Kishilarning ongu fikrini ma'lum bir yangilikka jalb etadi. Bundan ham muhimi-davr muammolarini akslantirish zamona kishilari qiyofasini gavdalantirish, ularning o`z ajdodlaridan qaysi jihatlari bilan farqlanishini namoyon etish imkonini beradi. Ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma'lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa g`oyadir.

Adabiyotning g`oyaviyligi masalasiga turlicha yondashiladi.

Adabiyotning g`oyaviyligini oqlovchilar ham, uni butunlay qoralovchilar ham bor. Umuman esa adabiyotning g`oyaviyligiga bu tarzda ta'rif beriladi: "tasvirlanayotgan narsa yoki voqeaga ijodkorning munosabati, uning hayotga va insonga bo`lgan ideali" (Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshuioslik

terminlarshshng ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati. -Toshkeng: O`qituvchi, 1983, 6.131). Mana shu mulohaza deyarli o`zgarishsiz tarzda aksariyat tadqiqotlarda keltiriladi.

Demak, g`oya ijodkorning qalamga olinayotgan voqelikka munosabatidir. Mavzu esa aks ettirilayotgan voqea-hodisalarning umumlashmasi,yig`indisi, ya'ni badiiy asar uchun tayanch bo`lgan asosiy fikr va maqsad ob'yekgidir.

Mavzu va g`oya asarda hayotning muayyan parchasnni gavdalantirishga asos bo`ladigan, unda ta'sirchan qahramonlar qiyofasini yaratishni ta'minlaydigan poydevordir. Mavzu va g`oyaning yorqin namoyon bo`lishi esa asarning asosiy konflikti ko`lamiga bog`liqdir.

Konflikt, avvalo, yon-verimizdagi mavjud hayotning aynan o`zidir. Hayot esa misoli to`xtovsiz oqib turgan daryodir. Daryoda suvlar to`lqin otib oqadi. To`lqinlar bir-birini quvadi. Kishilarning umri ham xuddi shunday manzaradan iboratdir. Hayot bir-birini inkor qiladigan va ayni chog`da taqozo etadigan hodisalar majmuasidir.

Konflikt lotincha conflictus degan so`z bo`lib, "to`qnashish" degan ma'noni bildiradi. Ziddiyat, to`qnashuv hayot taraqqiyotini ta'minlovchi asos bo`lgani singari badiiy konftit ham asrning qiziqarli bo`lishining yetakchi vositasidir. Badiiy konflikt roman, qissa, hikoya, doston qahramonlari o`rtasidagi qarama-qarshilikdir.

Qahramonlar bir-birlaridan fe'l-atvori, tabiati, maqsad, intilishlariga ko`ra farq qiladi va shunga ko`ra, ular o`rtasida ziddiyat vujudga keladi. Obrazlar o`rtasidagi ziddiyat ham biror-bir voqea tufayli namoyon bo`ladi. Voqealarning qay tarzda qechishi asar mavzusi va g`oyasining ahamiyatini namoyon etgani singari "qahramonlarning qiyofasini ham aniq tasavvur etish imkonini beradi.

Syujet (fransuzcha syjet - narsa, mazmun) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, kengroq ma'noda konkret voqealar tizmasida namoyon bo`ladigan xarakterlar tarixidir.

1. Syujet-xarakterlar namoyon bo`ladigan voqealar sistemasi. Avvalo shuni aytish kerakki, realistik asarda tasvirlangan har bir voqea-hodisa qahramon xarakterining u yoki bu jihatini ochishga xizmat qiladi. Masalan, A.Qodiriyning "O`tgan kunlar" romanida Otabek bilan Kumushning to`yi, Otabek bilan uning qaynotasi Mirzkarim Qutidorga qarshi uyushtirilgan fitna, haqiqat g`alaba qozonishi, Kumush bilan Otabekning baxtli turmushi, go`zal muhabbat orasiga tushgan fitna, yolg`on, Otabekning Zaynabga uylanishi, Kumushni o`ldirish uchun qilingan harakatlar va hokazo. Romanning boshida Otabek-Marg`ilon uchun musofir, yosh, barno bir yigit edi. Roman o`rtalarida noo`rin azoblar, tuhmatlarga duchor bo`lgan alamzada bekka aylandi.

Roman oxirlarida esa qasos olish darajasiga borib yetdi. Shu ma'noda syujet qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladigan asosiy komponent yoki asar qahramonlari xarakterlarining shakllanishi tarixidir.

2. Syujet-hayot ziddiyatlarini umumlashtiruvchi voqealar sistemasi. Syujet obrazlarning "o`zaro aloqalari, ular o`rtasidagi qarama-qarshiliklar, umuman kishilar o`rtasidagi munosabatlar" dan tashkil topar ekan.

Konflikt (lotincha conblicbes-ixtilof, to`qnashuv) - badiiy asarida ishtirok etuvchi shaxslar o`rtasida yuzma-yuz kurash yoki qahramonning o`z atrofini qurshab olgan muhiti, o`z-o`zi bilan ruhiy to`qnashuvi olishuvi. Konflikt-syujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch. Syujet elementlari.

Turmushdagi voqea-hodisalardek syujet ham nimadandir boshlanadi, rivojlanadi va nima bilandir tamomlanadi. Shunga ko`ra, syujetni uzviy bo`laklarga ajratib o`rganish mumkin. Yirik hajmli klassik asarlarda syujetning ekspozisiya, tugun, voqea rivoji, kulminasiya va yechim deb nomlangan asosiy elemnetlari bo`ladi. Ba'zi asarlarda esa syujetning qo`shimcha elementlari - prolog va epiloshlar uchraydi. Syujetning bunday elemeotlari asar to`qimasida o`ziga xos funksiyani o`taydi.

Ekspozisiya (lotincha expposituo-tushuntirish) syujetning kirish, boshlanma qismi, asar voqeasi bo`lib o`tadigan joy, qahramonlarning konfliktgacha bo`lgan paytdagi qiyofasi, holatini namoyon etadigan vaziyat, shart-sharot tasviri.

Ekspozisiya asardagi o`rniga ko`ra turlicha bo`ladi:

a) to`g`ri ekspozshrsh - asarda voqeaning boshlanishvdan oldin keladi.

1) "O`tgan kunlar" romanida Otabek.

2) "Sinchalak" povestida tugundan so`ng bosh qahramon Saidaning bolalik va yoshlik davriga oyd berilgan ma'lumot.

b) kechiktirilgan ekspozisiya-syujet tugunidan so`ng yozuvchi tomonidan qahramon haqida berilgan ma'lumot;

v) teskari ekspozisiya-asar syujetini yechimdan so`ng qahramon haqida berilgan qo`shimcha ma'lumot. Ba'zi yirik hajmdagi asarlarda ekspozision ma'lumot syujetning turli o`rinlarida berilishi mumkin. Bu xil ekspozisiyalar shartli ravishda, sochma ekspozisiyalar deb yuritiladi.

Turli janrdagi asarlarda ekspozisiya turli xil bo`lishi mumkin. Chunonchi, dramatik asarda ekspozision ma'lumot avtor tilidan berilmaydi, aksyancha u yoki bu qahramon haqidagi ekspozision ma'lumot boshqa obrazlar nutqi orqali beriladi yoki tasavvur qilinadi.

Tugun-badiiy asar syujetida konflikt va harakatning paydo bo`lishi, boshlanishiga sabab bo`ladigal voqea. Tugun harakatni belgilaydi, voqealar rivojnga turtki bo`ladi, unga aniq va konkret yo`nalish beradi. Ko`pgina asarlarda asosiy voqea tugundan so`ng yuz beradi. Tugun kitobxonning asar mavzusini to`g`ri tushunishga yordam beradi, o`quvchini voqealar ichiga yetaklaydi, qahramonlar taqdiriga qiziqgiradi.

Voqea rivoji-syujet tugunidan so`ng asarda voqeaning zo`rayib, kengayib keskinlashib borishi. Odatda, asarda voqealar tugundan boshlab kulminasiyagacha bosqichma-bosqich rivojlanib, o`sib boradi.

Voqea rivoji jarayonida obrazlarning o`zaro munosabatlari-ziddiyatlari, kurashlari, ko`rsatiladi.

Kulminasiya (lotincha culmen-cho`qqi) - asardaga voqealar rivojining yuksak cho`qqisi. Kulminasiyada asarda qo`yilgan masala g`oyatda keskin tus oladi, qahramon xarakteri yorqin ochiladi.

Masalan, A.Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Xisrav bilal Farhodning munozarasi asar syujetining kulminasion nuqtasini tashkil etadi.

Yechim-asarda tasvirlangan voqealarning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan qahramonlarning holati ular o`rtasidagi kurashning xotimasidir.

Prolog-adabiy asardagi muqaddimaning bir turi bo`lib, bunday muqaddima kitobxonni avtor niyati, asarda tasvirlanadigan voqealardan avvalgi voqealarning qisqacha mazmuni bilan, pyesalarda esa qatnashuvchilar bilan tanishtiradi.

Epilog-so`nggi so`z badiiy asar rxirida qahramonlarning keyingi taqdirini so`zlab beruvchi xotima.

Badiiy syujetning barcha elementlarini har bir asardan qidiravermaslik kerak. Chunki, ba'zi asarlarda syujetning u yoki bu elementi ishlatilmasligi mumkin.

Kompozisiya haqida umumiy tushuncha.

Kompozisiya (lotincha compositio-tuzib chiqish, tartibga solish) aniq g`oyaviy-badiiy komponentlarning asar to`qimasidan joy olshpi, asar qismlari, boblari" va epizodlarining o`rinlashish tartibi, barcha obrazlarning bir sistemaga uyushuvi.

Kompozisiya badiiy asarning zarur komponenti ekanlipshi, dastavval, uning syujet bilan uzviy bog`liqligida ko`ramiz. Syujet elementlarining muayyan maqsadda bir-biri bilan birikuvi kompozision hodisasidir.

Badiiy ijod jarayonida shunday asarlar ham bo`ladiki, ularning syujeti ekspozisiya, tugun, voqea rivoji, kulminasiya, yechim tartibida tuziladi.

Kompozision vositalar.

Badiiy asar to`qimasida shunday komponentlar ham borki, ularni ba'zi adabiyotshunoslar "asarning syujetdan tashqari elementlari" deb atashsa boshqa birlari "kompozision vositalar" deb yuritishadi.

1. Asar sarlavhasi.
2. Epigraf.
3. Lirik chekshgash.
4. Qistirma epizod.
5. Peyzaj.
6. Interyer (obstanovka).
7. Qoliplash.

Interyer (obstanovka). Adabiy asarda ishtirok etuvchi shaxslar bevosita harakat qiladigan maydon joy (obstanovka) tasviri ham muhim kompozision rol o`ynaydi. Masalan: A.Qahhorning "Sinchalak" povestida Qalandarov yashaydigan hovli.

Qoliplash-badiiy asarda mustaqil voqealarni ma'lum bir voqea doirasiga solib, shu voqeaga bog`lab tasvirlash usulidir.

A.Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida podsho Bahromning hayoti tasvirlanadi.

## SAVOL VA TOPShIRIQLAR:

1. Badiiy asar haqida ma'lumot bering.
2. Syujet haqida ma'lumot bering.
3. Kompozision vositalar nima?

4. Tugun deganda nimani tushunasiz?
5. Voqea rivoji va kulminasiya haqida ma'luomt bering.
6. Interyer va qoliplash nima?
7. Syujet elementlari haqida ma'lumot bering.
8. Lirik chekshgash nima?
9. Qistirma epizod nima?
10. Peyzaj haqida ma'luomt bering.
11. Yechim nima?
12. Badiiy asarning shakli va mazmuni haqida ma'lumot bering.

## ***5 – MAVZU:*** **Adabiy turlar va janrlar.**

## ***REJA:***

1. Adabiy turlar haqida ma'lumot.
2. Adabiy turlar va janrlarning so’z san’atidagi o’rni va ahamiyati.
3. Aristotel “Poetika”sida adabiy turlar va janrlar to’g’risida.
4. Janrlar haqida ma'lumot.
5. Epik tur va uning janrlari haqida ma'lumot.
6. Lirik tur va uning janrlari.
7. Dramatik tur va uning janrlari haqida.

**Tayanch iboralar:** adabiy tur, epik tur, janrlar, epopeya, latifa, ertak, hikoya, novella, ocherk, doston, roman, povest, lirika, g’azal, qasida, qo`shiq, qit’a, ruboiy, tuyuq, fard, janr, muammo, liro-epik janrlar.

Ushbu ma’ruzada biz ko’proq quyidagi masalalarga to’xtalamiz:

Adabiy turlar va janrlarning so’z san’atidagi o’rni va ahamiyati. Arastu “Poetikasi”da adabiy turlar va janrlar to’g’risida. Badiiy asarlar hayot voqeligi va inson obrazini gavdalantirishiga ko’ra epos, lirika, drama turiga ajratilishi. Har bir tur janrlarga bo’linishi. Epos, lirika, drama turidagi asarlarning she’riy yoki nasr yo’lida yozilishi. Folklor va yozma adabiyotdagi janrlar.

Aristotel mashhur "Poetika" asarining uchinchi bobida adabiy asarlarini uch katta gruppaga-epos, lirika va dramaga ajratgan. Bu gruppalarning har biri adabiyotshunoslikda "adabiy tur" yoki "adabiy jins" deb ataladi. Badiiy. asarlarni ana shunday "tur" va "jins"larga ajratish ular orasidagi muayyan fikrlarga-mazmuni, vazifasi, o`ziga xos tasvir usullariga asoslanadi

Adabiy turlar ham, janrlar ham hech vaqt sof holda uchramaydi. Bir janr xususiyatlarini ikkinchi bir janr tabiatida ko`rish mumkin. Shunga ko`ra, badiiy adabiyot xazinasidagi asarlarning o`xshash va farqlanuvchi tomonlarini hisobga olish holda ularni ma'lum gruppalarga ajratish, nazariy jihatdan klassifikasiya qilish mumkin.

Badiiy asarlarning yirik gruppalari "tur" shu gruppaga kiruvchi mayda butoqchalari “janr” deb ataladi.

Hozirgi adabiyotshunoslikda ham badiiy asarlarni voqelikni qanday formada aks ettirishiga qarab klassifikasiya qilish tradisiyasiga ko`ra bir necha turga bo`lib o`rganiladi. Ular quyidagilar:

1. Epik tur (epos).
2. Lirik tur (lirika).
3. Dramatik tur (drama).

Epik tur. Epik tur deganda voqea-hodisalarni, kishilarning o`zaro munosabatlarini avtor tili va personajlar nutqi vositasida hayotni keng miqyosda aks ettiradigan asarlar guruhini anglaymiz. Epik turga mansub asarlarda muallif voqelikni, hayot manzarasini go`yo tashqaridan turib tasvir etayotgandek yo`l

tutadi. Shuning uchun ham epik turga kiruvchi asarlarda voqea hukmron bo`ladi.

Epik turdagi asarlarning quyidagicha janrlarini ko`rsatib o`tish mumkin.

Epos (epopeya), roman, povest, novella, hikoya, ocherk, latifa, ertak, felyeton, konflikt.

Epopeya (epos). Biror xalq, millat tarixining eng muhim hal qiluvchi burilishi davrlarini keng manzaralarda aks etgiruvchi asarlarga epopeya deyiladi. Chunonchi, Gomerning "Iliada", "Odeisseya" dostonlari, "Mahabxarata" va "Romayana" kabi hind xalq eposlari, "Alpomish", "Go`ro`g`li", "Manas", "Qizjibek" kabi o`zbek, qirg`iz, kozok dostonlari, salb yurishlaridan bahs etuvchi "Roland haqida qo`shiq", "Said haqida qo`shiq", "Nibelunglar haqida qo`shiq" singari dostonlar epopeyaning eng yaxshi namunalaridir.

O`rta Osiyo xalqlarining qadimiy eposida asosiy janrlari latifa, ertak, hikoya, qissa va dostonlardir.

Latifa-eng kichik epik janr ("Latifa") arabcha) - nozik va o`tkir mushohada ma'nosidagi "lutf" so`zidan yasalgan atamadir. Latifada qisqa nasriy shaklda qiziq bir voqea aytib beriladi.

Latifaning eng ko`p, keng tarqalgan shakli Xo`ja Nasriddin (Afandi) haqidagi mitti hikoyalardir. Latifa ko`pincha ibratli "achchiq kulgu" uyg`otadi.

Xo`ja Nasriddin Afandi Misr shahriga boribdi. Unga go`riston orqali o`tishga to`g`ri kelgan ekai, qabrlar ustidagi toshlardagi qiziq. yozuvlarga ko`zi tushibdi. Bu yozuvlarda marhumlarning tugilgan va o`lgan yillari, qayd etilgandan keyin, "uch oy-yu bir hafta umr ko`rdi" yoki "bir oy-yu uch kun umr ko`rdi" deyilgan ekan. Afandi ajablanibdn, hisoblab ko`rganda, marhumlar 56 yil hokazo yil, umr ko`rishgan ekai. Bu esa qabr toshlarida ko`rsatilgaidan oz muddat edi. Afandi Misrliklardan "bu nima?" qilganlaring deb so`raganda Misrliklar: biz odamning tug`ilganidan o`lganigacha bo`lgan vaqtni umr hisoblamaymiz, balki odamnnng baxtiyor bo`lgan kunlarining jamini umr hisoblaymiz deyishibdi.

Afandi misrliklarga debdi: agar men sizning shahringizda vafot etsam, go`rim ustiga bunday yozuvli tosh qo`yinglar:

"Buxorolik Xo`ja Nasriddin tug`ilmasdan avval vafot etdi". Ertak ham qadim eposning eng ko`p tarqalgan janridir. Ertaklar goh kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalarni goh fantasgik sarguzashtlarni hikoya qiladilar. Ertaklarning ko`pchiligida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo`shilib ketadi. ("Uch og`ayni botir", "Yoril tosh", "Oltin beshik", "Uch yolgonda qirq yolg`on") kabi.

Hikoya. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir. Hikoyada fantastik va mifologik elementlar yo`q yoki juda kam bo`ladi. Hikoyada personajlar xarakteri bir-ikki kichik epizodlar orqali tasvirlanib, g`oyasi ixcham syujet liniyasida ifodalanadi.

Hikoya janri qadimgi Sharq va G`arb adabiyotlarida chuqur ildiz otgan bo`lib, xalq og`zaki ijodidagi rivoyat, afsona, hikoyat, latifalarga borib taqaladi. Hikoya keyinchalik yozma adabiyotga ko`chgach yanada ravnaq topadi. Nasriddin Rabg`uziyning "Qissasul anbiyo", Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor", "Lisonut tayr", Shayx Sa'diyning "Guliston", "Bo`ston" asarlaridagi hikoyatlar fors-

tojik va o`zbek adabiyotida hikoyachilikning ko`p asrlik tradisiyalarga ega ekanligini ko`rsatadi.

Gi de Mopassan ("Do`ndiq", "Jinni ayol"), I.S. Turgenev ("Mumu"', "Burmistr"), A.T.Chexov ("Xameleon", "Vanka"), A.Qahhor ("Anor", "O`g`ri") jahon hikoyachiligi ustalaridir.

Doston juda qadimiy eposning bosh xususiyatlarini gavdalantiradi. Dostonning eng muhim alomati-hayotni keng qamrab olishga intilish, jamiyat hayotidagi eng muhim hodisalarni aks ettirishdir. "Alpomish" qadim xalq eposlaridan "Go`ro`g`li" va hokazo. Xozirgi zamon eposi janrlari.

Hozirgi zamon eposining janrlari qadim epos janrlarining rivojidir.

Novella. Yangi eposning eng kichik shakli novelladir. Unda kishilar hayotidagi juda kichik epizod hikoya qilinadi. G`arbiy Yevropa xalqlari adabiyotida "novella" termini ko`pincha katta hajmdagi hikoyalarga nisbatan qo`llaniladi.

Povest. Bir kishi va u bilan hayoti bog`liq bo`lgan bir necha kishining taqdiri o`rtacha hajmda tasvir etilgan, ammo hayotning keng manzarasini chizib berishni o`z oldiga vazifa qilib qo`ymaydigan asarlar povest janriga mansubdir.

Povestda qahramon o`z boshidam kechirganlari haqida so`zlaydi.

Povest-qissa. Ch.Aytmatovning "Oq kema", "Jamila", A.Qahhorning "Sinchalak", O`.Hoshimovning "Bahor qaytmaydi".

Roman. Hayotning keng manzarasini tasvir etuvchi epik asar "roman" deb ataladi.

Romanda xalq hayotining tarixi, ijtimoiy va tarixiy voqealar keng planda, murakkab syujet liniyalarida tasvirlanadi.

"Roman" termini G`arbiy Yevropa adabiyotida taxminan XII-XIII asrlarda paydo bo`lgan.

Fransuz romanshunosi Pyer Deksning ta'kidlashicha, roman so`zi Fransiyada XII asrda paydo bo`lib, dastlab adabiy asarlarning sarlavhalarida ko`rina boshlagan. Demak, roman so`zi dastlab umuman, roman tillarida yozilgan asarlarga nisbatan qo`llangan bo`lsa, XV asrga kelib, mazkur tillarda yozilgan hikoya va qissalargina roman deb atala boshlagan. Keyinchalik roman termini ostida risarlik qissasi tushunilgan.

O`rta asrlarda poema bilan bir qatorda, eposdagi kabi ko`plab voqealarni o`z ichiga olgan, qahramonlarning sarguzashtlarini, qiziq-qiziq ishlarini aks ettirgan turli shakldagi nasriy asarlar maydonga keladi. Unday asarlarning G`arb mamlakatlaridagi eng avvalgi ko`rinishlaridan biri bo`lib, ritsarlik romanlari yuzaga keladi. Shu tariqa jahonda birinchi marta "Roman" deb atalgan asarlar vujudga keldi. Bu nom mazkur asarlarning dastlabki roman xalqlari tillaridan yaratilganligi-bilan bog`liqdir. Unday tillar jumlasiga italyan, fransuz, ispan, portugal, rumin, moldavan, provansal, sardin, katalan, tillari kiradi.

Mazkur yirik asarlar to`la ma'nodagi roman darajasiga ko`tarilmagan edi, chunki ularda qahramonlarning ichki olami ancha sayoz va badiiy dalillash birmuncha kuchsiz edi.

Romanning sifat belgilari, asosan, XVIII asrda shakllandi. Yangi eposning, ya'ni romanning asosiy alomatlari katoriga maishiy turmushning ikir-chikirlarigacha va intim ruhiyatga beqiyos darajada e'tibor berilishi, o`ta "prozaik"

hayotning chuqur poeziyasini gavdalantirish, kishilar taqdiridagi qahramonlikni va fojiaviylikni ochib berish kabilar kiradi.

Mazmun bilan bog`liq bu alomatlar muqarrar ravishda san'atkorona shakl yaratishni, syujet, kompozisiya, obrazlilik, nutq, ritm sohasida ilgari ko`rilmagan belgilar vujudga kelishini taqozo qilar edi.

Romanni vujudga keltirnsh manbalar va sharoitni izohlab, V.G.Belinskiy quyidagi she'rni yozgan edi: "Roman, ismidan ma'lumki, ...butun fuqarolik munosabatlarini, ijtimoiy, oilaviy va umuman, insoniy muiosabatlar cheksiz ravishda murakkab va dramatik bo`lib, hayot cheksiz ko`p unsurlari bilan har taraflama o`sib bir davrda paydo bo`ldi".

Sanab o`tilgan qator manbalar ta'sirida, ularning muhim belgilarini, shuningdek, mumtoz eposining asosiy alomatlarini o`zida mujassamlashtirishgan holda XVIII asrda tom ma'nodagi haqiqiy roman maydonga keldi. Adabiyotshunoslikda isbotlanishicha, uning dastlabki namunasi yozuvchi Antuan Prevoning "Kavaler de Gris va Manon Lesko tarixi" nomli asari hisoblanadi. Keyinchalik "Manon Lesko" deb atalib kelgan bu roman birinchi marta 1731 yilda Angliyada, 1733 yilda Fransiyada bosilib chiqqan. Unda Prevo o`z davrlarining ruhini, dunyoqarashini, ruhiyatini novatorona shaklda gavdalantirib berdi va keyinchalik roman janri uchun muhim bo`lib qoladigan "o`rta miyona" xarakterlar yaratdi.

Mashhur fransuz yozuvchisi Mopassan bu asarni "Hozirgi zamon romanining jozibador shakli" deb atagan edi.

O`zbek romani taraqqiyotini, asosan ikki davrga bo`lish mumkin. Birinchi davr o`z ichiga "O`tgan kunlar" yaratilgan paytdagi, ya'ni 20-yillar 1945 yillargacha aniqrog`i, Oybekning "Navoiy" romani yaratilguncha o`tgan muddatni oladi. Bu davrda Abdulla Qahhorning "Sarob", Husayn Shamsning "Dushman" singari romanlari yaratilgan. Tarixiy mavzuni va o`tmish hayotini aks ettirish borasida o`zbek romani taraqqiyotining dastlabki bosqichida jiddiy muvaffaqiyatlar qo`lga kiritildi. A.Qodiriyning "O`tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon", Cho`lponning "Kecha va kunduz", Oybekning "Qutlug` qon" va "Navoiy" romanlari fikrimizning yorqin dalili bo`la oladi.

O`zbek romani taraqqiyotining ikkinchi davri urushdan keyingi yillarni o`z ichiga oladi. Zamonaviy mavzuni yorqinroq va chuqurroq yoritish maqsadida romannavislarimiz yangi-yangi shakllar topishga, turli tasviriy vositalardan o`ziga xos tarzda foydalanishga, badiiy kashfiyotlar yaratishga intildilar. Bu davrda tarixiy mavzuni va o`tmish hayotini aks ettirish borasida ham o`zbek romanida ma'lum yutuqlar qo`lga kiritildi. Unday yutuqlar jumlasiga Odil Yoqubovning "Ulug`bek xazinasi", "Ko`hna dunyo" Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" singari romanlarini kiritish mumkin.

Ocherk. Badiiy ocherk epik turning birmuncha keyin vujudga kelgan janrlaridan hisoblanadi. Ko`pchilik ocherklar real faktor asosida va hayotda chindan ham mavjud shaxslar to`g`risida yoziladi.

Ocherkda ko`pincha qahramonning portreti (siymosi) ma'naviy qiyofasi, ruhiy va nutqiy tavsifi beriladi. Hozir javob janr hisoblangan ocherk XX asr o`zbek adabiyotida tez suratlar bilan taraqqiy etdi.

Uning rivojiga A.Qodiriy, H.Olimjon, G`.G`ulom, Nazir, Nazir Safarov kabi Ibrohim Rahim, Hakim salmoqli hissa qo`shdilar.

Masal. Masal epik poeziyaning eng qadimiy janrlaridan biri hisoblanadi. U dastlab yangi eradan ancha avval Yunoniston, Hindiston, Misr singari qadimiy mamlakatlarda tug`ilgan. Ayniqsa, yunon masalchisining epos asarlari katta shuhrat qozondi. Fransiyada Lafonten, Rossiyada Ch.A.Krilov va bizda o`zbek shoiri Gulxaniy masal janri rivojiga katta hissa qo`shdilar.

Har qanday badiiy asarning markazida inson va uning hayoti, kurashi, jamiyat va tabiat hodisalariga munosabati asosiy ob'yekt bo`lib turadi.

Lirikada inson hayoti, muhabbati va nafrati, sevinchi va iztirobi, qalb qo`ri o`zining lirik ifodasini topadi. Lirik asarlarning serta'sirligiii oshiruvchi muhim xususiyatlardan biri sub'yektivligidir. She'riyatda tasvirlanayotgan voqea va hodisalar ijodkorning ichki dunyosi orqaln o`z ifodasnii topadi. She'riyatdagi shoirning nchki kechinmalari o`quvchi nazarida o`zining shaxsiy kechinmalariga aylanadi. Shuning uchun bo`lsa kerak shoir bilan o`quvchi o`rtasida o`ta yaqinlik paydo bo`ladi. Lekin ijodkordagi shaxsiy kechinmalar ham ko`pchilk uchun xizmat qila olgandagina o`quvchi qalbidan joy oladi. Barcha badiiy asarlardagi kabi lirikada ham mazmun ijtimoiy ahamiyat kasb etmog`i kerak.

She'riyatda shoir o`zi boshidan o`tkazgan voqea va hodisalarni, xayoliga kelgan biron muhim fikrni yoki o`zining boshidan o`tadigan voqealarni ham ishonarli qilib bayon etish mumkin. Masalan shoir A. Oripovning «Birinchi muhabbatim» she'rini o`ta shaxsiy, avtobiografik ruhdagi she'r yoki har qanday o`quvchining his-tuyg`usiga aylana olgan she'r deyishimiz ham mumkin.

*Kecha oqshom falakda, oy bo`zarib botganda*
*Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda*
*Ruhimda bir ma’yuslik sokinlik uyg`otganda*
*Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,*
*Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.*

Boshqa badiiy asarlarda bo`lgani kabi lirikada ham syujet mavjuddir. Lirikada syujet ifoda etilmoqchi bo`lgan badiiy g`oyaniig rivoji tarzida maydonga keladi.

Lirik she'riyat janrlarini quyidagi tartibda o`rganishimiz mumkin.

G`azal (arabcha - g`azal, ko`pligi ayollar bilan o`ynab-kulish) - ishq muhabbat haqida bahs yurituvchi lirik she'r. G`azal sharq xalqlari lirikasida keng tarqalgan janr bo`lib, u o`z taraqqiyotining dastlabki davlarida faqat ishq-muhabbat mavzularida yaratilgan.

G`azal ikki misrali bayt usulida yoziladi. She'rdagi har bir bayt nisbiy mustaqillikka ega. G`azalning birinchi bayti “matla'”, so`ngi bayti “maqta'” deb yuritiladi. G`azalni quyidagi turlarga ajratib o`rganishimiz mumkin: *oddiy g`azal, g`azali husni matla', g`azali qit’a, g`azali musajja', g`azali muvashshah, g`azali mushoira, g`azali zulqofiyatayn, g`azali zebqofiya, g`azali chiston, g`azali nazira.*

Qasida arabcha so’zdan olingan bo’lib, mashhur tarixiy shaxslar va buyuk voqealarni madh etuvchi tantanavor uslubdagi lirik janr. Qasida ham xuddi

g`azaldek qofiyalanadi. Odatda, qasida kirish (nasib yoki tashbib) bilan boshlanadi; keyin tasvir - ob'yektiga o`tiladi, oxirida duo hamda matlabining bayoni beriladi. Qasidaning umumiy hajmi 15-20 baytdan kam bo`lmaydi. O`tmishda podsholar va xukmdorlar, ulug` tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, tabiat manzaralari, may, ishq-muhabbat shoirning o`zi yashagan muhitdan shikoyati yoki o`z fazilatlari xaqida qasidalar yaratilgan. Shuningdek, falsafiy qasidalar, hajviy qasidalar yozilgan.

Qo`shiq - qadimiy lirik janr bo`lib, kuyga solib aytishga mo`ljallab yoziladi. xalq qo`shiqlari juda qadimiy tarixga ega. Qo`shik, dastlab, mehnat jarayonida paydo bo`lgan ularda xalqning orzu-umidlari, zavq-shavqi, quvonch va iztiroblari mujassamlashgan. Xalq qo`shiqlari, mehnat qo`shiqlari, mavsum qo`shiqlari, marosim qo`shiqlari, alla, yor-yor, ishqiy qo`shiqlar, qahramonlik qo`shiqlari kabi turlarga bo`linadi.

Qit'a (arabcha "parcha") -qadimiy lirik janr. Qit'a shunday bir lirik janrki, u ixcham bo`ladi, unda fikr lo`nda va konkret bayon qilinadi.

Ruboiy (arabcha "to`rtlik") to`rt misradan iborat mustaqil lirik janr. Ruboiy falsafiy, ijtimoiy, axloqiy va intim-ishqiy mavzularda yoziladi. Ruboiy sharq adabiyotida keng tarqalgan. Ruboiy a-a-a-a tarzida qofiyalanadi. Ruboiynnng bunday turini taronai ruboiy deb yuritiladi. Adabiyotimiz tarixida ruboiyning a-a-b-a shaklida qofiyalanuvchi turi uchraydi.

Ko`z birla qoshing yaxshi, qabog`ing yaxshi,
Yuz birla so`zing yaxshi, dudog`ing yaxshi.
Eng birla mening yaxshi, sakoking yaxshi,
Bir-bir ne deyin boshin ayog`ing yaxshi.
(A. Navoiy)

Yod etmas emish, kishini g`urbatda kishi,
Shod etmas emish, kungulni mehnatda kishi.
Kungul bu g`ariblikda shod o`lmadi, oh,
G`urbatda sevunmas emish, albatta, kishi.
*(Bobur)*

Tuyuq ("tuslash", "tuymoq")o`zbek mumtoz she'riyatida keng qo`llanilgan kichik lirik janr. Tuyuq hajm jihatidan to`rt misrali bo`ladi. (Foilotun, foilotun, foilun) tarzida shakllanadi.

O`zbek adabiyoti tarixida Yusuf Amiriy, Gadoiy, Lutfiy kabi shoirlar tuyuq janrida samarali ijod qilishgan. A.Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tuyuq janrini yuksak bosqichga ko`tarishgan.

*La'lidin jonimga o`tlar yoqilur,*
*Qoshi qaddini jafodin yo qilur.*
*Men vafosi va'dasidin shodmen,*
*Ul vafo bilmonki qilmas yo qilur.*

Mustazod: A.Navoiy «Mezonul-avzon» asarida mustazodga bunday ta'rif beradi: Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, xazaji musammani axrabi maqfufi mauzuf vaziida anga bayt bog`lab bitib, aning misrasidin so`ngra ham ul baxrning ikki rukni bila ado qilib, surud nagamotiga kelturarlar ermish va ani «Mustazod» derlar emish, andoqkim (mustazod):

*Ey, husnunga zarroti jaxon ichra tajalli*
*Maf'ulu mafoiylu foulun mazxar senga ashyo, maf'ulu faulun.*
*Sen lutf bilan kuvnu makon ichra muvalli, olam sanga mavlo.*

Navoiy ta'rifidan ma'lum bo`ladiki, mustazod xazaji musammani axrabi makfufi maxzuf vaznida yozilib, oxirgi ikki rukniga mos to`la bo`lmagan misra orttirilar ekan. Mana shuning uchun ham bu janr bir biri bilan aloqada bo`lgan ortirma ma'nosini beruvchi mustazod (ziyodalik) deb ataladi.

Musammat - arabcha so`z bo`lib ipga o`tkazilgan marvarid degan ma'noni bildiradi. Mumtoz adabiyotlarda keltirilishicha aksariyat (musammat) sakkiz hil bo`ladi degan qarashlar mavjud. Bular quyidagilar.

1. Musallas (uchlik)
2. Murabba (to`rtlik)
3. Muxammas (beshlik)
4. Musaddas (oltilik)
5. Musabba' (yettilik)
6. Musamman (sakkizlik)
7. Tasne'-mustasni'(to'qqizlik)
8. Mashru'-muashshar (o'nlik)

Noma - xat ma'nosini ifodalaydi. Adabiy termin sifatida noma maktub tarzida yozilgan badiiy asardir. O`zbek va fors-tojik adabiyotida noma asosan she'riy formada yaratilgan. Xorazmiyning 1353 yilda yaratgan muhabbatnoma asari o`zbek dunyoviy adabiyotining ishq sevgini sharaflagan ilk yirik asarlaridan biri bo`lib, unda. oshiqning ma'shuqaga bo`lgan otashin sevgisi, uning bu yo`lda chekkan iztiroblari tasviridan iborat.

Munozara - tortishuv, fikr almashuv degan ma'noni bildiradi. Devonu lug`otit turk asarida yoz va qish mumozarasi berilgan.

Marsiya - arabcha so`z bo`lib, yig`lamok, aza tutmoq, qayg`urmoq ma'nolarini bildiradi. M. Qoshg`ariyning "Devonu lug`otit turk" asari orqali Alp erto`nga (Afrosiyob) o`limiga bag`ishlangan marsiya yetib kelgan.

Masal - arabcha so`z bo`lib, o`rnak, maqol, hikoyat ma'nolarini bildiradi. Zarbulmasal (irsoli masal) san'ati deyilganda biror she'riy baytda maqol yoki frazeologik birikma keltirish tushunilgan.

Dard - ning ko`pligi - mufradot - arabcha so`z bo`lib, yolg`iz, yagona, yakka degan ma'nolarni bildiradi. Mumtoz lirikaning eng kichik janri, yolg`iz bir baytdangina iborat bo`lgan she'r.

Muammo - arabcha so`z bo`lib, yashirilgan, berkitilgan ma'nolarni anglatadi. Muammo, odatda, bir ba'zan ikki baytdan tashkil topadi. U a-a yoki a-a, b-a shaklida qofiyalanadi. Adabiy termin sifatida bir so`z ko`pincha ism yashirib berilgan kichik lirik janridir.

Chiston - biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta'rif-tavsif etish orqali o`quvchini o`sha predmet yoki xodisani topishga dalolat qiladigan she'r chistondir.

Ta'rix - arabcha so`z bo`lib, sodir bo`lgan biror voqeani anglatadi. Sharq she'riyatida ana shu voqealar sanasini she'rda harflar vositasi bilan berish usuli ta'rix deyiladi.

**SAVOL VA TOPShIRIQLAR:**

1. Adabiy tur nima?
2. Epik tur haqida ma'lumot bering?
3. Janrlar nima?
4. Epik asarning lirik asardan farqi nimada?
5. Dramatik tur haqida ma'lumot bering?
6. Janr nima?
7. Roman janri haqida ma'lumot bering?
8. Latifa deganda nimani tushunasiz?
9. Gulxaniy qaysi janr rivojiga katta hissa qo`shgan shoir?
10. Roman termini qachon paydr bo`lgan?
11. Lirika deganda nimani tushunasiz?
12. Lirikada syujet bormi?
13. Konfliktchi?
14. Lirikaning asosiy janrlarini sanang.
15. G`azal janri nima?
16. Qo`shiq qanday janr turiga kiradi?
17. Mustazod nima?

**FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:**


1. Adabiy tur va janrlar. 3 tomlik. Toshkent, 1991-92 yillar.
2. E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshuioslikka kirish. Toshkent, 1994 yil.
3. M.Boboyev. "She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996 yil.
4. A.Xojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent, 1998 yil.
5. A.Ulug`ov. Adabiyotshunoslikka kirish. "Universitet", 2000 y.
6. O`zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslub rang-barangligi. Toshkent, 1983 yil.


## 6 – mavzu: Badiiy asar mavzusi va g’oyasi

Reja:

1. Badiiy asar mavzusi.
2. Adabiy asardagi bosh va yordamchi mavzular.
3. Badiiy g’oya. Bosh g’oya va yordamchi g’oyalar.
4. Mavzu va g’oya — yaxlit hodisa.

**Tayanch tushunchalar:** mavzu, adabiy asardagi bosh va yordamchi mavzular, mavzular doirasi, g’oyaviy-emotsionallik, bosh g’oya va yordamchi g’oyalar, mavzu va g’oya — yaxlit hodisa.

Badiiy adabiyot — insonshunoslik ekan, demak, inson hayoti, uning kechinmalari, ehtiroslari, munosabatlari — hamma faoliyati badiiy asarning «tepib

turgan yuragi, uning qoni va joni, uning shu'lasi va quyoshi»(V.G.Belinskiy)dir. «Butun olam, barcha ranglar, buyoqlar va ohanglar, tabiat va hayotning barcha shakllari poeziya (adabiyot — H.U.) hodisasi bo'lishi mumkin. Lekin u hodisalar zamirida nima yashiringan, ularning mavjudlik sababi qaerda va ular bizni nimasi bilan maftun etadi — masalaning mohiyati shunda»[1] ekan, uni ijodkor qanday hal qiladi?

«Masalan, qiynoqni, qatlni, mastlikda yuvindi chuqurga yiqilib tushgan odamning bebaxt o'limini juda natural tarzda tasvirlab berish mumkin, lekin bu tasvirlarning hammasi dilni xira qiladigan darajada xunuk va maz-munsiz bo'ladi, negaki, ularda hech qanday oqilona fikr, hech qanday oqilona maqsad bo'lmaydi. Ammo mo'yqalam egasi insonning haqiqat yo'lida kaltaklanishini tabiiy ko'rsatsa, uning qiyofasida bardoshning jismoniy iztirobi ustidan g'alabasini ifodalaydigan bo'lsa, u holda manzarada-gi tabiiylik kuchaygan sayin manzara go'zalroq va badiiyroq bo'ladi, chunki oqilona maqsad va oqilona fikr yaqqolroq ko'rinadi. Nimaiki voqe bo'lsa, oqilonadir va nimaiki oqilona bo'lsa, u voqedir: bu — ulug' haqiqat, biroq voqelikdagi hamma narsa ham oqilona emas. San'atkor uchun esa, faqat oqilona voqelik darkor. Lekin san'atkor uning quli emas, bunyodkori. San'atkor uning izidan bormaydi, balki unga o'z idealini singdiradi va shunga ko'ra qayta yaratadi»[2] .

Tema (gr. thema — asosiga qo'yilgan narsa) yoki mavzu (arabcha, aynan tema ma'nosini beradi; biz ikkalasidan ham foydalanamiz) — ijodkor tomonidan tanlab olingan va hayotning muayyan muammolarini umumiylashtiigan voqealar tasviri, ana shu akslangan hayot (voqea) ko'rinishlarining mag'zini chaqish(fikriy tadqiqot va tahlil) va uni g'oyaviy-emotsional tarzda baholashdir. Ya'ni, ijodkor bir vaqtning o'zida uchta vazifani, bir-biriga bog'langan va chatishgan tarzdagi yaxlit maqsadni ko'zlab ish ko'radi:

1. Xalq va davming milliy ko'rinishlari doimo aniq, tarixan konkretdir va har bir asarda ana shu ko'rinishlar ichidan tanlab olingan voqealar doirasi tasvirlanadi, bu tematikadir.

Jumladan, «o'tkan kunlar»da XIX asrning ikkinchi yarmidagi Turkistondagi hayot aks etgan bo'lsa, «Uch ildiz» (P.Qodirov)da O'zbekistondagi XX asrning 60- yillaridagi talabalar hayoti bilan bog'liq voqealar tasvirlangan.

2. Badiiy asarda aks etgan ijtimoiy xarakterlarni yozuvchi tomonidan (g'oyaviy-badiiy) anglash (mag'zini chaqish), bu-problematika (gr. Problema-oldinga tashlangan narsa, hayotning boshqa tomonlaridan ajratib olingan)dir. Jumladan, «Sudxo'rning o'limi»da Sadriddin Ayniy sudxo'rlik va xasislikni ajratib tasvirlasa, «Qutlug' qon»da o'zbekning o'z-o'zini anglashi va erk, ozodlik uchun kurashini Oybek bo'rttirib tasvirlaydi. Ajratib, bo'rttirib tasvirlangan qirralarda asarning g'oyaviy muammosi mujassamlashadi.

3. Tasvirlangan ijtimoiy xarakterga yozuvchining g'oyaviy-emotsional munosabati (muayyan xarakterni sevishi, ardoqlashi, e'zozlashi yoki ma'lum

---

[1] Белинский В. Адабий орзулар. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977, 104-105-бетлар

2 Шу асар, -Б.103.

xarakterni qoralashi, rad etishi, undan g'azablanishi, aniq bir xarakterni bir vaqtning o'zida ba'zida ma'qullashi, ba'zida ayblashi va h.)

Jumladan, «O'tkan kunlar»da Abdulla Qodiriy Kumushni sevib tasvirla-sa, Jannat kampirni qoralab tasvirlaydi. Zaynabni dam oqlasa, dam yomonlaydi.

G'oyaviy mazmunning bu atributlari birlashadi va ayni paytda, asar qismlarini butunlikka olib keladi. Chunki badiiy asarning g'oyasi mazmunning turli tomonlarining yaxlitlashuvidan yuzaga keladi, bu yozuvchining obrazli, emotsional, umumlashtirilgan fikridirki, u xarakterlarni tanlashdan, anglashdan, baholashdan kelib chiqadi.

Rus yozuvchisi Maksim Gorkiy temaning ana shu ahamiyatidan kelib chiqib, uni adabiyotning ikkinchi unsuri (elementi) deb ataydi va shunday taViflaydi: «Tema avtor tajribasida bunyodga kelgan, hayotning o'zi ko'rsatib bergan, ammo hozircha avtor tasavurida hali toia-to'kis shakl-lanmagan bir holda saqlanib, obrazlarda gavdalantirishni talab qilib, avtorda ishlashga mayl uyg'otadigan g'oyadir». Ushbu ta'rifdan ham ma'lum bo'layaptiki, tema va g'oya — bir butun, yuqorida ko'rganimiz mazmun va shakl kabi (tema g'oyaning ichida, g'oya mazmunning ichida yashaydi) yaxlit hodisadir.

Adabiyotshunoslikdagi fikrlarni umumlashtirsak, badiiy asar temalarini uchga ajratish mumkin:

1. Adabiy mavzular. Insoniyatga xos bo'lgan barcha fazilatu qusurlar(sevgi-muhabbat, mehr-oqibat, vafo-sadoqat, shodlik va quvonch, g'am va qayg'u, qasos, rashk, o'lim, saxiylik va baxillik, baxtu baxtiyorlik, matonat va shijoat, mehrli tabassumu yolqin nigoh, ehtiros, sog'inch, chanqoqlik va jo'shqinlik va h.) adabiy mavzulardir. Shu sababdan Oskar Uayld «Dorion Greyning portreti»(«Jahon adabiyoti», 2000-y, yanvar)asarida topib aytadi: «Fikr va so'z san'atkor uchun san'at vositasidir. Illat va fazilat — uning ijodi uchun materialdir». Bu xulosa hamma davr adabiyotlari uchun tegishlidir.

2. Tarixiy mavzular. Tarixdan, o'tmish (moziy)dan tasvir predmetiga material tanlash va shu asosda zamondoshlarning diqqatini qiziqtirgan eng zarur muammolarga javob izlash-bosh xususiyat kasb etadi. Jumladan, «Navoiy» (Oybek), «Yulduzli tunlar. Bobur» (P.Qodirov), «Ulug'bek xazinasi» (O.Yoqubov)-uzoq tariximizni yoritsa, «O'tkan kunlar» (A.Qodiriy), «Kecha va kunduz» (Cho'lpon), «Qutlug' qon» (Oybek) - yaqin o'tmishimizni gavdalantiradi.

3. Zamonaviy mavzular. Bugungi zamondan, aniq bosqich-istiqlol davri kishilarining hayotini tasvirlash va shu orqali hayotdan dars berish-zamonaviy mavzulaiga xos bosh xususiyatdir. Bugun Istiqlol talabiga monand komil kishilarni-fikrlovchi, tadbirkor, el-yurt uchun kuyub, yonib yashovchi, adolat va haq uchun kurashuvchi qahramonlarni tasvirlash, ularning murakkab obrazlarini yaratish-zamonaviy mavzularning kashfiyotlari bilan bog'liq.

Mavzular qanday atalishidan qafiy nazar hammasining asosida zamondoshlarning ko'nglini band etgan muhim masalalarga javob izlash va javobda insoniylashgan umumbashariy dolzarb g'oyalar targ'ib qilinishi talab etiladi.

Adabiy asar hayotni keng va chuqur, barcha tomonlari bilan tasvirlar ekan, unda asosiy tema va yordamchi temalar bo'lishini taqozo etadi.

Jumladan, «O'tkan kunlar» romanining asosiy temasi XIX asrning ikkinchi yarmidagi hayot ko'rinishlarini tasvirlash bo'lsa, aynan ana shu mavzuning turli qirralarini ochuvchi yordamchi temalar ham ko'p: Otabek va Homid o'rtasidagi (yangilik va eskilikning) kurashi, Kumush va Zaynab orasidagi kundoshlik, ota-ona va o'g'il orzulari orasidagi qarama-qarshilik, qipchoqlar va qora-chopon(o'zbek)lar o'rtasidagi qirg'in va h. Bularning hammasi bosh temaning mohiyatini isbotlashga, bo'rttirishga, ta'sirchanligini ta'minlashga, birgina so'z bilan aytganda, bosh temani yoritishga bevosita va blvosita xizmat qiladilar.

Badiiy asar muayyan bir mavzuni tasvirlar ekan, bevosita shu mavzuning haqiqatini kashf qilish bilan ko'pning diqqatini e'tibordan chetda qolayotgan muammoga qaratadi (Masalan, «O'tkan kunlar»da birinchi bor kundoshlikning fojiasi yaqqol va bo'rttirib gavdalantirilgach, kundoshlikni qoralovchilar va «oladigan xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xotung'a muvofiquttab' (ta'bga mos, munosib) bo'lsin» talabini yoqlovchilar keskin ko'payib ketgan). Demak, yozuvchi doimo aniq maqsadni ko'zlab, «odilona hayotning yoqlovchisi, sudyasi bo'lib ish ko'radi. Yozuvchining maqsadi, orzusi, haqiqati, adolati... hamma vaqt asar qahramonlariga taqsimlanadi, ular qalbiga joylashtiriladi. Va qahramonlarning o'zaro munosabatlaridan, harakatlaridan, qalb tug'yonlari tasviridan jonlanadi, jilolaiiadi, yaxlitlashadi va bir butun go'zalligi (mukammalligi) bilan kitobxonni harakatga soladi. Bu badiiy asar «hujayralari»dan sizib chiquvchi qon, qon tafayli faoliyat ko'rsatayotgan jon, jon tufayli tirik boigan ruh — badiiy g'oyadir.

Demak, g'oya ijodkorning qalamga olinayotgan voqelikka munosabatidir. Mavzu esa aks ettirilayotgan voqea-hodisalarning umumlashmasi, yig'indisi, ya'ni badiiy asar uchun tayanch bo'lgan asosiy fikr va maqsad obektidir.

Yana bir mulohaza. «Gap roman yoki qissa mavzuining nechog'li muhim-ligi yoki dolzarbligida emas, balki shu muhim va dolzarb mavzuni yoritish-da yozuvchining badiiy salohiyati, mahoratida ekan-da?..» degan ritorik tushuncha ko'p gapiriladi. Lekin shu salohiyat, mahorat qanday qilib voqe bo'lishi yechilmaydi.

Aslida, chiroqning shishasini mavzu desak, shu mavzuni kerakli narsaga aylantirayotgan, uning ardog'ida yonayotgan pilikka-uning yorug'lik nuriga, shu nurning toza yolqiniga bog'liq. Pilik notekis bo'lsa, zaruriy ishlov berilmagan bo'lsa, uning yonishidan shisha darrov qorayadi, natijada yorug'lik nurining ta'sir doirasi kamayadi, yorug'lik darajasi xiralashadi. Xuddi shunday, mavzu g'oyani asraganidek, uning yonishiga imkon tug'dirganidek, g'oya mavzuni yorqin qilib (xiralashtirmasdan) yoritishi lozim. Ana shundagina, ya'ni ular bir-biriga jon berib va jon olib, birlashib, yaxlit bir mazmunni ifoda qilganlaridagina-poetik ahamiyat kasb etadilar, jonla-nadilar, muhitni va odamlarni kerakli nur bilan yoritadilar. Ana shu holatni bunyod etish-salohiyatdir, badiiy mahoratdir.

«Ijodkor-voqelik-fikr-maqsad-munosabat. o'z-o'zidan ayonki, bular bir-biri bilan mustahkam bog'langan zanjirlardir. Ma'lumki, voqelik haqidagi fikr o'z-o'zidan tug'ilmaydi, u kuzatish, tahlil qilish, o'iganish asosida paydo bo'ladi. Bu jarayonda, tabiiyki, nimadir inkor qilinadi, nimadir ma'qullanadi. Nimanidir ma'qullash yoki inkor qilish esa, albatta, munosa-batni taqozo etadi. CHunki

munosabat bo'lmasa tasdiqlash, ma'qullash ham, rad qilish, qoralash ham bo'lmaydi. Ijodkorning oddiygina, novdadagi bargni tasvirlashi yoki unda hosil bo'layotgan kurtakni madh etishi ham o'ziga xos munosabatdir. Ya'ni bu tabiatning muayyan bir hodisasiga qarash va u orqali o'quvchida ma'lumbir kayfiyat uyg'otishdir» (A.Ulug'ov, 26-bet).

Bu fikrlarning yaqqol misolini ko'raylik. Hamid Olimjon 1937-yil bahorida Qozog'istonda bo'lib, qozoq xalqining hayoti bilan tanishadi. Hasan Qayg'i, Jambul kabi oqinlar ijodini o'rganadi, ularning xalq qalbida yasha-yotganini ko'radi. o'z umrini ham sarhisob qiladi. Orzu-umidlarga, boqiy xayollarga to'lib-toshadi. Martning oxirlarida Toshkentga keladi va ertalab derazasi oldida bir to'p o'rik chaman bo'lib, oppoq gullaganini ko'radi. Ko'ngildagi o'y-orzulari ham o'rikdan turtki olib ochila boshlaydi, uning xabari qog'ozga to'kiladi:

*Derazamning oldida bir tup*
*O'rik oppoq bo'lib gulladi...*

Bu xabarni eshitgan o'quvchida ham turli-tuman fikrlar uyg'onadi. Lekin shoir nima demoqchi? o'rik gullari-hayotning navbahori, navbahorning ilk elchisi shoir qalbidagi qaysi kechinmalarni yuzaga chiqarar ekan? Bu kechinma, hissiyot, fikrlar oqimi sizu bizni o'ziga oshno qilarmikan? Shoir his-tuyg'ulari bizning kechinmalarimizni ham uyg'ota olarmikan? Hayajonga sola bilarmikan? Hayot ritmini so'z va obrazlarning harakati orqali ifodalay olarmikan? Bu emotsionallikni, romantikani, ularning turfa ranglarini bo'yi-basti bilan ko'rsatib, qalblarimizga zarur bo'lgan estetik «ozuqani» bera bilarmikan?

*Novdalarni bezab gunchalar*
*Tongda aytdi hayot otini.*
*Va shabboda qurg'ur ilk sahar*
*Olib ketdi gulning totini.*

*Har bahorda shu bo'lar takror,*
*Har bahor ham shunday otadi.*
*Qancha tirishsam ham u beor*
*Yellar meni aldab ketadi.*

Ko'rinyaptiki, o'rikning gullashi shoir qalbidagi kechinmalarni uyg'otdi: har bahor o'rik gullarining mazasini shabboda olib ketadi. Bu yil shunday takrorlanyapti. Inson umri ham shunga o'xshash emasmi? Eng zavqqa, kuchga, shodlikka to'lganingda-gullaganingda hayoting rishtalari gul kabi sochilmasmikin?..

*Mayli deyman va qilmayman g'ash*
*Xayolimni gulga o'rayman.*
*Har bahorga chiqqanda yakkash*
*Baxtim bormi deya so'rayman.*

O'rik novdalarini bezagan g'unchalar-gul hayotining bahori ekan, lirik qahramon hayotining bahori nima? Bu-baxt, baxtli hayot. Lekin u bormi, mangu barqarormi?

«Ana shu tarzda gulning toti to'g'risidagi fikrlar baxt haqidagi o'ylar bilan uyg'unlashadi. Gulning toti, lirik qahramonning baxti-she'r g'oyasi ana shu ikki

qalbning uchrashgani va uchqun sochgan nuqtasida ochiladi» (MKarimov). «Baxtim bormi?» degan so'roq lirik qahramonni o'ylatsa, «ikkinchidan, o'quvchining ongida qandaydir savol alomatini ham, ya'ni «bundan keyin nima bo'ladi?» degan qiziqishni, masalaga faol munosabatni ham uyg'otadi. SHoir o'z o'quvchisida shunday tuyg'uni uyg'otib olgandan keyin-gina, bu esa poetik mahoratning «sir»laridan biridir, baxtli hayot bahorini ifoda etuvchi yaxlit fikrlarni misralarga tizib tashlaydi» (S.Azimov):

*Yudarimni silab-siypalab,*
*Baxting bor deb esadi yellar.*
*Etgan kabi go'yo bir talab,*
*Baxting bor deb qushlar chiyillar.*

Demak, lirik qahramon baxtining borligiga yellar ham, qushlar ham, har bir kurtak ham, baxt ovozi ham iymon keltiradi, tasdiqlaydi. «Baxti mangu barqaror el», «har gulistonda bahor mangu» bo'lgan Vatan ulug'lanadi. o'quvchi qalbida ana shu oliyjanob tushunchalar, ana shu bir olam hislar ko'chgandan so'ng, «har narsadan baxt mo'l o'lka»ga sodiq farzandligidan sevinch tuygach, shoir she'rini tugatadi:

*Derazamning oldida bir tup*
*O'rik oppoq bolib gulladi...*

Ha, «she'r ko'ngillarga nur olib kirgani yaxshi, g'ashlik va najotsizlik tuyg'usin emas»(T. Vohidov). Baxt va baxt haqidagi orzu-inson kamoloti uchun zarur omil ekan, uni kuylagan ham mangu tirikdir.

Ko'rinadiki, asarning g'oyasi (tema kabi) asar mazmunida-undagi umumlashma, emotsional, obrazli fikrda ifodalanadi. U ham bosh g'oya va yordamchi g'oyalardan iborat bo'ladi. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmi «tariximizning eng kirlik, qora kunlari» - «O'tkan kunlar»ning bosh g'oyasi bo'lsa, Otabek-Kumush-Zaynab o'rtasidagi muhabbat-kundoshlik tufayli fojiaga olib borishi yana bir yordamchi g'oyadir.

Qorachopon va qipchoqlar qirg'ini-feodal jamiyatini inqirozga olib borishi yana bir yordamchi g'oyadir. Mamlakat markazlashgan bir davlat tomonidan idora qilinganda, urush va qirg'inlar, talon va tarojlarni yo'qotish mumkinligi ham yordamchi g'oyalardan biridir...

Yordamchi g'oyalarning hammasi ham oxir-oqibat bosh g'oyaga kelib tutashadi va bosh g'oyaning isbotiga, daliliga, bir butunligiga, ta'sirchanligiga xizmat qiladi. Eng asosiysi, asar hujayralariga sochilgan fikrlarning rivojini o'zanga soladi, shoshqin va toshqin, zavqli va yaratuvchan, betakror va tinimsiz mavj uruvchi, o'zigagina xos va olamlarga tegishli bo'lgan insoniyatning komillik tomon harakatiga yangicha mazmun beruvchi daryoni vujudga keltiradi; buning yaratuvchisi ham, boshqaruvchisi ham yozuvchi-san'atkordir, yozuvchi qalbidagi nurdir, aqlidagi bilimdir, talantidagi qudratdir.

Shuning uchun ham "... badiiy asardagi g'oya turmush hodisalari ustidan chiqarilgan oddiy mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, sinchiklab tadqiq etish va obrazli, emotsional ifodalasb yakunidir. Bu yakun badiiy asar organizmining har bir hujayrasiga singib ketgan boiadi. Shu sababli badiiy asardagi g'oyani faqat sbu asarning butun obrazlari mazmuni orqaligina anglash

mumkin. L. Tolstoy ta'biri bilan aytganda, har bir badiiy asarning g'oyasini ifoda etish uchun u qanday yozilgan bo'lsa, shunday qayta yozib chiqish kerak bo'ladi" (I.Sulton, 170-bet.)

Agar biz "O'tkan kunlar" romanida A.Qodiriy "Tariximizning eng kirlik, qora kunlari"ni tasvirlagan desak, unda roman g'oyasi o'z rangini, ko'rinishini, latofatini, go'zalligini, ta'sirini yo'qotadi. Avtor aytmoqchi bo'lgan fikrlarning yuzdan birini ham ayta olmagan va ularni obrazlardan (demakki, o'tmish hayotdan) ajratgan bo'lamiz.

Holbuki, roman bo'rttirilgan (demakki, umumlashtirilgan), yorqin g'oyalar dunyosi, obrazli fikrlardir. U Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Homid, Musulmonqul, Oftoboyim, Xushro'y, Hasanali, usta Olim kabi o'nlab obrazlar hayoti va taqdiri orqaligina o'tmish haqiqati-"eng kirlik, qora kunlar" bo'lganligini to'liq his qilamiz va anglaymiz. Chunki undagi g'oya o'sha obrazlaraing qismatiga aylanadi. Shu sabab, ishonamiz va afsus chekamiz. Qayg'uramiz va bugungi kunimizdan xursand bo'lamiz. Yozuvchining har bir qahramonga bo'lgan munosabati bizda o'quvchida ham shunday munosabat uyg'otadi: u qaysi obraz (taqdiri)dan hayajonga kelsa, yig'lasa, ayblasa, nafratlansa, biz ham hayajonlanamiz, yig'laymiz, ayblaymiz, nafratlanamiz.

G'oya "badiiy asar qalbi" (Korolenko) bo'lgani uchun "hamma narsa ana shu konseptsiyaga" (Gyote), g'oyaga bog'liqki, yozuvchi o'zining qarashlari, e'tiqodi, ixlosi, ishonchini bermasligi mumkin emas. G'oya magnit kabi hamma adabiy unsurlarni o'ziga tortganidek, yozuvchining ma'naviyati, e'tiqodi ham kitobxonni o'ziga rom etadi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, har qanday talantning kuchi- ma'naviyatni egallashiga, uning ijtimoiy pozitsiyasiga bog'liqdir. Chunki talantning xalq hayoti bilan aloqasi bo'lmasa, uning yuragida grajdanlik olovi yonmasa, bu olov Vatan va davrimiz bunyodkorlari taqdiri bilan lovullamasa, zavqlanmasa, buni chin yurakdan samimiy targ'ib etmasa, ifoda qila bilmasa - u tnening, sizning, bizning yozuvchi emas. U hech vaqt xalq baxtining kuychisi, himoyachisi bo'la olmaydi.

Shu sababdan, g'oya badiiy asar taqdirini hal qiluvchi negiz (A.P.Chexov), mavzuni tanlashning tirikligini, ta'minlashning asosi, ijod-kor maqsadi, qarashlari, pafosini tartiblashtiradigan, bir o'zanga soladi-gan, yagonalashtiradigan hodisadir.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asar mavzusi deganda nimani tushunasiz?
2. Mavzu va uning turlari haqida nimalar bilasiz?
3. Badiiy asar mavzusi qanday xususiyatlarga ega?
4. Badiiy asar mavzularining qanday turlari bor?
5. G'oya nima?
6. Badiiy asar g'oyasi qanday aniqlanadi?

## 7 – mavzu: Badiiylik – adabiyotning asosiy xususiyati

R e j a :

1. Badiiy adabiyot san'at turi sifatida.
2. San'at tushunchasi. Amaliy va badiiy san'atlar.

3. Badiiy adabiyot - so‘z san’ati.
4. Badiiy adabiyotning san’at turlari orasidagi o‘rni va o‘ziga xosligi.
5. Badiiy adabiyotning boshqa san’at turlari bilan aloqasi.

Tayanch so‘z va iboralar: san’at, atamaliy san’at moddiy ehtiyoj, badiiy san’at, ma’naviy-ruhiy ehtiyoj, estetik faoliyat, sintezlashuv

O'z vaqtida Abdurauf Fitrat: «San'at lug'atda hunar demakdirkim, bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir»-deb yozgan edi. Bir qarashda Fitrat «san’at» so'zining ma’nosini, san’atning mohiyatini jo'nlashtirayotgandek ko'rinishi mumkin. Biroq e’tibor qilinsa, olim «yaxshi» so'ziga ayricha urg'u berayotgani, unga juda katta ma’no yuklayotgani anglashiladi. Xo'sh, ko'chirmadagi «yaxshi» so'ziga qanday ma’nolar yuklangan? Darhaqiqat, tilimizda ishlatiluvchi «san'at» so'zining ma’no qirralari ancha keng. Masalan, «rassomlik san'ati», «kulollik san'atini egallamoq», «yuksak san'at bilan ishlangan» kabi birikmalarning bar birida «san’at» so'zi turli ma'no qirralarini ifodalaydi. Shunga qaramay, ularda «san’at» so'zi ifodalayotgan ma’no qirralarini birlashtiruvchi umumiy nuqtalar mavjudki, bu mazkur so'zning har uchala holda ham «go'zallik», «mahorat», «did» tushunchalari bilan bog'liqligidir.

"San'at” so'zi jonli tilimizda nechog'li keng ma'noda qo'llanmasin, tabiiyki, bizni Lining lug'aviy ma’nosi emas, istilohiy ma’nosi qiziqtiradi. Istilohiy ma’noda «san’at» deganda insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish(va o'zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda Lining natijasi o'laroq vujudga kelgan narsalar jami tushuniladi. Demak, bu ma’noda tushunilsa, go'zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalaming hammasi san’atga aloqadordir. Shu bois ham biz «amaliy san'at» va «badiiy(nafis) san’at» turlarini ajratamiz. Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, modelerlik kabi qator sohalarni kiritsak, badiiy san’atlarga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr kabilarni mansub etamiz. Modomiki biz keng ma'nodagi «san’at» ichida amaliy va badiiy san’at turlarini ajratar ekanmiz, ularning umumlashtiruvchi va farqli jihatlari bo'lishi lozim. Bu o'rinda umumlashtiruvchi jihat shuki, har ikkisi ham go'zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yaratiladi. Farqli jihatlariga kelsak, ulardan eng muhimi shuki, amaliy san’at mahsuloti insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilsa. badiiy san’at namunalari insonning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Demak, amaliy san’at mahsuloti insonning kundalik turmushda foydalanishini ko'zda tutadi, ayni paytda unga zavq beradi. Masalan, kulol ishlagan piyola qanchalik nafls va go'zal bo'lmasin, biz unda choy (umuman, ichimlik) ichamiz. Mohiyat e’tibori bilan nafis ishlangan piyola ham. jo'n piyola ham amaliy foydaliligi jihatidan tcng. Biroq nafis ishlangan piyola kishining choy ichishiga vosita bo'lishidan tashqari unga zavq ham beradi, kayfiyatini ko'taradi. Slumday bo'lsa-da, zavq bag"ishlashlik pivolaning ikkilamchi funksiyasi. Demak, amaliy san’at mahsulotining qimmati birinchi navbatda foydaliligi bilan belgilanadi. Endi qiyos uchun, masalan, qadim yunon haykaltaroshi yaratgan biror bir haykalni olaylik.

Haykalni yaratar ekan yunon undan amalda foydalanishni ko'zda tutgan emas. Aytaylik, u o'zi topingan ma’budlardan binning haykalini yaratdi. Haykaltarosh o'sha ma'budni avvalo o'zining tasavvurida yaratdi, ijodiy fantaziya quwati bilan tasavvur qila olgani obrazda -qotirib qo'yilgan lahzada ma’budining go'zalligi, qudrati, mehriyu-qahrini ko'ra oldi, undan zavqlandi, hayratlandi, unga topindi va ayni shu holatni toshda yo'nib muhrladi. Haykalni ko'rar ekan, tomoshabin o'sha zavqni. hayratni o'ziga yuqtiradi, haykaldan boshqa maqsadda foydalanishni o'ylamaydi ham. Ko'ramizki, haykal boshqa bir odamning zavqiyu hayratini boshqa odamga ko’chirdi, uning ruhiyatiga oziq berdi.

Yuqoridagidan ko'rinadiki, piyola ham, haykal ham go'zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yaratilgan. Ya'ni amaliy san’at ham, nafis san’at ham estetik faoliyai mahsuli. Insonning go'zallik qonunlari asosida borliqni o'zlashtirish va o'zgartirishga qaratilgan faoliyati estetik faoliyat deb yuritiladi.

Estetik faoliyat inson hayotining barcha nuqtalarida o'zini namoyon qiladi: kundalik turmushda, mehnatda, istirohatda va h. Aytaylik, hovlisiga gulu rayhon o'tqazayotgan ayol, o'ziga oro berayotgan qiz, daraxtlarga shakl bcrayotgan bog'bon, tabiat manzarasidan zavqlanayotgan savyoh, o'sha manzarani chizayotgan rassom ... - bularning barida estetik faoliyat unsurlari u yoki b**t** darajada mavjud. Biroq ular bir-biridan farqlanadi. Aytaylik, agar piyola go'zallik qonunlari asosida kechgan mehnat faoliyati mahsuli bo'lsa, haykal go'zallik qonunlari asosida kechgan ijodiy-ruhiy faoliyat mahsuli. Anglashiladiki, estetik faoliyat tushunchasi badiiy ijod, badiiylik tushunchalaridan keng ekan. zero, badiiy ijod estetik faoliyatning bir ko'rinishi sifatida mavjuddir. Biz mutaxassis sifatida ko'proq tor ma’nodagi «san’at» tushunchasi bilan ish ko'ramiz.

Tor ma’noda qo'llanilgan «san’at» so'zi badiiy san’atlarni ko'zda tutadi. Badiiy san’atlar deganda biz musiqa, raqs, rassomlik, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot, teatr, kino kabi san'at turlarini tushunamiz. Modomiki san’atni turlarga ajratar ekanmiz, bu turlarni umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlar bo'lishi lozim. Sanalgan san'at turlarini umumlashtiruvchi jihat obrazlilik, yam ularning bari badiij obraz vositasida fikrlaydi. Farqlovchi jihatlarga kelsak. bu narsa, birinchi navbatda, obrazni yaratish materialida ko'rinadi: musiqa ohanglar, rassomlik ranglar, raqs plastik harakatlar, haykaltaroshlik qotgan plastika vositasida obraz yaratadi. Badiix adabiyot esa so'z vositasida obraz yaratadi va shu bois ham so'z san’ati deb yuritiladi. So'z universal bilish vositasi bo'lganidek, universal ifoda vositasi hamdir: har qanday fikriy faoliyat va hisning ifodasi so'z vositasida amalga oshadi, amalga osha oladi. So'z bilan ish ko'rgani uchun ham badiiy adabiyot boshqa san’at turlari orasida tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengligi bilan alohida oTin va mavqe kasb etadi. Biz ko'pincha «rangtasvir tili», «kino tili» kabi tushunchalarga duch kelamiz. Negaki, boshqa san’at turlarining tili badiiy adabiyot tiliga o'girilishi mumkin, boz ustiga, biz boshqa san’at turlariga mansub asarlarni-da so'z vositasida aqliy va hissiy mushohada qilamiz, «singdiramiz». San’at turlarining ichida ifodaviy va tasviriy san’at turlarini farqlanadi. Bir xil san’at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Aytaylik, musiqa - ifoda san’ati, kompozitor ohanglar orqali kechinmalarini ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi. Musiqani tinglarkan, o'sha kayfiyat asosida har bir tinglovchi o'ziga xos bir

manzarani, holatni ko'z oldiga keltiradi. Ya’ni kompozitor muayyan obraz ta'sirida tug'ilgan kechinmalarni ifodaladi - obrazning o'zini tasvirlamaydi, tinglovchi esa kechinmalar asosida o'sha obrazni o'zi tasavvur etadi. Rassomlik bilan haykaltaroshlik tasviriy san’at turlari sanaladiki. bunda o'zgacharoq holga duch kelamiz. Bu jarayonni tubandagicha tasavvur qilishimiz mumkin: biror manzara, holat musawir qalbini jumbishga keltirdi, ko'nglida muayyan kechinmalar bo'hronini qo'zg'adi -musawir o'zini hayratga solgan, zavqlantirgan, ko'nglida kechinmalar qo'zg'agan o'sha manzarani rangtasvirda muhrlaydi - - rangtasvir bizda-da o'sha yoki o'shanga yaqin his-tuyg'ulami uyg'otadi, kayfiyatni hosil qiladi. Badiiy adabiyotga shu jihatdan nazar solsak, Lining qorishiq hodisa sifatida namoyon bo'lishi ko'rinadi: deylik, epik asarlarni olsak, ularda tasviriylik xususiyati ustunligini, lirik asarlarda esa ifodaviylik etakchilik qilishini kuzatamiz.

San’at turlari orasidagi farq yana ularning retsepiyent (o'quvchi, tinglovchi, tomoshabin) tomonidan qabul qilinishidagi o'ziga xoslikda ham ko'rinadi. Masalan, rassom chizgan peyzajni qabul qilish jarayoni bilan epik asardagi so'z bilan tasvirlangan peyzajni qabul qilishdagi farqni olaylik. Rangtasvir asarini yaxlit holda ko'ramiz: ya’ni uni avvaliga butunicha ko'ramiz, key in butundan qismga (detallarga qarab) boramiz. Badiiy adabiyotdagi peyzajni qabul qilishda esa, aksincha, qismdan butunga qarab boriladi: avvaliga detallar bilan navbatma-navbat tanishamiz-da, oxirida ko'z oldimizda yaxlit manzara hosil bo'ladi. Ayrim san’at turlariga mansub asarlarini resipiyent bevosita qabul qilsa, boshqalarning qabul qilinishi uchun o'rtada vositachi -ijrochining bo'lishi talab etiladi. Masalan, musiqa asarini olaylik. Musiqa asarining yaratuvchisi (kompozitor), asarning o'zi (notalar bilan ifodalangan matn), ijrochisi va eshituvchi bor. Ko'rinib turibdiki, kompozitor tinglovchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi, zero, ijro etilayotgan kuyda qisman ijrochining-da talqini qo'shilgan. Bu jihatdan badiiy adabiyotning ustunligi shundaki, o'quvchi badiiy informatsiyani bevosita (asarning o'zi orqali) qabul qiladi, o'quvchining ruhiy faolligi yuqori darajada bo'ladi. Turli san’at turlariga mansub asarlarning yaratilishi jarayoni bilan bog'liq farqlarga ham to'xtalish lozim. Masalan, badiiy adabiyot yozuvchining individual ijodiy faoliyati mahsuli bo'lsa, kino kollektiv ijod mahsuli sifatida varaladi. Kino asarining yaratilishida ssenariy muallifi, sahnalashtiruvchi rassom, kompozitor, aktyor kabilarning ijodiy mehnati borki, ularning bari bir fokusga rejissyor nigohiga jamlanadi. Mavjud san’at turlari orasida badiiy adabiyot yetakchilik mavqeida turadi. Bu xil mavqening asosi shuki, badiiy adabiyot universal bilish va ifoda vositasi bo'lmish so'z bilan ish ko'radi. Biz yuqorida badiiy adabiyot «tili»ga barcha san’at turlari «tili»ni o'girish mumkin, dedik. Biroq, agar bu fiknii mutlaqlashtirilgan holda tushunadigan bo'lsak, unda boshqa san’at turlarining paydo bo'lishi asossiz, keraksiz bo'lur edi. Holbuki, rangtasvir darajasidagi tasviriylikka, musiqa darajasidagi ifodaviylikka adabiyotning erishmog'i dushvordir. Shunga qaramay, badiiy tafakkur so'z asosiga qurilgani sababidan ham badiiy adabiyot belgilovchi san’at turi sanaladi: boshqa san’at turlari yaratuvchi obrazlar so'z san’atida yaratilgan obrazlar kontekstida qabul qilinadi. Keyingi yillarda «ko'rish»ga asoslangan badiiy informatsiyaning o'mi kuchaysa ham, so'z o'zining yetakchi mavqeini saqlab qoldi va shu bois ham badiiy adabiyot hamon san'atning belgilovchi turi bo’lib turibdi.

Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlari rivojiga kuchli ta'sir ko’rsatganidek, boshqa san’at turlari ham badiiy adabiyot taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko’rsatadi. Ya'ni adabiyot boshqa san'at turlari bilan aloqada yashavdi va rivojlanadi. Masalan. o'zbek milliy teatrining rivojlanishi o'zbek badiiy prozasining tasvir va ifoda imkoniyatlarini kengaytirgani, nasriy asarlar strukturasini o'zgartirgani shubhasizdir. Zamonaviy nasriy asarlarda «sahnaviylik»ning kuchaygani, dialoglarning tobora keng o'rin olib borishi hamda tasvirda «obyektivlik»ka intilishning ortgani teatr san’atining rivoji bilan bog'liqdir. Zero, teatr san’ati milliy badiiy tafakkurni boyitdi: nosirlarimiz «dialog» vositasida qahramonlar ruhiyatini ochish, hayotiy holatning ruhiy asoslarini ko'rsatish kabi yangi badiiy imkoniyatlarni o'zlashtirdilar. Ikkinchi tomondan, o'quvchilar shu xil nasriy asarlarni qabul qilishga tayyorlandilar, epik nasriy asar voqealarini «chetdan» kuzatish(xuddi sahna asarini tomosha qilayotgandek) orqali estetik zavq olish, asar mazmun-mohiyatini tushunish ko'nikmalarini hosil qildilar. Boshqa bir misol tariqasida musiqani olaylik.

Milliy turmush tarzining, hayot ritmining o'zgarishi barobari milliy musiqamiz ritmida ham o'zgarishlar sodir bo'ldiki, bu o'zgarishlar she’riyatda ham kuzatiladi. Milliy rangtasvir san’atining, xususan, undagi portret va peyzaj janrlarining rivoji va milliy nasrimizdagi peyzaj, portret tasviridagi o'zgarishlar, shuningdek, peyzaj she’rlar haqida ham yuqoridagicha fikrlarni aytish mumkin bo'ladi. Bulardan ko'rinadiki, badiiy adabiyotning tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengayishi va takomilida Lining boshqa san’at turlari bilan aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham hozirgi adabiyotda nafaqat adabiy turlar orasidagi sintezlashuv, balki boshqa san’at turlari bilan sintezlashuv hollarini ham kuzatish mumkin. Misol tariqasida X.Davronning tubandagi she’rini olaylik:

Ro'mol o'rab ko'chaga chiqdi, ro'molini yechdi
ko'chada va sochlari birdan shovullab oqib ketdi
yelkalaridan. Juda go'zal ayol edi u qalandardek
ergashdi hilol.

Bu she'r o'quvchisining ko'z oldida tasvir birma-bir, xuddi kino kadrlaridek namoyon bo'ladi. Ya'ni she'rning qabul qilinishida kino asarini qabul qilishga yaqinlik. demakki, lining ifoda yo'sinida kino «tili»ga yaqinlik bor. Demak, badiiy adabiyotga qotib qolgan hodisa sifatida ham, mutlaqo mustaqil hodisa sifatida ham qaramaslik kcrak. Shundagina bugungi adabiyotdagi o'zgarishlarni his qilish va ularni «hazm» qila olish mumkin bo'ladi. Aks holda mutaxassis sifatida ham, kitobxon sifatida ham chcklanib qolish, adabiy hodisalami o'tmish «toshi» bilangina o'lchaydigan bo'lib qolishimiz mumkin.

Xulosa shuki. chinakam adabiyotshunos bo'lmoq uchun, birinchidan, san'atning barcha turlaridan zavqlana biladigan hassos qalbga, ikkinchi tomondan, undagi o'zgarishlarni ziyraklik bilan ilg'ashu tahlil qilishga qobil teran aqlga cga bo'lmoq lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyotning asosiy xususiyati nima?
2. Badiiylik ko’rinishlari haqida nimalar deya olasiz?
3. San’at tushunchasi va uning turlarini izohlang.

4. Adabiyot san’atning boshqa turlaridan qanday farqlanadi?
5. Ijodkor imkoniyatlarini misollar bilan tushuntiring.

**FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:**


1. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., 2000.
2. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi, Toshkent-1980 yil.
3. M. Abdullayev. Adabiyotimizning yangilanish davri "O`zAS" 1995
4. T. Boboyev. She’r ilmi ta’limi. –T., 1997.
5. A.Ulug’ov. "Adabiyotshunoslikka kirish". T.,"Universitet",2000 y.
6. D. Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T., 2004.
7. D. Quronov va boshqalar Adabiyotshunoslik lug’ati. – T., 2013 (qayta nashr)


## ***8 - MAVZU:*** **Obraz – insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri. Badiiy obraz. Obraz yaratish yo`llari. (2 soat)**

***REJA:***

1. Obraz – insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri.
2. Obraz – san’atga xos hodisa, obraz va obrazlilik.
3. Badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlari.
4. Obraz yaratish yo`llari.
5. Obraz – adabiy qahramon. Asardagi asosiy va boshqa qahramonlar.
6. Personaj, xarakter, tip. Realistik va romantik, fantastik va majoziy obrazlar.
7. Portret – inson obrazini gavdalantirishning muhim unsuri.

**Tayanch so’z va iboralar:** obraz, obrazlilik, badiiy obraz, adabiy qahramon, romantik obraz, personaj, xarakter, tip, xayoliy-fantastik obraz, majoziy obraz, realistik obraz, romantik obraz, ijobiy obraz, salbiy obraz, murakkab obraz.

Badiiy asarlari mazmun va shaklning, mavzu va g`oyaning birligini o`zida ifodalovchi asosiy vosita obrazidir.

San'at asarida yozuvchining dunyoqarashi, voqealikni idrok etilishi, estetik didi va ideali kabi qator kategoriyalarni u yaratgan badiiy obrazlarsiz tasavvur etish qiyin. Badiiy asar tahlilida tanqidchi dastavval asosiy diqqatni asardagi obrazning hayotiyligi masalasiga qaratilgan. Shuning uchun adabiyotshunoslikda birinchi galdagi vazifasi obraz iborasining mazmunini aniqlab olishdir.

Obraz deb insonlarning ichki va tashqi dunyosini, voqea hodisalarning, o`simlik va jonivorlarning, tabiat manzaralarini umumlashtirib va konkretlashtirib tasivirlangan muayyan g`oyaviy-estetik vazifasini bajaradigan kartinasiga aytiladi. Badiiy adabiyotda obraz tushunchasi keng va tor ma'noda qo`llaniladi. Keng ma'noda obraz deganda yozuvchi badiiy asarda aks ettirgan voqealikni yaxlit bo`lagi anglashiladi. Tor ma'noda obraz tushunchasi deganda yozuvchi tomonidan

yaratilgan obraz-personaj yoki yozuvchi qo`llagan ayrim ifodalar, obrazli so`zlar, birikmalar nazarda tutiladi. Obraz adabiyot va san'atda badiiy fikrlashning ifoda etishning muhim formasidir. Obraz – san’atga xos hodisa. Adabiyotda obrazning aks etishi. Inson – adabiyotdagi asosiy obraz. Obraz – adabiy qahramon. Asardagi asosiy va boshqa qahramonlar. Personaj, xarakter, tip. Realistik va romantik, fantastik va majoziy obrazlar. Portret – inson obrazini gavdalantirishning muhim unsuri.

Gulxaniyning "Zarbulmasal"i haqida gapirganda tasavvurimizda tuya, bo`taloq, toshbaqa, chayon, ko`rqush, hudhud kabi obrazlar gavdalanadi. Zulfiyaning "Daraxt", S.Zunnunovaning "Qoya" sherlarida esa shu predmetlar obrazlari berilgan. Demak, obraz terminini faqat shakllariga nisbatangina emas, balki har-xil majoziy terminlarga nisbatan ham ishlatiladi.

Ammo obraz tushunchasining asosini badiiy asarda tasvirlangan inson-obraz, personaj tashkil qiladi. Chunki, asarda aks ettirilgan sharoit, tabiat lavhalari voqea-hodisalar hammasi inson obrazini yaratishga xizmat qiladi. Adabiyotshunoslikda obraz-personaj va peyzaj obrazi tushunchalari mavjud. Badiiy adabiyotda kishilar obrazi (obraz personajlar) asosiy o`rin egallaydi. Kishilar obrazining g`oyaviy va badiiy ta'sirlangan chiqishining birinchi sharti uning "jonli" kishilar sifatida tasvirlanishdir. Yozuvchi obraz-personajga jonli shaxs sifatida yondashib, uniig individual xususiyatlarini ko`rsatib beradi.

Odatda, hayotni badiiy-obrazli aks ettirilishi ikki muhim xususiyatini tilga oladilar. Birinchisi shuki, obraz-hayot hodisalarining, odamlar xarakterining muhim xususiyatlarini umumlashtiradi. Ikkinchisi shuki, obraz-hayot hodisalari va odamlari xuddi hayotda ko`rganimizday jonli, individual ravishda tasvirlaydi.

Ijodkorning iqtidori, uning san'atkor sifatidagi mahorati u yaratgan badiiy obrazda namoyon bo`ladi.

Badiiy obraz nima?

Bu savolga javob berishdan avval "obraz" so`ziiing nima ekanligani bilish lozim. Bu so`zning o`zagi "raz " (chiziq) bo`lib, undan "razit" (chizmoq, yo`namoq, o`ymoq), undan "obrazit" (chizib, o`yib, yo`nib shakl yasamoq) paydo bo`lgan. Ana shu "obrazit" so`zidan "obraz" atamasi vujudga kelgan. Bu so`z "umuman olingan tasvir" ma'nosini bildiradi.

Aslida "obraz" slavyan, tillarga xos so`z bo`lib, u voqea-hodisalarning xayolda namoyon bo`ladigan manzarasini bildiradi. Slavyanlar "obraz" deganda, avvalo, odamzotni azob-uqubatlardan saqlab qolish uchun Olloh tomonidan yuborilgan Iisus Xristos (Iso payg`ambar)ning rassomlar, haykaltaroshlar tasvirlagan qiyofasini tushunishgan.

Xristian (nasroniy) dinida payg`ambar Isoning tug`ilishi, hayoti bilan bog`liq voqealarni aks ettiruvchi san'at asarlarini yaratish keng tarqalgan. Rassomlar, haykaltaroshlar o`z xayol-tasavvurlari asosida Isoga bag`ishlangai ko`plab asarlar ijod qilishgan. Yog`och, tosh va boshqa materiallardan chizib, o`yib, yo`nib yasalgan bu asarlar juda ta'sirchan yaratilgan.

Demak, "obraz" so`zini san'at hodisasi sifatida tushunish, avvalo, insonning xayol-tasavvurlari, his-tuyg`ulari bilan bog`liqdir. Biroq obraz faqat san'atgagina xos hodisa emas. Ilm-fanda ham obraz mavjud. Unda obraz muayyan fikr,

g`oyani isbotlash, tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Ilm-fandagi obraz voqea-hodisaning shunchaki surati, ko`rinishi, nusxasini bildiradi. San'at va adabiyotdagi obraz esa voqea-hodisalarning oddiy nusxa yoki surati emas, balki ularning "chizib, yo`nib, o`yib yasalgan" - ta'sirchan qiyofaga keltirilgan holatidir.

San'at va adabiyotdagi obrazning ilm-fandagi obrazdan ko`ra ta'sirchan bo`lishining asosiy sababi unda voqea-hodisalar ijodkorning aql-tafakkuri, qalb quvvati bilan boyitilishidir. San'atkor ularga o`z his-tuyg`ulari, hissiyotlari bilan jilo beradi. Haykaltarosh oddiy harsang tosh, yog`ochni chizib, yo`nib, o`yib shakl beradi, ya'ni obraz yaratadi. Musavvir borliq hodisalarining dabdurustdan sezish, payqash mushkul bo`lgan qirralarini ta'sirchan bo`yoq, rang, chizgilar vositasida xuddi jonliday, harakatlanayotganday namoyon etishga intiladi.

Shoir, yozuvchi esa so`z vositasida voqelikning yorqin manzarasini yaratishga harakat qiladi. Kishilarni turli vaziyatlarda so`zlatadi. Ularning holat, ko`rinishlaridagi eng e'tiborli jihatlarini gavdalantiradi, ko`nglida kechayotgan o`y, xayolidagi manzaralarni ma'lum qiladi. So`z shoir, yozuvchiiing badiiylik yaratishdagi asosiy roli sanaladi.

Endi bevosita badiiy obraz nima ekanligini sharhlaydigan bo`lsak, avvalo, adabiy asarda (umuman, san'atning barcha turlarida) tasvirlangan inson, narsa-buyum hodisalarning barchasi obraz deb yuritiladi. Chunki ularning har biri hodisaning ma'lum bir qirrasi, jihatini o`zida namoyon etib, voqelikni to`la tasavvur etish imkonini beradi. Biroq "obraz" terminini, avvalo, insonga nisbatan qo`llash maqsadga muvofiq. Chunki san'at va adabiyot asarlarida hayotning har qanday ko`rinishlarini ko`rsatishdan ko`zda tutilgan maqsad avvalo insondir.
Haqiqatan ham san'at va adabiyotda tabiat hodisalari, o`simliklar dunyosi, hayvonot olami aks ettirilganida ham inson nazarda tutiladi. Kishilarning hayoti, manfaati e'tiborda turadi. Nemis adabiyotshunosi Klaus Mladek Frans Kafkaning obraz yaratish mahoratini alohida e’tirof etgan. Detal va hayvonlarning insonlashtirilgani shunday ta’kidlangan:

... aber es kostete ihm gro Yae Selbstber windung[10].

Die Besinnung durfte jetzt er um keinen Preis verlieren.

Yana bir nemis olimi Ritch Robertson yozuvchi detallarni ham obrazga, obrazlarni esa simvolga aylantirgani ajablanarli hodisa deydi:

... weil er in Gefahr war, den Posten zu verlieren.

... ich wrde auf der Stelle hinausfliegen.

... konnte Gregor doch nicht sofort weggeschickt werden[11].

San'at va adabiyotda obraz deyilganda inson nazarda tutilar ekan, demak, u ijodkorning maqsad, muddaosini ifoda etuvchi kishi tasviri bo`ladi. Yozuvchi, shoir, rassom, haykaltarosh bu kishini o`z hayotiy kuzatishlari, tajribasi, hayoli quvvati bilan yaratadi. V.Belinskiy san'at va adabiyotda obraz deyilganda inson e'tiborga

---

[10] Klaus Mladek. «Ein eigentьmlicher Apparat» Franz Kafkas «In der Strafkolonie»//Text und Kritik. Zeitschrift fьr Literatur. Mьnchen, 1994.Band VII

[11] Ritchie Robertson. Der Kьnstler und das Volk. Kafkas «Ein Hьngerkьnstler». Vier Geschichten//Text und Kritik. Zeitschrift fьr Literatur. Mьnchen, 1994.Band VII

olinishini ta'kidlar ekan, "Tabiat sanatning timsolidir, lekin undagi eng oliy predmet esa albatta inson hisoblanmog`i kerak", deydi[12]. Chunki inson san'at va adabiyotning asosiy tasvir vositasi ekanligi haqikatdir. Jumladan, asosiy qahramonlari hayvonlari bo`lgan masallarda ham -odamlarning harakat-holatlari ramz (simvol) lantiriladi.

Shuningdek, badiiy obraz deyilganda inson bilan birgalikda ijodkor qo`llagan ifodalar, ko`chma ma'no beruvchi so`z, iboralar ham tushuniladi. Masalan:

*Saraton chog`i bu-zarra shamol yo`q,*
*Tutlar kavagida mudrar g`urraklar.*
*Nogahon falakka urgan kabi do`q,*
*So`zsiz qotib turar bo`ychan teraklar.*
*Osmon lov-lov yonar oftob qo`ridan,*
*Ufqda sarobdan otashin baldoq.*
*Chinqirib yuborar kunning zo`ridan*
*Qaygadir berkinib olgan chirildoq.*

*(Abdulla Oripov)*

degan satrlarda yozning avji issiq kunlari manzarasi chizilgan. Bu manzarada saratonning jazirama kunlaridagi O`zbekiston zamini tabiati ko`rsatilgan. Issiqdan lohas bo`lib, tutlar kavagidan panoh topib mudrayotgan g`urraklar, osmonga bo`y cho`zgancha qimir etmay turgan teraklar - Janub saratonining aniq qiyofasi. Issiqning zo`ridan osmon ham xuddi oftob qo`rida qolganday yonmoqda. Ufq oftobdan olovli baldoq-sirg`a taqib olgan. Qaytadir yashirinib olgan chirildoqlar harorat balandligiga toqat qilolmay chinqirib yubormoqda, deyish orqali shoir xayolda saraton suratini namoyon qiladi. Xayolda daf'atan paydo bo`lib, ko`ngilda ajoyib umidlar uyg`otadigan bu rangin manzaralar so`zlarning mahorat bilan qo`llangani tufayli vujudga kelgan.

Badiiy obraz terminini asarda qo`llangan badiiy vositalar (o`xshatish, sifatlash, mo`bolag`a kabi)ga nisbatan ham ishlatish mumkin. Shuningdek, muayyan davrga xos manzaralarni qabariq, ta'sirchan holda gavdalantirishga nisbatan ham "bu asarda davrning o`ziga xos obrazi gavdalantirilgan" deyish ham mumkin. Bundan anglashiladiki, badiiy obrazning ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchidan, obrazda hodisalarga muhim xususiyatlari umumlashtirilgan bo`ladi. Ikkinchidan, unda muayyan aniqlik (yakka hodisa, alohida bir odam) akslangan bo`ladi.

Demak, obraz ham umumlashgan, ham individuallashgan xususiyatni o`zida gavdalantirgan hodisadir. Ayon bo`ladiki, badiiy obraz borliq hodisalarning shunchaki nusxasi emas. Badiiy obraz, avvalo, ijodkorning kashfiyoti, uning ijodiy mehnati mahsulidir. Ijodkor obraz yaratish uchun o`zicha izlanadi. Uning bu ishiga chetdan yordam ko`rsatib yoki hashar qilib bo`lmaydi. Badiiy obraz yaratish har bir-ijodkorning o`z ishi. U bu ish jarayonida o`z-xayoloti, aql-tafakkuriga tayanadi. U o`zicha nimalarnidir to`qiydi, xayolida turli-tuman manzaralar chizadi. Badiiy asraning ta'sirchan, jozibali chiqishini ta'minlash uchun har bir ijodkor, albatta, badiiy to`qimadan foydalanadi.

---

[12] В.Белинский. Польное собранные сочинений. Т.7,s.312

Badiiy to`qima obrazning ichki-tashqi qiyofasi maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni o`ylab topishdir. Badiiy to`qima obrazning qiyofasini yorqin etganidek, asardaga voqealarning qiziqarliligini ta'minlaydigan asos, poydevor hamdir.

Chunki badiiy to`qima ijodkorga mavjud voqelikni aslidagidan ko`ra keskinroq, shiddatliroq, qiziqarliroq ko`rsatish imkonini beradi.

Badiiy to`qima yolg`on, uydirma bo`lsa-da, u o`quvchini ishontirishi, ta'sirlantirishi, o`ylantirishi kerak. Shunday bo`lishi shart. Badiiy to`qima xayotning odatdagi mantig`iga muvofiq kelish-kelmasligidan qat'iy nazar, u qahramon qiyofasini yorqinlashtirsa, o`quvchining tasavvuriga qandaydir yangiliklar olib kirsa, bu-ijodkorning yutug`idir. Barcha san'at asarlarini barkamol qiltan hodisa, avvalo, badiiy to`qimadir. Abdulla Qodiriyning "O`tgan kunlar"i ham, Abdulla Qahhorning "O`g`ri", "Bemor"i ham, Abdulla Oripovning she'rlari ham badiiy to`qima asosida yaratilgan asarlaridir. Ularda adiblar badiiy to`qima asosida mavjud hayotning ta'sirchan manzaralarini ko`rsatishgan.

Badiiy to`qima asosida ta'sirchan badiiy obrazlar yaratadigan ijodkorning muayyan maqsad, muddaosi bo`ladi. U qahramonlari qiyofasi, fe'l-atvori ham, davr hodisalarini ham o`z maqsadiga muvofiq ko`rsatishga harakat qiladi. Ijodkor hodisalarni gavdalantirishda xolis turganday bo`lsa-da, u albatta nimalarnidir yoqlaydi, nimalarnidir inkor etadi. Uning bu munosabati ochiq-oshkora yoki yashirin, pardalangan tarzda ham bo`lishi mumkin. Adabiyotda mavjud bo`lgan ana shu holatni nazarda tutibmi, sho`ro mafkurasi hukmron davrlarda badiiy asarlardagi qahramonlar keskin tarzda ikki guruhga ajratilishining bosh sababi-sovet adabiyotida kishilarga ijtimoiy-sinfiy nuqtai nazardan qaralishida edi. Odamlar mulkdor, mulkdor emasligiga qarab, boylar kambag`allarga bo`linardi. Boylar ezuvchilar, ya'ni ekspluatatorlar deyilardi. Ular boshqalar mehnati evaziga boylik orttiruvchilar, kishilarni ezuvchilar deb la'natlanardi. Hamda aksariyat adabiy asarlarda boylar salbiy qahramon sifatida ko`rsatilardi. Kambag`allar esa xo`rlangan, haqoratlangan kishilar sifatida gavdalantirilar va ular ijobiy qahramon deb ardoqlanardi.

Albatta, borlikda oq va qora rang mavjud bo`lgani singari kishilar orasida ham yaxshilar va yomonlar bor. Shunday ekan, badiiy asar qahramonlarini ijobiy va salbiyga ajratish noo`rin, deya keskin hukm chiqarish noto`g`ri. Chunki hayotning o`zida yaxshi va yomon odamlar bor ekan, badiiy asarda ham salbiy va ijobiy qahramon bo`ladi. Jumladan, Alisher Navoiy yoki Fyodor Dostoyevskiy asarlarida ham xuddi shunday qahramonlar mavjud.

Biroq qahramonlarni atayin salbiy yoki ijobiy xususiyatlar yig`indisi. sifatida ko`rsatishni oqlab bo`lmaydi. Chunki har qanday badaxloq kimsaning ham qandaydir fazilatlari va har qanaqa yaxshi kishshshng ham ojiz jihatlari bo`ladi. Bu-biri kam dunyo deb atalgan olamning yozilmagan abadiy qonuniyati. Shunday ekan, badiiy asar qahramonlarining ham farishtasifat yoki ta'viya taxlit tarzda ko`rsatilishi mantiqqa to`g`ri kelmaydi.

Adabiyotning mohiyati insonshunoslik ekan, adabiy asar qahramonlari tabiati ham hayot kishilari fe'l-atvoriga muvofiq kelishi kerak.

Albatta, odamlarning har xil fe'l-atvorli bo`lishiga ularning o`ziga xos tabiati, unib-o`sgan muhiti va hokazolar sabab bo`lsa, badiiy asar qahramonlarining har xil bo`lishiga ijodkorning maqsad-mudoaosi, davr adabiy mezonlari, ijtimoiy-siyosiy muhit kabilar o`z ta'sirini. ko`rsatadi. Bulardan tashqari, asarning qaysi ijodiy metod asosida yaratilgani ham qahramonning qiyofasiga, ya'ni qanday bo`lishiga zamin yaratadi.

Adabiyotda inson obrazini yaratish tarixini kuzatadigan bo`lsak, mavjud darslik va qo`llanmalarda ta'kidlanganidek, quyidagi turdagi badiiy obrazlar yaratilganiga guvoh bo`lamiz:

1. Realistik obrazlar.
2. Romantik obrazlar.
3. Xayoliy-fantastik obrazlar.
4. Majoziy (simvolik) obrazlar.

Xarakter-xususiyatlari, xatti-harakatlri hayotdagi kishilarga mos keladigan obrazlar realistik obrazlar, deb yuritiladi. Abdulla Qahhorniig "O`g`ri", "Bemor", "Sinchalak" asarlaridagi qahramonlar realistik obrazlar sanaladi. Muqimiyning "Tanobchilar" satirasidagi Sultonali, Hakimjon obrazlari ham realistik obrazlar hisoblanadi. Chunki real hayotning o`zida Dobil bobo, amin, ellikboshi, Sotiboldi, Qalandarov, Saida va "Tanobchilar" qahramonlari singari kishilar mavjud.

Ularning fe'l-atvori, xatti-harakati ayni shu asarlarda ko`rsatilganiga muvofiq keladi.

Romantik obrazlar ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siymosidir. Ular ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to`g`risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo`ladi.

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida o`z ko`nglidagi orzularini gavdalantiradi. Shuning uchun Farhod obrazi hamma zamonlarda ham barchani havaslantirib keladi. Chin shahzodasining intilishlarida kishilarning orzulari ifodalangan. Biroq uning ayrim xatti-harakatlari real hayotga aslo muvofiq kelmaydi. Alisher Navoiy o`z sevgan qahramonini fazilatlar jamul-jami sifatida ko`rsatadi. Masalan, Farhod uchun turli kasb-hunarlarni o`rganish asosi muddao emas. Uning asosiy maqsadi ishqqa erishish, ko`ngil qo`ygan Shirin visoliga yetishdir. Ammo u tog`u-toshlar orasida mashaqqat bilan ariq qaziyotganlarini ko`rganida:

*Hunarni asrabon netgumdir oxir,*
*Olib tuproqqamu ketgumdir oxir*

deb ariq qaziyotganlarga ko`maklashishga tushib ketadi. Aslida, u Shirinni ko`rish unga ahvolini bayon etish uchun ketayotgan bo`ladi.

Biroq qiynalib mehnat qilayotganlar oldidan befarq o`tib ketolmaydi. Chunki u faqat o`zini o`ylaydigan, xudbin, manfaatparast emas. Farhod-boshqalar manfaatini o`z manfaatidan hamisha ustun qo`ya biladigan haqiqiy inson. Farhod singari kishilar esa hayoti juda kam bo`ladi. Hayotda hamma ko`proq o`zini

o`ylaydi. Biroq ko`ngil to`rida turadigan "kimdir" bu xudbinlik uchun hammani iztirobga solib, azoblab turadi.

Xayoliy-fantastik obrazlar romantik obrazlarga o`xshab ketadi. Bu obrazlarda ham ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo`ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo`'jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko`rsatiladi.

Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarini xayoliy-fantastik obrazlar deyish mumkin. Masalan, "Alpomish" dostonida xalqning ideal qahramoni ko`rsatilgan. Doston bosh qahramoni Alpomish hamisha dushmanlaridan g`olib keladi. U har qanday mashaqqatlarni yengib o`tadi. Alpomish-o`tda yonmas, suvda cho`kmas qahramon. Uni dushmanlari makru hiyla bilan zindonga solganlarida ham o`ldirolmaydilar.

Xayoliy-fantastik obrazlar folklordagina emas, yozma adabiyotda ham mavjud. Xususan, hozir fantastik asarlarga qiziqish juda kuchli. Fantastik asarlardagi obrazlar kishilarning tasavvurini boyitadi.

Barcha xalqlar adabiyotdagi fantastika aslida ertaklardan boshlangan. Bu jarayon uzoq davom etgan. Bizning asrimizdan fantastik yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlarni ham ma'lum ma'noda zamonamiz ertaklari deyish mumkin. Gerbert Uells, Ayzek Azimov kabi fantastik adiblar asarlari juda mashhur.

Hojiakbar Shayxov, Tohir Malik kabi o`zbek yozuvchilari ham qator e'tiborli fantastik asarlar yaratgan.

Majoziy obrazlar muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so`fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi.

Majoziy obrazlar adabiyotda keng qo`llanilib kelinadi.

Ular hodisalarning ta'sirchanligni oshirish uchun ishlatiladi.

Allegorik, ya'ni kinoyaviy obrazlar ham majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo`ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe'l-atvoridagi kamchilik, illatlar ko`rsatiladi. Hamzaning "Toshbaqa va chayon", A.Krilovning "Bo`ri va qo`zichoq" masalalarida odamlarning fel-atvorlari gavdalantirilgan. Shunday ekan, romantik, realistik, xayoliy-fantastik, majoziy qahramonlar deb atash ham mumkin. Obraz va qahramon istilohlari ayni o`rinda bir-biriga teng keladi. Umuman, obraz-qahramon ko`pchilik kishilarga xos xarakter-xususiyatlyari mujassamlashgan bo`ladi.

## SAVOL VA TOPShIRIQLAR:

1. Obrazlilik deganda nimani tushunasiz?
2. Badiiy obraz nima?
3. Obrazning necha xil turlari bor?
4. Ijobiy obraz deganda nimani tushunasiz?
5. Salbiy obraz nima? Obraz yaratish yo`llarini misollar bilan izoxlang?
6. Murakkab obraz nima?
7. Farhod qanday obraz?
8. Qobil bobo obrazi qanday obraz?
9. Badiiy obrazning xususiyati?

10. Asadbek qanday obraz?

## FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:


1. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., 2000.
2. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi, Toshkent-1980 yil.
3. M. Abdullayev. Adabiyotimizning yangilanish davri "O`zAS" 1995
4. T. Boboyev. She’r ilmi ta’limi. –T., 1997.
5. A.Ulug’ov. "Adabiyotshunoslikka kirish". T.,"Universitet",2000 y.
6. D. Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T., 2004.
7. D. Quronov va boshqalar Adabiyotshunoslik lug’ati. – T., 2013 (qayta nashr)


## ***9- MAVZU:*** **Badiiy asar tili. (2 soat).**

***REJA:***

1. So`z adabiy-badiiy asarning yagona unsuri ekanligi.
2. Badiiy asar tili xususiyatlari.
3. Badiiy asar tilining tarkibi.
4. Dialog va monolog haqida tushuncha.
5. Badiiy asar tilida tasviriy vositalarning ishlatilishi.

**Tayanch so’z va iboralar:** badiiy asar tili, dialog, monolog, tasviriy vosita, tasviriylik, emotsionallik, obrazlilik, aforizm, muallif tili, jargonlar, antonim, omonim, metafora, metonimiya, o`xshatish, sifatlash, allegoriya, mubolag`a.

Adabiy-badiiy asar yaratish uchun faqatgina so`zdan foydalaniladi. Buning uchun birgina so`z zarur, xolos. Abadiy-badiiy asar yaratish uchun undan bo`lak boshqa biror bir xom ashyoga ehtiyoj, zarurat bo`lmaydi. So`z adabiy-badiiy asarning birinchi va yagona unsuri hisoblanadi. Yozuvchi, shoir asar yozish uchun hayotning muayyan parchasini badiiy gavdalantirish uchun birgina vosita-so`zdan foydalanadi. So`z uning uchun asar mazmunini ro`yobga chiqaruvchi birdan bir tayanch sanaladi. Chunki uning yordamida asarning barcha unsurlari: qahramonlar obrazi, ular yashagan manzil-makon ko`rinishlari va hokazolar gavdalantiriladi. Asarning syujet, kompozisiyasi, undan bo`lak boshqa unsurlari ham aynan so`zning vositasida yaratiladi. Shuning uchun qadim Sharq shoirlari asarlari asosiy mavzusi bayonini boshlashdan avval so`z sharafiga maxsus qismi bag`ishlaganlar. Alisher Navoiy ham barcha dostonlarida so`z sharafiga alohida bob ajratgan. Jumladan, shoir "Saddi Isknadariy" dostonini oltinchi bobida "So`z ta'rifida bir necha so`zkim..." deb, so`zga shunday ta'riflar beradi:

*Gar ul bo`lmasa kimsaga yo`q sharaf.*
*Aningdekki, gavharsiz o`lg`ay sadaf.*
*...Bashar zotida javhari jon hamul,*
*O`luk jismida obi hayvon ham ul.*
*...Chu jism ichra jon yo`qdur, ul yo`qdurur,*
*Yana jonga onsiz bu hol o`qdurur.*

Badiiy asar tili ilmiy asralar tilidan tasviriylik, emosionallik, obrazlilik, aforizm kabi xususiyatlari bilan farq qiladi. Fizika, kimyo, matematika, texnika, iqtisodiyot kabi ilmiy sohalardagi asarlar tili umumlashgan, ixtisoslik yo`nalishidagi tushunchalarni ifoda etsa, badiiy asarlar tili tabiat manzaralari va inson qalbidagi kechinma, holatlari mavjud qarama-qarshiliklari bilan aks ettiradi. Bu badiiy asar tilining tasviriylik xususiyatidir.

Ilmiy asralar tilidagi dalil, raqamlar ko`proq kishilariing aql-tafakkuriga ta'sir ko`rsatadi. She'r, roman, qissa tili esa ko`proq ularning hissiyotiga,tuyg`ulariga-qalbiga ta'sir qiladi. Badiiy asar tilining qahramonlar qalb holatini ifodalash orqali kitobxonlar tuyg`ulariga ta'sir ko`rsatishi uning hissiyligi (emosionallagi)ni belgilaydi.

Badiiy asar, avvalo, inson qiyofasini gavdalantirishi bilan ta'sirchan ekanligi ma'lum. Ijodkor inson obrazini yaratish uchun tilning turli shakl, ko`rinishlaridan foydalanadi. U shevaga xos so`zlarni, kasbkorga oid atamalarni, kishi nutqining o`ziga xos jihatlarini ko`rsatuvchi iboralarni (masalan, "Mehrobdan chayon" romanida Solih Mahdumning "habba" deyishi singari) qo`llaydi. Biroq har bir ijodkor tilning cheksiz imkoniyatlaridan o`z qurbi darajasida, iste'dodi yo`nalishi ko`lamida foydalanadi. Hayotda birovning nutqi boshqa bir kishining gapirishidan farqlangani singari, yozuvchi, shoirlar asarlari tili ham bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, Oybek hayot hodisalarini lirik hissiyotlar bilan keng doirada tasvirlashga moyil bo`lsa, Abdulla Qahhor manzaralar va kahramonlar holatini qisqa jumlalarda, kinoya, kesatiq, qochiriqlar qo`llab ifoda qiladi. Shu tarzda har bir ijodkor o`z asarlarida xalq tili boyliklarini ko`rsatishga intiladi.

Badiiy asar tili muallif tili, personajlar tili, dialog, monolog, arxaik so`zlar, shevaga, kasb-hunarga oid so`zlar, jargonlar, neologizmlar, antonim, sinonim, omonim, badiiy tasvir vositalari (metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegornya, jonlantirish, sifatlash, o`xshatish, mubolag`a, poetik sshggaksis (intonasiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, atiteza, ritorik munosabat, ritorik so`roq) kabilardan tarkib topgan bo`ladi. Bu unsurlar badiiy asar tilining jozibali, ta'sirchan bo`lishini ta'minlaydi.

Asar qahramonlari nutqi dialog va monolog shaklida ifoda etiladi. Dialog va monologlarda qahramonlarning ichki dunyosi, fe'l-atvori aks etadi. Ijodkorlar qahramovlar nutqida ular yashagan tarixiy davrga xos so`zlash tarzini hamda ularning kasb-kori, ma'naviy saviyasi (intelektuallik darajasi)ni gavdalantirishga harakat qilishadi. Chunki mantiq shuni taqozo etadi.

Asardagi tabiat manzaralari, personajlardan hammasining ham nomi esda qolmasligi mumkin. Biroq ularning yuqoridagi singari o`zaro muloqotlari, tortishuvlari albatta e'tiborni jalb qiladi va xotiraga mustahkam o`rnashib qoladi. Masalan, Abdulla Qahhorniyag "Anor" hikoyasida shunday lavha bor:

"-Axir, boshqorong`i bo`l, evida bo`l-da!-dedi do`ppisini qoqmasdan, boshiga kiyib, - anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo`lsa! Saharimardondan suv tashib, o`tin yorib, o`t yoqib bir oyda oladiganim o`n sakkiz tanga pul. Akam bo`lmasa, ukam bo`lmasa...

Er-xotin tek qolishdi. Xotin jo`xorini tuyib bo`ldi, uni kelidan tog`orachaga solayotib to`ng`illadi:

- Havasga anor yeydi deysiz shekilli ...

- Bilaman, axir nima qilay? Xo`jayinimni o`ldirib, pulini olaymi? O`zimni hindiga garovga qo`yaymi? G`alatimisan o`zing?" (A.Qahhor. Tavlangan asarlar. - Toshkent: Yosh gvardiya, 1965, 12-bet).

Dialog, monolog asarni ta'sirchan qiladigan vositalar sirasiga kiradi. Dialog yunoncha dialogis so`z bo`lib, "ikki kishi o`rtasidagi so`zlashuv" degan ma'noni anglatadi. Monolog ham yunoncha (topos-bir va logos-so`z, nutq) so`z- bo`lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o`z-o`ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.

Dialog va monologning asarni-ta'sirchan etuvchi, uni yodda qoldiruvchi unsurlardan ekanligi sheriy, nasriy asarlardan ham ko`ra, drama janriga mansub asarlarda yaqqol namoyon bo`ladi. Drama, komediya, tragediya matni to`laligicha dialog va monologlardan tarkib topadi. Sahna asarlarini ularsiz tasavvur etib bo`lmaydi.

Monologlar namoyon bo`lish tarziga ko`ra ikki xil bo`ladi: tashqi monolog va ikchi monolog. Tashqi monolog qahramonning o`z nugqini ovoz chiqarib bayon etshpi bo`lsa, ichki monolog uning ichki o`y-kechinmalaridir. Tashqi monolog shakli ko`proq drama, komediya, tragediyada qo`llansa, ichki monolog barcha janrlardagi asarlarda keng ishlatiladi. Masalan, hayotda har bir odam boshqa bir kishi haqida ko`nglida qandaydir xayollarga-boradi.

Ana shu hodisa badiiy asarlarga ham ko`chiriladi. Roman, qissa, doston personajlari bir-birlari haqida turli o`ylarga borishadi. Demak, monolog personajlarning o`zi haqidagi o`ylaridangina iborat bo`lmaydi. U boshqalar to`g`risidaga, tevarak-atrofdagi hayot haqidagi orzu-o`y, mushohadalarni ham mujassam etadi.

Avvallari qo`llangan bo`lsa-da, ayni paytda nutqda ishlatilmay qolgan so`zlar «arxaik so`zlar» sanaladi. «Shevaga xos so`zlar» esa muayyan hudud kishilari nutqiga xos so`z va iboralardir. «Kasb-korga oid so`zlar» esa qahramonlar mashg`uloti, ular turmush tarzini ko`rsatish vajhidan asqotadi.

«Jargon» fransuzcha jargon so`z bo`lib, "buzilgan til" degan ma'noni bildiradi. Binobarin, jargon sun'iy, yasama tildir. U muayyan guruh kishilari doirasidagina qo`lanadi. Jargon so`zlar ham barcha kishilarning nutqida ishlatiladigan so`z, iboralardan tarkib topgan bo`ladi. Biroq guruh a'zolari muayyan so`z, iboralarni o`zlarigina tushunadigan ma'noda ishlatishadi. Ular nazarda tutgan ma'noni boshqalar bilmaydi. Badiiy asarlarda o`g`rilar, qimorborzlar obrazi gavdalantirilganda ularning nutqida ishlatiladigan so`z, iboralar-jargonlar keltiriladi.

Chunonchi, Tohir Malikning "Shaytanat", "Murdalar gapirmaydilar" asarlarida jargon so`zlar o`g`ri-jinoyatchilar qiyofasini ishonarli ko`satish uchun o`ziga xos vosita bo`lgan.

«Neologazmlar», asosan zamonaviy mavzudagi asarlarda ishlatiladi. Fan-texnika, ijtimoiy hayot taraqqiyoti tufayli paydo bo`lgan yangi so`z, atama, terminlar davr ruhini aks ettirish maqsadida badiiy asarlarda qo`llanadi. Masalan, "neyroxirurgiya", "bionika", "kosmonavtika" kabi so`zlar "birja",

"aksiya", "konsalting", "fyuchers" singari iqdisodiyot terminlari ham hozirgi o`zbek tili uchun neologizm hisoblanadi.

Omonim, sinonimlar ham xuddi neologizm, jargon, kasb-kor, sheva, arxaik so`zlar singari badiiy asar tilining muhim uzvlaridir. Omonim-yunoncha homos-bir xil va onyma-ism yo so`zlaridan yasalishi bo`lib, badiiy asarda har xil ma'no anglatib keluvchi shakldosh so`zlardir.

Sinonimlar-tilning omonimlarga tamoman teskari hodisasidir. «Sinonim» yunoncha synonymos so`z bo`lib, "bir nomli" degan ma'noni bildiradi. Ona tili darsliklarida sinonimlarga shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin so`zlar, deb ta'rif berilgan. Sharq mumtoz adabiyotda bunday so`zlar mutashobih so`zlar deb yuritilgan.

Antonimlar esa omonim, sinonimlardayen yanada farq qiluvchi so`zlar sanaladi. «Antonim» yunoncha antonimos so`z bo`lib, "qarshi" degan ma'noni bildiradi. Bir-biriga zid ma'noli so`z va iboralar antonimlar deb yuritiladi. Angonim so`zlar hodisa mohiyatidagi qarama-qarshilikni anglatadi. Masalan, Alisher Navoiy:

Qon yutib umrim jafo ahlida bir yor istadim,
Lekin ul kamraq topildi, garchi bisyor istadim.

deydi. "Kam-bisyor" qarama-qarshi ma'nodagi so`zlardir. Butun umrim bo`yi odamlar orasidan o`zimga azobu iztirob bilan sadoqatli do`st izladim. Ular juda kam topildi. Biroq men do`stlarim ko`p bo`lishini istadim, deydi ulug` shoir. Istash va amaldagi qarama-qarshilikni "kamroq-bisyor" antonimlari vositasida ifodalash fikriga obrazlilik, ta'sirchnalik baxsh etgan. Antonim hodisasi Sharq adabiyotida «tazod» deb yuritiladi.

Ko`chim so`z yoki so`z birikmasining o`z ma'nosidan boshqa ma'noda qo`llanishidir. Ko`chim trop deb ham yuritiladi. Ko`chimlar ham nutq ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ko`chimlar bir necha turlarga bo`linadi: metafora (istiora), metonimiya, sinekdoxa, allegoriya (majoz) kabilar.

## SAVOL VA TOPShIRIQLAR:

1. Sharq shoirlari so`z haqida nimalar deyishgan?
2. Emotsionallik deganda nimani tushunasiz?
3. Dialog va monolog nima?
4. Metafora va metonimiya haqida ma'lumot bering?
5. Tasviriy vositalarni sanang va konspektlashtiring?
6. Sinonim haqida ma'lumot bering?
7. Antonim haqida ma'lumot bering?
8. Ko`chim so`z nima?
9. Allegoriya (majoz) haqida ma'lumot bering?
10. Sinekdoxa haqida ma'lumot bering?

## FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:

1. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., 2000.
2. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi, Toshkent-1980 yil.

3. M. Abdullayev. Adabiyotimizning yangilanish davri "O`zAS" 1995
4. T. Boboyev. She’r ilmi ta’limi. –T., 1997.
5. A.Ulug’ov. "Adabiyotshunoslikka kirish". T.,"Universitet",2000 y.
6. D. Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T., 2004.
7. D. Quronov va boshqalar Adabiyotshunoslik lug’ati. – T., 2013 (qayta nashr)

## ***10 -MAVZU:*** **She'r tuzilishi.**

***REJA:***

1. She'riy nutq haqida umumiy ma'lumot.
2. Ritm-she'rning asosi.
3. Qofiya haqida ma'lumot.
4. Qofiya bilan bog`liq bo`lgan so`z birikmalari haqida ma'lumot.
5. Jahon adabiyotidagi she'riy tizimlar haqida ma'lumot.
6. Vaznlar haqida uslubiy tushuncha.

**Tayanch so’z va iboralar:** aruz vazni, barmoq vazni, bahr, g`azal, qasida, hazaj bahri, mutaqorib, mutadorik, she’riy nutq, ritm, qofiya, radif, refren, she'riy sistema, metrika, sillabo-tonik, g`oyaviylik, band, bo`g`in.

Badiiy asar, odatda, nasr va nazm usulida yaratiladi. Shunga ko`ra, badiiy nutq ikki xil bo`ladi: a) sochma (prozaik) nutq va b) tizma (she'riy) nutq. Tizma nutqning sochma nutqdan prinsipial farqi shundaki, she'riy nutq vaznli, ritmli, qofiyali nutqdir.

She'riy nutq hamisha musiqiy va ritmli nutq bo`ladi. Poeziya murakkab va g`oyatda boy san'at. U inson qalbining nozik his-tuyg`ularini, fikr va hissiyotlar harakatini, ehtiroslar kurashi va rivojini emosional tusda aks ettiradi.

Poeziyada ham proza va dramaturgiyadagidek, rang-barang temalarda bahs yuritiladi. Uning tasvir imkoni nihoyatda keng. Poeziyamiz maroqli fantaziya va jozibali ohanglarga boy. She'rda fikr-mulohaza, his-tuyg`u shaklan siqiq, mazmuni yorqin jozibali, musiqiy tusda ifodalanadi.

She'riy nutq-murakkab sistema. Chunki she'riy asar ritm, vazn, bo`g`in (hijo), turoq (rukn yoki stopa), qofiya, band (strofa), she'r sistemalari, intonasiya, pauza, urg`u, poetik figuralar, fonetik priyomlar va boshqalrning yaxlit uyushuvidan tashkil topadi. To`g`ri, bu komponentlar she'rning, asosan, shakliy tomonlari. Biroq mazmun, ya'ni she'r g`oyasi mana shu komponentlarning hamohangligidan kelib chiqadi. Demak, she'rda ham shakl mazmunga xizmat qiladi, shakl va mazmun birligi shu tariqa kelib chiqadi.

Borliqdagi barcha moddiy va nomoddiy narsa-hodisalar muayyan tuzilishiga ega bo`ladi. Ular bir qancha qism-uzvlardan tarkib topadi. Narsa-hodisalarning mazmun-mohiyati bevosita ularning tarkibiga bog`liqdir. Shuning uchun hodisalar mohiyatini bilish ularning tarkibiy qismlarini o`rganishdan boshlanadi. Adabiyot ham, adabiyotshunoslik ham tarkibiy qismlarga bo`lingani singari she'r ham ma'lum uzvlardan tarkib topgan bo`ladi. She'rning trakibiy qismlari to`g`risida ma'lum tushunchaga ega bo`lish so`z san'atining o`zak masalalarini bilishdir.

Avvalo, she'rning o`zi nima? "She'r" ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solingan his-tuyg`u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli, ritmik nutqdir" (Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati. Toshkent: O`qituvchi. 1983, 311-6.). Biroq bu she'rning eng mukammal, har jihatdan yetuk ta'rifi emas. She'rning bu ta'rif doirasiga sig`magan sifat, xususiyatlari juda ko`p. Chunki Abdulla Qahhor aytganidek, "She'r-bir mo`'jiza. Uning mo`'jizalik sirlaridan xabardor bo`lish, bu sirlarni jilovlash har kimga ham muyassar bo`lavermaydi. Bunga erishish uchun zehn, sabr va mehnatdan boshqa yana nimadir kerak" (Qahxrr A. Asarlar, 6 tomlik.-Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971, 6-tom, 253-6.). "Yana nimadir kerak" bo`lgani bois ham hamma she'r yozolmaydi yoki she'r yozganlarning hammasi ham shoir bo`lib tanilavermaydi. "She'r inson ruhining birmuncha g`ayritabiiy, ayricha holatidan tug`iladi", deydi Abdulla Oripov (Ehtiyoj farzandi. -Toshkent: Yosh gvardiya, 1988, 19-6.). She'rning "mo`'jizalik sirlari" bisyorligi sababli ham u har kim har xil ta'sir qiladi. Uni hamma har xil tushunadi. Chunki she'r-aql bilan anglash qiyin bo`lgan holatlarning so`zdaga aksi. U ko`ngil olamining tovush, harf-so`zlardagi manzarasi. She'r ko`ngil mulki mevasi bo`lgani bois ham unda ohanglar mavji, musiqa tarovati mavjud. Shu tufayli u qalbni zabt etadi-kishni yo bir zumda mahzun qiladi, bir lahzada quvonchga ko`madi.

Bulardan bo`lak yana ko`dan-ko`p sir-sanoatga ega she'rni sharhlash, uni o`rganishta qadim-qadimdan ishtiyoq, havas, intilish kuchli bo`lgan. Bu intilish inson uchun doimiy ehtiyojga aylangan. Chunki she'rning har bir unsuri, undagi so`zning har bir tovushi olam-olam mazmunga ega. Ularni anglash, tushunish esa aqlga quvvat, ruhga halovat beradi.

She'r so`zlar tizmasidan tarkib topgan misralardan tuzilishi aniq ko`rinib turadi. Chunki so`z va so`zlarda she'rda nasriy asardagidan ko`ra bo`lakcha-o`ziga xos tarzda joylashgan bo`ladi. She'rning alohida belgilaridan dastlabkisi ritmdir. Qofiyasiz, misralarida bo`g`inlar miqdori har xil she'rlar bo`lishi mumkin. Biroq ritmsiz she'r yo`q. Ritm-she'rning asosi. Ritm-she'riy nutqning ko`rki. U muayyan vazndagi nugq bo`laklarining misralar, banddarda ma'lum bir tartibda takrorlanishidan hosil bo`lgan zarbli ohangdorlikdir. Bu zarbli ohangdorlik inson sezgilariga ta'sir qiladi.

Borliqdagi barcha harakat-holat muayyan zarbga-ritmga asoslanadi. Insonning yurak urishi ham, yomg`ir, qorning yog`ishi ham o`ziga xos zarb-ritm hosil qiladi. Qo`shiq, kuy ham avval shu hodisa tufayli vujudga keladi. Raqsda ham, haykaltarosh yasagan haykalda ham mutanosiblik-ritmlik qanchalik kuchli bo`lsa, ular shunchalik ta'siran bo`ladi. Chunki harakat-holat, chizgilarning o`zaro muvofiqligi kishilarning tuyg`ularini to`lqinlantirib, hissiyotlarini quvvatlantiradi.

She'r so`zga, raks harakatga, musiqa tovushlarga asoslanadi. Shuning uchun she'rda so`z va uning bo`laklari, raqsga harakatlar uyg`unligi, musiqada tovushlar mutanosibligi ritmni hosil qiladi.

Ma'lumki, har bir til o`ziga xos tuzilishga ega bo`ladi.

Har bir til ma'lum bir grammatik me'yorlarga asoslanadi. Shunga muvofiq she'r ritmi ohangdorligini muayyan unsurlar vujudga keltiradi. Bo`g`in, turoq, ritmik pauza, vazn ana shunday unsurlardandir.

Bir nafas bilan aytiladigan so`z va so`zning bo`lagi bo`gan deyiladi. Bo`g`in nutq tovushlarilan tarkib topgan. Bo`g`in ohangdorlik-ritm hosil qilish uchun ma'lum tartibga guruhlanishi- misralarda muayyan tartibda izchillik bilan takrorlanishi lozim. Bo`g`inlarning misralarda qat'iy tartibda guruhlanishi esa turoq deyiladi.

*Odam zoti dunyodaki bor,*
*Uning bilan muhabbatdir yor.*
*(Hamid Olimjon).*

Bu misralarda turoqlanish 4Q5 tarzida guruhlangan. Qofiyadosh so`zlar ("bor", "yor") ning vazn jihatdan tegishli (1) musiqiylikni paydo qilgan.

Misralardagi bo`g`inlar, turoqlarning ma'lum bir o`lchovda kelishi vazndir. Vazn arabcha so`z bo`lib, "o`lchov", "tarozi" degan ma'noni bildiradi. O`zbek adabiyotida she'r aruz, barmoq vaznida yaratiladi. Agar aruz Sharq adabiyotida qadimdan keng tarqalgan she'riy vazn bo`lsa, barmoq turkiy she'riyatga xos vazndir. Bundan tashqari, erkin vazndagi she'rlar (oq, erkin, sarbast) ham mavjud. Aruz, barmoq, erkin vazndagi she'rlar ifoda usuliga ko`ra, bir-biridan jiddiy farq qiladi. Ular tuzilishi, shakli, ko`rinishi jihatidan ajarlib turadi.

Qofiya she'rni jarangdor qiluvchi, misralarga musiqiy ohang beruvchi muhim unsurdir. U misralar oxirida keladigan ohangdosh so`zlardir. Turoq, ritm orqali misralarda vujudga kelgan ohangdorlik qofiya tufayli mukammallashadi. Qofiyaning jarangdor bo`lishi she'rning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Ohangdoshlik darajasiga ko`ra qofiyalar to`liq qofiya va och qofiya bo`ladi. Bir-biriga to`la ohangdosh qofiya bo`lib kelsa, bu to`liq qofiya deyiladi.

*Yuksak arguvonning uchida hilol"*
*Paxmoq bulutlarni etadi nimta.*
*Qaydadir shoira kuylaydi behol:*
*-Ko`nglim ham bu kecha oyday yarimta...*
*Uvada kamzulda billur tutmaday*
*Bulutlar ortidan boqadi yulduz.*
*Qaydadir yurtini eslab ingrar nay,*
*Qaydadir qo`zigul yoradi ildiz.*
*Qaydadir gulshanda axtarib visol*
*Yel kezar-tog`larning go`zal arvohi.*
*Shoirning dilrabo baytlari misol*
*Oh tortib tizilar turnalar gohi.*
*Qizg`aldoq bargidek uchar dildan g`am,*
*Toshqinlar kiradi qalbimga manim.*
*Bahoring muborak bo`lsin ushbu dam*
*Mening O`zbekiston-dilbar Vatanim.*
*(Abdulla Oripov).*

Mazkur satrlardagi hilol-behol, nimta-yarimta, tugmaday-nay, Yulduz-ildiz, visol-misol, arvohi-gohi, g`am-dam, manim - Vatanim so`zlari o`zaro to`la

ohangdoshdir. Shuning uchun ular to`liq qofiya hisoblanadi. Ba'zi she'r misralarida so`zlardagi aksaryat tovushlar emas, balki ba'zi bir tovushlargana bir xil bo`ladi va ular ma'lum bir ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. Bunday ohangdosh so`zlarga och qofiya deyiladi.

*Biz Romeyeo, telba Romeo,*
*Sevib qolgan oshiq Dartan'yan.*
*Romanlarda ishqiy sarguzasht,*
*Romanlarda haqiqat tuban..*
*Shaharchamiz navqiron Parij,*
*Karetalar... xayollarda yor.*
*Direktorning qoshida g`urur -*
*Burni qonayotgan mushketyor.*

(A.Qutbiddin. “Sen va sen uchun”,-Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyeti, 1996, 4-6.).

Dartan'yan-tuban, yor-mushkatyor so`zlari "hilol-behol", "nimta-yarimta" darajasida ohangdosh emas. Shuning uchun ularni och qofiya deyish mumkin. Qofiyalar she'riy asralardagina emas ba'zan nasriy asarlarda ham uchraydi. Bunday nasriy asarlar saj' (qofiyali nasr) deb yuritiladi. Saj', ayniqsa, folklor asarlarida keng qo`llanadi:

"Uning uchta o`g`li bor edi, uchovi o`qigan, oqu qorani tanigan, yuzlari oyday, o`zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar" (Sharq xalqlari ertaklari. -Toshkent: Sharq, 1994, Z-b.).

Ekan-o`qigan-tanigan, oyday-toyday, yurmagan-turmagan so`zlari o`zaro qofiyadoshdir.

Radif qofiyadan keyin misralar oxirida takrorlanib keluvchi aynan bir xil so`z yoki so`z birikmasidir. Radif arabcha so`z bo`lib, "otga mingashib kelmoq" degan ma'noni bildiradi.

Sharq she'riyatida radif keng qo`llaniladi. Jumladan, Alisher Navoiy g`azal, ruboiy, tuyuqlarida ham radiflar ko`p ishlatiladi. Masalan:

*Jondin seni ko`p sevarmen, ey umri aziz,*
*Sondin seni ko`p sevarmen, ey umri aziz,*
*Har neniki sevmak ondin ortiq bo`mas,*
*Ondin seni ko`p sevarmen, ey umri aziz,*

Ushbu ruboiyda "seni ko`p sevarmen, ey umri aziz" so`zlari radif sifatida misralar oxirida takrorlanib kelgan. Radiflar yakka bir so`z yoki yuqoridagi singari bir necha so`zdan tashkil topgan ham bo`lishi mumkin.

Turoq bo`g`inlar guruhidan tashkil topadi. Turoqlar guruhidan misralar vujudga keladi. Misralar ham xuddi bo`g`in, turoqlar singari uyushib, muayyan musiqiylik hosil qiladi. Misralarning bunday birikuvi bandlarni vujudga keltiradi. Band misradan ko`ra kengroq, ko`lamliroq fikrni anglatadi. Banddagi fikr muayyan tugallikka ega bo`ladi. U yaxlit manzarani gavdalantiradi.

She'rshunoslik-maxsus soha. Unda juda ko`p istiloh (termin)lar mavjud. Ularning har birini atroflicha sharhlab chiqish katta hajmli alohida ishni taqozo qiladi. Chunki har bir milliy adabiyotning o`ziga xos she'r shakllari bor. Negaki she'r

milliy tillarga xos xususiyatlar asosida paydo bo`ladi. Shu boisdan she'r tizimlari, vaznlari har bir xalq tilining ichki qonun-qoidalariga mos holda vujudga keladi.

Jahon adabiyotida to`rtta she'r tizimi, ayniqsa, keng tarqalgan. bular: sillabik (bo`g`inlar miqdoriga ko`ra), metrik (turoq, to`xtam (pauza), takt miqdoriga ko`ra), sillabo-tonik (bo`g`in va ohang), tonik (ohang) tizimlaridir.

Sillabik she'r tizimi bo`g`inlar miqdoriga asoslanadi.

Turkiy xalqlar, jumladan, o`zbek xalq sheriyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari she'riyati ham sillabik she'r tizimiga mansubdir.

Metrik she'r tizimi esa bo`g`inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab she'riyati shunday xususyaitga ega.

Sillabo tonik she'r tizimi bo`lsa, urug`li, urg`usiz bo`g`inlarning ma'lum tartibda kelishiga asoslanadi. Rus she'riyati shundaydir.

Tonik she'r tizimi misralarda urg`usiz bo`g`in qancha bo`lishidan qat'i nazar, ritm hosil bo`lishi, urg`ularning bir maromda kelishiga asoslanadi.

She'r tizimi xalq tili xususiyatlariga bog`liq hodisa sanaladi. O`zbek tili ifoda imkoniyatlari, grammatik me'yorlari sillabik va metrik she'r tizimiga mos tushadi.

Sharq xalqlari she'riyatida aruz va barmoq vazni deb ataluvchi she'r tizimi keng tarqalgan. Hozirgi o`zbek she'riyatida esa ular bilan bir qatorda, erkin vazn deb yuritiluvchi tizim ham mavjud.

She'r tizimi she'r tuzilishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri. Shu sababli she'r tizimi haqida konkret tasavvurga ega bo`lmay turib, she'r tuzilishini puxta o`rganib bo`lmaydi.

Agar biz jahon poeziyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, unda turli-tuman she'r tizimlari borligani payqaymiz. Chunki sher tizimlari milliy tillarning tabiati bilan bog`liq. Jahon xalqlari tillar esa tabiatan xilma-xil bo`lib, ular turli-tuman oilalarga mansubdir. Demak, turli tillar tabiati taqozosiga ko`ra she'riy nutq tizimlari ham, she'r tuzilishi ham rang-barang bo`lishi tabiiy. Har bir she'r tizimida she'r yaratish, ya'ni vazn va ritmni, musiqiylikni vujudga keltirish usullari o`ziga xos bo`ladi. Chunonchi, beqaror urg`uli tillarda vaznni vujudga keltirish uchun misralarda urg`uning bir xilda kelishi shart bo`lsa, barqaror urg`uli tillarda vazn uchun urg`uning ahamiyagi yo`q. So`zlar bir-birlaridan ovozning past-balandligi jihatidan farq qiluvchi tillarda misralardagi ovoznint bir xilda bo`lishi zarur bo`lsa, boshqalarida buning hech qanday ahamiyati yo`q va hokazo.

Jahon xalqlari poeziyasida keng qo`llanilayotgan asosiy sher tizimlari quyidagilar: metrik (antik), sillabik, tonik va sillabo-tonik...

Barmoq she'r tizimi G`arb va Sharq uchun umumiy bo`lib, u barqaror urg`uli tillarda qo`llaniladi. Arab nazmida aruz she'r tizimida qo`llanilgan. Bu tizim keyinchalik eron va turkiy tillar she'riyatiga ham o`tgan va bu tillarning tabiatiga moslashib rivojlangan.

O`zbek klassik adabiyotida faqat aruz tizimi qo`llanilgan bo`lsa, o`zbek xalq og`zaki poetik ijodida, asosan, barmoq vazni ishlatilgan. O`zbek poeziyasida esa har ikkala tizim ham muvaffaqiyat bilan qo`llanilmoqda.

Shuni aytish kerakki, barmoq bilan aruz aslida she'r vazni emas, balki she'r tizimlaridir. Chunki barmoqda ham, aruzda ham juda ko`plab vaznlar mavjud. Amalda, shartli ravshida, "barmoq vazni" va "aruz vazni" iboralar qo`llaniladi, xolos.

Barmoq tizimining aruz tizimidan asosiy farqi shundaki, u bo`g`inlar sonining she'r misralarida bir xil miqdordaligiga qatiy amal qiladi. Barmoqda yozilgan she'rning birinchi misrada necha bo`g`in bo`lsa va turoqlar miqdori hamda tartibi qanday bo`lsa, she'rning boshqa misralarida ham shu sxema aynan takrorlanadi. She'rdagi ana shu ritmik uyushqoqlik, odatda, misradagi bo`g`inlarning sonini barmoq bilan sanab aniqlanadi.

Shunga ko`ra, she'r tuzilishining bu usuli, shartli ravishda, barmoq tizimi deb yuritiladi. Masalan:

*4 5*
*Odam zoti / dunyodaki bor, 9*
*4 5*
*Uning bilan / muhabbatdir yor; 9*
*4 5*
*Uni bilmas / yurak topilmas, 9*
*4 5*
*Uni bilmas / otlar chopilmas. 9*
*(Hamid Olimjon).*

Yuqoridagi she'r bandining vaznini aniqlash uchun, dastlab, birinchi misradagi bo`g`iilarni barmoqlarimizni bukish yo`li bilan sanab chiqamiz (9 bo`g`in), ikkinchidan, unda nechta turoq borligini (ikkita turoq) va ular qay tartibda joylashganini (4+9) aniqlaymiz. Natijada birinchi misraning bo`g`inlar miqdori va turoqlar soni hamda tartibi aniq bo`lib qoladi (4+5=9).

Aniqlangan sxema asosida she'rning qolgan misralarini birma-bir tekshirib chiqamiz. Shu tekshirish natijasida birinchi misra sxemasi (4+5=9) boshqa misralarda ham aynan saqlanganligi aniqlansa (4+5=9)-bu she'r barmoq tizimining bir vazni (4+5=9)da yozilganligi bilinadi.

Barmoq vazni turkiy til xususiyatlariga asoslangan she'r tizimidir. Shuning uchun o`zbek xalqining eng qadimgi og`zaki she'riyati namunalari ayni shu vaznda yaratilgan" Mahmud Qoshg`ariyning "Devoni lug`otit turk" asari yetti bo`g`indan tuzilgan, 4+3 shaklida turoqlangan, a-a-a-b tarzida qofiyalangan.

O`zbek xalq dostonlari, masalan, "Alpomish" dostonidagi she'rlar ham, shuningdek, maqollar, hikmatli so`zlar ham barmoq vazniga mansubdir. Barmoq vazni misralarda bo`g`inlarning muayyan miqdoriga va bir xil turoqlarning o`ziga xos tartibda takrorlanishiga asoslangan she'r tizimidir. Misralardagi bo`g`inlar miqdori barmoq bilan sanalgani sababli, mazkur sher tizimi barmoq vazni deyiladi. Barmoq vaznida birinchi misrada bo`g`inlar mikdori va turoqlar tartibi qanday bo`lsa, qolgan misralarda ham aynan shunday bo`ladi. Masalan, Abdulla

Oripovning "Tilla baliqcha" she'ri shunday boshlanadi:

*Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni*
*Shu loyqa hovuzga tomon yutdilar.*
*Tashlandiq ushoq yeb o`tadi kuni,*
*Xoru xas, xazonlar ustin yopdilar.*

Barmoq vaznidagi she'rlar turoq, qofiya, band ritm (zarb)ni vujudga keltiradigan asosiy unsur hisoblanadi.

Aruz (arabcha “arz qilmoq”) - Sharq xalqlari adabiyotlarida, jumladan o`zbek adabiyotida keng qo`llanilgan o`ziga xos vaznlar tizimi.

Aruz vazni hijolarning talaffuzdagi uzun-qisqaligiga asoslangan bo`lib, musiqa bilan chambarchas bog`liqdir. Aruz vaznida bo`g`inlarning "qisqa" va "cho`ziq" ligiga alohida e'tibor beriladi. Aruzda "cho`ziq" va "qisqa" tushunchalarini harf va tovushga nisbatan emas, bo`g`in-hijoga nisbatan qo`llaniladi.

Cho`ziq bo`g`in "-" va qisqa bo`g`in "V" ishorasi bilan belgilanadi.

*O-ra-zin yo- p qoch ko`-zim-din so-chi-lur har lah-za yosh*
fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun
*O`y-la-kim pay-do bo`-lur yul-duz ni-hon bo`l-g`och qu-yosh*
fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

Til koidasiga ko`ra, bo`g`in ochiq (unli bilan tugagan va yopiq undosh bilan tugagan) bo`g`in turlariga bo`linadi: aruzdagi hijo qisqa ("V") va cho`ziq (“-“) hijolarga bo`linadi.

Aruz qoidasiga muvofiq, unlilardan a, i, u va e (yoki yo) bilan tugagan hijo qisqa hijo bo`ladi.

Aruz qoidasiga muvofiq, unlilardan a, i,u va e (yoki yo) bilan tugagan hijo qisqa hijo bo`ladi. (Agar shu unlilar bilan tugagan hijoga urg`u tushsa, u cho`ziq hijoga aylanadi. Barcha undoshlar va unlilardan O (alif) bilan tugagan hijolaor cho`ziq hijodir.

## RUKN

Aruzshunoslikda juzv, ya'ni hijodan katta ammo vazndan kichik ritmik birlik rukn deb yuritiladi. Boshqacha qilib aytganda, she'rdagi misralar ma'lum tartibga ega bo`lgan bir yoki bir necha bo`g`indan iborat ega bo`lgan bo`laklarga bo`linib talaffuz qilinadi.

Misraning ana shunday bo`laklari rukn deb ataladi. Rukn bir bo`g`indan tortib, besh bo`g`ingacha bo`ladi. Misralardagi ruknlar bir-biridan qisqa pauza bilan ajraladi. Masalan: O`zbek aruzida sakkizta asl rukn bor. Sakkizta als ruknning har biri maxsus arabcha nom bilan yuritiladi. Aruz tizimidagi asl ruknlarning nomlari, tuzilishi, paradigmalari kuyidagicha:

| № | Nomi | Tuznlishi | Paradigmasi |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Faulun | | V- - |
| 2 | Foilun | | -V - |
| 3 | Mafoiylun | | V--- |
| 4 | Foilotun | | -V - - |
| 5 | Mustaf'ilun | | -- V - |
| 6 | Maf'ulotu | | ---V |

Sakkiz asl ruknniig har biridan qator far'iy ruknlar va ularning turlari kelib chiqadi. She'r o`lchovidagi ritmik birliklardan yana biri vazndir. Vazn bir yoki bir necha rukndan iborat bo`ladi. Vazn tarkibidagi ruknlar bir yoki bir necha xil bo`lishi mumkin. Masalan: 1) foilotun asl ruknning uch marta va foilun ruknining uch marta va foilun ruknining bir marta kelishi natijasida 15 hijoli quyidagi vazn hosil bo`ladi.

1. Zulm i-la qah ru g`a-zab iz hor (i) qil-moq shun-cha-lar,
   fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun
2. fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun vazni

Aruz tizimida vaznlar juda ko`p va ular rang-barangdir. A.Navoiyning uqgirishicha, aruz tizimida 100 dan ortiq vazn bor. Z.M.Boburning qayd etishicha aruzdagi vaznlar soni 537 taga yetadi. Bu faktning o`ziyoq aruz tizimining vaznlarga boyligini ko`rsatadi.

## BAHRLAR

Bahr (arabcha: “dengiz”, “daryo”, “vazn”) aruz tizimidagi o`zaklari jihatidan bir-biriga yaqin vaznlar turkumi bo`lib, o`lchov birligi emas, vaznlar tasnifiga oid tushunchadir. Vaznlarni bahrlarga bo`lishda asl ruknlar asos qilib olingan. Arab adibi va olimi Xalil ibn Ahmad ilk daf'a aruzdagi 15 bahrni kashf etgan emas. Xalil ibn Ahmaddan so`ng Abulhasan Axfali aruzga "mutadorik" bahrini qo`shdi. Keyingi aruzchilar esa arab poeziyasida qo`llanilmaydigan yana uch bahrni aniqlab, ularni "qarib", "jadid" va "mushokil" deb ataganlar. Shunday qilib, aruz tizimidagi 19-bahr kashf qilingan.

Aruz bahrlari: tavil, basit, komil, vofir, madid, ramal, hazaj, rajaz, munsarih, muzori', sari', hafif, mujtass, muqtazab, mutaqorib, mutadorik, qarib, jadid mushokil.

Bu 19 bahrdan-tavil, madid, basit, vofir komillar arab she'riyatiga mansub bo`lsa qolgan bahrlar-fors-tojik va turkiy xalqlar she'riyatiga tegishlidir.

Vofir bahri talablari o`zbek tili xususiyatlariga to`g`ri kelmaganligi uchun o`zbek shoirlari bu bahrda she'r yozishmagan.

Hazaj bahri mafoiylun ruknining takrorlanishi asosida paydo bo`lgan. Uning uch guruhi (hazaji musamman, hazaji musaddas, hazaji murabba') mavjud. Hazaji musamman hazaj bahrining o`n olti bo`g`inli vaznidir. Mazkur bahrning o`n ikki bo`g`inli. vazni esa hazaji musaddas deb yuritiladi. Sakkiz bo`g`inli vazni hazaji murabba' deyiladi.

Rajaz bahri mustaf'ilun ruknining takrorlanishi asosida asosida vujudga kelgan. Bu bahrining o`n olti bo`g`inli vazni razaji musammani solim, o`n ikki bo`g`inlisi razaji musaddasi solim deb yurigiladi.

Ramal bahri foilotun ruknining baytlarda va misralarda turlicha takrorlanishi asosida hosil bo`ladi. Uning ham uch guruhi mavjud: musammai, musaddas, murabba'.

Hazaj, rajaz. ramal va boshqa bahrlarning har birida ko`pdan-ko`n vaznlar mavjud. Ularning har birini bo`g`in, ruknlari takroriga muvofiq paradigma (chizma)sini belgilash mumkin.

## SAVOL VA TOPShIRIQLAR:

1. She'riy nutqning o`ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
2. Bo`g`in va turoq she'r tuzilishida qanday vazifani o`taydi?
3. Vazn nima?
4. Vaznning qanday turlarini bilasiz?
5. Qofiya nima?
6. Radif nima?
7. Refren nima?
8. Naqorat nima?
9. She'riy sistema nima?
10. Qanday she'riy sistemalarni bilasiz?
11. She'riy tizimlar nima?
12. Qanday she'riy tizimlarni bilasiz?
13. Barmoq vazni haqida matlumot bering.
14. O`zbek-sheriyatida nechta vazn bor?
15. Barmoq vazni bilan aruz vaznining farqi nimada?
16. She'rda qofiyaning o`rni bormi?

## TALABALAR BILIMINI SINASH UCHUN TESTLAR

| |
|---|
| 1. Juft misralari qofiyalanib, toq misralari ochiq qoladigan she’r shakli qanday nomlanadi? |
| qit’a |
| g‘azal |
| masnaviy |
| Fard |
| 2. Ham she’riy shakl, ham janrni bildiruvchi atama qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? |
| masnaviy |
| matla’ |
| maqta’ |
| Roman |

| |
|---|
| 3.O‘rta asr mumtoz adabiyotimizda eng ko‘p qo‘llangan she’riy shakl qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? |
| Masnaviy |
| musamman |
| murabba’ |

| |
|---|
| Fard |
| 4.Quyidagi javoblardan qaysi birida a-a, b-a, v-a, tarzida qofiyalanuvchi janrlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan? |
| g‘azal, mustazod |
| fard, qit’a |
| masnaviy, murabba’ |
| ruboiy, tuyuq |
| 5. Bayt misralarida ikki so`zni ohangdosh qilib keltirish san`ati nima? |
| Zulqofitayn |
| Mutaxarrik qofiya |
| Mazjub qofiya |
| Tajnisli zulqofitayn |
| 6. Ritm so`zining ma`nosi? |
| Vazndosh, ohangdosh |
| qarshi nom |
| Bo`g`inlarni guruhlash |
| Pauza, to`xtam |

## FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:


1. Adabiy tur va janrlar. 3 tomlik. Toshkent, 1991-92 yillar.
2. M.Boboyev. "She'r ilm ta'limi. Toshkent, 1996 yil.
3. A.Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent, 1998 yil.
4. O`zbek adabiyotida janrlar tipologayasi va usdub rang-barangligi. Toshkent, 1983 yil.
5. M.Boboyev. "She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996 yil.
6. A.Hojiahmedov. Sheriy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent, 1998 yil.
7. A.Ulug`ov.Adabiyotshunoslikka kirish."Universitet", 2000 yil.
8. O`zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslub rang-barangligi. Toshkent, 1983 yil.
9. Adabiy tur va janrlar. 3 jildlik, 1-2 jildlar. Toshkent, "Fan", 1991-92 yillar.


## ***11 -MAVZU:*** Badiiy tasvir vositalari. (2 soat)

***REJA:***

1. So`zlarning asl va ko`chma ma'nolarda qo`llanilishi.
2. Troplar va ularning turlari.
3. Hozirgi o`zbek adabiyotida badiiy tasvir vositalarining qo`llanilishi.

**TAYANCh IBORALAR:** Trop. Metonimiya. Metafora. Sifatlash. Jonlantirish O`xshatish. Mubolag`a. Ko`chma ma'noli so`zlar. Asl ma'noli so`zlar. Badiiy tasvir vositalari.

Maxsus badiiy tasvir vositalari adabiy asar tilning shirali, bo`yoqdor, rang-barang bo`lishiga yordam beruvchi omillardandir. Bu xususan, she'riyatda yaqqol seziladi.

Bir shoir chuqur falsafiy fikri va yuksak mantiq kuchi, boshqa bir shoir dilni qitiqlovchi mayin lirizmi, yana biri o`z she'rlarining qo`shiqday ravon va

ohangraboligi bilan kishi qalbini hayajonga soladi. Bunga esa shoirlar maxsus badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanib, obrazli kartinalar chizish vositasida erishadi.

Asarda hayotning haqqoniy aks ettirilishi, xarakterlarning tipikligi, san'atkor talqin etgan ijtimoiy idealning muhimligi, asarning xalqchilligi, yozuvchining shakl va mazmun birligiga erishishdagi mahorati, asarning estetik-tarbiyaviy ta'sirining kuchli bo`lishi-badiiy tasvir vositalarini mohirona ishlata bilish san'atiga ham bog`liq.

Adabiy asarda o`z ma'nosida ishlatilgan so`zlar bilan birga ko`chma ma'noda qo`llanilgan so`zlar ham uchraydi. So`zlar ko`chma ma'noda qo`llanilgan bo`lsa, maxsus badiiy tasvir vositasi hisoblanadi. Umuman, asardagi barcha so`zlar ham tasvir vositasi, ammo ko`chma ma'no anglatganlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham ular maxsus badiiy tasvir vositalari sifatida o`rganiladi. So`zning asl va ko`chma ma'nosi o`rtasidagi farqni anglash uchun quyidagi misralarga nazar tashlaylik:

1. *Zaynab bilan Omon ikkovning –*
   *Yangi kelin, yangi kuyovning*
   *Baxti shunday bo`ldi barqaror.*
   *Kokillari uning tol-tol,*
   *Lablarida bitgan qora xol*
   *Bir dunyoga arziguday bor... (Hamid Olimjon).*

2. *Chiroylidir go`yo yosh kelin*
   *Ikki daryo yuvar kokilin. (Hamid Olimjon).*

Adabiy asarda so`zning ko`chma ma'noda qo`llash usuli fanda troplar (yunoncha tropos-ko`chim, oborot) deb yuritiladi.

Mumtoz adabiyotda bu tushuncha "tashbeh" yoki "majoz" termini bilan atalgan. Troplar rang-barang ko`rinishlarga ega. Troplar, birinchi navbatda, o`xshashli ko`chim (metafora) va o`xshashsiz ko`chim (metonimiya) ga ajraladi.

Metafora va metonimiyalar ham bir necha ko`rinishlarga ega: o`xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag`a, litota, simvol, allegoriya, sinekdoxa, perifraz va boshqalar.

«Metafora» - (yunoncha metafora ko`chim) - istiora-tropning bir turi-aktiv obrazli tafakkur formalaridan. Bunda o`xshatilayotgan va o`xshayotgan ikki predmet yoki hodisa o`rtasidagi umumiy o`xshashlikka asoslanadi.

Masalan:

*Keldi ochilur chog`ing o`zliging namoyon qil,*
*Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil.*

Baytdagi birinchi misrada "yangi zamon" - o`xshagan payt butunlay tushirilib qoldirish, uning o`rniga "ochilur chog`ing" - o`xshatilgan paytgina berilgan. Ikkinchi misrada ham "eski hayot" - o`xshagan narsa tushirilib qoldirilib, uning o`rnida "kishan" so`zi-o`xshatilgan narsa berilgan.

Megaforalar rang-barang ko`rinishlarga ega: ochiq metaforalar, yopiq metaforalar, metaforik sifatlashlar.

*Oq oltinning elini,*
*Bu elning oq gulshsh,*
*Oq gullarning gulchisin...*
*(M.Shayhzoda).*

Shoir bu o`rinda "oq oltinning eli" deganda o`zbek xalqini, "oq gul" deganda paxtani, "oq gulning gulchisi" deganda paxtakorni nazarda tutyapti. Har uchchala misrada ham o`xshagan narsa (o`zbek xalqi, paxta, paxtakor) tushirilib qoldirilib, faqat o`xshatilayotgan narsa berilyapti.

Agar o`xshatilayotgan narsa o`rnida faqat o`xshagan narsa berilsa va o`xshatilayotgan narsaning biror-belgisi o`xshagan narsaga taqalsa-yopiq metafora bo`ladi.

*Bunda orzu qozonadi ot*
*Bunda sevgi yozadi qanot.*
*(Hamid Olimjon).*

Ikki misradagi "sevgi"-o`xshagan varsa, "qush" - o`xshatilgan narsa (buni biz "yozadi qanot" leksik birikmasidan bilib olamiz - qanot yozish-qushlarga xos xususiyat) misrada o`xshatilgan narsa (qush) berilmagan. Demak, "sevgi yozadi qanot" leksik birikmasi yopiq metaforadir.

Ba'zan metaforada predmet sifatlashlar orqali ifodalanishi mumkin. Bu xil metaforalar metaforik sifatlashlar deb yuritiladi.

*Kumush dalalarda boshlangan bayram,*
*Hamon davom etar o`lkamiz bo`ylab.*
*(Uyg`un).*

"Kumush dalalar" leksik birikmasi metaforik sifatlash. Chunki, shoir "dalalar"deganda O`zbekistonni, "kumush" deganda uning go`zalligani (paxtazorlarini) nazarda tutmoqda.

Jonlantirish-metaforaning bir turi-odamlarga xos xususiyatlarni jonsiz predmeglar, tabiat hodisalari, hayvon, qush kabilarga ko`chyrish orqali paydo bo`ladigan tasvir usuli.

Klassik adabiyotimizda jonlaitirishni - ikki ko`rinishi mavjud bo`lgan: tashxis (shaxs bilan bog`liq)-jonsiz narsalarni jonlantirish, intoq (nutq bilan bog`liq)-nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash.

Masalan: Alisher Navoiy "Lisonut-tayr", Muhammadsharif Gulxaniyning "Zarabulmasal" kabi asarlarida jonlantirishning har ikkala ko`rinishi ham keng qo`llanilgan. Xususan, xalq og`zaki ijodida jonlantirish ko`p ishlatilgan. Ertak, masal va dostonlarda qush, ot, oy, quyosh, shamol, yulduz, daraxt va hokazolar xuddi odam kabi so`zlaydi.

O`xshatish-trop (ko`chim-majoz)larning bir turi-narsa, hodisa yoki tushunchalarni ma'lum umumiylik va o`xshashlikka ega bo`lgan boshqa narsa, hodisa yoxud tushuncha bilan qiyoslash.

O`xshatishda narsa va hodisalarni ifodalagan leksik birliklar o`zining asl ma'nosi bilan solishtiriladi. To`la o`xshatishda to`rt element bo`ladi.

a) o`xshatilayotgan predmet-o`xshatiluvchi ob'yekt;

b) o`xshatilayotgan predmet-o`xshovchi obraz;

v) o`xshatilayotgan va o`xshayotgan narsa-hodisaning o`xshashlik belgisi-o`xshatish belgi;

g) -day, -dek, -simon, -ona.-namo, gomuz, -cha, -larcha kabi affikslar; kabi, singari yanglig`, xuddi, go`yo, bamisoli, misli, barobar singari leksik vositalar: sifat, qomat, nusxa, bashara, rang kabi so`zlar-o`xshatish qo`pshmchalari.

Qorday oppoq bu ko`ngilning qo`kragi.

Bu misrada "ko`krak" - o`xshatilayotgan predmet, "qor" – o`xshatilayotgan narsa, "oppoq-o`xshish belgi (sifat) va nihoyat, "day" – o`xshatish qo`ppshchasi.

Sifatlash - badiiy adabiyotda predmet, voqe-hodisa, tushuncha va kishilarning, belgi-xususiyatlarini aniqlovchi, izohlovchi, xarakterlovchi so`zlar.

*Kumush qishdan, zumrad bahordan*
*Qolishmaydi kuzning ziynati.* *(Uyg`un).*

baytidagi "kumush qish", "zumrad bahor" birikmalari-sifatlashdir.

Sifatlashni qo`llash orqali yozuvchi tasvirlanayotgan hodisaning u yoki bu belgisiga kitobxonning diqqatini tortadi, unda emosiya uyg`otadi.

Masalan:

*Zaynabning ham toza, osuda,*
*Dog` ko`rmagan ma'sum qalbida*
*Sevgi yaproq yozib qolibdi*
*Va fikriga g`avg`o solibdi.*
*(Hamid Olimjon)*

Metonimiya - (yunoncha metonymia –qayta nomlash) – majoz kinoya ikki tushuncha o`rtasidagi yaqinlikka asoslangan ko`chim (trop). Biror predmet yoki hodisa nomini tushunchalararo yaqinlik asosida boshqa so`z yoki ibora bilan almashtirish yo`li bilan metonimiya paydo bo`ladi. Masalan: "pul" o`rniga “cho`ntak”, "asar nomi" o`rniga "avtor nomini" qo`llash metonimiya hodisasidir.

Misol:

*Fuzuliyni oldim qo`limga,*
*Majnun bo`lib yig`lab qichqirdi.*
*Va Navoiy tushib yo`limga,*
*Faryod bilan o`rnidan turdi.*

Mubolag`a- (arabcha lof urush, bo`rttirish) tasvirlanayotgan shaxs, predmet va jihatlarini bo`rttirib, kuchaytirib tasvirlash usuli.

Yozuvchi taassurotni kuchaytirish, hayajonni oshirish, obrazni bo`rttirish maqsadida mubolag`a ishlatadi.

Chinorning kattaligini-chinor shoxi bulutlar orasida ko`rindi va mubolag`asi ishlatilgan.

*Yurganda yer titrar, o`kirsa-osmon,*
*Bu safda arslonlar keradi o`lrov.*

Litota - (yunoncha litotes-sodda, kichik, evida) - tasvir ob'yektini ataylab, kichraytirib, zaiflashtirib ko`rsatish usuli. Litota mubolag`aning butunlay aksidir.

Masalan:

*Ul sanamkim, suv yoqosinda paritek o`lturur,*
*G`oyati nozukligindin suv bila yutsa bo`lur.*
*(Atoyi).*
*Bo`yung sarvu sanubartek, beling qil,*
*Vafo qilgon kipshlarga vafo qil.*
*(Xorazmiy).*

Simvol - (yunoncha symvolon - shartli belgi, ramz) tasvir ob'yektining mohiyatini ma'lum bir nuqtai nazardan shartli ifodalovchi ramziy so`z yoki predmet o`roq va bolg`a-ishchi va dehqon do`stligining ramzi, non-tuz-mehmonnavozlik va do`stlik ramzi, kabutar-tinchlik ramzi.

Allegoriya – ko`pincha masal va ertaklarda qo`llaniladi. Tulki - ayyor kishilarga, bo`ri – ochko`zlarga, chayon - yovuz, ilon - makkor, to`ti - gapdon odamlarga nisbatan kinoya qilinadi.

Sinekdoxa - birga atamoq, qo`shib fahmlamoq - metonimiyaning bir turi bo`lib, miqdor jihatidan bir predmet belgilarini boshqasiga ko`chirish usulidir.

*Bir qo`ng`iz mo`ylovli,*
*Baroq soch mal'un*
*Jigar rang bir mundir*
*Isgagi uchun*
*Nahotki yerimiz*
*Chappa aylanib,*
*Nahotki daryolar*
*Oqar teskari*

Bu parchada shoir "qo`ng`iz muylovli", "baroq soch", "jigar rang", mundir" - portretik detallar orqali - fashizmning "yerimiz", "daryolar" tabiat detallari orqali bepoyon va qudratli mamlakat nazarda tutilgan.

Perifraz - (yunoncha peru - trof, phrasis - so`zlayman) - majozlarning bir turi bo`lib, nutqning ifodaviyligini oshirish maqsadida predmet, odam, voqea-hodisalar nomini, ularning ma'nosini, xususiyatlarini ifodalovchi boshqa so`z va ibora bilan almashtirish usuli.

Masalan: "burgut" so`zi o`rniga - "qushlar podshosi", "O`zbekiston" so`zi o`rniga "oq oltin koni", "paxtakor" so`zi o`rniga "oltin qo`llar" so`zlarining qo`llanishi perifrazlardir.

Perifraz narsa va hodisalarning asl nomi bilan yonma-yon ishlatiladi:

*Quyoshday mehribon,*
*Vataning-onang,*

*Zaminday vazminu,*
*Mehnatkash, mushfiq,*
*Isgagan narsangni tayyorlaguvchi*
*Xalq bor-otang bor.* *(G`afur G`ulom)*

## SAVOL VA TOPShIRIQLAR:

1. So`zlarning asl ma'nosi deganda nimani tushunasiz?
2. Ko`chma ma'nodagi so`zlar deganda nimani tushunasiz?
3. Troplar va ularning turlarini sanang?
4. Hozirgi o`zbek adabiyotida badiiy tasvir vositalarshshng qo`llanilishi.
5. Metafora tushunchasi haqida gapiring?
6. Metonimiya nima?
7. Sifatlash nima?
8. Jonlantirish deganda nimani tushunasiz?
9. O`xshatish hodisasi haqida gapiring?
10. Mubolag`a nima?

## FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR:


1. N.Hotamov. Adabiyotshunoslikka kirish. "O`qituvchi" nashriyoti. T., 1984 y.
2. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi darslik. T., "O`qituvchi", 1986 yil.
3. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., 2000.
4. M. Abdullayev. Adabiyotimizning yangilanish davri "O`zAS" 1995
5. T. Boboyev. She'r ilmi ta'limi. –T., 1997.
6. D. Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T., 2004.
7. D. Quronov va boshqalar Adabiyotshunoslik lug'ati. – T., 2013 (qayta nashr)


## *12- MAVZU:* Ijodiy uslub va metodlar. (2 soat).

### *REJA:*

1. Adabiyotshunoslikdagi ijodiy metodlar haqida ma'lumot .
2. Romantizm metodi nima?
3. Realizm metodi. Tanqidiy realizm nima ?
4. Adabiy oqimlar va ularning ko'rinishlari.
5. Ijodiy uslub va uning o'ziga xos jihatlari.

**TAYANCh IBORALAR:** Adabiyotshunoslik. Romantizm. Realizm. Klassisizm.Ijodiy uslub. Ijodiy usul. Metod. Ijodiy metod. Obraz. Shakl.

Individual (o`ziga xos) uslublar yozuvchilarning va muayyan davr adabiyotlarining o`ziga xosligiga bog`liq bo`lganidek, badiiy metod (usul) ham sanatkor yoki san'atkorlar guruhining mushtarak va ayrim belgilariga, g`oyaviy-badiiy saviyalariga, maqsadlariga aloqadardir. Badiiy usul deyilganda yozuvchining voqelikning aks ettirish va baholashdagi asosiy tamoyillari tushuniladi. Uslubdan farqli holda bu tamoyillar sanatkorlarning dunyoqarashi, tutgan yo`li va hayot haqidagi nuqtai nazari bilan uzviy bog`liq bo`ladi.

Sanat va adabiyotdagi ijodiy metodlar aslida inson dunyosini uning ilgari anglamagan xaqiqatlarini ko`rsatish borasidagi izlanish yo`llaridir. Tadqiqotlarda so`z sanatida inson dunyosining badiiy gavdalantirishni ikki yo`li: realizm va romantizm yo`li bor, deyiladi. Bu ham aslida inson tabiati bilan bog`liq hodisa sanaladi. Chunki, odam ham real hayot qo`ynida, ham orzu havaslar dunyosida yashaydi. Inson tabiatida mavjud hayot tarziga qanoat qilishdan ko`ra turmushni o`zgartirish istagi uni, yanada yaxshilash havasi baland turadi. Bu havas ayniqsa kishining bolalik, yoshlik kezlarida kuchli bo`ladi.

Ehtimol shu sababdandir qadim dunyo adabiyoti asarlarining aksariyati romantizmga asoslangan. Yunon dramaturgi Sofokl Evripid asarlari haqida fikr bildirib, mazkur hodisani bunday sharhlagan: "Men odamlarni ular qanday yashashni istagan bo`lsa, shunday shunday tasvir etaman, u esa odamlarni, ular aslida qanday bo`lsalar, shunday tasvir etadi. "Alpomish" dostonidagi Alpomish, Barchin, Qaldirgoch, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod kabi ijobiy obrazlar ham inson aslida qanday bo`lishi lozimligini bildirgan, ya'ni orzulardan yaralgan qahramonlardir. Albatta, mavjud hayot hodisalariga munosabat sifatida real turmush hodisalarini ajratuvchi asarlar ham yozilgan. Ularning aksariyati, asosan, tanqidiy, hajviy ruhda bo`lgan. Real hayotga tanqidiy yondashishi esa uni o`zgartirish orzusida tug`iladi.

Orzu havaslarni akslantirish esa romantizm metodining asosi sanaladi.

Romantizm metodi-hayot haqidagi inson to`g`risidagi orzular ifodasidir. Bu metodda yaratilgan asarlarda xayoliy voqealar, orzulardagi obrazlar asosiy o`rin tutadi. Shoir yozuvchi o`z a'moli (ideali)dagi insonni ko`rsatish uchun qahramonlarshsh real hayotdagidan ko`ra kuchliroq, fidoyiroq, jasurroq qilib gavdalantiradi. "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazi A.Navoiyning chin inson (obrazi) haqidagi orzulari ifodasi sanaladi. Ideal obrazni, ideal hayotni ko`rsatish romantizm metodining bosh xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun bu xildagi asarlarda real hayotning o`zidagidan ko`ra boshqacha voqealar ko`rsatiladi. Fonetik syujetli, mifologiya asoslangan asarlar ham romantizm metodiga mansub sanaladi.

"Romantizm ijodiy metodi juda murakkab hodisa bo`lib, u o`n sakkizinchi asr, o`n to`qkizinchi asr boshida Yevropa, Amerika adabiyotida paydo bo`ldi hamda o`zidan avval adabiyot va estetikada hukmronlik qilgan klassisizmga qarshi kurashda shakllandi va rivoj topdi" deyiladi. Biroq sharq adabiyotida romantizm azal-azaldan ustivor bo`lgani aniq. Yoki qadimgi yunon dramaturglarining mavjud jamiyat hayotini o`zgartirish, adolatli shoh haqidagi orzu istaklarini ifodalagan asarlari ham romantizm metodiga mansub. Adabiyotning dastlabki asosi bo`lgan

xalq og`zaki ijodidagi ertak, dostonlar ham romantizm metodidagi asarlar sirasiga kiradi.

Realizm metodi. Realizm lotincha realis so`z bo`lib, "bor, mavjud narsa, hakiqiy" degan ma'noni bildiradi. Bundan anglashiladiki, realizm dunyoning moddiy jihatlarini qamrab oladigan umumiy tushuncha sanaladi. Realizm ijodiy metodining asosiy xususiyati hayot hodisalarini bor bo`yi bilan ko`rsatish va undagi mavjud nuqson, kamchiliklarni tanqid qilish, deyish unchalik to`g`ri emas. Chunki turmushdagi, kishilar fe'l-atvoridagi qusurlar xususida romantizm yoki klassisizmga oid deyilgan asarlarda ham so`z yuritiladi.

Ijodiy metodlarni muayyan tarixi davr doirasida chegaralash ham o`rinsiz. Chunki tanqidiy realizm namunasi deyilgan Maxmurning "Hapalak", Muqimiyning "Tanobchilar" asarlariga o`xshash tanqidiy, hajviy ruxdagi asarlar qadimda ham yaratilgan. Ular hozir ham yozilmokda.

"Sharq xalqlari adbiyotida realizmning mustaqil badiiy hodisa sifatida rivoji va gullashi, butunicha olganda, XX asrga oiddir, ba'zi adabiyotlarda esa XX asrga oiddir", degan qarash ilgari surib kelindi. Bu xil kurash aslida Yevropa adabiyoti bilan Sharq xalqlari adabiyoti orasidagi tafovutni, ularning har biri o`ziga xos hodisa ekanligini e'tiborga olmasdan kelib chiqqan. Qolaversa, romantizm adabiyoti tarqqiyotining quyi, romaitizm yuqori bosqichi emas. Realizm romantizmnmng inkor etmaydi. Ularning har ikki biri maqsad-hayot qodisalari va inson dunyosining (yillarini) ko`rsatishning o`ziga xos yo`llaridir. Shuning uchun XX asr jahon adabiyotining eng yetuk namoyondalarida realizm va romantizm ijodiy metodi uyg`unlashib ketgan. Masalan, Mixail Bulgakovning "Usta va Margarita", Chingiz Aytmatovning "Asrni qaritgan kun", "Qiyomat", Gabriel Garsia Markesning "Yolg`izlikda yuz yil" kabi romanlarida hayotning real hodisalari bilan rivoyat, afsonalar kabi qahramonlarning xayol, tushdagi voqealar yaxlit olam sifatida gavdalantiriladi.

Romantizm va realizm ijodiy metodiga xos yetakchi xususiyatlarning o`zaro birikib, yaxlit badiiy olamni namoyon etish qadim Sharq adabiyogi namunalari, xususan, Firdavsiyning "Shohnoma", Navoiyning "Hamsa" dostonlarida ham kuzatiladi. Masalan, Shirin mamlakatida tog`li joyda ajoyib saroy, ko`shklar barpo etilgani, kanal qazuvchilarning mashaqqat bilan mehnat qilgani real voqelikka muvofiq keladi.

Klassisizm lotincha classicus so`z bo`lib, "namuna", "ibrat" degan ma'noni anglatadi. Bu metod vakillari o`tmish adabiyot namoyandalari asarlarini o`zlari uchun mezon, ibrat namunasi deb qaraganlar.

Klassisizm o`n yettinchi asr avvalida Fransiyada Lyudovik o`n to`rt zamonasida absolyutizm avj olgan davrda kelib chiqqan adabiy oqim bo`lib, u qadimiyat obidalariga o`xshash yuksak san'at namunalarini ijod etishni talab etadi. Klassisizm vakillari ijodida mamlakat, vatan manfatlarini ko`zlash, kuchli, yorqin, yirik xarakterlarni aks ettirish birinchi o`rinda turadi.

Klassisist yozuvchilar Rim va Gresiya san'atining yuqori bosqichiga ko`tarilgan davrida yaraltan asarlarni, klassik adabiyot asarlarini yuksak namuna sifatida qabul qiladilar. Ular Esxil, Safokl Evrilid tragediyalariga ergashib, qahramonlik ruhidagi poema va tragediyalar ijod etishadi.

Klassisizm nazariyotchilaridan biri fransuz adibi va adabiyotshunosi N.Bualo (1636-1711): "Adabiyot saroy va shahar uchun yaratilishi kerak" deydi. Klassisistlar ta'biricha, adabiyotda hamma narsa anik va qat'iy qoida asosida ko`rsatilishi lozim. Klassisizm estetikasining talablaridan yana biri "uch birlik"dir. Yana dramada gavdalantirilayotgan hodisa bitta yaxlit syujet tarzida gavdalantirilishi ("xarakat birligi"), voqea bir joyda bo`lib o`tishi zarur ("joy birligi" talabi), voqea yigirma to`rt soat ichida yuz berishi ("vaqt birligi") lozim.

Borliqda aynan bir-biriga o`xshash biron bir hodisa mavjud emas. Jumladan, odamlar ham qiyofa-ko`rinishi, fel-atvori, qiziqishlari, hatti-harakatlariga ko`ra bir-biridan farq qiladi. Chunki betakrorlik borliqning bosh xususiyati sanaladi. Kishilarning harakat, faoliyati ham ana shu haqiqatni tasdiqlaydi. Odamlar bo`y-basti, ovozi, qobiliyati, irodasi kabi jihatlariga ko`ra bir-biridan aniq ajralib turadi. Hatto bir ota-onaning farzandi bo`lgan egizaklar ham bir-biriga aynan o`xshamaydi. Yozuvi bir xil kishilarni topishga urinish ham befoyda. Chunki har bir odamning o`ziga xos "xat"i bo`ladi. Ijodkor uslubini ham ma'lum ma'noda ana shunday "xat" deyish mumkin. Yozuvchi, shoirning "xat"i uning asarlari tilida, qahramonlarining so`zlash tarzida, voqealarning tanlab olinishi va bayon etilishida namoyon bo`ladi. Shuning uchun ham F.Dostoyevskiy romanlari bilan L.Tolstoy yoki A.Chexov asarlari bir-biridan farq qiladi. "Qutlug` kon" Oybekning, "O`g`ri" va "Bemor" Abdulla Qahhorning qalamiga mansubligi aniq bilinadi. She'riyatdan xabardor o`qituvchilar Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi she'rlarini bemalol "tanishadi".

Uslub-ijodkor xayolotining namoyon bo`lish tarzi ham sanaladi. Yozuvchi, shoir voqealarni, qahramonlarni, ular yashaydigan manzil manzaralarini qanday tasavvur qilsa, shunday ifoydalaydi. Oybek qahramonlari harakatlanadigan joylarni jamiki ko`rinishlari bilan keng bayon etadi. Personajlar qiyofa, holatini batafsil suratlantiradi. Abdulla Qahhor esa qahramonlari turgan joyni ham, ularning holati, ahvolini ham ixcham, lo`nda, eng muhim jihatlariga e'tiborni qaratgan holda tasvirlaydi.

Demak ijodkorning o`ziga xos uslubi uning hayot hodisalarini tanlashi, uni xayolidagi olam bilan uyg`unlashtirib, badiiy til vositasida akslantirishidir.

## SAVOL VA TOPShIRIQLAR:

1. Adabiyotshunoslikdagi ijodiy metodlar haqida ma'lumot bering.
2. Romantizm metodi nima ?
3. Realizm metodi nima ?
4. A.Navoiy asarlarida romantizm metodini uchratish mumkinmi?
5. Farhod qanday obraz?
6. Ijodiy uslub tushunchasi haqida ma'lumot bering.
7. Ijodkorshshg o`ziga xos uslubi deganda nimani tushunasiz?
8. A.Qodiriy uslubi qanday uchlub
9. Uslub va usul tushunchasini qanday izohlaysiz?

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, "Universitet", 2001 y.

2. E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, 1994 y.
3. M.Boboyev. "She'r ishi ta'limi. Toshkent, 1996 yil.
4. A.Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent, 1998 yil.
5. O`zbek adabiyotida janrlar tipologayasi va uslub rang-barangligi. Toshkent, 1983 yil.
6. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T., 2000.
7. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi, Toshkent-1980 yil.
8. M. Abdullayev. Adabiyotimizning yangilanish davri "O`zAS" 1995
9. D. Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T., 2004.
10. D. Quronov va boshqalar Adabiyotshunoslik lug'ati. – T., 2013 (qayta nashr)


**"ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI" fani bo'yicha**

**SILLABUS**
**(2019/2018- o'quv yili)**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **OTMning nomi va joylashgan manzili:** | Namangan Davlat Universiteti | | Uychi ko'chasi, 316 |
| **Kafedra:** | O'zbek tili va adabiyoti | | Filologiya fakulteti |
| **Ta'lim sohasi va yo'nalishi:** | 120000 – Gumanitar fanlar | 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi | |
| **Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi o'g'risida ma'lumot:** | filologiya fanlari nomzodi, dotsent O.Y.Karimov | **e-mail:** | k_obitjon@mail.ru |

<table>
<tr><td>Dars vaqti va joyi:</td><td colspan="2">11-bino 5-09 auditoriya</td><td>Kursning davomiyligi:</td><td colspan="2">02.09.2017-20.02.2018</td></tr>
<tr><td>Individual grafik asosida ishlash vaqti:</td><td colspan="5">Dushanba va payshanba  kunlari 14.00 dan 18.00 gacha</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Fanga ajratilgan soatlar</td><td colspan="3">Auditoriya soatlari</td><td rowspan="2">Mustaqil ta'lim:</td><td rowspan="2">34</td></tr>
<tr><td>Ma'ruza: 22</td><td>Seminar 16</td><td>Amaliy mashg’ulotlar: 16</td></tr>
<tr><td>Fanning boshqa fanlar bilan bog’liqligi (prerekvizitlari):</td><td colspan="5">“Adabiyotshunoslik nazariyasi” fani adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti tarixi, estetika, milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, san`at sotsiologiyasi, psixologiya, falsafa fanlarida o’rganiladigan muammolarning umumiyligi bilan bir-biriga bog’langan.</td></tr>
</table>

<table>
<tr><td colspan="2">Fanning mazmuni</td></tr>
<tr><td>Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:</td><td>Mazkur fanni o’qitishning asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo’llanma berish, badiiy  matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adabiy tur hamda janrlar bo’yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o’rganish, umuman  adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi. Shu ma`noda quyidagi vazifalar muhimdir:<br>- adabiyotshunoslik metodolgiyasi va metodlari orasidagi bog’lanishni tushuntirish;<br>- adabiyotshunoslik metodlarining tarixi, asoschilari va asosiy ilmiy tamoyillarini o’rgatish;<br>- badiiy asarni sotsiologik metod asosida tahlil yuzaga keladigan ijtimoiy-estetik omillarni tahlil qilish;<br>- vul gar sotsiologizm hodisasini tushuntirish;<br>- adabiyotshunoslik metodlari bilan ijodiy metodning farqini o’rgatish;<br>- adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi bilan adabiyotshunoslik metodologiyasi orasidagi mushtarakliklarni talqin qilish;<br>- germenevtikaning metodologik imkoniyatlarini ochib berish;<br>- jahon adabiyotshunoslari, rus va o’zbek adabiyotshunoslarining ilmiy metodlarini  aniqlashga o’rgatish.<br>- talabada estetik didni, badiiy so’zni his etish ko’nikmasini hosil qilish;<br>- adabiy-badiiy va ilmiy-estetik idrokni tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etishdan iborat.</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| **Talabalar uchun talablar** | - o'qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish;<br>- universitet ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish;<br>- uyali telefonni dars davomida o'chirish;<br>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;<br>- ko'chirmachilik (plagiat) qat'iyan man etiladi;<br>- darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o'zlashtirilishi shart;<br>- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;<br>- talaba o'qituvchidan so'ng, dars xonasiga – mashg'ulotga kiritilmaydi;<br>- talaba reyting ballidan norozi bo'lsa e'lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin |
| **Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi** | Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha |

**Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar:**

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- hozirgi adabiyotimizning madaniy-tarixiy an`analari o'rganish va badiiy matnni tahlil qilish;
- badiiy asarga estetik baho bera olish, ijodiy faoliyat rivojining tarixiy omillarini izchil tatbiq eta bilish;
- adabiy hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganish, pedagog, adabiyotshunos, tanqidchi va ilmiy xodimning kasbiy faoliyatdagi farqlari *haqida tasavvurga ega bo'lishi;*
- badiiy tafakkur va estetik tasavvurning uyg'unligini ta`minlash, hozirgi adabiyotni o'qitish metodikasi va texnologiyasini o'rganish;
- mustaqil va zamonaviy fikrlash, kundalik faoliyatda badiiy-estetik madaniyatni yuksaltirish tarbiyada umuminsoniy va milliy qadriyatlarni *bilishi va ulardan foydalana olishi;*
- kasbiy faoliyatda jahon adabiyoti an'analaridan va metodlardan foydalanish;
- badiiy va ilmiy tafakkurning yuksak darajadagi ko'nikmalarini hosil qilish, badiiy asarlarni o'rganish va tahlil qilish jarayonida ilmiy va pedagogik faoliyatni ta`minlash *ko'nikmalariga ega bo'lishdan iborat*.

**Fanning hajmi :**

| № | *Mashg'ulot turi* | *Ajratilgan soat* | *Semestr* |
|---|---|---|---|
| **1** | Nazariy (ma'ruza) | 22 | 1 |
| **2** | Amaliy mashg'ulot | 16 | 1 |
| **3** | Seminar mashg'ulot | 16 | 1 |
| **5** | Kurs ishi | - | - |
| **6** | Mustaqil ta'lim | 34 | 1 |
| **Jami:** | | **88** | |

**Nazariy mashg'ulotlar mavzulari va ularga ajratilgan soatlar:**

| № | **Mashg'ulotlar mavzulari** | **Ajratilgan soat** |
|---|---|---|
| **1** | Kirish. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot haqidagi fan, fanining ob'yekti, maqsad va vazifalari. | **2** |
| **2** | Adabiyotshunoslikning tarixi, vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyoti. | **2** |
| **3** | Badiiy asar va uning kompozitsiyasi | **2** |
| **4** | Badiiy asar syujeti. | **2** |
| **5** | Adabiy turlar va janrlar. | **2** |
| **6** | Badiiy asar mavzusi va g'oyasi. | **2** |
| **7** | Obraz – insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri. Badiiylik-adabiyotning bosh xususiyati. | **2** |
| **8** | Badiiy asar tili. | **2** |
| **9** | She'r tuzilishi. | **2** |
| **10** | Badiiy tasvir vositalari . | **2** |
| **11** | Uslub va ijodiy metodlar | **2** |
| | **Jami** | **22** |

**Seminar mashg'ulotlar mavzulari va ularga ajratilgan soatlar:**

| № | **Mavzular nomi** | **Ajratilgan soat** |
|---|---|---|
| **1** | Arastuning «Poetika» asari tahlili. | **2** |
| **2** | V. Belinskiyning "Poeziyaning xil va turlaga bolinishi" asari tahlili. | **2** |
| **3** | Jahon adiblari adabiyot haqida kitobifagi maqolalar tahlili. | **2** |
| **4** | Fitratning"Adabiyot qoidalari" kitobi tahlili. | **2** |
| **5** | Cho'lponning "Adabiyot nadur" asarini o'rganish. | **2** |

| | | |
|---|---|---|
| **6** | Tazkiralar – yozuvchi-shoirlarning hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi manba. | **2** |
| **7** | Alisher Navoiy she‘rlarida badiiy san’atlar. | **2** |
| **8** | Mumtoz adabiyot va zamonaviy she’r namunalari asosida she’rning tarkibiy qismlarini (bo’g’in, turoq, radif, misra, qofiya,...) o’rganish | **2** |
| | **J a m i:** | **16** |

**Amaliy mashg’ulotlar mavzulari va ularga ajratilgan soatlar:**

| № | Amaliy mashg’ulotlari mavzusi | Ajratilgan soat |
|---|---|---|
| **1** | Qadimgi davr adabiyotshunosligi haqida. | **2** |
| **2** | Badiiy adabiyotning tarkibiy qismlari. | **2** |
| **3** | Og’zaki va yozma adabiyot namunalari tahlili. | **2** |
| **4** | Badiiy asar matni tahlili (she’r, hikoya matni mis.). Bunda munozarali dars metodidan foydalaniladi. | **2** |
| **5** | Badiiy obraz va uning turlari. | **2** |
| **6** | Eposning o’ziga xos xususiyatlari. | **2** |
| **7** | She’r tuzilishi: ritm, bo’g’in, qofiya, turoq, radif,... | **2** |
| **8** | Ijodkor uslubi haqida | **2** |
| | **Jami:** | **16** |

**Mustaqil ta’lim topshiriqlari bo’yicha tavsiyalar :**

Mustaqil ta’lim mavzusi talabalar mustaqil o’rganadigan amaliy va amaliy mashg’ulotlardan iborat bo’ladi. Mustaqil ta’lim talabalarni nazariy bilimlarini mustahkamlashga mavzularni tushunish qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga, umumiy dunyoqarashlarini kengaytirishga yordam beradi. Mustaqil ta’limga fan bo’yicha 34 soat ajratilgan.

| № | Mustaqil ta’limning mavzulari | soati |
|---|---|---|
| **1.** | Aristotelning «Poetika» asarini o’qib o’rganish. | 2 |
| **2.** | Forobiyning ”She’r san’ati” asarini o’qib o’rganish | 2 |
| **3.** | Boburning ”Muxtasar” asarini o’qib o’rganish | 2 |
| **4.** | Boboyev T. She'r ilmi ta'limi.O’qish va o’rganish | 2 |
| **5.** | D. Quronov va b. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. | 4 |
| **6.** | Fitratning ”Adabiyot qoidalari”, ”Aruz haqida” o’qish va o’rganish. | 4 |

| | | |
|---|---|---|
| **7.** | Belinskiyning ”Tanlangan asarlar”, ”Adabiy orzular” asarlar.o’rganish | 2 |
| **8.** | Alisher Navoiyning ”Majolis un-nafois”asarini o’qish va o’rganish. | 2 |
| **9.** | Alisher Navoiyning ” Mezon ul-avzon”asarini o’qish va o’rganish | 2 |
| **10.** | Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. | 2 |
| **11** | E. Vohidov «Shoiru she'ru shuur». | 2 |
| **12** | Abdulla Oripov. Ehtiyoj farzandi. Adabiy maqolalar. | 2 |
| **13** | N. Dobrolubov va N. Chernishevskiy asarlarini o’qish va o’rganish. | 2 |
| **14** | Adabiy turlar va janrlar. III tomlik. | 2 |
| **15** | Adabiy turlar va janrlar. III tomlik. | 2 |
| | J a m i | 34 |

**Tavsiya etiladigan asosiy darslik va o’quv qo’llanmalar**

| № | Muallif | Adabiyot nomi | Nashr yili | Adabiyotning ARM dagi shifri | Adabiyotning ARM dagi inventar raqami |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Бобоев Тўхта | Адабиётshунос-лик асослари | Toshkent, O’qituvchi,2000. | 74.00 K-18 | 92 173 |
| 2 | Sultonov Izzat | Adabiyot nazariyasi | T.: O’qituvchi 2002 y. | 74.00 S-78 | 92 219 |
| 3 | B.Nazarov tahriri ost. | Adabiy tur va janrlar 3tomli | T., Fan,1991, 1992 | | |
| 4 | Quronov Dilmurod | Adabiyotshun. nazariyasi | T.: Xalq merosi, 2004 | 74.03 M 63 | 83 343 |

**Асосий адабиётлар**


1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: “Ўзбекистон”, 2003.
2. Улуғов А.Адабиётшуносликка кириш. – Т.: “Университет”, 2018.
3. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. - Т.: «Халқ мероси», 2018


**Қўшимча адабиётлар**


1. Арасту. «Поэтика». Ахлоқи кабир-Т.: «Янги аср авлоди», 2004
2. А.Ҳожиаҳмедов. "Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия" Тошкент 1999 .
3. Улуғов А. Асл асарлар сеҳри. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007.
4. Т. Бобоев. "Шеър илми таълими". Тошкент 1980 йил.
5. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: «Шарқ», 2007.

6. Каримов Б. Абдулла Қодирий:танқид, таҳлил ва талқин.”Фан” 2006.
3. Гадамер Г. Актуалности прекрасного.-М.:1991
4. Бахтин. М.М. Эстетика словесного твор-ва.-М.: Искусство,1979.-
5. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари.-Т;2004
6. Норматов У. Устоз ибрати. Алишер Навий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007
7. Олимов М. Рисолаи аруз.-Т; Ёзувчи.2002.
8. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: “Шарқ”, 2004.
9. Теория литератури. Под ред. Тамарченко. – М.: “Асадемия”, 2004.
10. Хализев В.Е.Теория литературы. –М.: “Высшая школа”, 2006.
11. Энциклопедия модернизма. – М.: “Эскамо”, 2002.
12. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Тошкент: “Фан”, 2008.
13. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси.-Т; Шарқ,2004.
14. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати-.Т; Шарқ,1999.
15. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. “Фан” 2006
16. Бахтин. М.М.Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет.-М., 1975.
17. Бахтин. М.М. Литературно-критические статьи.-М.: «Художественная литература», 1986.
18. Бушмин А. Наука о литературе.-М: « Современник », 1980-334с.
19. Поспелов Г.Н. Проблемы исторического развития литературы.-М. :
20. Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. Роди и жанри литературы. М. . , -1964-1965
21. Хализев В. Е. Теория литературы. Учебник.-М.: «Высшая школа»
22. Уеллек Р., Уоррен О. Теория литературы.-М.: «Искусство», 1978.
23.
24. “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi” jurnallari va “O’zbekiston Adabiyoti va san’ati” haftaligi sonlari 1991 – 2016- y.y.

INTERNET ADABIYOTLAR:
25. www.literature.uz
26. www.ziyo-net.uz
27. www. magazine. rus. ru……
28. www. Googie.co.uz…..

**Reyting jadvali:**

**«Adabiyotshunoslik nazariyasi» fanidan nazorat turi bo`yicha ballar taqsimoti**

| T\r | Nazorat turlari | Soni | Ball | Jami ball |
|---|---|---|---|---|
| 1 | **Joriy nazorat** | | | |
| | 1.1.1-2-3-4-5- 6 -amaliy va seminar mashgulotlarini topshirish | 6 | 2,5 | 15 |
| | 1.2. 7-8-9-10-11- amaliy va seminar mashgulotlarini topshirish | 5 | 2,5 | 12,5 |
| | 1.3.12 -13-14-15-16- amaliy va seminar mashgulotlarini topshirish | 5 | 2,5 | 12,5 |
| 2 | **Oraliq nazorat** | | | |
| | 2.1.Test(Kirish,Adabyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyot – ijtimoiy ong shakli, obrazlilik,badiiy asar uzvlari, mavzulari bo`yicha) | 20 | 1 | 20 |
| | 2.3(berilgan mavzu bo`yicha referat tayyorlanadi, referat materiallari adabiyotshunoslikka oid mavzular bo`yicha og`zaki so`rov usulida) | 1 | 10 | 10 |
| 3 | **Yakuniy nazorat** | | | |
| | 3.1.Yozma ish(tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan 5 ta savol variantlar asosida) | 5 | 6 | 30 |
| **Jami** | | | | 100 |

**Talabaning fan bo’yicha o’zlashtirish ko’rsatkichining namunaviy mezonlari**

| Talabaning fanni o’zlashtirish darajasi (bilim, ilm, malaka va ko’nikma darajasi) | ballar |
|---|---|
| - xulosa va qarorlar qabul qilish | 86-100 ball |
| - ijodiy fikrlay olish | |
| - mustaqil mushohada yurita olish | |
| - olgan bilimlarini amalda qo’llay olish | |
| - mohiyatini tushunish | |
| - bilish, aytib berish | |
| - tasavvurga ega bo’lish | |
| - mustaqil mushohada yurita olish | 71-85 ball |
| -olgan bilimlarini amalda qo’llay olish | |

| | |
|---|---|
| -mohiyatini tushunish | |
| -bilish, aytib berish | |
| -tasavvurga ega bo’lish | |
| -mohiyatini tushunish | 55-70 ball |
| -bilish, aytib berish | |
| -tasavvurga ega bo’lish | |
| - aniq tasavvurga ega bo’lmaslikaслик | 0-54 ball |
| - bilmaslik | |

**Har bir joriy nazorat uchun belgilangan maksimal ball quyidagicha taqsimlanadi:**

Maksimall –2,5 ball
Yuqori - 2 –2,5 ball
O’rta - 1,7–1,9 ball
Past - 1,5–1,6 ball

| **Nazorat turi** | **Nazorat shakllari** | **Har bir nazorat uchun belgilangan maksimal ball** | **Nazorat soni** | **Nazorat shakllari bo’yicha belgilangan maksimal ball** |
|---|---|---|---|---|
| Joriy nazorat | Og’zaki va yozma | 2,5 | 16 | 40 |
| Jami: | | 40 | 2 | 40 |
| Oraliq nazorat | Test | 20 | 1 | 20 |
| | Mustaqil ta’lim | 10 | 2 | 10 |
| Jami: | | 20 | 1 | 30 |
| Yakuniy nazorat | Yozma ish | 30 | 1 | 30 |
| **Jami:** | | **100** | **5** | **100** |

*Mustaqil ta’lim uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:*

(Bu topshriqlarni bajarish jarayonida talaba har bir mavzuni mustaqil o’qib chiqadi va konspektlashtiradi.)

1. Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi sifatida mavzusini o’qish va konspektlashtirish.
2. San’at turlari: farqlanishdagi tamoyillar. O’qish va konspektlashtirish.
3. Aristotel va uning “Poetika” asarini o’qish va konspektlashtirish.
4. Badiiylik mezonlari.

5. Badiiy obraz va obrazlilik.
6. Obraz, xarakter, tip: asoslari, umumiylik va o'ziga xosliklar.
7. Badiiy adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik masalasi.
8. Ijtimoiy g'oya va badiiy g'oya o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar.
9. Badiiy asar tili, xalq tili va adabiy til o'rtasidagi mushtarakliklar.
10. Adabiy turlar: vujudga kelishi, tarixiy omillari. Jahon adabiyotida mavjud zamonaviy oqimlar.
11. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy induviduallik masalasi. Aruz vazni, barmoq vazni: nazariy adabiyotlar.
12. She'riy nutqda: bo'g'in, urg'u, zarb tushunchalari.
13. Adabiy jarayonda ijod va ijodkor muammosi.
14. Badiiy ijod psixologiyasi.
15. Badiiy asarda makon a zamon.
16. Struktural poetika.
17. Adabiyotda an'ana va novatorlik.
18. Ijodiy metod va adabiy oqim tushunchalari o'rtasidagi mushtaraklik.
19. Realizmning turli xalqlar adabiyotlaridagi talqinlari.
20. She'riyatda badiiy obraz muammosi.
21. Metafora va metaforik obraz muammosi (Hozirgi she'riyatimiz as.)

Yoki qo'shimcha:

1. Obrazlilik va obraz ("O'tgan kunlar" romani asosida)
2. Badiiy asar syujeti ("Yulduzli tunlar" romani misolida)
3. Badiiy asar kompozitsiyasi ("Qiyomat" romani, "Hamlet" tragediyasi mis.)
4. Badiiy asar tili. ("Mehrobdan chayon" romani, "Temir xotin" pesasi)
5. Adabiy turlar va janrlar. Lirika va epos.
6. Adabiy turlar va janrlar. Drama va liro-epik tur.
7. Badiiy asar tahlili. (Abdulla Qahhor hikoyalari asosida).
8. "Kecha va kunduz" romani bo'yicha.
9. "Abulfayzxon" tragediyasi bo'yicha tahlil.

## « *ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI*»

## FANIDAN IXCHAM LUG'AT – *G L O S S A R I Y*

**Adabiyot –** (arab.adab-go'zal xulq) – keng ma'noda inson tafakkurining mahsuli o'laroq dunyoga kelgan, o'qish uchun mo'ljallab yozilgan asarlar jami. Tor ma'noda so'z sanáti, badiiy adabiyot. Adabiyot deb atash XX asrdan boshlandi. G'arbda badiiy adabiyotni "*poeziya*" deb atalgan.

**Adabiyotshunoslik** — badiiy adabiyot va uning mazmun mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy vazifalari, ijodiy jarayon qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. Adabiyotshunoslik bir-biri bilan

chambarchas bog‘langan — adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid bo‘limlaridan tashkil topgan. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asaridagi xalq og‘zaki ijodi namunalari haqidagi muayyan fikrlar, ilmiy-tekstologik qaydlar adabiyotshunoslikka mansub ilk qarashlar sanaladi. Adabiyotshunoslik ilmiga oid kuzatuvlar hisoblanmish Abu Nasr Forobiyning «She’r san’ati» (X asr), Abdulqodir Jurjoniyning «Asror ul-balog‘a fi ilmi bayon (Bayon ilmida balog‘at sirlari)» (XI asr), Qays Roziyning «Kitob ul mo‘jam fi maiori ul-ajam (Ajam she’riyati me’yorlari qomusi)» (XIII asr) asarlarida badiiy asar tabiati, tili, muallif mahorati kabi masalalar yoritiladi. Adabiyotshunoslik tarixida Zamaxshariy (1075-1144), XII asrda yashagan shoir va adabiyotshunos Nizomiy Aruziy ibn Umar Samarqandiy, XIV asr ijodkorlari Atoulloh Husayniy, Xondamir, Vosifiy asarlari muhim o‘rin egallaydi. Milliy adabiyotshunoslik taraqqiyotida Shayx Ahmad ibn Hudoydod Taroziyning «Funun ul-balog‘a», buyuk so‘z ustasi Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Xamsat ul-mutahayyirin» singari asarlarida badiiylik san’ati, ijodkor va badiiy ijod, so‘z oldida mas’ullik, aruz she’riy tizimining nazariy va amaliy masalalari qalamga olinadi. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning «Muxtasar», Zokirjon Xolmuxammad o‘g‘li Furqatning «Aruz haqida risola» asarlari ham o‘zbek adabiyotshunosligidagi muhim manbalardir. O’tmishda adabiyotshunosligida she’rshunoslik katta nufuzga ega bo‘lgan, bu soha asosan uch yo‘nalish (ilmi aruz, ilmi bade’ va ilmi qofiya)dan tarkib topgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi matbaachilik taraqqiyoti o‘zbek adabiyotshunosligi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhamedov, Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy va Vadud Mahmud kabi mualliflarning turli janrga mansub tadqiqotlarida adabiyot va uning ijtimoiy funksiyasi masalasiga urg‘u berildi. Ijtimoiy ongning barcha sohalarida bo‘lganidek, XX asr, aniqrog‘i, sho‘rolar hukmronligi davridagi mafkuraviy zug‘um va ijtimoiy biqiqlik adabiyotshunoslik fanida ham o‘z ifodasini topdi. Mumtoz adabiyotga munosabat, davr adabiyoti namunalari talqini, adabiy jarayonni baholash kabi masalalarda sinfiy va partiyaviy tamoyillar yetakchilik qildi. Shunga qaramay, XX asrda adabiyotshunoslik ilmi mustaqil fan sifatida shakllandi, uning uchala bo‘limi — adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid sohalarida jiddiy yutuqlarga erishildi: turli mualliflar tomonidan monografiya, darslik, qo‘llanma va risolalar yaratildi.

Zamonaviy adabiyotshunoslik fani shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa’diy, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Oybek, Izzat Sulton, Natan Mallaev, G‘ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov, Salohiddin Mamajonov, Nuriddin Shukurov, Ummat To‘ychiev, Umarali Normatov, Anvar Hojiahmedov, Naim Karimov, Begali Qosimov, Baxtiyor Nazarov, No’mon Rahimjonov, Bahodir Sarimsoqov, Najmiddin Komilov, Dilmurod Quronov singari olimlarning tarixiy, nazariy va amaliy xarakterdagi asarlari e’tirofga loyiqdir.

**Adabiyot nazariyasi** – adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. U badiiy adabiyotning mohiyati, rivojlanish omillari, jamiyat hayotidagi o’rni va

vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi, badiiy til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi masalalarni umumiy tarzda o'rganadi, umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. A.n.badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod xususiyatlari, badiiy asarni o'rganadi. A.n. badiiy asarlarni tahlil qilish,baholash, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi. U adabiyotshunoslikning yadrosini tashkil etadi.

**Adabiyot tarixi –** adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. A.t.ning predmeti o'tmish adabiyotidir. A.t.o'tmishdagi adabiy hodisalarni, yaratilgan asarlarning g'oyaviy xususiyatlarini belgilagan, badiiy tafakkur rivoji, poetik usul va vositalarning o'zgarishiga asos bo'lgan omillarni ochib beradi.

**Adabiy an'ana –** o'tmish adabiyoti to'plagan ijodiy tajribalar qaymog'i,davrlar o'tishi bilan dolzarbligini yo'qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o'tib kelayoygan qismi.

**Adabiy yo'nalish –** adabiy jarayon bilan bog'liq kategoriya. U hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari, metod va uslub tushunchalari bilan bevosita bog'liq, u badiiy tafakkur tarzi, metod va uslub kesishgan nuqtada yuzaga keladi. A.y.adabiy jarayonning, badiiy tafakkur taraqqiyotining ma'lum bir bosqichini nazariy jihatdan umumlashtirish orqali uning mohiyatini anglash imkonini beradi.

**Adabiy tur –** adabiy asarlarning nutqiy tashkillanishi, tasvir predmeti,ob'ekt va sub'ekt munosabati kabi jihatlari bilan umumiylik kasb etuvchi yirik guruhi. An'anaviy ravishda badiiy asarlar uch katta guruhga:epik,lirik va dramatik turlarga ajratiladi. Antik davr yunon faylasufi Aflotun "*Davlat*" asarida shoir o'z tilidan (*lirika)*, o'zgalarning gaplarini muloqot sifatida tasvirlab*(drama)*yoki ikkisini qorishiq *(epos)* qo'llagan holda taqlid qilishi mumkinligini aytadi.

**Atributsiya** (lot.attribution – nisbat bermoq) **–** matnshunoslik sohasi oldida turuvchi asosiy ilmiy muammolardan biri, adabiy asarning muallifi, yozilgan vaqti, joyini aniqlash, *evristika*. Bu muammoturli manbalardan hujjatli dalillar topish; muallifi noma'lum asarning til va uslub xususiyatlarini nisbat berilayotgan ijodkor qalamiga mansub asar bilan qiyosiy o'rganish, asarning yozuvi, kitobat qilinishini tadqiq etish kabi yo'llar bilan hal qilinadi.

**Absurd**(lotincha- mantiqsiz, tuturiqsiz gap, bema'ni) - XIX asr oxiri XX asr boshlarida g'arb adabiyotida, xususan fransuz adabiyotida yetakchilik qilgan modernizm(avangardizm) oqimining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri. Bu oqimning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Alber Kamyu, J. Sart hisoblanadi. U ekzistentsializmning o'zagi hisoblanadi. Asarda qaharamonlarning hayotdan ko'ngli qolishi, chorasiz holatini tasvirlovchi, barcha g'oyalarning inqirozini targ'ib qiluvchi oqim.

**Adabiy tanqid** — (arabcha — naqd) adabiyotshunoslikning mustaqil bir sohasi bo'lib, u adabiy jarayonni, shu jarayonda yaratilayotgan asarlarning badiiy-estetik qimmatini, adabiyot maydonidagi o'rnini, muvaffaqiyat va cheklanishlarini, adabiy jarayonning yo'nalishini aniqlab, baxolab boradi. Adabiy tanqidchilik o'z vazifasiga ko'ra juda mas'uliyatli faoliyat bo'lib, tanqidchidan adabiyot nazariyasi, adabiy jarayonning buguni, tarixi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy xayotni chuqur bilishni talab qiladi. Garchi o'zbek adabiy tanqidchiligiga doir ilk

tushunchalar tarixi yozma adabiyotning paydo bo‘lishi davriga mansub bo‘lsa xam, professional adabiy tanqidning fan sifatida shakllanishi XX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

**Avangardizm**(fransuzcha)- ilg‘or otryad so‘zidan olingan. U XX asrdagi san’at va adabiyotida realistik an’anadan voz kechgan, shu paytgacha o‘rnatilgan estetik tamoyillarni qayta ko‘rib chiqadigan, asar shaklini uning mazmunidan ustun qo‘yadigan oqim. Lui Aragon, Vladimir Mayakovskiy, Brext kabilar dastlab shu oqimda ijod qilishgan.

**Avtologik nutq (** grek. *autos* – men, o‘zim va *logos* – nutq**) –** trop bo‘lmaydigan nutq ko‘rinishi.

**Avtonim ( grek**. *autos* – o‘zi, haqiqiy va *onyma* – ism) – taxallus bilan ijod qiluvchi ijodkorlarhga nisbatan ishlatiladi, muallifning haqiqiy ismi.

**Akmeizm(yunoncha)-** oliy daraja, cho‘qqi, gullayotgan kuch. XX asr boshlarida rus she’riyatida paydo bo‘lgan oqim. Uning namoyondalari N.S.Gumilyov, A. A. Axmatova, O.E.Mandelshtam, S.M. Gorodetsskiy kabilardir. Akmeizm she’riyatni insonga qaytarish, uning tom ma’nodagi hissiyotlarini, tabiiy tuyg‘ularini kuylab, ramziylikka qarshi bo‘lishgan. Amalda akmeizm reallikdan uzoq bo‘lgan.

**Antigumanizm**(anti-yunoncha- aksi, qarshi; gumanizm-lotincha- insoniy) – o‘z “asar”larida umuminsoniy qadriyatlarni tan olmaydigan, erga uruvchi soxta “ijodkor”larning qarashlari to‘plami.

**Antimetafizik**- dialektik qoidalarga zid, mavhum.

**Badiiy asar –** adabiyot va san’atning voqe bo’lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot vositasi. Keng ma’noda B.a.san’atning u yoki bu turiga mansub bo’lgan, insonning go’zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsuli sifatida yaralgan yangi mavjudlikni anglatadi.Termin faol qo’llanuvchi tor ma’nosida badiiy adabiyotga mansub bo’lgan “*adabiy badiiy asar*”ni bildiradi.

**Badiiy obraz –** adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. B.o. deganda borliq (undagi inson, narsa,hodisa va h.)ning san’atkor ko’zi bilan ko’rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi anglanadi. B.o.*individuallashtirilgan umumlashma* sifatida namoyon bo’ladi. Voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan uning o’zigagina xos xususiyatlar mujassamdir. B.o.ning muhim xususiyatlardan yana biri uning ko’p ma’noliligi bo’lib, bu uning *metaforikligi va assotsiativligi* bilan belgilanadi. B.o.ga xos “*metaforiklik*”ni “*o’xshashlik*” bilangina bog’lab qoýmaslik lozim.

**Badiiy til –** badiiy asar tili, so’z san’atining asosiy quroli, badiiy adabiyotning obraz yaratish vositasi; *poetik til, badiiy adabiyot tili* kabi shakllarda ham ishlatiladi. Badiiy adabiyot birlamchi belgilar sistemasi sanaluvchi til vositasida ikkilamchi belgilar sistemasini – badiiy voqelikni tashkil qiluvchi obrazlar tizimini yaratadi.

**Badiiylik –** ijodiy-ruhiy faoliyat mahsuli o’laroq dunyoga kelgan asarning san’atga mansubligini belgilovchi xususiyatlar majmui. Obrazlilik B.ning birinchi sharti sanalib, u voqelikni badiiy obrazlar orqali idrok etish, badiiy obrazlar vositasida fikrlash demakdir. Obrazlilik san’atning o’zak xususiyati bo’lib, u yo’q joyda B.ham yo’q. u tarixiy kategoriya sanaladi.

**Badiiy shakl va mazmun –** voqelikdagi har qanday narsa o’zining tashqi ko’rinishi va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyatiga ega. Shakl va mazmun kategoriyalari umumfalsafiy xarakterda bo’lib, ular voqelikni idrok qilishda muhim ilmiy hodisadir. Shakl narsaning biz ko’rib turgan, his qilayotgan tomoni va u bizga o’sha narsaning nimaligini – mazmun-mohiyatini anglatadi. Mazmun muayyan shakldagina yashaydi, shaklsiz mazmun bo’lmaganidek, mazmunsiz shakl ham mavjud emas.

**Bayoz** (ar.oq,oqqa koçhirilgan nusxa) – XIX asrdan boshlab keng tarqalgan she’riy to’plam bo’lib, an’anaviy devonlardan farqli qator jihatlarga ega. *Devon* bir shoir qalamiga mansub she’rlardan tuzilsa, B.bir muallif she’rlaridan ham, bir necha shoir asarlaridan ham tuzilishi mumkin. Yana bir farqi – B.dadevondagi kabi she’rlarni joylashtirishning qat’iy tartibi belgilanmaydi.

